

Majolis un-Nafois (I- qism)

Alisher Navoiy

MUQADDIMA

Bismillohir-Rahmonir-Rahim



Yuz hamd angakim yasab jahon bo'stoni,
Aylab yuzu zulfidin gulu rayhoni.
Qildi yasag'och bu bog'i ruhafzoni
Nazm ahlin aning bulbuli hush ilhoni.



Va durudi noma'dud ul xulosai ma'dum va mavjudg'akim⁽¹⁾:

*To taxti fasohat avjida topti nishast,
Ham nazmki etti zumrai tab'parast,
Ham nozimining poyasiga berdi shikast,
Ham nazmini qildi qaro tufroqqa past.*

Xurdabinlar xizmatida va xiradoyinlar hazratida ma'ruz ulkim, nazm kalomi rutbasi rif'atig'a ushbu dalil basdurkim, aning muqobilasidakim, arab fusahosi balog'at zevarlari bila namoyishliq va fasohat gavharlari bila oroyishliq nazm ra'nolarig'a jilva berurlar erdi va da'vo ko'si ovozasii falakka yetkururlar erdi. Hazrati maliki allomning⁽²⁾ kalomi mu'jiz nizomi⁽³⁾Jabraili⁽⁴⁾ hujasta farjom vositasi bila xayr-ul-anom alayhissalavotu vassallamg'a⁽⁵⁾ nozil bo'ldi. Bas nazm ilmi qoyillari va she'r fani komillarikim, daqoyiq durri pokining bahri ummoni va maoniy la'li otashnokining koni bo'la olg'anlar, bas sharif xayl va aziz qavm bo'lg'aylar, bu jihatdindurkim, alarning nomin otlari va kiromiy sifotlari zamon sahoyifidin va davron safoyihidin mahv bo'lmasun deb tasnif ahli ta'liflarida va ta'lif xayli tasniflarida fusuli orosta va abvobi piyrosta qilibdurlar va o'z kitobatlarig'a bu jamoat zikridin zeb beribdurlar. Ul jumladin biri hazrati mahdumi, shayx ul-islomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy⁽⁶⁾ (madda zilli va irshodahu)⁽⁷⁾ dur.

*Ulkim bu to'quz falakni aql etsa xayol,
Daryoi ulumig'a topar qatra misol,
To chashmai tab'i dahr aro ochti zulol,
Hayvon suyi yanglig' ayladi molomol.*

Mundoq buzurgvor oliy miqdor «Bahoriston»⁽⁸⁾ otlig' kitobidakim, sekkiz ravza ochibdur va sekkiz ravzai jannat alar xijolatndin el ko'zidin ixtifo pardasig'a qochibdur va oni Sultoni Sohibqiron⁽⁹⁾ oti zevari bila muzayyal va alqobi gavhari bila mukallal qilibdur, bir ravzasini bu mavzun navoliq balobil va matbu' sadolig' anodil gul bongidin rashki nigorxonai Chin⁽¹⁰⁾va g'ayrati firdavsi barin qilibdur va Amir Davlatshohkim⁽¹¹⁾, Xuroson mulkining asil mirzodalari

orasida fazl va donish zevari bila bahramand, faqr va qanoat toji bila sarbalanddur, ham Sul-tonn Sohibqiron otig'a «Tazkirat ush-shuaro»⁽¹²⁾ otlig' kitob bitibdur, voqean base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam' qilibdur. Bu bobda yana dag'i rasoil va kutub bor. Ammo barchasidan burun o'tgan shuaro va erta kechgan fusohoning oti mazkur va sifoti masturdur va bu xujasta zamon va farxunda davron shuaro va xushta'blarikim, Sul-ton Sohibqiron yumni davlatidin va natijai tarbiyatidnn she'ning ko'prak uslubida, bataxisis g'azal tavrida barchadin dilosoroq va nishot afzoroqdur, tarkibi salosat va latofatin burung'ilarga yetkuradurlar va ma'ni nazokat va g'arobatin ulcha sharti bor, bajo kelturadurlar, otlari ul jamoat zumrasida bo'lmoqdin mahrum va so'zlari ul tartib va qoidada noma'lum uchun shikasta xotirg'a va sinuq kungulg'a andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuaro-si bila bu davr zurofasi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung'i shuaro akobiri zaylida mazkur bo'lg'aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig'a qo'shulg'aylar. Bu jihatdin Sul-ton Sohibqironning humoyun valodatlar⁽¹³⁾ zamonidin ro'zafzun davlatlari davronig'achakim, qiyomatg'acha barqaror va olam inqirozig'acha poydor bo'lg'ay, ulcha faqir eshitibmen, ammo xizmatlarig'a yetmaymen va ulcha xizmatlarig'a yetibmen, ammo holo bu fano dor ul-g'ururidin baqo dor us-sururig'a intiqol qilibdurlar⁽¹⁴⁾ va ulcha holo bu farrux zamonda namoyandadurlar⁽¹⁵⁾ va ul hazrat zoti malakiy sifotig'a madh saroyandadurlar, jam' qi-lilg'ay va har qaysining natoyiji tab'idin biror nima nishona no'sunluq yozilg'ay. Chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi va har qismi nafis bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmu'ig'a «Majolis un-nafois»⁽¹⁶⁾ ot qo'yuldi.

*Bu tuhfaki, xushmen ibtidosi birla,
Ham nazm latoyifi adosi birla,
Ummid bukim, umr vafosi birla,
Xatm aylagamen shoh duosi birla.*

AVVALGI MAJLIS

Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'lmadim

Ul jumladin, soliki atvor va koshifi asror, ya'ni: Hazrati Amir Qosim Anvor⁽¹⁾ (quddisa sirruhu⁽²⁾)dur. Har necha alarning rutbasi shoirlig' poyasidin yuqoriroqdur va valoyat ahli⁽³⁾ zumrasida vasfdin tosh-qariroq, ammo chun haqoyiq va maorif adosida⁽⁴⁾ nazm libosi dilpazirroq uchun iltifot qilur ekandurlar, tayammun jihatidan bu muxtasarni alarnng sharif ismlari bila ibtido qilildi.

Mirning asli Ozarbayjondindur va mavludi Sarob otlig' kentdindur. Yigitliklarida shayx Sadridin Ardabiliy⁽⁵⁾ (quddisa sirruhu)g'a murid bo'ldilar va sufiya odob va tariyqin andin takmil qilib shayx ishorati bila Xurosong'a keldilar va oz vaqtda xaloyiq Mir xizmatig'a firifta bo'lub g'avg'o qila boshladilar. Podshohi zamon Mirga ixroj hukmi qildi. Balx va Samarqand

sari borib, muddate bo‘lub, yana dor us-saltanat azimati qildilar, yana Chig‘atoy mirzodalari, balki ulus ozadalaridir murid bo‘lnb, hujum qila boshladilar. Ravishlari pok erdi va nafaslarini otashnok. El bag‘oyat alar nazmlarig‘a moyil va she‘rlarin o‘qumoq va bitimakka rog‘ib bo‘ldilar. Har oyinakim, devon jam‘ qilurg‘a bu amr bois bo‘ldi va «Anis ul-oshiqin»⁽⁶⁾ otlig‘ muxtasarroq masnaviy ham nazm qildilar va tarje‘⁽⁷⁾ dag‘i dedilar va tabarruk jihatdan ikki matla‘ bitilur, biri bukim:

*Ishqi tu ki sarmoyai mulki du jahon ast,
Alminnatu lillahki, maro bar dilu jon ast⁽⁸⁾.*

Yana biri bukim:

*Rindemu oshiqemu jahonso‘zu joma chok,
Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok⁽⁹⁾.*

Bu faqir avval nazmekim, o‘rganibmen, bu so‘nggi matla‘dur. Hamono uch yosh bila to‘rt yoshning orasida erdim, azizlar o‘qumoq taklifi qilib, ba‘zi hayrat izhor qilurlar erdi va masnaviyolari hazrati mavlono Jaloliddin Rumi⁽¹⁰⁾ (quddisa sirruhu) masnaviyalarining vaznidakim «ramali musaddas» derlar voqe‘ bo‘lubtur, bu misra‘kim:

Bud dar Tabriz sayyidzodaye⁽¹¹⁾.

andindur, go‘yoki maqsad o‘zlaridur va tarje‘larining bandi bu baytdurkim:

*Tui asli hama pinhonu paydo,
Ba af‘olu sifotu zotu asmo⁽¹²⁾.*

Va ul hazratning mubbrak marqadi Jom viloyatida Xarjurd qasabasidadur. Va faqir ham ul ostona joro‘bkashlaridinden⁽¹³⁾. Vafotlari sanai xamsa va salosina va samona miada⁽¹⁴⁾ voqe‘ bo‘lubdur.

Mir Maxdum — Hazrati Mir Qosimg‘a⁽¹⁵⁾ xalifa va farzand va mahbub masobasida erdi, otasi Makkadin Imom Ali Muso ar-Rizo⁽¹⁶⁾ ziyoratig‘a Mashhadg‘a keldi, Qaytib Nishopurg‘a yetganda kadxudo bo‘lub mutavattin bo‘ldi. Va anga uch farzand tangri inoyat qildi, kichikragi Mir Maxdum erdikim, oti Sayid Muhammaddur, shahrga tahsilg‘a keldi va zohir ulumin takmil qilg‘on chog‘da hazrati Mir Qosimning zuhur va shuhrati vaqti erdi, ul hazrat xizmatig‘a yetgach murid va vobasta bo‘ldi va hazrat Mir aning tarbiyat va takmilig‘a mashg‘ul bo‘ldilar va azim riyozatlar buyurub qattiq xizmatlarga ruju‘ qildilar. Chun Mir Maxdum poktiynat va sohibdavlal yigit erdi, ul xizmatlarni andoq qildikim: «Man xadima xudima»⁽¹⁷⁾ mazmuni bila hazrat Mir Qosim anga Mir Maxdum ot qo‘ydilar va doim hazrati Mir Qosim ani aziz va mukarram tutar erdilar. Bu matla‘ aningdurkim:

*Mutrib, bizan taronavu soqiy biyor jom
Xunash halol onki biguftast: «may harom»⁽¹⁸⁾.*

Va mazori Nishopur viloyatida Mehroboddadur.

Hofizi Sa'd — Mir Qosim muridlaridandur Chun loubolivash va sho'xtab'roq kishi erdi. Xiriy shahrining lavand va ichkuchi yigitlari anga musohib bo'lur erdilar. Bu jihatdin alardin nohamvor maoshva beandom atvor zohir bo'lur erdi. Hazrati Mirg'ama'lum bo'lg'och, oni o'z suhbatidin mahrum qilib xonaqoxdin ixroj qildilar va buyurdilarkim, hujrasini buzub tufrog'in toshqari tashlasinlar. Ul mahalda Hofizi Sa'd bu g'azalni ayttikim, bu matla' ul g'azaldindur:

*Maro dar olami rindi ba rasvoi alam kardi,
Dilam burdiyu jonamro nadimi sad nadam kardi⁽¹⁹⁾.*

Va andin so'ngra Hofiz mardud bo'lub, mulozamat davlatiga musharraf bo'la olmadi. Va Hofiz hamul hirmonda olamdin o'tti.

Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy (quddisa sirruhu) kibori avliyodindur. Xorazm xalqi g'oyat malakiy sifatlig'idin Xojani «er farishtasi» derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannofoti bor va mashhurdurkim, ulumi g'ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir, bo'lmas erdi, balki g'oyati tavajjuh va istig'roqdin parvo ham qilmas erdi. Advor va musiqiy ilmida dag'i mahorati bor erdikim, risolasidan ma'lum bo'lur. Xoja avsofini har kishi bitir bo'lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma'lum emaskim, bir kitobda ham siqq'aymu yo yo'q. Bir ruboiysi bila ixtisor qiloli.

*Bad kardamu e'tizor badtar zi gunoh,
Zero ki dar in hast se da'vii taboh,
Da'vii vujudu da'vii quvvatu havl,
Lohavla valo quvvata illo billoh⁽²¹⁾.*

Xoja ham Xorazmda olamdin o'tti va muborak marqadi ham Xorazmdadur.

Mavlono Husayn Xorazmiy — Xoja Abulvafo (quddisa sirruhu)ning zohir ilmida shogirdi erdi va botin ilmida murididur. Mavlono o'z zamonining mashohiridindur va «Maqsadi aqso»⁽²²⁾ aning tasnifidur. Va Mavlono Jaloliddin Rumiy (quddisa sirruhu) masnaviysig'a sharh bitibdur va «Qasidai burda»⁽²³⁾ g'a ham xorazmiycha turkiy til bilan sharh bitibdur. O'zga musannafoti ham bor. Ammo axloq va sifoti botin ilmida yorug'lik topqonning munofisidur. Va Mavlono Shohrux⁽²⁴⁾ mirzo zamonida bir g'azal uchun takfir qilib, Xorazmdin Hiriyg'a kelturdilar. Chun donishmand va istiloh bilur kishi erdi hech nima sobit qila olmadilar. Qaytib yana o'z mulkiga ketti. Va ul g'azalning matlai budurkim:

*Ey dar hamin olam pinhon tuvuvu paydo tu.
Ham dardi dili oshiq, ham asli mudovo tu⁽²⁵⁾.*

Mavlononi Tanso'fi bulog'ida (Xorazmda) o'zbek shahid qildi va qabri Xoja Abulvafo (quddisa sirruhu) qabrining oyog'i saridur.

Shayx Ozariy — Isfaroyinda zuhur qildi va she'ri shuhrat tutti va kuhulat sinnida mayli suluk sari tushti. Haji muborak safarig'a borib, sayr rasmi bila Hnnd sari mutavajjih bo'ldi. Anda ko'p akobir va mashoyix xizmatig'a musharraf bo'lub ul mulk salotini anga murid va mu'taqid bo'ldilar va debturlarkim, Gulbarga podshohi Shayxqa bir lak yarmoq taklif qildi, ammo o'z rasmlari birla bosh yerga qo'ymoq, taklifi ham ko'rguzdi. Shayx ul vajhqa bosh endurmadi va bu baytni ayttikim:

*Mani turk, hindu jifai jaypol guftaam,
Bodi buruti juna ba yak jav namexaram⁽²⁶⁾.*

Va Hinddin qaytg'andin so'ngra Isfaroyinda go'sha ixtiyor qilib toatqa mashg'ul bo'ldi va ba'zi kutub, misli «Ajoyib ud-dunyo» va «Javohir ul-asror»⁽²⁷⁾ Shayxningdur. O'zga musannafoti ham bordur. Va devoni ham mashhurdir. Va bu matla' aningdurkim:

*Boz shab shud chashmi man maydoni gir'ya ob zad,
Sayli ashk omad shabixun bar sipohi xob zad⁽²⁸⁾.*

Va shayxning qabri ham Isfaroyinda o'z maskanida — o'qdurur va Hoji Avhad Mustavfiykim, fazoyili sharhdin mustag'niydur, Shayxning vafoti ta'rixin⁽²⁹⁾ lafzi topibdur. Bu faqir Mavlonon To'ti Turshiziy favtig'a lafzi tarix topib erdim, ma'lum bo'lurkim bir tarixda o'tubdurlar.

Mavlonon Kotibiy⁽³⁰⁾ — o'z zamonining benaziri erdi. Har nav' she'rg'aki, mayl ko'rguzdi, anga maoniyi g'ariba ko'p yuzlandi, bataxis, qasoidda balki ixtiro'lar ham qildi va ko'p yaxshi keldi. Va masnaviyarlari ham misli «Tajnisot» va «Zul-bahrayn» va «Zul-qofiyatayn»⁽³¹⁾ va «Husn va ishq» va «Nosir va Mansur» va «Bahrom va Gulandom» bor. Ammo g'azaliyot va qasoid devoni mashhurroq va yaxshiroq voqe' bo'lubdur. Oxiri umrida «Xamsa»g'a tatabbu' bunyod qildi va anda da'volar zohir qilibdur. Go'yo bu sababdin itmomig'a taviq topmadi. Bu faqirning xayolig'a andoq kelurkim, Mavlonon Kotibiyda she'r saliqasi oncha bor ekandurkim, bizning Sulton Sohibqirondek suxandon podshoh anga murabbiy bo'lsa erdi va umri dag'i biror nima vafo qilsa erdi ko'p elning ko'nglin she'r aytmog'din sovutqay erdi. Ammo tole'i za'fidin bu mazkur bo'lg'on ikki davlatqa musharraf bo'lmadi. Har taqdir bila insof uldurkim, aning asridin bu kungacha anga g'olibi mahz she'rning-barcha uslubida kishi yo'qtur. Aning yaxshi so'zi ko'pdur. Ammo g'azaliyotida bu matlai yaxshi voqe' bo'lubdurkim:

*Zi chashmu dil badani xokiyam dar otashu ob ast,
Ba chashm binu ba dil rahm kunki, kor xarob ast⁽³²⁾*

Va qasoidida ham bu matla' xub voqe' bo'lubturkim:

*Ey rost ravii qazo, ba kamoni tu chun xadang
Bar tarkashi tu charxi murassa' dumi palang⁽³³⁾.*

Va masnaviysida kecha borib kunduz kelur ta'rifida ham bu bir bayt aningdurkim:

*Shabpara az gunbazi feruzagun
Raft ba feruzai gunbaz darun⁽³⁴⁾*

Va Mavlono Astrobodda toun marazi⁽³⁵⁾ bila o'tti, o'tar holda bu qit'ani aytib erdikim:

*Zi otashi qahri vabo gardid nogahon xarob
Astrobodki, xokash bud xushbo 'tar zi mushk,
Andar u az piru barno hech kas boqi namond,
Otash andar besha chun aftad na tar monad, na xushk⁽³⁶⁾.*

Va mazori Astrobodda No'h Go'ron degan go'ristondadir.

Mavlono Ashraf⁽³⁷⁾ — darveshvasht va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar zrdi. Va el bila dag'i omizishi oz erdi. Ko'proq avqot «Xamsa» tatabbu'ig'a sarf qilur erdi; to ul kitobni tugatur tavfiqi topti, voqean o'z xurdi holig'a ko'ra yamon bormaydur. Afv fazilatida «Xamsa»sidin bu bayt yaxshi voqe' bo'libturkim:

*Ba nazdi kase k-o' ba donish meh ast,
Zi mujrimkushi jurmbaxshi beh ast⁽³⁸⁾.*

Bu g'azal matlai dag'i aningdurkim:

*Xohamki, cho'bi tiyr shavam, to tu goh-goh
Bar holi man zi go'shai chashme kuni nigoh⁽³⁹⁾.*

Xoja Ismatullo — Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir ilmin takmil qilg'ondur. G'oyat xushtab'lig'idan o'zin she'rg'a mansub qilib devoni mashhur bo'ldi. Va Xalil Sulton⁽⁴¹⁾ otig'a yaxshi qasidalarini bor. Bu matla' Xojaningdurkim:

*Dil kabobest k-az u sho'r barangextaand,
Vaz namakdoni Xalilash namake rextaand⁽⁴²⁾.*

Va Xalil Sulton ash'orining devoni ta'rifida rangin qasidasi bor. Matlai budurkim:

*In bahri begaronki, jahonest dar barash,
G'avvosi aqli kull nabarad pay ba gavharash⁽⁴³⁾.*

Va Xojaning qabri Buxoroda o'z hujrasidadir.

Mavlono Xayoliy — Buxorodin va Xoja Ismatulloning shogirdidir. Bu matla' aningdurkim:

*Ey tiyri g'amatro dili ushshoq nishona,
Xalqe ba tu mashg'ul, tu g'oyib zi miyona⁽⁴⁴⁾.*

Ikkinchi bayti dag'i yaxshi voqe' bo'libturkim:

*Gah mu'takifi dayramu gah sokini masjid,
Ya'neki, turo metalabam xona ba xona⁽⁴⁵⁾.*

O'zi xush xulq va xush tavr yigit ermiş, hamonoki qabri Buxorodadur.

Mavlono Bisotiy — Samarqanddindur. Sho'x tab'i bor ermiş, ammo bag'oyat omiy ermiş. Bu matla'i mashhurdurkim:

*Dil shishavu chashmoni tu har go'sha barandash,
Mastand, mabodoki, banogah shikanandash⁽⁴⁶⁾.*

Bu bayti ham xub voqe' bo'lubturkim:

*Az xuro'shi changu dafvasli tu mexohad dilam.
Z-on ki dar har po'ste boshad xudoro do'ste⁽⁴⁷⁾.*

Qabri Samarqanddadur.

Mavlono Yax'yo Sebak⁽⁴⁸⁾ — Xuroson mulkining rangin fozili erdi, ko'p ulum va fununda mohir erdi. Sanoye' va aruz fanida barcha el ani musallam tutarlar erdi. Aning tab'i diqqatini har kishi bilay desa «Shabistoni xayol» degan kitobini ko'rsun. Avval «Tuffohiy» taxallus qilur erdi. So'ngra «Fattohiy» ham taxallus qildi. Ammo «Xumoriy» va «Asroriy» ham taxallus qilibdur. «Fattohiy» taxallus bila bu matla' aningdurkim:

*Eyki, davri lola sog'ar xoli az may mekuni,
Raft umr, in dog'i hasratro davo kay mekuni⁽⁴⁹⁾.*

Va «Asroriy» taxallus bila Xoja Hofiz⁽⁵⁰⁾ tatabbuida bu bayt aningdurkim:

*Arrai bargi kanab, ey bangiyon, z-on tez shud,
To burad bexiniholi aqlu imoni shum⁽⁵¹⁾*

Bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing shogirdimen⁽⁵²⁾. Inshoollohkim, o'z yerida kelgay. Mavlono darveshvash va qone' kishi erdi. Go'shaye ixtiyor qilg'on jihatidin latoyifi tab'i ozroq shuhrat tutti. Sana isno va xamsina va samona miada⁽⁵³⁾ olamdin o'tdi.

Mir Islom G'azzoliy⁽⁵⁴⁾ — Hujjat ul-islom Imom Muhammad G'azzoliy (quddisa sirruhu) avlodidindur. Zohir ulumin takmil qildi va lekin foniy sifat va betakalluf kishi erdi. Va tibb va hikmatda mahorati bor erdi. Salotin va hukkom majlisig'a borur erdi. G'oyati latofati tab'idin nazmg'a dag'i ishtig'ol ko'rguzur erdi va aning nazmda kamoli Hakim Anvariyning⁽⁵⁵⁾ bu qasidasi javobidakim:

Chu murodi xeshro bo mulki Ray kardam qiyos⁽⁵⁶⁾.

Ma'lum bo'lurkim, Alouddavla Mirzo⁽⁵⁷⁾ madhida aytibdurkim, har bayti boshtin oyoq ul zamonning bir ta'rixidur. Mir Balxda Hazoraspiylar chog'ida bor ekandur, Sulton Abu Sa'id⁽⁵⁹⁾ Mirzo chog'ida olamg'a vido' qildi.

Sayid Ali Hoshimiy — Sayid Hoshimiy nasab va xushtab' yigit erdi. Abdullatif Mirzo⁽⁶⁰⁾ mulozamatida bo'lur erdi. Va sipohiylik ham qilur erdi. Va sho'x tab'g'a bu bayt shohidi adildur.

*Dar biyobonin adam budam ba fikri on dahan,
Shud padid on xatti sabzu gasht Xizri rohi man⁽⁶¹⁾.*

Qozi Muhammad Imomiy — mutadayyin va xushtab' kishi erdi. Xurosonning qoziyul-quzotlig' mansabida mutammakkin bo'ldi. Va nazmg'a gohi mashg'ul bo'lur erdi. Ash'ori Hiriyl shahrida el orasida bor. Bu matla' aningdurkim:

*Guftamash gul-gul baromad rangi ruxsorat zi mul,
G'unchai u dar tabassum shudki, az gulho chi gul⁽⁶²⁾.*

Va qabri Hiriylada Imom Quzotning go'ristonidadur.

Mavlonno Muhammad Olim — Samarqand ulamosidin Ulug'bek Mirzo⁽⁶³⁾ bila hamsabaq va musohib erdi. Ammo bag'oyat daler va sho'xtab' va xiyra kishi erdi. Bahsda ko'p go'stoxona so'zlar va javoblar aytur erdi. Saltanati azim ush-sho'niy tahammul qila olmadi. Samarqanddin anga ixroj hukmi bo'lub Hiriylga keldi va munda Mavlononing maqdamin g'animat tuttilar va sokin bo'ldi. Bu matla' aningdurkim:

*Mo siyah baxtemu bad ro'zemu axtar so'xta,
Sham'i maqsude ba umri xuld shabe nafro'xta⁽⁶⁴⁾.*

Va Mavlonno ham Hiriylada madfundur.

Mavlonno Qudsiy — hiriylidur, shiringo'y kishi ermish. Va og'zida laqva marazi bor erdi, andoqkim og'zidin suv borur erdi va zabt qila olmas erdi, bu bobda debdurkim:

*Bu vujudi chunin dahanki, marost,
She'r go'yamki, ob az u bichakad⁽⁶⁵⁾.*

Bu matla' dag'i aningdurkim:

*Eyki, man'am mekuni az didani on gul'uzor,
Holati dilro namedoni, maro ma'zur dor⁽⁶⁶⁾.*

Mavlonno Ruhii Yoziriy — Xuroson afozilining doxilidur. Tab'i xub va suluki marg'ub kishi erdi.

«Bulbul bila gul» va «Sham' bila parvona» orasida munozara bitibdur. Anda ko'p diqqat ko'rguzbtur. Saraxs viloyatidin nari Darun va Yezirg'acha ko'prak tab' ahli aning zamonida anga shogird erdilar.

Bu matla' aningdurkim:

*Namexohamki, kas yobad zi sirri holam ogohi,
Va garna olame so 'zam ba yak ohi sahargohi⁽⁶⁷⁾.*

Mavlonoh Sohib Balxiy — bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O'z g'azallarini o'z amallariga bog'labdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, «Chahorgoh» amalidirkim, mashxurdur. Derlarkim, Jo'gi Mirzo⁽⁶⁸⁾ majolisida ul amaldin o'zga nima ayturmas ekandurki, bu g'azalga bog'labdur:

*Hamchu subh az mehri ro 'yat mezadam damhoi sard,
To rasam ro 'ze ba ko 'yat dil base shabgir kard⁽⁶⁹⁾.*

Va Xoja Salmonning⁽⁷⁰⁾ masnu' qasidasig'a javob debdurkim, andin ko'p iste'dod ma'lum bo'lur za yana bir qasidasi javobida bu matla' xub voqe'durkim:

*Zi qomati tu ba olam qiyomate barxost,
Qiyomatest qadat gar buvad qiyomat rost⁽⁷¹⁾*

Va g'azaliyotida bu matla' mashhurdurkim:

*Tui koni namaku mo sho 'rbaxton,
Xudo in dod morou turo on⁽⁷²⁾.*

Va tab'ida tama' mufrit uchun bovujudi fazoyil el qoshida izzati kamrak erdi. Oshpaz bila nonvoy-din osh va non tilab yer erdi. Bu g'arazg'a aytqon qit'asidin bir bayt budururkim:

*Magasi murda bud qaylai ro 'i osham,
Shubushi zinda bud kunjudi ro 'i nonam⁽⁷³⁾.*

Mazori Balx navohisidadur.

Mavlonoh Siymiy — Nishopurdindur, ko'p fazli bor erdi. She'r va muammo va insho va xatda asridag'i bu fan ahli musallam tutar erdilar. Bir kun da'vo bila ikki ming bayt aytib bitigani mashhurdur. Va muhriga bu baytni aytib qozdurubdurkim:

*Yak ro 'z ba madhi shohi pokiza sirisht
Siymiy du hazor bayt guftu binavisht⁽⁷⁴⁾.*

Har oyinakim, bu baytdin boshqa el ichida g'azali-din bir ozroqcha bor.

Mavlono Ali Ohiy — Mashhaddindur. «Xamsa» muqobalasida necha masnaviy aytibdurkim, chun muqobalag'a keltursa, go'yoki bo'lmas. Ul jihatdin shuhrat tutmaydur. «Xayol va visol» otlig' kitobida bir bayti bor, magarkim, mulhimi g'ayb aning tiliga o'z she'ri bobida solg'ondurkim:

*She'reki buvad zi nukta soda,
Monad hama umr yak savoda⁽⁷⁵⁾.*

Mavlono Ali Shihob — turshizlikdur. Sulton Muhammad Boysung'ur⁽⁷⁶⁾ mulozimi erkandur, ham ravon, ham puxta aytur erkandur. Ul zamon shuarosi andin yomon ayturlar ermiş. Va Mavlono Sirriy aning o'g'lidurkim, o'z yerida mazkur bo'lg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*Chu parda az rux chun oftob bardori
Ba jonu dil kunadat mushtari xaridori⁽⁷⁷⁾.*

Muhammad Ali Shug'oniy — vazirzodadur, tab'i xub voqe' bo'lg'on jihatdin nazmg'a ko'p mashg'ul bo'lur erdi, bu bayt aning ash'oridindurkim:

*Chunon g'ariqi mayam, soqiyoki, az gili man
Agar gule badar oyad sharob az u bichakad⁽⁷⁸⁾.*

Mavlono Tole'iy — ham Sulton Muhammad Boysung'ur modihri erdi. Tab'i g'arobat sori maylliqlik shoirdur.

Imomi jin va ins Ali ibni Muso ar-Rizo madhida qasida aytibdur, matlai budurkim:

*Xishti in mehri zar andudeki, bar saqfi samost,
Bahri farshi ravzai Sulton Ali Muso Rizost⁽⁷⁹⁾.*

Mavlono Tusiy — masalgo'y va g'azalgo'y erdi. She'ri base omfirib erdi. Uzun umr topti, hamonoki yoshi yuzga yetti. Bu matlai mashhurdurkim:

*Zihi no'shi labi la'lat hayoti. jovidoni man,
Ba dandon megazi labro chi mexohi zi joni man⁽⁸⁰⁾.*

Bu matla' ham aningdurkim:

*Maro boshed, ey xubon, xudoro,
Xudoro doramu boqi shumoro⁽⁸¹⁾.*

Iroqda olamdin o'tti.

Bobo Savdoiyy⁽⁸²⁾ — Bovarddindur. Avval «Xovariy» taxallus qilur erdi. G'aybi olamdin anga jazaba yettikim, aqli zoyil bo'lub, eldin chiqib bosh-ayog' yalang devonalardek tog'u dashtda

kezar erdi. O‘z holiga kelib el orasig‘a kirgandan so‘ngra, «Savdoiyl» taxallus qildi. Boysung‘ur Mirzo otig‘a qasoyidi bor. G‘azalni dag‘i nav‘i aytnbdur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Anbarat xolu ruxat vardu xatat rayhon ast,
Dahanat g‘unchavu dandon duru lab marjon ast⁽⁸³⁾.*

Umri seksondin o‘tti va qabri Bovardning Sukkon otlig‘ kentidadur. Ikki g‘arib o‘g‘ul yodgor qo‘yub bordi.

Mavlonol Zohidiy — Bobo Savdoiylg‘a muosir erdi. Amir Xusravning⁽⁸⁴⁾ «Daryoi abror»iga tatabbu‘ qilibdur va Mavlonol Kotibiylning «Tajnisot»ig‘a ham ma‘razg‘a kelibdur. Va munojotida aning bu banti yaxshi tushubdurkim:

*Zuhraro chang yo rubob ki dod,
La‘l dar sang, yo rab, ob ki dod?⁽⁸⁵⁾*

Mavlonol Amiriyl — turk erdi va turkcha shs‘ri yaxshi voqe‘ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning «Dahnoma» sndindur:

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so‘z,
Yemakdin to‘yub uyqudin yumub ko‘z.*

Ba forsiyda shayx Kamol⁽⁸⁶⁾ tatabbu‘i qilibdur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Ro‘zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G‘ayri zohid k-o‘ riyozatho kashidu xushk mond⁽⁸⁷⁾.*

Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur.

Mavlonol Badaxshiy — fozil kishi ermish, Ulug‘bek Mirzo zamonida Samarqandda shuaro ani xushgo‘yliqq‘a musallam tutubdurlar. Va Mirzoning dag‘i ko‘p iltifoti bor ermish. Bu matla‘i mashhurdurkim:

*Ey zulfi shab misoli turo dar bar oftob,
Az shab ki did soyaki uftad bar oftob!⁽⁸⁸⁾*

Mavlonol Tolib Jojarmiy — Sherozda nash‘u namo topibdur. Va qabri hazrati Xoja Hofizning oyog‘i sari erdi. Bu ruboiysini qabri toshig‘a bitib erdilarkim. Faqiri haqir yod tuttumkim:

*Dar ko‘chai oshiqi ba paymon durust,
Meguft ba man ahli dile ro‘zi naxust,
Tolib matalab kase ki u g‘ayri tu just,
Tu tolibi u boshki, u tolibi tust⁽⁸⁹⁾.*

Mavlono Burundiq — nadimvash va hazzol kishi ermish. Sulton Boyqaro⁽⁹⁰⁾ binni Umarshayx xizmatida bo‘lur ermish va ul zamon shuarosi aning tilidin qo‘rqub, aning jonibini ko‘p rioyat qilur ermishlar va ani ustod lafzi bila xitob qilur ermishlar. Va bu matla’ aningdurkim:

*Labi shirini tu bo tungi shakar memonad,
Duri dandoni tu bo iqdi guhar memonad⁽⁹¹⁾.*

Mavlono Jununiy — hiriqliqdur. She’ri yomon ermas ekandur. Ammo nazmda tab’i hajv va hazl sari moyil erkandur. Xoja Hofiz Sharbatiy bila aning orasida nizo’ voqe’ bo‘ldi va ul munozaatni hajv qildi va xaloyiq ul hajvni yod tuttilar va yaxshiroq she’rlari bu jihatdin bartaraf bo‘ldi va ul hajv chun mashhur erdi bitmak munosib ko‘runmadi. Bu matla’ aningdurur:

*Ey ahli jununro ba kamandi tu zabuni,
Z-on ro ‘y dar on halqa zabun ast jununi⁽⁹²⁾*

Mavlono Orifiy — bag‘oyat fozil va xushgo‘y shoir erdi. Zamon ahli ani Salmoni Soniy derlar erdi, ham she’ri munosabatidin, ham ko‘zlari za’fidin. Va Salmonning ko‘zi og‘rig‘onda aytqon qasidasig‘akim, matla’i bu dururkim:

*Dardoki, dard kard savodi basar xarob,
Ayyom kard chashmai chashmi maro sarob⁽⁹³⁾.*

Mavlononing dag‘i ko‘zi og‘rig‘onda javob aytibdur. Bu bayti xubturkim:

*Bar palaki surxi didai man dorui safed,
Boshad biaynih namaki suda bar kabob⁽⁹⁴⁾.*

Va «Go‘y va chavgon» munozarasida ham masnaviysi bor, rangin aytibdur. Ot ta’rifida bu ikki bayt andindurkim:

*Chun go ‘i sipexr gird basti,
Maydon-maydon chu go ‘y jasti.
Har gohki, dar araq shudi g ‘arq,
Boron budi-yu dar miyon barq⁽⁹⁵⁾.*

G‘azal devoni ham bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Ahd kardamki, nayoyam ba dar az mayxona,
To ba-don damki, maro pur nashavad paymona⁽⁹⁶⁾.*

Qabri Hiriyl shahridadir.

Mavlono Sulaymoniy — Bobur Mirzo⁽⁹⁷⁾ xizmatida boʻlur erdi. Va badihani ravon aytur erdi. Ammo Hazrati Xoja Hofizning bu matlai javobidakim:

*Yod bod on ki sari koʻi tuam manzil bud,
Didaro ravshani az xoki darat hosil bud⁽⁹⁸⁾.*

Aning bu matlai yomon voqeʻ boʻlmaydurkim:

*Halli on nuktaki, bar piri xirad mushkil bud.
Ozmudem, ba yak jurʻai may hosil bud⁽⁹⁹⁾.*

Soʻnggʻi bayti budurkim:

*Guftam az madrasa pурсam sababi hurmati may,
Dari har kaski, zadam bexudu loyaʻqil bud⁽¹⁰⁰⁾.*

Va mashhur mundoqdurkim, bu abʻyot Mavlono Hakim tabibning xotuni Mehriningdur⁽¹⁰¹⁾.
Va bu faqir siqqa eldin eshittimkim, Sulaymoniyningdur, vallohu aʻlam!⁽¹⁰²⁾

Mavlono Qadimiy — naqorachilikka mashhurdur, ammo tabʻi nazmlarda mulonim erdi, bu matlaʻ aningdurkim:

*Be jamolash didai ravshan chi kor oyad maro,
Ravshani dar dida az didori yor oyad maro⁽¹⁰³⁾.*

Soʻnggʻi bayti yaxshiroq voqeʻ boʻlubdur:

*Oh az on soatki, nogah dar rahe pesh oyadam,
Muddate boyadki, to dil bar qaror oyad maro⁽¹⁰⁴⁾.*

Mavlono Masihiy — Kushanj viloyatidin erdi. Pokiza roʻzgor va musulmonvash kishi erdi. Derlarki, Makka ziyorati davlatigʻa musharraf boʻldi. Va tabʻi shoʻx erdi. Yaxshi ashʻori bor. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Moro ba jafо kushta pushaymon shuda boshi,
Xuni dili mo rexta pazmon shuda boshi⁽¹⁰⁵⁾.*

Derlarki, Kaʻba safarida Mavlono bodiyada xorgʻon mahallidakim, mugʻaylon nigʻochi koʻlankasida oyogʻidin tikon sugʻururgʻa mashgʻul ekandur, qofila shoʻx tabʻlaridin biri bu baytni debturkim:

*Az ranji rahi duru sarxori mugʻaylon,
Az omadani Kaʻba pushaymon shuda boshi⁽¹⁰⁶⁾.*

Mavlono Hoji Abulhasan — turkdir, ammo tolibi ilmliqqa mashgʻul boʻlub, biror nima modda hosil qilibdur, chun tabʻi xub erdi, sheʻr ayturgʻa mashgʻul boʻldi. Bu turkcha matlaʻ aningdurkim:

*Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,
Bu oʻt koʻngulga tushub jonni kuydurub boradur.*

Muammo fanida dagʻi yaxshi erdi. ismigʻa bu latif muammo aningdurkim:

Mavlono Qutbiy — Sulton Masʻud Mirzo⁽¹⁰⁷⁾ mulozimi erdi. Shoʻx tabʻ kishi erdi. Turkiy va forsiy sheʻrda jald erdi. Bu turkcha matlai mashhurdurkim:

*Gʻuncha gar nisbat qilur oʻziga dildor ogʻzini,
Ey sabo yeli, toʻla qon ayla zinhor ogʻzini.*

Mavlono Naimiy — Mavlono Qutbiygʻa qarobatdur. Yomon tabʻi yoʻq erdi. Turkiy nazmlarga tabʻi muloyim erdi. Va Sulton Sohibqiron ostonasida boʻlur erdi. Chun qobiliyati bor erdi va sidq va ixlosi bila qulluq qilur erdi. Koʻp iltifot topti, oqibat sadorati oliy mansabqa sarafroz boʻldi. Bu matlaʻ aningdurkim:

*To adamdin boʻldi paydo munchakim husnu jamol,
Sen parivashdek yaratmabdur bashardin zuljalol.*

Hamul hazratning qazoqligʻida yara yeb olamdin oʻtti.

Mavlono Zayn — kissadoʻzluq sanʻatigʻa mansub erdi. Va oʻz zamoninnng shoʻx tabʻlaridin bir ani tutarlar erdi. Bu maqtaʻ aningdurkim:

*Bo Zaynki, manʻat kunad az mardumi nojins,
Begona chunoneki, gʻami xesh nadori⁽¹⁰⁸⁾.*

Mavlono Muhammad Jomiy — Hazrat Mavlaviy Maxdumi Nuranning⁽¹⁰⁹⁾ inisi erdi. Zohir ulumin takmil qilib erdi. Axloq va sifoti darveshona va suluk ravishi bexeshona, advor va musiqiy ilmida mohir va soyir fazliyotda komil erdi. Ul ogʻogʻa inilikka loyiq va tariyqi alar tariyqi bila muvofiq erdi. Bu ruboiy alarningdurkim:

*In bodaki, man be tu ba lab meoram,
Ne az pai shodiyu tarab meoram.
Zulfi siyahi tu roʻzi man karda siyoh,
Roʻzi siyahi xesh ba shab meoram⁽¹¹⁰⁾.*

Qabri ul hazratning manzillarida qutb us-solikin Mavlono Saʻdiddin Koshgʻariy⁽¹¹¹⁾ (quddisa sirruhu)ning sufasida, aning ayogʻi sari voqeʻdurur.

Mir Shohiy⁽¹¹²⁾ — sabzavorliqdur. Asli sarbadorlardin boʻlur. Boysungʻur Mirzo mulozamatida boʻlur erdi. Oti Mir Oqmalikdur. Farogʻatdoʻst va xushbosh kishi erdi. Aning sheʻrini choshni va salosat va yakdastlik va latofatida taʻrif qilmoq hojat ermas. Gʻazali agarchn ozdur, ammo barcha xaloyiq qoshida pisandida va mustahsandur. Faqir agarchi ani koʻrmadim, ammo aning bila faqirni orasida eʻlom va irsol voqeʻ boʻldi. Mulk podshohi otamni hukumat rasmi bilan Sabzavorgʻa yuborib erdi va Mir Shohiyni Astrabod hokimi tilab Jurjon mamolikiga eltib erdi. Astrabodda anga qazo yetib naʻshin Sabzavorgʻa kelturdilar va obo va ajdodi daxmasida xaloyiqni oʻtru chiqorib ani oxirat yeriga dafn qildilar. Astrabodda aytqon ikki matlai tuganmay qolgʻon erdikim, vasiyat qilgʻondurkim, Xoja Avhad alarni tugatsun deb, biri budurkim:

*Xarobem az dili berahm gah-gah yod kun moro,
Saqi koʻi tuyem oxir ba sange shod kun moro*⁽¹¹³⁾.

Yana biri bukim:

*Tu shahrnyori jahon, mo gʻaribi shahri tuyem,
Vatan guzoshtai bexonumon zi bahri tuyem*⁽¹¹⁴⁾.

Xoja Avhad ikkalasin tugatti va devonigʻa bitildi va shahr shuarosigʻa marsiya taklifi qildikim, ayttilar. Bu bir bayt ul marsiya abʻyotidiidurkim:

*K-oʻ bishav zeru zabar az ashku oham Sabzavor,
Z-onki shahri shoh be Shohiy nameoyad ba kor*⁽¹¹⁵⁾.

Mavlono Mushtariy — astrobodligʻdur. Oʻz vaqtida mashohirdin erdi. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Soqiy agar mayam nadihad dar havon gul.
Dasti man astu domani soqiyu poi gul*⁽¹¹⁶⁾.

Mavlono Ali Dardoʻzd ham astrabodligʻdur. Bu matlai mashhurdur va yaxshi voqeʻ boʻlubdurkim:

*Guzasht umru nameoram az sharob guzashtan.
Ki, mast xoham az in olami xarob guzashtan*⁽¹¹⁷⁾.

Mavlono Toleʻiy — kamardoʻzliqqa mansubdur. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Yoram zi gʻamza tiyru zi abru kamon kashid.
Az roʻi xub har chi rasad metavon kashid*⁽¹¹⁸⁾.

Mavlono Muhyi — Boysungʻur mirzo mulozamatida boʻlur erdirmish. Bu matlaʻ aningdurkim:

Bo ruxat dam zi siym natvon zad,

Bo 'sa onjo zi biym natvon zad⁽¹¹⁹⁾.

«Majolis un-nafois»ning avvalg'i majlisining itmomi

Bu valoyatosor guruh va bu fasohatshior anbuhlarning ruhlarinikim, xaloyiq ruhi alarning jonparvar nafaslaridin tozadur va ulus osoyishi alarning ruhbaxsh kalomlaridin beandoza. Haq subhonahu va taolo sahobi inoyatidin fayz yomg'uri selobig'a g'ariq qilsun va mag'firati soiqasidin ruh shu'lasini anvorig'a hariq etsun. Va alarning ruhoniyyatidin Sultoni Sohibqiron humoyun tab'ig'akim, fasohat bahrining samin gavharidur, nur va safolar bersun, va balog'at bo'rijining munir axtaridur, surur va ziyolar yetkursun. Ruboiy:

*Yo rabki, bu shohkim ulus xonidur,
Tab' ahliyu zehn xayli sultonidur.
Ne xonu ne sultonki, jahon jonidur,
Ber umr ila davlat, ulcha imkonidur.*

IKKINCHI MAJLIS

Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardin ba'zining mulozamatig'a kichiklikda yetibmen va ba'zining suhbatiga yigitlikda musharraf bo'libmen, alar sitta va tis'ina va samona mia⁽¹⁾ tarixidakim, bu muxtasar bitiladur, bu fano domgohidin baqo oromgohiga boribdurlar

Ul jamoadin:

Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiydu⁽²⁾ — Mavlonoing sohibkamollig'i olam ahli qoshida musallamdur. Shohrux sulton buzug'lig'ida faqirning volidi jamoati kasir bila ro'zgor havodisi fitnasidin Xurosondin qochib, Iroqqa borurda Taftg'akim Mavlonoing muvalladidur, yarim kecha yetib tushdilar. Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshikida voqe' erdi, tong otqonda, andoqkim, o'yuni atfol da'bi bo'lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohg'a o'ynag'ali kirdilar va faqir ham alar bila erdim, taxminan olti yoshimda bo'lg'ay erdm, va Mavlono bir rahbada o'lturub ermishlar, tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg'a muvaffaq bo'ldum. Har nekim so'rdilar javob aytdim. Tabassum qilib tahsin qildilar, dag'i so'rdilarkim, maktabg'a boribmusen? Dedimkim: boribmen. Dedilarkim: ne yergacha o'qibsen? Dedimki: «tabarak» surasig'acha. Dedilarkim: bu jamoat atfolidin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fotiha o'quli deb o'z fotihalarig'a musharraf qildilar. Hamul zamon faqirning volidi va ul xayl ulug'lari kelib, Mavlono xizmatida anvoi niyozmandlig'lar qilg'ondin so'ngra, faqirg'a andoq shuur hosil bo'ldi angakim, «ne kishi er-kandurlar».

Va alar musannafotidin ulcha mashhur: «Qasidai Burda» sharhi va «Asmoulloh»⁽³⁾ sharhi va «Zafarnoma» tarixidur va muammo fanini alar tadvin qildilar, anda ham «Hulal»⁽⁴⁾ va «Munozara» va «Muntaxab» alarning tasnifidur. Va Mavlono himmat va bazl bobida ta'rifdin mustag'niy erdilar. Tabarrukan bir matla'lari bitildikim:

*Sufiy, mabosh munkiri rindoni mayparast,
K-andar piyola partave az aksi do 'st hast⁽⁵⁾*

Va Mavlononing qabri Taftda hamul xonaqohda-o'qdur.

Hoja Avhad Mustavfiy — aning laqabin «Kadud» ham derlar. O'z asrining yagonasi erdi. Ko'proq ulum va fununni bilur erdi, bataxis ulumi g'aribani, ammo falakiyotda shuhrati bor erdi. Bu faqir ul buzrukvor suhbatig'a yetar erdi, ko'p iltifotlari bor erdi. Va she'rda dag'i devon tartib qilibdur, yaxshi qasoyidlari bor. Bu matla' aningdurkim:

*Ey zi bo 'stoni jamolat chashmu jonro zebu zayn,
Gashta bar nargis havodori chashmat farzi ayn⁽⁶⁾.*

Va bu qasidani Sultoni Sohibqiron otig'a muzayyal qilibdurkim:

*Shod bosh, ey dilki, bar mo soyai rahmat fikand,
Oftobi osmoni saltanat Sulton Husayn⁽⁷⁾.*

Va Xoja Sabzavorda sokin erdi ham anda-o'q olamdan o'tdi va qabri o'zi bo'lur maskanida-o'qdur.

Mavlono Abdulvahob — donishmand va zufunun kishi erdi va Mashhad shahrida kozi erdi.

Insho fanida benazir erdi. Imod qo'rg'oni kitobasida «Irama zot-il imodillati lamu yuxlaqu misluha fil bilodi»⁽⁸⁾ oyatin bitibdur. Mashhadning shuaro na zurafosi qozig'a shogird erdilar.

Ul zurafodin biri «Maqlubi mustaviy»⁽⁹⁾ san'atida alfozin topib qozig'a arz qilibdur. Ul oz taammul bila alfozi bila javob beribdurkim, bu ishi ta'rifdan tashqaridir.

Qabri Mashhadda-o'q voqe'dur».

Xoja Fazlulloh Abullaysiy — Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqxda ani Abu Hanifai Soniy⁽¹¹⁾ derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib⁽¹²⁾ kaffasida tutarlar erdi.

Sayid Sharif⁽¹³⁾ ning shogirdi erdi va Sayid o'z xatlari bila ulumi dars ayturg'a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar.

Bovujudkim, Samarqandning a'lami ulamosi erdi, she'r va muammog'a dag'i moyil erdi.

Bu matla' alarningdurkim:

Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,

So 'yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon⁽¹⁴⁾.

Xoja Samarqandda tangri taolo rahmatig'a bordi va o'z xonaqohida jaddining gunbazida madfundur.

Mavlono Uloi Shoshiy — donishmand kishi erdi. Xush tab'liqq'a barcha xaloyiq ann musallam tutar erdilar.

Muammoda Samarqand ahli ani Mavlono Sharafiddin Yazdiy muqobalasida mazkur qilurlar erdi. Faqir Samarqandg'a borg'onda ayog'i sinib, sohib firosch erdi. Iyodatig'a bordim, qoshida o'lturub, andin hosil bo'lur bitib anga tutaberdim.

Qoshidin chiqqonda faqirning holatin so'rub, kim erkanimni ma'lum qilg'ondin so'ngra bu muammonikim, faqirning oti andin hosil bo'lur, aytib bitib, bir shogirdidin visoqing'a yuborib, erdi.

Va Mavlono hamul za'd bila olamdin o'tdi va qabri Samarqandda — o'qdur.

Mavlono Muhammad Tabodgoniy⁽¹⁵⁾ — Shayx Zayniddin⁽¹⁶⁾ xulafosidindur. O'z zamonining muqtadosi erdi. Xonaqohi bor erdi va qalin muridlar va elning rujui Mavlono sari ko'p erdi va «Qasidai Burda»ni muxammas qilibdurur va hazrati muqarrabi boriy Xoja Abdulloh Ansoriy⁽¹⁷⁾ ning «Manozil us-soyirin»⁽¹⁸⁾ig'a sharh bitibdur va fazl va kamoli sharhdin tashqaridur. Har qachon samo'g'a kirsar erdi, bovujudi ulkim, usul qoidasi bila harakoti muvofiq ermas erdi, ammo xaloyiqg'a andoq asar qilurkim, ko'p el yig'lar erdilar. Bu matla' Mavlononingdurkim:

*Onhoki, ba juz qomati sarvat nigaronand,
Gar rost bigo'i hama ko'tah nazaronand⁽¹⁹⁾.*

Hiriy shahrida olamdin o'tti va qabri Xiyoboidadurkim, anda xonaqoh yasabdurlar va o'g'li Hamididdin va soyir sufiya ul xonaqohda suluk va ibodatga mashg'uldurlar.

Shayx Sadriddin Ravosiy — ul dag'i Shayx Zayniddin xo'lafosidindur. Shayx zebo va ra'no erdi. Shakli dilpisand va haqoyiq va maorif aytmog'i dilfirib erdi. Sharif suhbatig'a faqir musharraf bo'ldum. Badaxshon shohig'akim, anga murid bo'lub erdi, «Fusus»⁽²⁰⁾ dars aytur erdi, ko'p glumni base sayd qildi. Zamon podshohi ham shayx mulozamatig'a yetar erdi, o'zga xaloyiqg'a xud ne yeggay!

Muncha korxonai shayxliq bila nazmg'a dag'i ishtig'ol ko'rguzar erdi. Bu matla' hazrati Shayxniigdurkim:

*Zihi az orazat chashmi maro nur,
Hamesha az jamolat chashmi bad dur⁽²¹⁾.*

Shayx Hiriy shahrida olamdin o'tti va na'shin Shug'ong'a eltilar va anda madfundur.

Mir Haydar Majzub — Darvozai Xush toshida Imom Faxr⁽²²⁾ mazori boshida sokin erdi. Yigitligida zohir ulumin takmil qilib erdi, hamul vaqtda anga jazaba yetishtikim, aqli zoyil bo'ldi. Gohiki, o'z holiag' kelsa erdi, ulamo bilan ulum bahsin andoq qilur erdikim, barcha musallam tutar erdilar Muvajjah so'zlaydurganda, orasida so'zi parishon bo'lur erdi va xayoli junun vaqtida xotam us-saltanatliqqa rosix bo'lub erdi va xalqni o'z navkarligiga da'vat qilib xuruj qilur so'zin aytur erdi. Nazmida g'arib abyot voqe' bo'lur erdi. Bu bayt aningdurkim:

*Labu dandoni on mah bo chi monad,
Chu qande bar birinji dona-dona⁽²³⁾.*

Mavlono Muhammad Arab — ul ham donishmand kishi erdi. Dimog'i habt qildi va xayoli Mir Haydar xayoli borg'on sori bordi. Doyim saltanat so'zini mazkur qilur erdi, to ulkim chin yo yolg'on Mavlononi munga muttaham qildilarkim, uyidin xuruj aslahasi paydo bo'lubtur deb, chun aziz va musin kishi erdi, podshohi zamon anga shahardin ixroj hukmi buyurdi. Ul yerdin Siyistong'a bordi va so'zi ham ushbu rang erdi, o'zining podshohlig'i qoidasida «Shohnoma» aytibdur. Bu bayt ul abyotdindurkim:

*Kase mahrami shah ba juz shoh nest,
Zi ahvoli shah juz shah ogoh nest⁽²⁴⁾.*

Mazori Siyistonda — o'qdur.

Mir Muflisiy — Mashhad sodotidindur. Tab'i xub erdikim, anga jazaba yetishtikim, aqli zoyil bo'ldi. Ilkiga va barmoqlariga halqalar solur erdi. Doyim o'z-o'zi birla so'zlashur erdi. Hushi borida yaxshi abyotlar aytib edi. Ammo junun vaqtida bu baytni ko'p o'qur erdikim:

*Baloi margu anduhi qiyomat,
Chu chanbar soxt moro naxli qomat⁽²⁵⁾.*

Va bu taxallusi ham el ichida mashhurdir.

*Xalq go'yad Muflisiy devona shud,
Lojaram devonagi az muflisist⁽²⁶⁾.*

Va qabri Mashhadda Xoja Xizr langaridadur.

Mavlono Abdulqahhor — donishmand kishi erdi. Hiriy shahrining mutaayyin xush tab'laridin erdi. Mavlononing xayoli kimyogarlikka tushib ko'p nima zoye' qildi va hech nima hosil qila olmadi.

Ko'p o't puflagandin modda qulog'i sori inib kar bo'lub erdi. Ammo xub abyoti bor erdi.

Mir Xusravning javobida bu matla' aningdurkim:

*Rashkam oyad on chi bar dilho xadangi yor kard
Tiyri uro g'ayr xo'rdu dar dili man kor kard⁽²⁷⁾.*

Qabri Imomi Faxrdadir.

Mavlonο Abdurazzoq⁽²⁸⁾ — Mavlonο Abdulqahhorning inisidur. Xush muhovara kishi erdi, zohir ulumin takmil qilib erdi va fazliyoti ham yaxshi erdi. Xususan tarix ilmikim, anda musannafoti bor va mashhurdir. Va har kishi bu fanda aning mahoratin bilay desa o'z tarixidin bila olur. Bu matla' aningdurkim:

*Boz abro' kard bolo turki tiyrandozi man,
Olamero kushtu dorad in zamon andozi man⁽²⁹⁾.*

Qabri og'osi yonida Imomi Faxrdadir.

Mir Yodgorbek — «Sayfiy» taxallus qilur erdi. Xurosonning asil va mutaayyin mirzodalaridindur. Ammo mulozamat tariyqni tark qilib, go'sha ixtiyor qildi. Fonivash va betakalluf kishi erdi, juz'iy mustag'aloti hosili bila qanoat qilib erdi. Bu toifa doim aning tebrasida erdilar. Hech nimasin bulardin ayamasi erdi. Yaxshi matla'lari bor, jumladin bu matla' aningdurkim:

*Dar barat pirohani katton zi tahriki nasim,
Hast chun kisai larzanda bar boloi siym⁽³⁰⁾.*

Bu matla' ham aningdurkim:

*Sarvi man sabz astu shirin, rost hamchun nayshakar,
Chun ba boloi qaboi barg nay bandad kamar⁽³¹⁾.*

Qabri obo va ajdodi go'ristonida—Saripuldadir.

Mavlonο To'tiy — asli Turshiz viloyatidindur. Bobur Mirzo mulozamatida tarbiyat topti. Yaxshi shakllik va yaxshi xulqlik yigit erdi. Qasidada Mavlonο Kotibiyg'a tatabbu' qilur erdi. Aning mav'iza qasidasig'akim, matlai budur:

*Agar ba chashm aqolim sab'a ganji zar ast,
Chu nek dar nigari ajdahoi haft sar ast⁽³²⁾.*

Yaxshi javobi bordurkim:

*Jahonki, hujrai shash toqu xonai du dar ast,
Zi chor rukni bisotash fig'oni alhazar ast⁽³³⁾.*

G'azallari yaxshidur. Bu matla' aningdurkim:

Go'shai xumxona az la'li ravon ganji safost,

Shakli chang az bahri dafi g'am dahoni ajdahost⁽³⁴⁾.

Ul yigitlikda favt bo'ldi. Ulcha qobiliyati bor erdikim, agar hayot topsa, xub nazmlar andin qolg'ay erdi. Favtining tarixi Shayx Ozariyning zikrida o'ttikim, faqir lafzi bila paydo qilib erdim. Qabri Xiyobondadur.

Mavlonο Vaysiy — kotiblikka mashhur erdi, ammo she'r ham aytur erdi. Asru sodava go'l kishi erdi. Faqir, balki ko'proq yoronlar taajjub kilurlar erdikim, oyo ul bu nav' sodalig' bila nazm nechuk aytur erkin, ammo g'azallari yomon ermas va devoni ham bordur. Bu matla' aningdurkim:

*Raftam ba sayri bog'u tavofi bunafshazor,
Omad zi har bunafsha maro bo'i zulfi yor⁽³⁶⁾.*

Safar ixtiyor qildi va ul safarda oxirat safari olig'a tushti.

Mavlonο Sog'ariy⁽³⁷⁾ — Sog'ar viloyatidindur. Hirot shuarosi silkida erdi. Maoshi o'tkuncha tamavvuli bor erdi. Ammo imsoki g'olib erdi.

Hazrat Maxdumiy No'ran Makka safarig'a azimat qilg'onda, Vaysiy va Sog'ariy ikkalasi mulozamatda borur izhori qildilar.

Ammo Vaysiy eshagi yo'k bahonasi bila va Sog'ariy yana bir bahona bila ul safardin qoldilar va Amir Suhayliy⁽³⁸⁾ bu qit'ani alar uchun aytti va el ichida base shuhrat tuttirikim:

*Vaysiyu Sog'ariy ba azmi haram,
Gashta budand har dushon safari,
Lek az on roh har du vo mondand,
On yak az be xariyu in zi xari⁽³⁹⁾.*

Mavlonο Sog'ariy agarchi bad she'r erdi, ammo bu matlai xub tushubdurkim:

*Chashmi durbori manu abri bahor ast yake,
Nolai zori manu savti hazor ast yake⁽⁴⁰⁾.*

Hiriya favt bo'ldi. Qabri hamonoki Xiyobon navohisidadur.

Mavlonο Fasih Rumiy — donishmand kishi erdi. Jo'gi Mirzo xizmatida bo'lur erdi va aning bog'oti, qasrlarining kitobalari Mavlononing ash'oridur. Xoja Salmonning masnu' qasidasig'a tatabbu' qilibdur. O'z xo'rdi holig'a yomon aytmaydur. Va Hazrat Shayxning⁽⁴¹⁾ «Maxzan ul-asror»ig'a javob aytibdur, bu bayt «rozni nihon asrar» bobida aningdurkim:

*Har nafas k-az tu kase bishnavad,
Beshak az u hamnafase bishnavad⁽⁴²⁾.*

Mavlononing qabri Hiriyyadur.

Shayx Kamoli Turbatii — ko‘p diqqatlik, tab‘lik kishi erdi. Xoja Hofiz g‘azallaridin ko‘p muxammas qilibdur. Xurosonning muttaayyin, rangin zurafosidin erdi.

Faqirning ani ko‘rarga ko‘p orzum bor erdi, oshnolig‘ bu nav‘ voqea bo‘ldikim, Sulton Abu Said Mirzo zamonida Mashhadda g‘arib va xasta bir buq‘ada yiqilib erdim. Qurbon vaqfasi bo‘ldi, olamning aqso bilodidin xalq imom ravzasi tavofig‘a yuz qo‘ydilar. Rasmdurkim, musofirlar muttaayyin buq‘a gashtiga ham borurlar, ul buq‘adakim, faqir yiqilib erdim, jamoati mavolivash el sayr qilib, devorda bitilgan abyotni o‘qib, bir bayt ustida bahsga tushtilar. Bir ulug‘roq kishikim, ul jamoat anga tobe‘ erdilar, ul jamoatni ilzom qildi. Faqir za‘f holida ul jamoat jonibidin so‘z ayttim. Anga dedilarkim: bu bemor yigit ham bir so‘z aytadur. Ul ulug‘roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish, boshim ustiga kelib, mabhasni orag‘a soldi. Faqir javob bergach, o‘z so‘zidan qaytib, tahsinlar qilib, holimni tafahhus qildi. Ersa ul ham faqirni eshitgan ekandur va ko‘rar havasi bor ekandur. Xushvaqt bo‘lub diljo‘ylug‘lar qilib, qoshimda o‘lturdi.

Muning ustida ham so‘zlar aytili, Manziliga borib, tuhfa va tabarruk va savg‘ot yo‘suni bila yubordi va to anda erdi, doyim kelur erdi. Shayx bila oshnolig‘ taqribi bu nav‘ voqe‘ bo‘ldi.

Shayx Makkadin kelgandin so‘ngra Turbatda favt bo‘ldi va qabri ham andadur.

Darvesh Mansur — sabzavorlig‘dur. Darvesh va parhezkor va murtoz kishi erdi. Ko‘proq avqot soyim erdi, aruz va sanoye‘da Mavlon Yah‘yo Sebak shogirdi erdi. Ikki aruz tasnif qildi va masnu‘ qasida aytibdurkim, matlai budurkim:

*Bas davidam dar havoii vasli yor,
Kas nadidam oshnoi asli kor⁽⁴³⁾.*

Tarse‘ san‘ati⁽⁴⁴⁾ pokiza voqe‘ bo‘lubdur. Tasavvuf ilmida Hofiz Ali Jomiyshogirdi erdikim, aning ta‘rifida aql qosirdir va tasavvufda bu ruboiy Darveshningdurkim:

*Mavjud chu zarraye ba xud natvon kard,
Bis‘yor hadisi neku bad natvon kard.
Ejod chu be qabul mumkin nabuvad,
Onro ki qabul kard rad natvon kard⁽⁴⁵⁾.*

Faqir aruzni Darvesh qoshida o‘qubmen. Va Darvesh qirq bila ellik yosh orasida olamdin o‘tti va qabri Xojai Toqdadur.

Hofiz Ali Jomiy — o‘z zamonining sohib kamoli erdi, bataxis tasavvuf ilmida. Va Maxdumiy Nuran «Nafahot ul-uns»⁽⁴⁶⁾ da aning Shayx Farididdin Attor⁽⁴⁷⁾ (quddisa sirruhu)ning bu qasidasig‘akim:

*Ey ro'y dar kashida ba bozor omada,
Xalqe ba-din tilism giriftor omada⁽⁴⁸⁾*

sharh bitiganin zikr qilibdurlar.

Va qiroat ilmida jamei qurro aning shogirdligiga mubohat qilurlar erdi. Va faqir ham necha sabaq o'qubmen.

Qabri Shayx Bahouddin Umar⁽⁴⁹⁾ (quddisa sirruhu)ning hazirasidadur.

Mavlonο Muhammad Muammoiy — ani Hiriyl eli «Piri Muammoiy» derlar erdi. Zarif kishi erdi. Mir Xusravning ash'or va risolasin va soyir musannifotin andin ko'proq kishi jam' qilmabdur erdi. Ul vaqt muammo fanida zurafo aning shogirdi erdi.

Qabri Hiriydadur.

Sayyid Kamol Kachkul — Balxda sokin erdi. Sayohat ko'p qilg'on kishi erdi. Ul yetmagan yer oz bo'lg'ay erdi. Aning holatida ko'p taajjub mahallidur. Mashhur mundoq erdikim, aning besh yuz ming bayti bor va bir qasida aytibdurdurkim, andin o'n ikki ming bayt masnu' istihroj qilsa bo'lur. Ammo ulcha faqir ko'rdum, Hazrat Xoja Abu Nasr Porso⁽⁵⁰⁾ (quddisa sirruhu) favt bo'lg'onda marsiya aytib erdikim, necha baytining har misrai Xoja favtig'a tarix erdi va necha bayti mustag'raq tarix erdi, va necha bayti har bayt uch va to'rt tarix erdikim, bayt ma'nosig'a futur yo'l topmaydur erdi⁽⁵¹⁾. Bu ishlar bashar shavqidin tashqari uchun ani derlar erdikim, atorudni istixroj qilibdur⁽⁵²⁾. Yoshi to'qsondin o'tib erdi⁽⁵³⁾. Bu matla' aningdurkim:

*Ey ravshani az nuri ruxat didai jonro,
Bar xok nishonda qadi tu sarvi ravonro⁽⁵⁴⁾.*

Hamonoki qabri Balxda, Amir Surx mazori navohisidadur.

Xoja Muayyad Devona — Hazrati Shayx avlodidindur. O'zi oshuftadimog' kishi erdi. Ammo nazmi ravon va salis voqe' bo'lur erdi. Anga saltanat da'vosi bor erdi. Hamul ish ustiga ani zoye' qildilar. Bu matla' Xoja Hofiz javobida aningdurkim:

*Chashm dorem az on sham'i saodat partav —
Ki, jahonro bidihad ravshani az sari nav⁽⁵⁵⁾.*

Go'yo ani talaf qilg'onda so'ngokin topmadilarki, bir yerda qo'yg'aylar.

Xoja Muayyad Mehna — Hazrat Shayx Abusaid Abulxayr⁽⁵⁶⁾ (quddisa sirruhu)ning nabiralari dindur. Yillar mazor boshida shayx erdi va zohir ulumin takmil qilib erdi va va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' erdi. Va Xoja samo'ni dag'i muassir qilur erdi. Salotin Xojani ta'zim qilurlar erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Az mahi ro' i tu oinai jon soxta and,
V-andar oina jonro nigaron soxta and⁽⁵⁷⁾.*

Xojaning mazori buzurgvor jaddi gunbazidadur.

Mir Imod Mashhadiy — «Musaviy» taxallus qilur erdi. Donishmand va xush xulq va xush tab' kishi erdi. Mashhad shuarosi aning xizmatig'a yig'ilur erdilar. Va har ne desa itoat qilurlar erdi. Va muammo fanida ham mahorati bor edi. Va Shayx Kamolning⁽⁵⁸⁾ javobida bu bayt ayindingurkim:

*Guft bo chashmat bigu: to juz xayoli ro' i mo,
Surati digar nayorad dar nazar, guftam:*

«Ba chashm»⁽⁵⁹⁾.

Shoh Badaxshon — «La'liy» taxallus qilur erdi. Xush tab' va musulmonvash kishi erdi. Alarning xonavodasi qadim xonavoda erdi, necha ming yil erdikim, Badaxshon mulkingning saltanati, alarning xonavodasidin o'zga xonavodag'a intiqol topmaydur erdi. Sulton Abu Said Mirzo alarni musta'sal qildi va mulku mollarini egalladi. Bu matla' Shohningdurkim:

*Mo ba savdoi tu tarki jonu sar xohem kard,
Komi jon har dam zi la'lat pur shakar xohem kard⁽⁶⁰⁾*

Shoh mazkur bo'lg'on podshoh ilkida shahid bo'ldi va derlarki, mazori Shayx Zayniddindadur (Vallohu a'lam).

Ibn La'liy — Shoh La'liyning o'g'lidur. Xush bosh va xush tab' podshohzoda erdi. Sohob vujudlo'q va sho'xluq andin ko'p naql qilurlar. Bu matla' aningdurkim:

*Ey zi la'li otashinat dar dili gulior nor,
G'ayri dil burdan nadori, ey buti makkor, kor⁽⁶¹⁾.*

Ul ham otasining qotilig'a maqtul bo'ldi.

Mavloni Abdusamad Badaxshiy ham Badaxshondindur. Sulton Abusaid Mirzo zamonida Hiriga keldi. Podshoh anga o'z tarixin buyurdi. Masnaviygo'y va musannif kishi erdi. Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g'alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg'ach filloh muttanabbih bo'ldi va izhori minnatdorlig' ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo'ldi. To'y ta'rifida va go'yandalar zikrida aning masnaviysidindurkim:

*Zi mofi hayo-ho'y to moh bud,
Sari ovozashon, jokam olloh bud⁽⁶²⁾.*

Qabri derlarki Ko'histondadur.

Mavlono Yusuf Shoh — «Kotib» taxallus qilur erdi, kitobat fanida mutaayyin kishi erdi va Hiriy shahrida zurafo zumrasida o‘zin doxil tutar erdi, ammo faqir va yaxshi kishi erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Ey judo gashtaki duri zi bari hamnafason,
Mo dar in shahr ba-din ro ‘zu tu dar shahri kason⁽⁶³⁾.*

Hiriy shahrida olamdin rihlat qildi va qabri ham Hiriydadur.

Xoja Abu Ishoq — Xoja Muayyad Mehnaning o‘g‘lidir. Tolibi ilm va xush tab’ yigit erdi. Ammo badxo‘y va mutakabbir ham bor erdi. Mehnada ba’zig‘a aytqon marsiyadin bu bir bayt aningdurkim:

*Kashid az dasti mo sahroi Xozar domaki gulro,
Ba sahroi qiyomat dasti movu domani sahro⁽⁶⁴⁾*

Qabri ham otasi mazoridadur.

Sayyid Kozimiy — xush tab’ va sabuk ruh kishi erdi va tab’i hazlg‘a moyil erdi. Podshoh hazratidin Xojai Jahong‘a risolatqa borib andin kelurda Iroqda qoldi. Andin faqirg‘a bir ikki ruq‘asi keldi. Ammo o‘zi Sherozda favt bo‘lubtur deb shuhrati bor. Sipohiylikda jald kishi erdi va she’ri ravon voqe’ bo‘lur erdi, qasidasi Bobo Savdoiy tavri tushar erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Subh az ufuq chu ra’yati bayzo barovard,
Oham alam ba avji surayyo barovard.*

Shukri xudo ki qozii shahri Hari nayam,
Dar silki odami sifatonam xare nayam⁽⁶⁵⁾

ham aningdur. Muncha g‘ayri mukarrar xalq, Sayid davlatidin shuarog‘a mamduh bo‘lubturlar.

Mavlono Muhammad Muammoiy — latif va sunniy mazhab kishi erdi. Ko‘p akobir xizmatiga yetib erdi, manzuri nazarlari bo‘lub erdi. Bobur Mirzo zamonida muazzam sadr bo‘ldi va andin so‘ngra ham salotin majlisida maqbul va maxsus erdi. Muknati chog‘ida Sherozda hazrat Xoja Hofiz qabri boshida gunbaz yasadi va Bobur Mirzoni anda tilab ziyofag qildi. Sherozning sho‘x tab’laridan biri Mirzoning ko‘zi tushar yerda devorda bu baytni bitib erdikim:

*Agarchi jumlai avqofi shahr g‘orat kard,
Xudosh xayr dihod onki, in imorat kard⁽⁶⁶⁾.*

Mirzo o‘qudi va bu bobda hazllar bo‘ldi. Faqir bu naqlni o‘zidan eshitibmen. Faqir bila ulfati bor erdi va ko‘p musharraf qilur erdi. Oxir hayotida Kichik Mirzo⁽⁶⁷⁾ bila haj davlatig‘a ham musharraf bo‘ldi va anda olamg‘a vido‘ qildi.

Xoja Hasan Xizrshoh — astrobodlig‘dur. Yaxshi tab‘liq, yaxshi muxovaraliq kishi erdi. Oshuftasor va foniysifat ham bor erdi. She‘rni yaxshi aytur erdi. Nasxta‘liq xatin ham Mavlono Ja‘far⁽⁶⁸⁾ tariyqin taqlid qilib, shirin bitir erdi. «Layli va Majnun» muqobalasida «Zayd va Zaynab» masnaviysi aytibdur. Bu bayt aning tavhididurkim:

*Ey chehra kushoi har jamili, _
Nomi tu shifoi har alili⁽⁶⁹⁾.*

Bobur Mirzo Mashhadda favt bo‘lg‘on yil ul shaharda g‘arib va xasta yiqilib erdi. Faqir g‘amxorliq qilib sihat topti. Bu matla‘ aningdurkim:

*Soyaat har joki, aftad bar zamin gul bar damad,,
Ne guli tanhoki, sar to sar gulu shakkar damad⁽⁷⁰⁾,*

Qabri Astrobodda masjid jome‘ ro‘baro‘yidadur.

Mavlono Hoji Nujumiy — Louboli kishi erdi va tab‘i hazlg‘a moyil erdi va hazlomez qit‘alari bor. Ammo bu matlai yaxshi voqe‘ bo‘lubturkim:

*Boz iyd omad, biyo jonoki, qurbonat shavam,
Hamchu chashmi go‘sfandi kushta hayronat shavam⁽⁷¹⁾,*

Xoja Mas‘ud Qumiy — ul viloyatning ulug‘laridindur, Iroqtinkim Xurosong‘a keldi va faqir bila musohib erdi. Masnaviysi puxta va g‘azallari ravon erdi. Ko‘p rangin abyot ham she‘rlarida bordur. Sulton Sohibqiron tarixin anga buyurildi. O‘n ikki ming baytqa yaqin aytibdur. «Yusuf va Zulayxo», «Shams va Qamar», «Tig‘ va Qalam» munozarasi ham nazm qilibdur. Bu matli xub bo‘lubtur:

*Be tu chun dar gir‘ya xobam, mebarad,
Xob mebinam, ki obam mebarad⁽⁷²⁾.*

Bir ruq‘ada bu baytni bitib ahli nazmg‘a va xush tab‘larg‘a yuborib erdikim:

*Mushtoqamu duram, g‘ami jonkoham az in ast,
Mushtoqtaron durtarand, oham az in ast⁽⁷³⁾.*

Va devoni el orasida bor va mashhurdur. Hiri shahrida favt bo‘ldi va Piri Sesadsola javorida madfundur.

Hofizi Yoriy — xush suhbat va shirin kalom kishi erdi va qiroat ilmin yaxshi bilur erdi va ko‘proq avqot tilovat qilur erdi va hamisha faqir bila musohib erdi. Mav‘izada insof bobida bu bayt aningdurkim:

*Garam bar sar hazor oyad balo shoyistai onam
Ki, hastam badtarin az xalqu xudro nek medonam⁽⁷⁴⁾.*

«Ixlosiya»⁽⁷⁵⁾ madrasasida favt bo‘ldi va ko‘chai Safo boshida qo‘yildi.

Mavlono Qanbariy — Nishopurdindur. Omi kishi erdi. Ammo nazm ayturda cholok erdi va she‘rida ham choshni bor. Bu qasida matlai Bobur Mirzo madhida aningdurkim:

*In guharho binki, dar daryoi axzar kardaand,
Z-in mashoil otashi xur binki chun barkardaand⁽⁷⁶⁾.*

Qabri hamul viloyat soridur.

Mavlono Xusraviy — da‘volik va buzurgmanish va tundxo‘n kishi erdi. Faqir qoshig‘a ba‘zi mahalda she‘r keltursa erdi, burunroq andoq kalom surar erdikim, daxl qilmoq yo‘li bog‘lanur erdi. Zaruratan barcha she‘rni tahsin qilmoq kerak erdi. Devoni ham el orasida bor edi. Bu matla’ aningdurkim:

*Zi la‘li yor dandone giriftam,
Hayote yoftam, jone giriftam⁽⁷⁷⁾.*

Hiriyda favt bo‘ldi, qabri ham andadur.

Mavlono Zayniy — dilpazir tab‘lik kishi erdi. Agarchi omi erdi, ammo she‘ri xoli az rangi emas erdi. G‘azal ko‘proq aytur erdi. Asli Sabzavordin erdi va Mir Shohiy bila suhbat va majlislar tutub erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Sanavbar to zi xizmatgorii sarvat judo monda,
Shuda devonavu jo ‘lida mo ‘ sar dar havo monda⁽⁷⁸⁾.*

Astrobodda favt bo‘ldi va qabri ham andadur.

Vali Qalandar — Bobur Mirzo ostonida mulozim erdi. Xira va daler behayo kishi erdi. Suxandonlar orasida badshe‘rlikka mashhur erdi. Pir Budog‘ Hiriy shoirlarin Sherozg‘a eltganda ul ham bordi, nodiran bu matlai yaxshi vohe’ bo‘lubturkim:

*Nayam malulki, koram naku nashud, bad shud,
Shavad-shavad nashavad k-o ‘ mashav chi xohad shud⁽⁷⁹⁾.*

Sherozda favt bo‘ldi va qabri ham andadur.

Mavlono Volahiy — oshufta kishi erdi. «Bard»⁽⁸⁰⁾ lafzidin achchig‘i kelur erdi, bu jihatdin anga tashvish berurlar erdi. Bobur Mirzo Mashhadda ekanda «orosta» radif qasida aytib erdi. Baytiki «mamduh» otin bog‘laptur budurkim:

*Shoh Abulqosimki, shud dar davri u xushtar zi xuld,
Mashhadi Sulton Ali Muso Rizo orosta⁽⁸¹⁾.*

Harimiy Qalandar — Samarqand viloyatidini erdi. Tolibi ilmlig‘i ham bor erdi. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

*Necha yig‘lay sham‘dek hajringda, yorim, kechalar,
Ohkim kuydirdi dog‘i intizorim kechalar.*

Qabri Samarqanddadur.

Mavlono Tarxoniy — Andxuddindur. Sipohiylik suratida yurur erdi. Hazrat Maxdumiy Nuranning bu she‘ri javobidakim:

*Ey zi mushkin turraat bar har dile bandi digar,
Rishtai jonro ba har mo‘i tu payvandi digar⁽⁸²⁾.*

Bu bayt aning she‘ridinkim:

*Murg‘i dil par kandamu az sina bir‘yon soxtam,
To kasham peshi sagat har lahza parkande digar⁽⁸³⁾.*

Ba‘zi maxodim Samarqandda bandg‘a tushganda, bu turkcha she‘r aytqondur. Matlai budurkim:

*Tushgali band ichra bo‘ldum ul pari devonasi,
Ko‘k saro fonusdur ul sham‘u men parvonasi.*

Qabri go‘yo Andxuddadur.

Mavlono Ishqiy — hiriylilik erdi va qasidani puxta aytur erdi. Sulton Abu Said Mirzo Oqsaroyini yasaganda imoratning kitobasi uchun shuarog‘a she‘r buyurdilar. Imorat ta‘rifida aning she‘ri yaxshi tushub erdi. Matlai budurkim:

*In manzareki toq chu abro‘i dilbar ast,
Az xok bar giriftai doroi kishvar ast⁽⁸⁴⁾.*

Qabri Hiriyyadur.

Mavlono Abdulvahhob — Isfaroyindindur. Abdolvash kishi erdi. Ammo yaxshi tab‘i bor erdi. Sabzavorda qazo mansabini anga bergandurlar. Andin so‘ngra Isfaroyinda qozi bo‘lg‘ondur. Andin ma‘zul bo‘lg‘onda Astrobodqa ihtisob amrin anga ruju‘ qilib

yibordilar. She'rg'a mash'uf erdi. Mir Xusrav «Dar'yon abror»i javobida bu matla' aningdurkim:

*In kuhan avroqi gardun k-ash zi anjum zevar ast,
Ko 'hna tarixe base shohoni anjum lashkar ast⁽⁸⁵⁾.*

Astrobodda favt bo'ldi va qabri ham andadur.

Xoja Yusuf Burhon — Hazrati shayx ul-islomiy Ahmadi Jomiy⁽⁸⁶⁾ (quddisa sirruhu)ning yaqinroq avlodidindur. Faqir va fano tariyqida suluk qilur erdi. Va tajarrud va inqito' rasmin ko'p masluk tutar erdi. Va jamei ahli turuqning sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko'proq o'z she'rig'a musiqiy bog'lar erdi. «Isfahon» amalini, bu baytig'a bog'labturkim:

*Rasid mavsumi shodiyu ayshu tarab,
Agar gado ba murodi dile rasad chi ajab»⁽⁸⁷⁾.*

Jomda olamdin rihlat qildi. Qabri Hazrati Shayxning hazirasi eshigidadur.

Mavlono Mashriqiy — mashhadlig'dur. Kosagarlik san'atiga mansub erdi, ammo darvesh kishi erdi. Mir Maxdum (alayhir-rahma)⁽⁸⁸⁾ va ko'p azizlar xizmatig'a yetib erdi. Ro'zgor shikoyatida bir obodon she'ri bor. Bu bayt andindurkim:

*Az chist surx panjai marjonu poi bat,
Gar xun bajoji ob ravon nest dar bihor⁽⁸⁹⁾.*

Hiriyda favt bo'ldi.

Mavlono Havoyi — Mavlono Mashriqiyning inisidur. Naqqoshliqdin biror nima vuqufi bor erdi.

Filjumla kitobat ham qila olur erdi. Va zurafo derlar erdikim, o'z ash'orin o'zi bitib, jadval tortib tazhib qilib, tayyor yasab elga berurkim, bu jihatdin shuhrat tutqay. Anga aytilsa, inkor qilib hazlu mutoyiba bila o'tkarur erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Ba girdi ko 'n tu bo sad niyoz megardam,
Bahona mekunam az duru boz megardam⁽⁹⁰⁾.*

Hiriyda favt bo'ldi. Qabri Xoja Chilgaziy javoridadur.

Mavlono Qabuliy — faqir kishi erdi. Bozori Malikda g'azlfurushluq⁽⁹¹⁾ do'koni bor erdi. Bir saboh ul mahalladin jam'e keldilarkim, o'tgan kecha Mavlono Qabuliy bizlarni tilab vasiyat qildikim, bu kecha olamdin borurmen, takfin va tajhiz jihatidinkim, hech nimam yo'qtur, saboh devonimni falon kishiga, ya'ni faqir qoshig'a eltib niyozimni yetkurib, iltimos qilingkim, meni Sodoti Musrih go'ristonida dafn qildursun. Saboh habar tuttuq,

ersa o‘tub erdi. Vasiyati dasturi bila devonin sening qoshingg‘a kelturubbiz. Faqir aning vasiyatini bajo kelturub, tadfinidin so‘ngra devonin ochtuq. Ersa bu matmai keldikim:

*Agar qabuli tu yobam Qabuliyam, var na
Ba har du kavn chu man noqabul natvon yoft⁽⁹²⁾.*

Mavlono Muhammad Amin — Balxdindur. Soda kishi erdi. Ko‘proq avqot navisanda va amaldorlar tegrasida bo‘lur erdi, «dilbaram» lafzin yetti tajnis ila aytib ul g‘azalin Bobur Mirzo tobug‘ida kelturdi, mustahsan tushub bu baytinikim:

*Ey siyah chashmi xitoyi murg‘i jonro bo tu uns.
Ba-z siyah chashmoi digar hamchu ohu dilbaram⁽⁹³⁾.*

Yod tutub Mirzo o‘qur erdi. Mavlono bu ishtin bag‘oyat mubohi erdi. Andoq eshitildikim, Astrobodda olamdin o‘tubdo‘r.

Mavlono Saidiy — mashhadlig‘ erdi va kosagarlik san‘atig‘a mansub erdi. Bu matla‘ aningdurkim:

*Zi bahri qat‘i hasti hila az sad joy angezam;
Magar yak lahza bo on dilbari xudroy omezam⁽⁹⁴⁾.*

Ikki qofiya rioyat qilibdur, faqirg‘a so‘ngg‘i bayti matla‘din yaxshiroq kelibdurkim:

*Shabe binshinu chandone sharobi behisobam deh
Ki, natvonamki to ro‘zi hisob az joy barxezam⁽⁹⁵⁾.*

Hiriyda favt bo‘ldi.

Mavlono Mir Arg‘un — xaymado‘zluq san‘atig‘a mansub erdi va qadimiy zurafodin erdi. Soyir nazmlardin muammog‘a ko‘proq moyil erdi. ismig‘a bu muammo aningdurkim:

Hiriyda favt bo‘ldi.

Mavlono Sadr Kotib — oshuftaro‘zgor kishi erdi, ko‘praq avqot atrok xizmatida bo‘lur erdi. Lavandliq muayassar bo‘lsa erdi, na she‘rdin yod qilur erdi, na xatdin. Chog‘ir ani andoq mag‘lub qilib erdikim, ixtiyori hech ishda yo‘q erdi. Bu matla‘ aningdurkim:

*Hargiz dili moro ba g‘ame shod naqardi,
Kushti digaronrovu maro yod nakardi⁽⁹⁶⁾.*

Hiriyda favt bo‘ldi.

Mavlono Ayoziy — g‘arib shakllik kishi erdi. Atvori va so‘zi xoh nazm, xoh nasrda g‘arib erdi. Faqir bir majlisda Puli Molonda ani ko‘rdum, bir anjumanda bir kasidasin o‘quydur

erdi. Har bayt bunyod qilsa, so‘z uslubidin, qofiyasin ayta berur erdim. Bag‘oyat hayrat qildi. Uch yildan so‘ng Bog‘i Safedda yana bir majlisda biaynihi ushmundoq voqe‘ bo‘ldi. Ul yana hayrat bunyod qildi. Burung‘i majlis ahlidin bu majlisda ham necha kishi bor erdi. Andin so‘rdilarkim, hargiz bu nav‘ kishi ko‘rubmusen, chun ko‘zida za‘f bor erdi, dediki, ko‘rmaymen, magar uch yil mundin burunroq Puli Molonda bir yigit ko‘rdum, ul ham bu nav‘ shu‘badabozliq qildi. Majlis ahli kulushtilar. Aning o‘zi uchun aytqon mashhur bayti budurur, base xub aytibdur:

*Chodarshabi xud rangi magas rida, Ayoziy
Ne jomavu ne kurtavu ne mo‘za namozi⁽⁹⁷⁾.*

Madfani ma‘lum ermas.

Mavlonο Anisiy — kam bizoat shoir erdi va muttahaḡ anga erdikim, elning she‘rini o‘ziga bog‘lar. Bu matla‘ni der erdikim, men aytibmen:

*Garchi mejo‘yad dilam doim visoli yorro,
Yor mejo‘yad ba rag‘mi man dili ag‘yorro⁽⁹⁸⁾.*

Bu matla‘ har kishining bo‘lsa, mahalli muzoyaqa emas Qabri Hiriydatur.

Mavlonο Muhammad Omiliy — zarifvash va noziksheva kishi erdi. Hazrati Mavlonο Sharafiddin Ali Yazdiy (quddisa sirruhu) xizmatin ko‘p qilib erdi va manzuri nazar bo‘lub erdi. Nazmlardin tab‘i muammog‘a muloyim erdi.

O‘g‘li ham shoirdir, o‘z yerida kelgay. Hamonokim, Mavlononing madfani Nishopurdatur.

Mavlonο Burujiy — Mavlonο Sa‘diddin Koshg‘ariynig murididur, naqshbandiya silsilasidindur. Qalin muridlari bor erdi. Uzi shahar masjidida jomeida suluk qilur erdi. Base toliblarg‘a murshidi muqtado erdi va gohi nazm ham iltifot qilur erdi. Bu matla‘ aningdurkim;

*Man oshiqi sho‘ridavu mastam, chi tavon kard?
Dil dodavu jon dar kafi dastam, chi tavon kard?⁽⁹⁹⁾*

Qabri o‘z piri yonidatur.

Darvesh Nozukiy — Xurosonning odamizodalaridin erdi. Otasi Mashhad hukumatida qilib erdi. O‘zi sipohiylik tarkin tutub darveshlik vodiysiga tushub kapanakpo‘shluq shaqida Mashhadida go‘sha ixtiyor qildi va maoshi o‘tkunchakim, gadolik qilmag‘ay, ilgida nimaginasida bor erdi, zihi sohib davlatikim ul erdi:

*Birovkim chiqti eldin ogah uldur,
Gadolig‘din kim ogahdur, shah uldur.*

Alqissa bu yaxshi forsiy matla' aningdurkim:

*Manamki, nest maro juz ba jomu boda tafoxur,
Bidor soqii gulchehra, kosahoi purro-pur⁽¹⁰⁰⁾.*

Qabri Mashhaddadur.

Mavlono Qavsariy — Buxorodindur. Qabuliyatlik, xush suhbat, shiringo'y va fasih zabon va donishmand kishi erdi. Bir kun hujrasida o'ziga yarasha tabx qiladur ermish. Mavolidin birov kiribdur qazon ostig'a o'tun qo'yubdur. Mavlono debdurkim: «Tabh ishida madad qilmakim, sharik bo'lursen»⁽¹⁰¹⁾. Bu matla' aningdurkim:

*Dar xayoli pistai xandoni on bodom chashm,
Chashmai xunest chashmi moki, dorad nom chashm⁽¹⁰²⁾.*

Hiriyda favt bo'ldi. Qabri Xiyobon boshidadur.

Sayid Muslimiy — isfaroyinlikdur. Abdolvash yigit erdi. Ammo yaxshi tab'i bor edi. Bu matla' aningdurkim:

*Xoli u naqdi dilam az didai ravshan kashad,
Hamchu duzde k-o' matoi xona az ravzan kashad⁽¹⁰³⁾.*

Qabri Isfaroyindadur.

Mavlono Nizom — tolibi ilm va faqir kishi erdi. Xonaqohi Malikda bo'lur erdi. Mo'ammo fanig'a ko'p mashg'ulluq qilur erdi. ismig'a bu muammo aningdurkim:

Qabri go'yoki Xiyobondadur.

Mavlono Yoriy — vazirzoda erdi, ammo darvesh va ozoda erdi. Faqr va nomurodlig'da ko'ziga za'f toriy bo'ldi, andoqkim nimani ko'rmas bo'ldi va Balxda mutavattin bo'ldi. Xub tab'i bor edi. Bu matla' aningdurkim:

*Qasam nishoni sari mo'y az on dahon nadihad,
Chunon ba tangam az in g'amki, kas nishon nadihad⁽¹⁰⁴⁾.*

Balxda olamdin o'tti. Qabri ham andadur.

Xoja Ahmad Mujallid — Xurosonning sho'x tab'laridin erdi. Ammo bag'oyat xabissheva kishi erdi, Mutaayyin eldin oz qolmish bo'lg'aykim, ul nazm yo muammo bila hajv yo hazl qilmag'ay.

Qabri Hiriydadur.

Mavlono Muhammad Ne'matobodiy — Pahlavon Muhammad⁽¹⁰⁵⁾ (sallamahulloh) xizmatida ul buq'aning imomi erdi. Chun Pahlavon majlisida she'r va muammo ahli doimbor erdilar, ul dag'i muammog'a ishq paydo qildi va Pahlavon ba'zi zurafog'a suporish qildi, oz fursatda yaxshigina o'rganib ayta boshladi. Ammo bot qazo yetib olamdin o'tti, faqir muammog'inalarin jam' qildurdum. Va ismig'a bu muammo aningdurkim:

Gozurgoh go'ristonida madfundur.

Sayid Abdulhaq — astrobodlig'dur, xushtab' yigit erdi, muhovarasi dag'i xub erdi. Xo'chon viloyatining qozisi, eshak rishva berib sadr oni qozi qilg'ong'a bu qit'asi mashhurdurkim:

*Hame gasht dar shahr shaxse zi Xo'jon
Ki, qozi shavad, sadr rozi nameshud,
Bidodash xare rishvavu gasht qozi,
Agar xar namebud, qozi nameshud⁽¹⁰⁶⁾.*

Qabri go'yo Astrobod viloyatidadur.

Mavlono Mir Qarshiy — Samarqandda bo'lur erdi va bozorda sahhoflik do'koni bor erdi, zurafo anda jam' bo'lurlar erdi va Mavlono o'zin ul xaylg'a ustod tutar erdi. Shikoyat bobida bu matla' aningdurkim:

*Nest oyini muhabbat kardan az yore gila,
Varna z-on badahd mekardem bis'yore gila⁽¹⁰⁷⁾.*

Ul «Xatoiy» taxallus qilur erdi va Samarqandda—o'q olamdin o'tti, madfani ham anda o'qdur.

Mavlono Javhariy — ham samarqandlig'dur, sobunxona mushrifi erdi, ham sobunxona eshigida ko'chaning o'rtasida o'zi uchun hujrag'ina yasab erdi. Aruz bilur erdi va «Siyar un-nabi»⁽¹⁰⁸⁾ nazm qilib erdi. Bu bayt aningdurkim:

*Falak baski, dar mavkibash toxta,
Ba har moh na'le biyandoxta⁽¹⁰⁹⁾.*

Qabri Samarqanddadur.

Mavlono Xovariy — ham samarqandlig'dur va darzigarlikka mansub erdi. Badihani ravon aytur erdi va tab'i xeyli sho'x erdi. Ul tarje'bandkim, bandi budur, aningdurkim:

*Mezanad gah ba cho'bu goh ba musht,
Bozi-bozi maro bixohad kusht⁽¹¹⁰⁾.*

Bu matla' aningdurkim:

*Man ki umre ba havas payravii did kardam,
Umr biguzashtu nadonamki, chi hosil kardam⁽¹¹¹⁾.*

Qabri ma'lum emas.

Mavlono Halvoiy — ham samarqandlig' dur. Shukufta tab'liq, yaxshi chiroylik yigit erdi. Shabob ayyomida favt bo'ldi. Umri qisqa uchun so'zining shuhrati ham ozdur. Bu matla' aningdurkim:

*Zohido, qiblai mo abro 'i dildor avlo,
Tuvu masjidki, turo ro 'y ba devor avlo⁽¹¹²⁾.*

Qabri o'z mulkidatur.

Mavlono Riyoziy⁽¹¹³⁾ — samarqandlig' dur. Mutakabbir va mu'jib kishi erdi. G'azalni bag'oyat xub aytur erdi. Jome' ul-fazoyil va muqavi yud-daloyil kishi erdi va yetti qalam bilan xatni xub bitar erdi va ham mullo va ham hofizki, qur'oni majidni yetti qiroat bilan bilur va o'qur erdi va ham kotib va ham shoir va ham maoliy erdi. Ulum fanida hech nimarsa ang'a majhul qolmas erdi. Bu ma'nig'a taxallusi dalildurkim, har nimarsakim, xayol qilsa erdi, aytur erdi va der erdi va bog'lar erdi va xub tasnif qilur erdi. Ilmi musiqiy va advor va nujum va istixroji ramal va g'ayri zolika hech nimarsadin benasib emas erdi. Bu g'arro matla' aningdurkim:

*Sitorayest duri go 'shi on hilolabro '
Zi ro 'i husn ba xurshed mezanad pahl⁽¹¹⁴⁾.*

Ikki misra' orasida rabt jihatidin bir «ki» lafzi kerak. Faqir anga dedimki, bu nav' yaxshiroq bo'lg'ayki:

*Zi ro 'i husn duri go 'shi on hilolabro '
Sitorayestki, bo moh mezanad pahl⁽¹¹⁵⁾.*

Insof yuzidin kerakki, musallam tutsa erdi, jadal bunyod qildi, faqir sokit bo'ldum. O'z yoronlari taloshtilar ham qabul qilmadi. Samarqandda favt bo'ldi.

Mavlono Safoiy — andijonlikdur. Soda yigit erdi. Ammo soda yuzluk yigitlar suhbatig'a mash'uf erdi. Tab'idin goh-goh rangingina nimalar bosh urar erdiki, o'z sodalig'i munofisi erdi. Ul jumladin bu bayt aningdurkim:

*Menamoyad gohi javlon na'li shabrangat ba chashm,
Chun mahi nav k-az nazar sozand mardum g'oyibash⁽¹¹⁶⁾.*

Samarqandda favt bo'ldi.

Mavlono Yusuf — «Badiiy» taxallus qilur erdi. Ul ham Andijondindur. Mavlono Safoiy bila bo‘lur erdi. Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur erdi. Sig‘ari sin jihatidin she‘rida xomlik bo‘lsa faqir isloh qilur erdim. Bot buzurgmanish va mutasavvir? yigit bo‘ldi va Xurosong‘a kelib ko‘p salohiyatlar ham kasb qildi. Faqirdin o‘zga kishi aning she‘rida so‘z, ayta olmas erdi. Ujbi jihatidin sho‘xlar ani Yusuf Safoiy derlar erdi. Ul tag‘ayyur jihatidin behol bo‘lur erdi. Ammo yaxshi suhbat bor erdi va ko‘prak sinf she‘rni yaxshi aytur erdi va aruz bilur erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Gar bad-in obu havo ko‘yat buvad manzilga ham,
Ne zuloli Xizr boyad ne dami ruhullaham⁽¹¹⁷⁾.*

«Mir‘ot us-safo»⁽¹¹⁸⁾ qasidasi tatabbuida bu bayti yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

*Duri maqsud jo‘yon majma ul-bahrayn shud sufi
Ki, bahre dar ast az chashmai har chashmi giryonash⁽¹¹⁹⁾.*

Muammo risolasi bitib, anda ko‘p ish qilibtur.

Saraxsda favt bo‘ldi. Mazori hazrat Shayx Luqmon xonaqohidadur.

Mavlono Xokiy — Kusavdindur, Xoja Kusaviy (quddisa sirruhu) xizmatida bo‘lur erdi. Darvesh kishi erdi. She‘r ham aytur erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Niyozmandi tuyem, ey ba noz parvarda,
Turo zamona ajab dilnavoz parvarda⁽¹²⁰⁾.*

Mavlono Lutfiy⁽¹²¹⁾(alayhirrahma) — o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda, shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzir ul javob matla’lari bor, ul jumladin biri budurkim:

*Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,
O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur qush’*

Yana biri bukim:

*Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,
Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin.*

Va Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o‘n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun, shuxrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she‘rlarig‘a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To‘qson to‘qquz yashadi va oxir umrida radifi «oftob» she‘ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu’ qildilar, hech qaysisi matla’ni oncha ayta olmadilar va ul matla’ budurkim:

*Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba joi moh dar bar oftob⁽¹²²⁾.*

Va o‘tar vaqtida bu g‘azal matlalkim, tuganmaydur erdi, vasiyat qildikim, hazrati Maxdumiy Nuran tugatib, o‘z devonlarida bitisunlar va ul matla’ budurkim:

*Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad,
Beh z-onki, ba badxo ‘i bemehri chunin aftad⁽¹²³⁾.*

Mavlono yigitligida ulumi zohiriyini takmil qilg‘ondin so‘ngra Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariyqida ham suluk qilg‘ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi.

Bu faqir borasida ko‘p fotihalar o‘qubdur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba‘zi mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Mavlononing qabri shahr navohisida Dehi Kanordakim, o‘z maskani erdi, andadurur.

Mavlono Yaqiniy⁽¹²⁴⁾ — tundroq mashrabliq kishi erdi. Turkiy va forsiy she‘r aytur erdi. Turkchasin bu matlain ko‘p mubohotlar bila o‘qur erdikim:

*Ohkim jonimg ‘a yettim yori nodon ilgidin,
Dodu faryod ul jafochi ofati jon ilgidin,*

Ammo forsiysidin bu matlai yomon voqe’ bo‘lmaydurkim:

*Subheki, dam ba mehr nazad yak nafas tui,
Naxleki, bor naxo ‘rad az u hech kas tui⁽¹²⁵⁾.*

Oxir damida beadabona so‘zlaridin tavba qilib, ahli saloh tariyqi bila kechti. Umedkim, ma’fu bo‘lmish bo‘lgay. Qabri Darai Dubarodarondadur.

Mavlono Atoiy⁽¹²⁶⁾ — Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvas va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutti. Bu matla’ aningdurkim:

*Ul sanamkim, suv qirog ‘inda paridek o ‘lturur,
G‘oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo ‘lur.*

Qofiyasida aybg‘inasi bor. Ammo Mavlono ko‘p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyotig‘a muqayyad emas erdi.

Qabri Balx navohisidadur.

Mavlono Muqimiy — hiriylilik erdi. Darvesh, mashrab kishi erdi. Sufiya istilohotidin ham vuqufi bor erdi, Bu toifa istilohotig'a muvofiq chun turkigo'y erdi, turkcha tarje' aytibdurkim, xili choshnisi bor va aning bandi bu baytdurkim:

*Sensen asli vujudi har mavjud,
Sendin o'zga vujudda ne vujud.*

Qabri Hiriyyadur.

Mavlono Kamoliy — Balxdindur. Ko'hi Sofda bo'lur erdi. Turkigo'ydur. Aning nazmi ham ul navohiyda xaloyiq orasida xoli az shuhrat emas erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Irning qulidur nayshakar, ei jon, beli bog'lik.,
Gul dog'i yuzing bandasidur to'ni yamog'liq.*

Qabri Ko'hi Sofdadur.

Mavlono Latifiy — aning ne yerlik ekani ma'lum bo'lmadi. Ammo mundoq derlarkim, tab'i xili sho'x ekandur. Kichik yoshida favt bo'ldi. So'zi oz qolibtur. Bu matla' aningdurkim:

*Gah oqar, gah tomar labing shakari,
Bizga tegmasmu hech oqar, tomari.*

Agarchi turkonadur, ammo qoyilining sho'x tab'lig'i ma'lum bo'lur. Qabri ma'lum emaskim qaydadur.

Mavlono Sakkokiy⁽¹²⁷⁾ — Movarounnahrdindur: Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarriflaridin har necha tafahhus qildimkim, aning natoiji tab'idin biror nima anglayin, ta'rif qilg'onlaricha nima zohir bo'lmadi. Barchadin qolsalar so'zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she'rlarn aningdurkim, o'g'urlab o'z otig'a qilibdur. Ul yerlarda bu nav' o'xshashi yo'q, mazasiz mukobaralar gohi voqe' bo'lur. Bori ba'zisi ta'rif qilibkim o'qurlar, bu matla'ni anga isnod qilurkim:

*Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko'zluq, sho'hshang,
Kabki dariy tovsuda yo'q albatta bu raftoru rang.*

Qabri ham ul sori — o'qdur.

Mirzo Hoji So'g'diy — ham samarqandlig'dur va ul mulkning odamizodalaridindur. Agarchi ba'zi mahalda g'arib nimalar ta'bidin bosh urar erdi. Bu baytida xili so'z rangi va choshnisi borkim:

O'xshatti qomatingg'a sanavbarni bog'bon,

Bechora bilmas ermish alifdin tayog'ni.

Bug'ina masalni yaxshig'ina bog'lag'on uchun umid ulkim, tangri taolo anga rahmat qilmish bo'lg'ay. Qabri ham o'z mulkidadir.

Nur Saidbek — xorazmliq'dur. Tab'ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin she'ridin bilsa bo'lur, o'qug'on bilg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*Moro dar in diyor tui dilnavozu bas,
Dorem az tu go'shai chashme niyozu bas⁽¹²⁸⁾.*

Qabri Marvda Xoja Hamadoniy⁽¹²⁹⁾ (quddisa sirruhu) javoridadur

Pahlavon Husayn — «Devona» taxallus qilur erdi. Filvoqe' abdolvash va bag'oyat ichguvchi kishi erdi. Ammo nomurodlig'i ham bor erdi. Chun xoli az lutfi tab' emas erdi, nazm ham aytur erdi.

Bu matla' aningdurkim:

*Tubi misoli sarvu shamshod qomati,
Man vasfi qomati tu chi go'yam, qiyomati⁽¹³⁰⁾:*

Qorabog'da maqtul bo'ldi.

Mavloni Sone'iy — Boxarzdindir. Masnaviy ko'proq aytur erdi. Hazrat Maxdumiy Nuran ta'rifida bir masnaviysida bu nav' ikki bayt debdurkim:

*Ba tu har gah u da'vi mekunad,
Chi da'viyest bema'ni mekunad,
To'ro myovai shirinu urost talx,
Chu sebi Samarqandu olui Balx⁽¹³¹⁾.*

Vazir erdi. Zulm va badnafslig'i jihatidin podshoh siyosatig'a giriftor bo'ldi va maqtul bo'ldi. Qabri o'z kentida Zirihdadur.

Xoja Musayyab — andin ajabroq kishi erdi.

Ul dag'i vazorat bexudlig'idin musulmonlarga' ajab zulmlar qilurg'a bel bog'lab erdikim, qazo devonidin bevosita siyosatqa mustavjib bo'lub va el aning sharridin xalos bo'ldilar.

Qabri ham o'z viloyatidadur. Bu matla' aningdurkim:

*Guzasht umru zi g'afat man on chunon mastam
Ki, hech tavba nakardamki, boz nashkastam⁽¹³²⁾.*

Mavlono Bilol — nadim sheva va sho‘ringo‘y kishi erdi. Turkiy va forsiy she‘rni yaxshi aytur erdi. Bu turkiy matla’ aningdurkim:

*Jonu ko ‘nglumni jafo o ‘ti bila kuydurdingiz,
Uylakim kul bo ‘ldumu mendin ko ‘ngul tindurdingiz.*

Hiriyda favt bo‘ldi va qabri Xojai Toq go‘ristonidadur.

Mir Said — el orisida «Kobuliy» laqabi bila mashhurdur. Faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur. Yaxshi tab‘i bor erdi. Turkchaga mayli ko‘proq erdi. Bu tuyuq aningdurkim:

*Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,
Gul adoqinda xumori yozasiz,
Gar men o ‘lsam, turbatimning toshig ‘a,
«Kushtai bir sho ‘x erur» deb yozasiz.*

Sulton Abu Said Mirzo ilgida Saraxs qo‘rg‘onida shahid bo‘ldi. Qabri shahrdadur.

Muhammad Ali — «G‘aribiy» taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur erdi. Mir Said Kobuliyning inisidur. Xush muhovara, xush xulq va xushtab’ va dardmand yigit erdi. Ko‘proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni xub bitir erdi. Agarchi bu faqirning qavm va xayli Sulton sohibqironing boyri qullari va mavrusiy bandalaridurlar, ammo bu mazkur bo‘lg‘on salohiyatlar jihatidin ul hazratning iltifoti inoyati aning bila o‘zgalardin. Ko‘proq erdi. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

*Dardi holimdin agar g ‘ofil, agar ogoh esang,
Hech g ‘amim yo ‘q sen manga gar dilbaru dilxoh esang.*

Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:

*Chashmi bemori tu hardam notavonam mekunad,
La’li jon baxshi tu, jono, qasdi jonam mekunad⁽¹³³⁾.*

Sulton sohibqiron xizmatidin g‘ariblik ixtiyor qilib, Samarqandda qolg‘onda og‘asining qotili shahodat martabasig‘a yetkurdi.

Darveshbek — Mirzo Ali Idigu Temur⁽¹³⁴⁾ o‘g‘lidur. Nasabi xud olam ahlig‘a zohirdur.

Hasabi jonibidin ham nasabcha sharif bor erdi. Hasab va nasab bila orosta yigit erdi va tab‘i dag‘i bag‘oyat xub erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Bubin ba qabri shahidatki, kushtai sitam ast,
K-az otashi dilu az novaki tuash alam ast⁽¹³⁵⁾.*

Abkoi jinsida andoq kishi yo‘q erdi. Hayf va yuz hayfki, Toshkand yurushida zoye’ bo‘lg‘onlar orasida talaf bo‘ldi. Chun fano selobig‘a g‘ariq bo‘ldi, qabri muttaayin ermas.

Mirzobek⁽¹³⁶⁾ — insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab’ va fahm va otaru tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona bu nav’ ta’riflardin mustag‘niy.

Bu matla’ aningdurkim:

*Ko ‘zung ne balo qaro bo ‘lubtur,
Kim jonga qaro balo bo ‘lubtur.*

Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur. Agarchi aning tiliga bu nav’ abyot ko‘p o‘tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi. Bu matlain faqir tugatib aning yodgori devonda bitibmen. Hayf va yuz hayf va darig‘ va yuz ming darig‘kim, hayot chashmasidin serob bo‘lmadi va umri naxli mevasidin bar yemadi.

Mazori Samarqand mahfuzasida Ahmad Hojibek⁽¹³⁷⁾ (sallamahulloh⁽¹³⁸⁾) madrasasida muttaayin madfanlaridadur. Makoni ravzai jinon va ruhig‘a firdavsi a’loda makon bo‘lsun!

Sayid Hasan Ardasher⁽¹³⁹⁾ bu faqirg‘a ota masobasida erdi. Andoqkim, Mirzobek farzand masobasida erdi, ham anga va ham faqirg‘a. Bu faqir turk va sort orasida andin tamomroq kishi ko‘rmaydurmen. Yigitlikda zohir ulumin kasb qilib erdi. Ammo faqir jonibi g‘olib erdi. Tasavvufda tab’y xub erdi. Salotin tarbiyati aning huzurig‘a bo‘ldilar, o‘zin yiroq tortti va lekin Sultoni sohibqiron xulq va lutfi mufrit bilan ish orasig‘a kiyurdi va ulug‘ tarbiyatlar qildi va mayli bittab’ faqr sori g‘olib erdi. Oqibat hamul jonibni ixtiyor qildi va hazrat Mavlono Muhammad Tabodkoni (quddisa sirruhu) xizmatidakim, murshidi zamon erdi va zikri o‘tti, suluk ixtiyor qilib «arbain»lar chiqarib⁽¹⁴⁰⁾, ko‘p maqosidi ma’naviy hosil qildi. Ikkalasi til bila gohi nazm aytur erdi. Rindlig‘i chog‘ida visoqi rind va xarobotiylarning majmai erdi va bu ishni kishi andin yaxshiroq-qilmadi. Ul vaqtda bu qit’ani deb erdikim:

*Chi xush boshad sabuhi bo dilorom,
Labolab az qadah har dam kashidan
Chu g‘uncha har du dar yak pirahan tang,
Baham pechidanu darham kashidan⁽¹⁴¹⁾.*

Ammo taqvo va zuhd chog‘ida turkcha bu bayt ham aningdurkim:

*Ilohiy, nuri irfondin ko ‘ngulga bir safo bergil
Ki, isyon zulmati ichra xarob ahvolu hayrondur.*

Muborak marqadi Miyoni Du jo'yda Gozurgoh yo'lida o'z otasi hazirasi ichida gunbazida erdi. Azizlar hazirasig'a naql qilildi.

Ikkinchi majlisning ixtimomi

Bu latofat oyin aizzag'a va bu balog'attazyin ajillag'akim, tab'lari natijasidin olam ahli xush-hol va zehnlari bodasidin xotirlari sog'ari molomoldur, tengri taolo alarg'a bog'i rizvonni maqom qilsun, ravzai jinonda orom bersun va Sulton sohibqiron ro'zgorig'a ruhlaridin madad va fayzi beadam yetkursun.

*Shohekim, erur sipehr miqdorlig'i,
Tufroq aro xasm boisu xorlig'i,
Topsun bular arvohi madadkorlig'i,
Har ishtaki bo'lsa tengrining yorlig'i.*

UCHINCHI MAJLIS

Alar zikridakim, holo zamon sahoifida moiniy abkori alarning Daqiq tab'lari hullaboflig'idin nazm libosi kiyadur, nazm libosi alarning amiyk zihnlari mo'y shikoflig'idin san'at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba'zining mulozamatig'a musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramanddurbiz

Ul jumladin quyosheki, roi olam oroyi bila bu zamon mubohiy va ahli zamong'a sharafi nomutananohiy muyassardur va daryoeki, tab'i gavharzoyi bila bu davron jaybi gavhardin to'la va davron ahli qo'yni va etagi javohirdin mamlu bo'ludur.

Hazrat Mahdumiy Shayxul-islomiy Mavloni Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zillahu⁽¹⁾) dururkim, to jahon bo'lg'ay alarning yorug' xotirlarining natoyiji, jahon ahlidin kam bo'lmasun va to sipehr evrulgay, alarning ochiq ko'ngullari favoyidi davron xaloyiqidin o'ksulmasun. Chun bu muxtasarda mazkur bo'lg'on jamoatning ra's va raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo'lg'on guruhning muqtadosi va peshvosi ul gavhari yaktodur, muborak ismlari bu avroqda sabt bo'lurdin guzir va yozilmasa dilpazir ermas erdi, jur'at bo'ldi. Chun alar latoyifi nazmi andin ko'proqdurkim, hojat bo'lg'aykim, ba'zi bitilgay, yo elga ma'lum bo'lsun deb birori sabt etilgaykim, kutublarining otin bitilsa, bu avroqtin oshar va musannafotlari durlari zinkrin qililsa, gardun bahri andin toshar, lojaram chun bu ma'ni bililur va duo bila xatm qililur.

Ruboiy:

*Yo rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni
Kim, aylading oni olam ahli joni,
Olam eliga bu jonni tut arzoniy.*

Turfa budurkim, Xoja Muhammad Tayobodiy⁽²⁾ kim, bir qarn ul hazratning maxsus mulozimi erdi, nazmlaridin bir bayt bilmas va bilsa ham nazm va nasrlaridin bir nukta fahm qilmas va qilsa ham maqsudqa muvofiq demas. Borakalloh, kamoli qobiliyat muncha — o‘q, bo‘lg‘ay! Ul hazrat yillar aning badxo‘ylug‘in ko‘rub singgurubdurlar va o‘zlariga keturmeydurlar va alarning bu holig‘a sodiq kelur ul baytkim:

*Rahravoni borkashro sahl don oshomi qahr,
Dar dahoni noqa xori xushk xurmoi tar ast⁽³⁾.*

Amir Shayxim Suhayliy — Xuroson mulkining muttaayyin elindindurur. Kichik yoshidin tab‘ osori va zihin namudori andin ko‘p zohir va hamida axloq va pisandida maosh atvoridin bohir erdi, Sulton Abu Said Mirzo xizmatiga tushub maxsus mulozim bo‘ldi va ash‘ori el orasida shuhurat tutti va holo yigirma yildin ortuqroqdurkim, Sulton Sohirqiron mulozimatidadur va rafe‘ munosib va a‘lo marotibg‘a musharrafdur; andoqkim, mulku mol, balki saltanatning barcha maslahat va ahvolig‘a mushorunilayh va mo‘tamaddun-alayh⁽⁴⁾ va amorat zayluchasida sokin va taqarrub masnadida mutamakkindurkim, hech namuloyim amrg‘a mansub va noshoyista aybg‘a mat‘un va ma‘yub emas va bu davlatda andoqki intizomi holi biyik bo‘ldi, nazmi ahvoli dag‘i avj tutti va bu «Iydiya»⁽⁵⁾ qasidasining matlai yaxshi voqe‘ bo‘lubturkim:

*Shukr, ey dilki, digar bor ba sad zebu jamol
Gardani shohidi iyd ast dar og‘ushi hilol⁽⁶⁾.*

Bu g‘azal matlai ham aningdurkim:

*Dil, chu shikasta makush oshiqi xasta holro,
Sangi sitam chi ,mezani murg‘i shikasta bolro⁽⁷⁾.*

Bu matla‘ ham yomon voqe‘ bo‘lmaydur:

*Har zamonam qomatash dar nolai zor ovarad,
Tarsam in naxli balo devonagi bor ovarad⁽⁸⁾.*

Va «Layli va Majnun» masnaviysida, Laylining xastaligi ta‘rifida bu bayt aningdurkim:

*Go‘yi zanaxash zi hol gashta,
Monandai sebi sol gashta⁽⁹⁾.*

Agarchi turkcha she‘rg‘a mashg‘ulluq oz qilur erdi, ammo bu matla‘ aningdurkim:

*Zuhd eli tasbih deb hayron qolur avbosh aro,
Rishtai jismimni ko‘rsa qatra-qatra yosh aro.*

Avvaldin oxirg‘acha faqir bila iltifot va ittihodi ko‘p uchun mundin ortuq ta‘rifin qililsa, o‘zumni ta‘rif qilg‘ondek bo‘lurdin qo‘rqib, ixtisor qilildi. Oqibati xayr bo‘lsun!

Mavlono Sayfiy⁽¹⁰⁾ — buxorolig‘dur, andin Hiri shahrig‘a keldi va aksari kutubi mutadovilotni ko‘rdi va tahsil asnosida nazmg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Andoqki she‘ri shuhrat tutti va masal tariyqin bag‘oyat yaxshi aytti. Bu matla‘ aningdurkim:

*Dilo, vasfi miyoni nozuki jononi man gufti,
Naku rafti hadise az miyoni joni man gufti*⁽¹¹⁾

Va san‘at va hirfa ahli uchun ham ko‘p latofatlik nazm qilibtur va ul tariyqda muxtare‘dur. Bu bayt ul jumladindururkim:.

*Buti pardozgaram k-u ba kason mesozad,
Hech bo holi mani xasta namepardozad*⁽¹²⁾,

Muammo fanida ham risola bitibturur.

Mavlono hushyorlig‘da base odamivash va hayo va adablig‘ yigitdur. Ammo sarxushluqda o‘zga mohiyat bo‘lur erdi, balki rasvo nima bo‘lur erdi. Bu uchurda tavg‘a muvaffaq bo‘ldi. Umed ulkim, istiqomatqa ham muvaffaq bo‘lg‘ay.

Mavlono Osafi⁽¹³⁾ — otasi podshohi zamonning vazorat devonida muhr bosibdur va o‘zining tab‘i ta‘rif qilg‘ucha bor va hofizasi ham bag‘oyat xubdur. Ammo ne tab‘in ishga buyurur, ne hofizasin. Yatimvashlik va ra‘nosifatliq va xudroylik va xudoroylik bila avqotin zoye‘ qilur. Bu nav‘ g‘arib sifoti ko‘pdurki, agar desa so‘z uzolur. Mutlaqo pandpazir ermas. Bu jihatdin bag‘oyat parishondur. Yaxshi abyoti bor. Ammo bu matla‘ mashhurdurkim:

*Narext durdi may muhtasib zi dayr guzasht,
Rasida bud baloye, vale baxayr guzasht*⁽¹⁴⁾.

Bu turkcha matla‘ ham aningdurkim:

*Yuz balolar ko‘rdum, ul oromi jondnn ko‘rmadim,
Ikki ko‘zumdin yomonlik ko‘rdum ondin ko‘rmadim.*

Insho ollohkim, tuz yo‘lg‘a kirgay.

Mavlono Binoiy⁽¹⁵⁾ — avsot un-nosdindur, muvalladi Hiri shahridur. Bag‘oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg‘a mashg‘ul bo‘ldi, anda ko‘p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Xatg‘a ishq paydo qildi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so‘ng ilmi musiqiyg‘a mayl ko‘rguzdi. Advor ilmi bilan bot o‘rganib, xili ishlar tasnif qilib advorda dag‘i risola bitidi. Ammo mo‘‘jib va mutasavvirlik‘idin el ko‘nglig‘a maqbul bo‘lmadi. Bu sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo‘q erdi, o‘z boshicha qilg‘on uchun hech foyda bermadi. El ta‘nu tashniidin Hiriya turolmay Iroqqa bordi. Andin dag‘i ushbu rang ovozarlar yibordi. Ammo chun yigitdurur, qobil va ko‘p gurbat va

shikastaliklar tortti, umid ulkim, nafsig‘a ham shikast va tavoze‘ yetmish bo‘lg‘ay. Har taqdir bila bu matla‘ aningdurkim:

*Ba surma harki siyah kard chashmi yori maro,
Basoni surma siyah kard ro ‘zgori maro⁽¹⁶⁾.*

Mavlono Qomiy — Ubadindur. Kichik yoshidin Mavlono Muhammad Badaxshiy⁽¹⁷⁾ ani tarbiyat qildi. Tahsili ul yerga yettikim, Mavlono aning sabaqining uhdasidin chiqolmadi. Ulug‘roq donishmandlarga tarbiyatini ruju‘ qildi. Chun saodatmand yigit erdi, tahsildi sa‘ylar qildi. Holo yaxshi tolibi ilmdur. Voqean adabliq va tavozu‘ va insoniyatlik odmi yigit bo‘lubtur. Mavlonog‘a filhaqiqat farzand uldur. She‘r va muammoni ham yaxshi aytur va ochar. Bu matla‘ aningdurkim:

*Kaseki, u sari dastori sarvi man chinad,
Digar zi bog‘ charo dastai suman chinad⁽¹⁸⁾.*

Umid ulkim bot mutaayyinlardin bo‘lg‘ay.

Mavlono Olim — donishmand kishidur. Dars va ifodag‘a mashg‘ul. She‘rg‘a dag‘i muloyim tab‘i bor. Bir kun bir jamoat el bila devonboshig‘a qaziyai arz qildi va o‘z muddaosi muvofiqi arzadoshti ham, bitib erdi. Devonboshi bu voqeani Xoja Majdiddin Muhammad⁽¹⁹⁾ ki, muboshir erdi, anga havola qildi. Mavlono arzasini xojaga berdi. Ammo Xojagiyning mayli xotiri aning muaddiylari sari erdi, aning kog‘azin o‘qumay chirmadi va g‘animlari tarafin tutti. Mavlono bu baytni munosibi ahvol aytti, budurkim:

*Kori moro Xoja Majdiddin Muhammad hech kard,
Kog‘azi moro naxond on ro ‘zu darham pech kard⁽²⁰⁾.*

Bu bayt shuhrat tutti. Bu matla‘ ham aningdurkim:

*Oyam basar ba rohat payvasta hamchu xoma,
Kardi zi bahram az xat, ey moh, gird noma⁽²¹⁾.*

Mavlono Hasanshoh⁽²²⁾ — Xurosonning qadimiy shuarosidindur. Shohrux Mirzo zamonidin bu farxunda davrong‘acha ko‘prak salotin va akobir va muttaayyin elga ham madhi va ham marsiyasi bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Az labat yak suxan bixoham guft,
Suxane z-on dahan bixoham guft⁽²³⁾.*

Mavlono Muzhir — Mavlono nadimsheva va hazzol tab‘ kishi uchun hazlomez ash‘ori va qit‘alari ko‘pdur va mashhur. Ul jumladin, Mutahhiri Udiy⁽²⁴⁾ uchunkim, eshakini ulug‘roq, jihatidin el muzd berib, tuxum uchun o‘z eshaklariga sekritur ermishlar. Bu qit‘ani debtur:

*Mutahhir hast ismi bemusammo,
Najasro kay mutahhir metavon guft?
Xarash bar xar jahad u zar sitonad,
Bas o 'ro kaydii xar metavon guft⁽²⁵⁾.*

Bu misra' tazmini ham qalamzanlar bobida aningdurkim:

*Ba yak dast shamsheru dasti digar,
Qalamzan nigahdoru shamsherzan⁽²⁶⁾.*

Mavlono Shomiy — Domg'ondindur. Ko'p tahsil qilib, mutadovilotni mukarrar o'tkardi. Ammo mullolig' otig'a kirmadi. Andin so'ng tibbqa mashg'ul bo'ldi. Dag'i ko'proq, mo'tabar kutubni ko'rди. Anda ham atibbo silkiga qo'shilmadi. She'rni yaxshi aytur erdi, ammo imlosi durust emas erdikim, she'rin bitgay. Har taqdir bila bu matla'i yaxshn voqe' bo'lubdurkim:

*Didaro guftamki, dar ro 'yash ba gustoxi mabin,
Guft gustoxi chi boshad ayni mushtoqist in⁽²⁷⁾.*

Mavlono Abdullo — agarchi zohir yuzidin hazrat Maxdumi Nurang'a o'zin qarobat tutar, ammo ma'ni yuzidin bag'oyat yiroqdur. Soyir she'r asnofidin masnaviyg'a ko'proq iltifot qiluri uchun malik ul-kalom Firdavsiy Tusiy⁽²⁸⁾ va hazrat Shayx Nizomiy Ganjaviy va sulton ush-shuaro amir ul-umaro hazrat Xoja Xusrav Dehlaviy «Shohnoma» bilan «Xamsa»ni masnaviylarikim, bo'lg'ay pisand qilmas. Bahs balki hazrat Maxdumi Nuranning masnaviylarig'a borurkim, pisand qilur, yo yo'q. Biz faqirlarkim, bu jamoatning rezachini xoni va xo'shachini xirmoni tutarbiz, balki ul hunar va qobiliyat ham yo'q va mundoq qishi she'ri ne istehqoq bila ta'rif qila olg'aybiz; Har necha dag'i andoq bo'lsa tabarruk haysiyatidin ul nazm qilg'on «Zafarnoma» masnaviysidin bu uch bayt bitildi:

*Bas onki base gavmishoni nar
Ba zanjir bastand bar yakdigar
Ki, dar peshi xandak fasile buvad
Vazu har yake man'i file buvad.
Charo boyad az fil kardan hazar
Ki u chorpoyest chun govu xar⁽²⁹⁾.*

Bu tarixdakim bu risola bitildi «Xamsa»din «Layli va Majnun», «Xusrav va Shirin», «Haft paykar»⁽³⁰⁾ g'a tatabbu' qildi. «Isqandarnoma» muqobalasida «Zafarnoma» nazmiga mashg'ul erdi. She'ri el orasida bag'oyat mashhur va rivoji nomaqdurdur.

Na'tda bu bayt aningdurkim:

Nubuvatro tui on noma dar musht

Ki, az ta'zim dorad muhr bar pusht⁽³¹⁾.

Urush ta'rifida bu bayt ham aningdurkim, el ichida base mashhurdurkim, urush fanida o'qurlar:

*Fitoda dar on pahn dashti durusht
Sari notaroshida chun xorpusht⁽³²⁾.*

Burunlar yigitlik hissiyotidinkim, junundin bir sho'badurur, ba'zi holatida agar biror nima nomuloyimlik bor erdi, ammo holo avqoti mazbut va maqoloti marbut zohir bo'lur va noz o'rniga niyoz va burudat muqobalasida so'z va gudoz jilva qilur, bu davlat anga va har kimga nasib bo'lsa, haq taollo arzoniy tutsun! Omin.

Mavlono Darvesh Mashhadiy⁽³³⁾ — safih va badzabon kishidur. Ba'zi azizlarni, derlarki, yomon xajvlar qilibdur. Andin ajib ermasdur va tab'i yomonluq sori har necha desa yaxshi borur. Bu faqir andin junun va oshuftaliqlar ko'rdum, ammo hajvlarin zohir qilmadi. Soyir nazmlarda bir nav'i tab'i bor. Bu matla' aningdurkim:

*Onki, az abru u did mahi iyd asare,
Xast soleki, az on moh nayomad xabare⁽³⁴⁾.*

Mavlono Xurramiy — Hiriyning odamizodalaridindur. Ammo o'zida odamiylikdin asar, balki bo'ye yo'qtur. Badmizoqliqlari jihatidan Xurosonda turolmadi, Iroqqa bordi, andin Makka va Madina va Bayt ul-muqaddas, ko'prak anbiyo va mashoyix mazorotin yayoq borib, ziyorat qildi, balki ikki qatla anga bu riyozat va mashaqqat, balki bu davlat muyassar bo'ldi. Ammo o'z zoti bedavlatlig'lari jihatidin bu safarlardin kelgandin so'ngra borg'ondin burunroqdin bexabarroq va badfe'lroq keldi va aning maddohlig'ida til ojiz va aql qosirdur. Bovujudi muncha turfaliq she'r ham aytur va anda kishini pisand qilmas. Bu matla' aningdurkim:

*Ovozai ruxi gul to boz bar nayoyad,
Dar bo'ston zi bulbul ovoz bar nayoyad⁽³⁵⁾.*

Sayid Quroza — sherozlikdur. Tahsil qilur suratida g'urbat ixtiyor qilib Xurosong'a keldi. Bag'oyat mahrum va vojib ul-rioya va nomurod ko'rundikim, ham haqir ul-jussa erdi va ham sag'ir us-sin. Aning muhofazati ahvoli qilib, sabaq jihatidan dag'i ba'zi azizlarg'a siporish qilildi. Ulcha maqduri shafqat va muruvvat erdi, aning borasida mar'i tutulur erdi, to ulkim, bir oz fursatkim, o'tti andin g'aroyib ham bosh ura kirishti. Muddate eshitib-eshitmasga solib, ko'rub-ko'rmasga solindi. Oqibat ish bulardin o'tti va ang'a yettikim, Xuroson mulkida turolmadi, Samarqandga bordi. Andoq ma'lum bo'lurkim, Samarqand xamriylari birla ham zadu xo'rd qilib, g'olib bo'lmasa, mag'lub dag'i ermas. Aning ishlari andin mashhurroqdurkim, sharh qilurg'a hojat bo'lg'ay. Bu matla' ul badbaxtinaningdurkim:

*Digar on fasl shud k-az lola sham'i bazm dargirad,
Guli ra'no sharobi la'lgun darjomi zar girad⁽³⁶⁾.*

Sayid Qutb Lakadang — samarqandlig'dur. Barcha xubluqlarda Sayid Qurozannng adili bo'la olur, balki ortuqroq. Hiriya erdi. Andin fasode vujudqa keldikim, qatl hukmi bo'ldi. Base zahmat tortildi, to bandg'a qaror topti. Banddin qochib, holo Samarqanddakim, majolisda Sayid Quroza bila majlisoroydir va anga mu'tariz va mutaariz. Majlis ahlidin izo ko'rmakta mehtar sherik va nazmlardin ul nokasginaning mayli muammog'a ko'proq voqe' bo'lg'on uchun bir muammosin bitildi.

Barcha salohiyatin ushbu muammosidin ihsos qilsa bo'lur.

Mavlono Muqliliy — Turshizdindur. Nadimsheva va hakimvash kishidur, majolisda amsol va nazoyir ko'p kelturur. Darveshlik suratida yurur. Bu matla' aningdurkim:

*Muhtasib meguft day az ro'i hol
Boda arzon shud kujoi zar halol⁽³⁷⁾.*

Muddatedurkim, oyog'ig'a maraze tori bo'lubturkim, lang bo'lubtur va bu jihatdin taraddud oz qilur.

Darvesh Xusomiy — xorazmliq'do'r. Bu matla' aningdurkim:

*Fig'on, ey do'ston k-on la'li shirin az havas moro
Bikushtu hech kas bar sar nayomad juz magas moro⁽³⁸⁾.*

Mavlono Shavqiy — Chechaktudin bo'lur. O'zi maqbul va tab'i muloyim yigitdur. Ammo dimog'ig'a mutolaa jihatidin xiffat yuzlanib, anga monii mutolaa bo'lubtur. Turkin va forsiyda tab'i yaxshi tasarruf qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Bo g'ayr didamat ba suxan kusht on maro
Labro chu basti az suxan osud jon maro⁽³⁹⁾.*

Bu turkcha matla' ham aningdurkim:

*Borib ovora ko'nglum zulfing ichra mubtalo qoldi
Tarahhum qilki, mendin bordiyu, emdi sanga qoldi.*

Mavlono Ziyo — tabrizlikdur. Ko'ngulga yaqin shirinadolliq maqbulg'ina kishidur. Haqir ul-jussa uchun ashobqa mujibi bast ham bo'lur. Shahrg'a tahsil uchun keldi. Tahsil asnosida she'rga ham ishtig'ol ko'rguzdi, dag'i yaxshigina she'rlar ham aytti. Bu matla' aningdurkim:

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda
Ki, binad naxli umri sham' bunyodi xazon karda⁽⁴⁰⁾.*

Bu matla' ham xub zoqe' bo'lubtur.

*Xush on soatki, oyad turki man shamsheri kin bo u,
Raqibon jumla bigurezandu man monam hamin bo u⁽⁴¹⁾.*

Mavlono Xalaf — tabrizlikdur. Alanjaqning shayxzodalaridindur. Xulqda xub, natoyiji tab'da el ko'ngliga marg'ub yigitdur. Tahsilg'a Hiri shahrig'a keldi. Holo sulton zodai zamon hazratida mulozim va musohibdur va tab'i ham asru xub voqe' bo'lubtur.

Mavlono Mahviy — Xurosonning odamizodalaridindur. Yaxshi tab'i bor. Ba'zi mahalda tahsilg'a mashg'ul bo'lur. Yana yigitlik havo va havasi ani parishon tutar va musohiblar parishonlig'i ani somon qilur. Tab'ida xilig'ina choshni bor. Bu matla' aningdurkim:

*Dudeki, az dili man dar shomi g'am baroyad.
Bar yodi turrai u pur pechu ham baroyad⁽⁴²⁾.*

Mavlono Nargis — hiriydindur. Mazkur bo'lg'on taxallus bila nazm aytur erdi. Ani «Ohiy»⁽⁴³⁾ g'a tabdil qildi. Sababin so'rudli, ersa obodong'ina javob aytmadi. Qaydakim, juzviy rangin so'z yo ma'niyi nozuk ko'rsa, tasarruf qilurg'a odat qilibdur. Insho-olloh, andoqkim taxallusig'a tag'yir berdi bu odatiga ham tag'yir bergay. Bu matla' aningdurkim:

*Ba yodi safhai ruxsori u k-az mah fuzun omad,
Kushodam foli mushaf «surai Yusuf» barun omad⁽⁴⁴⁾.*

Mavlono Solimiy — Iroq mulkining odamzodalaridindur. Xo'rosonda fazliyotdin ko'p nima kasb qildi. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi. Andin so'ngra she'r va muammo va xatqa ko'shish qildi. Yana sozlardin ud va tanbur ham o'rgandi va musiqiyda ham tasniflar bog'ladi. Ham nafsida salomat bor va ham tab'ida istiqomat. Bu matla' aningdurkim:

*Chunonchi ba suvrati on oftob hayronam
Ki, tig' agar zanadam chashmi xud napo'shonam⁽⁴⁵⁾.*

Mavlono Jannatiy — Xuroson mulkidindur. Tab'i yomon emas, ammo aqli ham yo'qtur va tolei ham. Muddate podshoh mulozimi erdi, falokat anga base mustavli bo'ldi, faqir ani yig'ishturdum. Falak bila siteza qilg'onni falak yengar ermish. Hech yerga yetkura olmadim. Holo dag'i ul nav'kim bor erdi, sargardon yurur. Tengri anga rahm qilg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*Ba may xo'rdan chu soqiy sog'ari mayro dahan po'shad,
Chi shud k-uro ba sarpo'she savodi chashmi, man po'shad⁽⁴⁶⁾.*

Mavlono Anvari — Balx tarafdindur. Oshufta mizojroq yigitdur. Gohi savdosi andoq gʻolib boʻlurkim, mizoji sihat qonunidin munharif boʻlur, yana koʻp zahmat bila muolajapazir boʻlur. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Ey zi tobi may turo har guna bar ruxsor gul,
Sabzai bogʻi jamolat andaku bisʻyor gul⁽⁴⁷⁾.*

Mavlono Qobiliy — turshizlikdur. Ul sipohiylik suratida erdi va elni hajv qilur erdi. Goʻyo emdi ikkalasidin mutaboid boʻlubtur. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Ajab navbad ba lutfarzonki, binavozi gʻaribonro,
Navozish z-onki, rasmu odati xubest xubonro⁽⁴⁸⁾.*

Ittifoqo bu sheʼri bila oʻzin hajv ham qilibtur. Bovujudkim, hech mazasi yoʻqtur va qofiyasi ham gʻalatdur.

Mavlono Sirriy — Mavlono Ali Shahobning oʻgʻlidurkim, yuqori mazkur boʻldi. Abdolvash yigitdur. Holo Marvda bir langari bor, oʻtar-borur elga xizmat qilur. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Bud dar daʼvi ba abroʻyat mahi nav tezu tund,
Did chun xurshed roʻyat soxt xudro girdu gʻund⁽⁴⁹⁾.*

Mir Hoj — sayid kishidur, tolibi ilmlik ham qilur. Yaxshi tabʼi bor. Hamonoki, iltizom qilibturkim, koʻproq qasidasi manqabat boʻlgʻay. Ahyonan biror gʻazal ham aytur. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Agar dar goʻshai gʻam dur az on siymin badan miram,
Xalal dar kori ishq oyad hamon roʻzeki, mann miram⁽⁵⁰⁾.*

Mavlono Moniy — mashhadligʻdur. Sohibjamol va zarif va raʼno yigitdur. Bovujudi ulkim, atosi benazir kosagardurkim, chinni yasar va inisi andoq naqsh qilurkim, Chin va Xitoda qila olmaslar. Ul bu ikkov hirfasidin or qilib, birin quli, birin chuhurasicha koʻrmas. Chun husni bor, husni xati va husni kalomi dagʻi bor, har ne qilsa anga tegar. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Chu dar sahroi gʻam devonason bo xud fitad changam,
Gahe dar changam aftad sangu gah sang aftad az changam⁽⁵¹⁾.*

Mavlono Soyiliy — Joʻyanning Xovarshosidindur. Darveshvasht va kamsuxan kishidur. Baʼzi ashʼori yomon tushmas. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Maro dar dida tang omad fazoi qoʻhu homun ham,
Gʻami Farhod man doram, baloi ishq Majnun ham⁽⁵²⁾.*

Mavlono Salomiy — shahr masjidi jome'ida Muluk gunbazida xodimdur. Bu matla' aningdurkim:

*In bas az ashki jigargun zi g'amash hosili man
Ki, ba har qatra kushoyad girihe az dili man⁽⁵³⁾.*

Mavlono Forig'iy — Xonaqohi Jadidiyda bo'lur. Darveshvash yigitdur. Bu matla' aningdurkim:

*Az bas ki on jafajo' ozor menamoyad,
Andak tarahhumi u bis'yor menamoyad⁽⁵⁴⁾.*

Mavlono Jamshed — emdi paydo bo'lg'on xush tab' yigitlardindur. Obodon kotib ham bor. Soyir she'r asnofidin tab'i muammog'a moyildur.

Mavlono Shihob — emdi paydo bo'lg'on kichiq yoshlik yigitdur. Atosi zikrikim, Mavlono Nizom xonaqohida o'ttikim, muammog'a mashhur erdi. O'zi dag'i muammog'a ko'prak mashg'ul bo'lur.

Mavlono Abdulhaq — dag'i kichik yoshida muammo fanig'a shuru' qildi. Mutasarriif yaxshig'ina tab'i bor.

Mavlono Vidoiy — Balx navohiysidindur va kapanakpo'shluq kisvatida yurur erdi. Omiydur, ammo latif tab'i bor erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Dilo, natvon haryfi ahli taqvi jovidon budan,
Bar durdkashon ham chand ro'ze metavon budan⁽⁵⁵⁾.*

Mavlono Baqoiy — kamongarlikka mashhur va o'zini muammoiqliqqa ham shuhrat berdi. Ammo faqir hargiz andin muammoki, nimaga yaragay, eshitmadim. So'ngra she'r ayta boshladi. Ammo g'arib xayollar qilur, ammo tarkibni resh bog'lar. Derlarki, tirandozlik fanida sohib vuqufdur, biz bilmashbiz. Bu matla' aningdurkim:

*Toba zulfi tu sar darovardam,
Sar ba devonagi barovardam⁽⁵⁶⁾.*

Mavlono Mushrifiy — hiriylikdur. Navisandalikdin biror nima vuqufi bor. Go'yo qushxona mushrifi erdikim, taxallusi ham uldur. Gohi ul ishni tark qilur va yana gohi pushaymon bo'lur. Bu matla' aningdurkim:

*Gavhari ashk nisori rahi yore kardam.
Shodam laz oshiqii xeshki, kore kardam⁽⁵⁷⁾.*

Mavlono Asiliy — mashhadlig'dur. Holo ul shahrda mutaayyin xush tab' uldur. Nasxta'liq xatin dag'i yamon bitimas. Bu matla' aningdurkim:

*Chu ba tifiyash bididam binamudam ahli dinro.
Ki, shavad baloi jonho, ba shumo supurdam inro⁽⁵⁸⁾.*

Mavlono Kavsariy — hiriylidur. Kichikdin beri tab'ida nazm aytur qobiliyati bor. Ammo mashg'ulluq qilmas. Xoja Osafiyning musohiblig'i davlatidindurkim, goh-gohi she'r aytur. Bu matla' aningdurkim:

*Muhtasib gar rind boshad dayrro dar vo kunad,
Bahri rindon boda az zeri zamin paydo kunad⁽⁵⁹⁾.*

Mavlono Hiloliy⁽⁶⁰⁾ — turk elidindur. Hofizasi yaxshidur, tab'i dag'i hofizasicha bor. Sabaq o'qumoq taklifi qilibdur, umid ulkim, tavfiq topgay. Bu matla' aningdurkim:

*Chunon az po fikand imro 'zam on raftoru qomat ham
Ki, fardo bar naxezam, balki fardo qiyomat ham⁽⁶¹⁾.*

Mavlono Qabuliy — Qunduzdin Xurosong'a kelganda boisi tahsilni zohir qildi. Chun dumog'ida biror nima parishonlig' bor va tavrida lavandlig', ul muddaosi yaxshi muyassar bo'lmas. Bu matla' aningdur o'z hasbi holi voqe' bo'lubtur ham desa bo'lurkim:

*Xona, ey oqil, chi kor oyad mani devonaro,
Chun namedonam mani devona rohi xonaro⁽⁶²⁾.*

Mavlono Abu Tohir — Badaxshon viloyatidindur, ilm tahsili uchun kelibdur, bu faqirning madrasasida sabaq o'qur.

Mavlono Joniy — jurjonlikdur. «Rayhoni» taxallus qilur erdi, viloyati munosabati bila anga «Joniy» taxallus buyuruldi. Xili junun zotida borkim, salohat kasbig'a mone'dur, yo'q ersa, g'arobatjo'y tab'g'inasi bor. Bu matla' aningdurkim:

*To jilva kard xatu labi yor sabzu surx,
Otash alam zad az dili afgor sabzu surx⁽⁶³⁾.*

Mavlono Ofatiy — mashhadlig'dur. Halvogarlikka mansub qilurlar. Faqir ani ko'rmaymen, ammo she'rin eshitibmen. Bu matla' aningdurkim:

*Xudo kunad ba xayoli tu har zamonam shod,
Gar az xayoli tu gardam judo, xudo nakunod⁽⁶⁴⁾.*

Mavlono Zuloliy — hiriylidur. Otasi darvesh kishidur. G'azl furushluq qilur. Zihni sarchashmasidin nazmi zuloli sofi zohir bo'lur. Bu jihatdin anga «Zulolin» taxallus topildi. Bu matla' aningdurkim:

*Layli uzore merasad doman kashon dar xuni man,
Digar nadonam chun shavad holi dili majnuni man⁽⁶⁵⁾.*

Sayid Naqibiy — ham hiriylikdur. Mir Abduqodir Naqib musohibliq‘i jihatidin bu taxallusni ixtiyor qilibdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Didaam to shuda az mohruxi yor judo,
Dil judo xun shudavu didai xunbor judo⁽⁶⁶⁾.*

Mir Hoshimiy — ko‘ftgarlik⁽⁶⁷⁾ bila mashhurdur va tolibi ilmlig‘i dag‘i bor. Tab‘i ham yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Xusham z-on ro ‘ki, tirash dar dili noshod jo dorad
Ki, xohad yodi man kard az xadangi xud chu yod orad⁶⁷.*

Mavlono Sohib⁽⁶⁸⁾ — kabudjomalig‘dur. Yaxshi tab‘i bor. G‘oyibona shatranjni xub o‘ynar va tab‘ida junun choshnisi bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Do ‘ston, to kay ba ko ‘yash man’am az raftan kuned,
Tarkiraftan cho ‘n naxoham kard tarki mani kuned⁽⁷⁰⁾.*

Muammo aytur va yaxshi ochar.

Mavlono Moyiliy — isfaroyinlikdur. Ul dag‘i xoli az junun emas. Ammo tab‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Hast dar sina zi paykoni sitamkorai man,
Jon zi dil tangu zi jon in dili ovorai man⁽⁷¹⁾.*

Mavlono Qavsiy — ham isfaroyinlikdur. Xili qobiliyatlig‘ yigitdur. Ammo lavand, balki tananddur. Ul jihatdin hech ishta istiqomati yo‘qtur. Zaxim va kuchlidur. Hech ishkim, anda kuchning daxli bo‘lg‘ay, qila olmas. Sipohiyliqqa havasi bor. Anda g‘am g‘ayri uyat kelturmas. Bu matla’ aningdurkim:

*Chu bar man vaqty jonbozi libosi xeshtan po ‘shad,
Kase xohamki, ro ‘zi marg bar tobuti, man po ‘shad⁽⁷²⁾.*

Mavlono Hajriy — balxlikdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Shuda baxti badi man monei vasli habibi man,
Chi badbaxtamki, ham baxti badi man shud raqibi man⁽⁷³⁾.*

Mavlono Nuriy — ko‘proq avqot Mashhadda bo‘lur. Lavandvash va oshuftasifat kishidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Dilam benavo shud az in ro ‘hazin ast,
Hamesha, bale, benavoi chunin ast⁽⁷⁴⁾.*

Mavlono Doiy — doim Saraxsda hazrat Shayx Luqmon (quddisa sirruhu) mazori boshida boʻlur va goho sotigʻ-savdogʻa ham ishtigʻol koʻrguzur. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Justem on dahonro boloi chohi gʻabgʻab,
Dar xanda guft on mah onchoki nest matlab⁽⁷⁵⁾.*

Mavlono Subhiy — Oʻba navohisida Goʻyon chashmasida boʻlur. Mavlono Muhammad Badaxshiy vositasi bila faqirgʻa oshno boʻldi. Sheʻrida xili choshnisi bor. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Mohi man, imshab ba nuri xesh in koshonaro
Soz ravshan, varna otash mezanam in xonaro⁽⁷⁶⁾.*

Mavlono Majnun⁽⁷⁷⁾ — mashhadlikdur. Shoʻx tabʻi bor, zoti dagʻi maqbul tushubtur. Xushnavis yigitdur, «bozguna» xatini andoq ravon va sof bitirkim, mahalli taajjubdur va koʻrmagan kishi ishona olmas. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Ba vaʻz meravamu zor-zor megirʻyam,
Bad-in bahona zi hijroni yor megirʻyam⁽⁷⁸⁾.*

Mavlono Malik — Boxarz viloyatida Korizdindur. Oʻzin Malik Zavzan avlodidin tutar. Bu jihattin «Malik» taxallus qilur. Oʻttiz yoshqa yaqingʻacha nazm aytmaydur erdi. Ulgʻaygʻonda nazmgʻa mashgʻul boʻldi. Aning bila hazl qiluvchilar. Maliki gov derlar. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Sad issa gar zi Layliyu Majnun rivoyat ast,
Movu hadisi ishq tu, inho hikoyat ast⁽⁷⁹⁾.*

Mavlono Jaloliddin — Mashhaddindur. Ali Zayniddinkim, ul yerda muttaayyin kishi erdi va xonaqohi ham bor erdi, aning avlodidindur. Tabʻining muloyimati muammo fanida taʻrif qilgʻucha bor.

Xoja Muso — oʻzin sheʻrga mansub qilur va el qoshida sheʻrlar oʻqur. Aning ahvolidin sohibi vuquf el qoshida muqarrardurkim, tabʻi nazm emas, yormaq berib, bu toifagʻa oʻz otigʻa sheʻr ayturur va ul navʻ sheʻrlaridin biri bu matlaʻdurkim:

*Jomi sharobro sari rindon hubob shud,
Bisʻyor sarki dar sari jomi sharob shud⁽⁸⁰⁾.*

Mavlono Mashrabiyy — mashhadligʻdur. Xush tabʻ yigitdur. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Turki man har gah ki jo dar xonai zin kardai
Xonai zinro chu suratxonai Chin kardai⁽⁸¹⁾.*

Mavlono Vafoiy — ham mashhadligʻdur. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Kosh payvasta buvad oyina peshi nazarash,
To nazar jonibi ag 'yor nayaftad digarash⁽⁸²⁾.*

Mavlonο Habib — mashhadlig‘dur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Chi guyam holi dil bo nozanini noz parvardam,
Chu osori muhabbat zohir ast az chehrai zardam⁽⁸³⁾.*

Mavlonο Harimiy ham Mashhad xushtab‘laridindur. She‘ri yamon ermas. Bu matla‘ aningdurkim:

*To ba vodii g ‘am az ishq buton dam zadaam,
Dam zi shodi mani g ‘amdida digar kam zadaam⁽⁸⁴⁾.*

Mavlonο Qalandar ham Mashhad zurafosidindur. Bu matla‘ aningdurkim:

*On chi hardam dur az on labhoi maygun mekasham,
Kosa-qosa az du chashmi xunfishon xun mekasham⁽⁸⁵⁾.*

Mavlonο Qironiy ham mashhadlig‘dur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Garchi Majnun zi g ‘ami ishq dili purxun dosht,
Lek holeki, maro hast kujo Majnun dosht?⁽⁸⁶⁾*

Mavlonο Shodiy ham Mashhad xushtab‘laridindur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Xonai dil muhr shud az dog ‘i on qotil maro,
To pas az murdan bimonad mehri o ‘lar dil maro⁽⁸⁷⁾.*

Mavlonο Xalil ham mashhadlig‘dur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Zi tig ‘i tu, ey qotili dardmandon,
Chu g ‘unchaast pur xun dili dardmandon⁽⁸⁸⁾.*

Mavlonο Haybatiy ham mashhadlig‘dur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Dahoni tangi on xurshidro ‘ xoham naqu binam,
Na binad diyda hech az xiyragi chun ro ‘i u binam⁽⁸⁹⁾.*

Mavlonο Fanoiy — ham mashhadlig‘dur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Mani jo ‘lida mo ‘ bo aql az on begonagi doram
Ki, dar ishq pari ro ‘e sari devonagi doram⁽⁹⁰⁾.*

Mavlonο Qanbariy — Mashhad shuarosidindur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Nola az bisyorii javr ast har noshodro,
Man az on nolamki bo man kam kunad bedodro⁽⁹¹⁾.*

Sayyid Orif — ham Mashhad ahli tab'dindur. Bu matla' aningdurkim:

*Ey pari ro' gar nishini dar saroi chashmi man,
Dil biyandozad gilem az pardahoi chashmi man⁽⁹²⁾.*

Lutfiyi Soniy — ul dag'i Mashhad shuarosi va zurafosidindur. Bu matla' aningdurkim:

*Shuda chu mehmoni man on sham'y shabafruz imshab,
Kosh to subhi qiyomat nashavad ruz imshab⁽⁹³⁾*

Mavlono Adimiy — Mazid tanburachining o'g'lidur. Yaxshi tab'i bor, mashhadlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

*Chun zarraam pareshon doim dar orzuyash,
Jam'iyate nadoram be oftobi ruyash⁽⁹⁴⁾.*

Mavlono Shabobiy — ham Mashhad shuarosidindur. Bu matla' aningdurkim:

*Ey sarvi sixi qomat, ey sho'hi jafopesha.
Shud in tani majruham az tiri g'amat besh⁽⁹⁵⁾.*

Mavlono Darvesh — ham mashhadlig'dur. Bu Darvesh Ravg'angardin boshqadur. Bu matla' aningdurkim:

*Dog'ho bar dasti dil k-az dasti jononi man ast,
Garchi mesuzad maro osoyishi joni man ast⁽⁹⁶⁾.*

Mavlono Ayoniy — ham Mashhad zurafosidindur. Bu matla' aningdurkim:

*Nakard az gir'yai zori man afg'on hechgah yore
Ki, bar afg'oni zori u nakardam gir'yai zori⁽⁹⁷⁾.*

Mavlono G'iyosiddin — ham mashhadlig'dur. Yaxshi tab'y'bor.

Sayyid Abdullatif — ham mashhadlig'dur. O'n to'rt yo o'n besh yoshida bo'lg'ay, muammoni andoq aytur va ocharki mahalli taajjubdur. Ma'lum emaskim, ul yoshda hargiz bu fanda andoq bor ekan bo'lg'an.

Mavlono Mo'hammad — ul ham mashhadlig'dur. Ul dag'i kichik yoshda muammo fanida jalddur.

Mavlono Fahriy — ham mashhadlig'dur.

Mavlonο Rukniy — sherozliqdur. Tab'i yamon emas. Bu matla' aningdurkim:

*Gar majoli yak suxan yobam (ki) bar dildori xesh,
Arza doram peshi u sharhi dili afgori xesh⁽⁹⁸⁾.*

Mavlonο Nosihiy — xushtab' yigitdur. Bu matla' aningdurkim:

*Kaseki, safhai rui tu dar nazar dorad,
Kay az mutolaa xohadki chashm bardorad⁽⁹⁹⁾.*

Mavlonο Toyiriy — astrobodlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

*Xusham ba ishq, garam ro 'zu ruzgore nest,
Maro ba neku badi ruzgor kore nest⁽¹⁰⁰⁾.*

Sayid Xaziniy — ham astrobodlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

*Vodii hijronki, nest g 'ayr dardu g 'am dar u.
Bo xayoli u farog 'at doram az olam dar u⁽¹⁰¹⁾.*

Mavlonο Mahdiy — ham astrobodlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

*Soqiy nabuvad beadabiho ajab az mo,
Mo mardumi mastem nayoyad adab az mo⁽¹⁰²⁾.*

Mavlonο Toyifiy — ziyoratgohliq bo'lur. Bu matla' aningdurkim:

*Manki, dar xayli sagonash jo muayyan soxtam;
Az g 'ubori ostonash dida ravshan soxtam⁽¹⁰³⁾.*

Mavlonο Noyibiy — tayobodlig'dur. Bu matla' aningdurkim:

*Gaheki lola biro 'yad zi xoki ahli nazar,
Zi dog 'i dil buvad on lolavu zi xuni jigar⁽¹⁰⁴⁾.*

Mavlonο Sifotiy — emdi paydo bo'lg'onlardindur. Faqir hanuz ani ko'rmaydurmen, ammo she'rin eshitibmen. Bu matla' aningdurkim:

*Baski, dar sar havasi ro 'i tu dorad dida,
Pusht sui manu ro 'sui tu dorad dida⁽¹⁰⁵⁾.*

Mir Lavand — jahongashta kishido'r. Qalandarlik suratida yurur erdi. Xoli az fazlu tab' emas erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Ruxashro moh guftam, shahri az guftori man pur shud,
Zi dandonash suxan guftam, dahoni man pur az dur shud⁽¹⁰⁶⁾.*

Mavlono Aminiy — Muhammad Ali Amin o‘g‘lidurkim, ikkinchi majlisda oti mazkur bo‘ldi. Tab‘i bag‘oyat muloyim yigitdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Yor dar silsilai nozu itobam dorad,
Boz devonagi ishq xarobam dorad⁽¹⁰⁷⁾.*

Mavlono Muhammad Tolib — majnunvash yigitdur, tolibi ilmlig‘i ham bor va shatranjg‘a ajab mash‘ufdur va muammog‘a ham ko‘proq mashg‘ul bo‘lur.

Mavlono Ziyirakiy⁽¹⁰⁸⁾ — shahr ichidagi xush tab‘lardindur, tab‘ida tasarruf nishonasi bor va bu matla’ aningdurkim:

*Dar rohi ishq sangi jafu to‘shai man ast
Dar ko‘xu dasht lola jigar go‘shai man ast⁽¹⁰⁹⁾.*

Mavlono Vahdatiy — bir nav‘i nazmi bor va tab‘i xoli az rangi emas. Bu matla’ aningdurkim:

*Gashtaam behol az on xoleki, dar ro‘xsori ust,
Ofarin bar sonii k-on nuqtai pargori ust⁽¹¹⁰⁾.*

Mavlono Nodiriy — Marvdindur. Yaxshi tab‘i bor. G‘arobat tilamakta xili ko‘shish qilur, ammo ko‘p lavanddur. Muddate faqir bila musohib erdi. O‘zin lavandlig‘din zabt qila olmadi. Yana o‘z ishini keyniga bordi. Bo‘ matla’ aningdurkim:

*Ba sanig narm kun, ey charx, ustuxoni maro,
Mabodo raxna kunad tig‘i dilsitoni maro⁽¹¹¹⁾.*

Mavlono Zamoniyy — Mavlono Muhammad Omiliyning o‘g‘lidurkim, ikkinchi majlisda oti mazkur bo‘ldi, «Vafoiy» taxallus qilur erdi. Faqir iltimosi bila «Zamoniyy»g‘a tag‘yir berdi. Ikki jihatdin; bir jihat bukim, Sulton Badiuzzamon Mirzo⁽¹¹²⁾ mulozimi erdi, «Zamoniyy» — taxallusining munosabati ang‘a ko‘p bor erdi; yana bir jihat bukim, Ahmad Hojibek «Vafoiy» taxallus qilur va she‘ri mashhurdur va devoni ham bor. Munosib ermas erdikim, ulug‘ kishiga bejihat taxallusda sherik bo‘lg‘ay. Bu matla’ yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

*Ba obi dida hargiz kam nashud so‘zi dili zoram,
Magar az xok taskin yobad on otashki, mann doram⁽¹¹³⁾.*

Mavlono Savsaniy — ozodavash kishidur. Ko‘prak avqot mahdi ul‘yo «Gavharshodbegim» madrasasi tegrasida bo‘lur erdi. Ammo emdi shahrda sokindur. Befoida el bila musohibliq qilmas, nevchunkim, bejihat mashaqqatlarni o‘ziga ravo ko‘rmas. Umid bo‘kim bu davlat barchag‘a nasib bo‘lg‘ay. Bu matla’ aningdurkim:

Mujarradonki, zi qaydi zamona ozodand,

Na sayd gashta ba domi kase, na sayyodand⁽¹¹⁴⁾.

Mavlono Halokiy — shahrdindur. Turk eli orosig‘a ko‘p kirmas o‘z nomurodlig‘iga mashg‘uldur va Makka safarini hazrat Maxdumiy Nuran mulozimatida borib keldi. Zihi muvaffaq bandaiki uldur. Gohi nazm aytur. Bu matla’ aningdurkim:

*Be g‘amat dam nametavonam zad,
Dame be g‘am nametavonam zad⁽¹¹⁵⁾*

Bu bayti ham xub voqe’ bo‘lubturkim:

*Dast dar dyl bimondu po dar gil,
Sar ba olam nametavonam zad⁽¹¹⁶⁾.*

Do‘st Muhammad — Murg‘aniy mahallasidindur. Ham she‘rg‘a, ham muammog‘a tab‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Balost az tu ba dil har zamon jafoi digar,
Jafoki, bar digare mekuni baloi digar⁽¹¹⁷⁾.*

Hasan Ali — bu Do‘stmuhammadg‘a qarobatdur. Aning dag‘i she‘r va muammoga tab‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Mani bedil naxoham soya boshad hamnishin uro,
Biyo, ey shomi hajru, gum kun az ro‘i zamini uro⁽¹¹⁸⁾.*

Mavlono Fathullo — dag‘i emdi arog‘a kirgan navras yigitlardindur. Muammog‘a, tab‘i yaxshi bor.

Mavlono Asiriddin — tolibi ilm yigitdur va muammog‘a dag‘i tab‘i muloyim tushubdur.

Mavlono G‘uboriy — isfaroyinlig‘dur va ko‘proq avqot Astrobod va Isfaroyin sarkori Jo‘yan va Bahrobod va ul navohiyda bo‘lur. Faqirvash kishi ham bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Shabki, meraftam ba pahlui sagi on dilafruz,
Xob dar chashmam nameomad zi shodi to ba ruz⁽¹¹⁹⁾.*

Mavlono Riyoziy — Zova muhavvilotidindur. Atvori mutallavvin kishidur. Ul viloyatning qozisi erdi. Ul amrg‘a munofiy ishlar andin sodir bo‘lub, ma‘zul bo‘ldi va qayd va musodaralar tortti va base zahmatlar ko‘rdi, hamul mansab muddaosig‘a ammo muyassar bo‘lmadi. Va‘z aytib minbarda o‘z ash‘orin o‘qub, yig‘lab vajdu hol qilur. Aning ishida bu nav‘-zarofat ko‘pdur. Barchadin g‘aribroq bukim, bu uchurda derlarkim, shogirdlari bila tog‘ gashtiga borib, tosh yumalatib, bir faqirg‘a tegib, o‘lub ermish. Yana dorug‘adin qayon qochib borg‘onin kishi bilmas. U o‘zin zabt qilaolmas. Bu matla’ aningdurkim:

*Malak shusta ba obi Xizr agar domoni man budi,
Hanuzam, dasti dur az domani jononi man budi⁽¹²⁰⁾*

Mavlono Tohiriy — Hiriy shahridindur. Kichikida kafshdo‘zluqqa mansub erdi. Hamul ayyomda andin nazmlar naql qilurlar erdi. Ulg‘aya ko‘prak bo‘ldi. Tab‘ida sho‘xlik bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Dil ki sad pargola shud az chashmi jodui tuam,
Man ba yak dil ne ba sad dil oshiqi rui tuam⁽¹²¹⁾.*

Mavlono Majnuniy — Balxda bo‘lur, faqir kishidur, kitobatqina qila olurki, vajhi maosh hosil qilg‘ay. Xoja Ukkosha mazorida sokindur. Go‘yo she‘r taxayyuli uchun bo‘lg‘aykim, varaq ul-xayol murtakibidur, andoqki, ham mag‘lub bo‘lg‘on chog‘liqdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Mohi tobonim isitti qildi bag‘rimni kabob,
Oy edi, emdi harorattin bo‘lubtur oftob.*

Mavlono Hamdamiy — mashhadlikdur. Kosagarlik san‘atin bilur. Bu matla’ aningdurkim:

*Be ruxat motamu g‘ame doram,
Motamiyu chi motame doram⁽¹²²⁾.*

Mavlono Najmiy — ham mashhadlig‘dur. Jomabofliq hirfasig‘a mansubdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Saram on behki, zi savdoi tu dar po boshad,
Chun nadidam sari onatki, sirrimo boshad⁽¹²³⁾.*

Sayidzodai Munshiy — tab‘ida xeyli diqqat bor. Ammo abluk yo‘sunluq⁽¹²⁴⁾ yigitdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Yor bar holi manu ag‘yor az afg‘oni man girist,
Bar manu bar holi man ham do‘st, ham dushman girist⁽¹²⁵⁾.*

Mavlono Osimiy — hiriqliqdur. Otasi obodon kishidur. Savdo va tijorat bila maosh o‘tkarur erdi. O‘zi tolibi ilmlig‘ qilur ham nazm aytur. Bu matla’ aningdurkim:

*Chun otasham zi hajri tu bar sar zanad alam,
Sozam ravon chu sham‘zi girdobi dida nam⁽¹²⁶⁾.*

Mavlono Faxriddin — faqirning kishi qoromdindur. Muammoni yaxshi ochar va gohi biror muammo ham aytur. Agar bu fanda mudovamat qilsa xeyli yaxshi bo‘lg‘udekdur.

Mavlonο Maqsud — bu Faxriddinning inisidur. Aning ham muloyim tab'i bor. G'azal tavrda ko'shish ko'prokgina qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Peshi mehri rui u rah basta shud ohi maro,
To az on nabvad g'ubor oyinai mohi maro⁽¹²⁷⁾.*

Mavlonο Sofiy — Ko'hi Sof shayxzodalaridindur. Taxallusi ham anga dalolat qilur. Nazmlarida Hoja Hofiz tatabbu'i qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Soqiyo, sarxushamu bodai sofam dori,
Gar qunam sarxushi on behki, maofam dori⁽¹²⁸⁾.*

Mavlonο Fig'oniy — Mir Said Go'yandadur va mujallidlig' ham bilur va naqshburliq' da hunarmanddur. Ammo ani aksar avqot xushtab'liq illata parishon tutar. Bu matla' aningdurkim:

*Dame visoli tu az umri jovidon xushtar,
Ba yodi vasli tu xush budam in zamon xushtar⁽¹²⁹⁾.*

Mavlonο Bu- Ali — devonavor yurur. Devona bo'lmasa erdi, «Bu-Ali» taxallus qilg'aymu erdi? Bu matla' aningdurkim:

*Xalqe ba rohi ishq i tu osuda meravand
Oshiq manamu digar hama behuda meravand⁽¹³⁰⁾.*

Mavlonο Shayxiy⁽¹³¹⁾ — tabaslikdur. Muddate Iroqqa bordi. Andin kelganda advor va musiqiyg'a ham sohibi vuquf bo'lub keldi. Go'yoki ishlar dag'i tasnif qilibdur. Tabasdag'i avqof va tavliyat va shayxlig'in qabul qilib, Holo ul ishga mashg'uldur. Bu matla' aningdurkim:

*In na dog'est ki bar sinai so'zoni man ast,
Muhri ishq ast ki az mehri tu bar joni mann ast⁽¹³²⁾.*

Mavlonο Hirotiy — ne yerlik ekani taxallusidin zohirdur. Yamon tab'liq kishi emas. Bu matla' aningdurkim:

*Fasli bahoru mavsumi gulho shukuftan ast,
Soqiy, biyor boda chi hojat ba guftan ast⁽¹³³⁾.*

Mavlonο Bihishtiy — Hisor viloyatidindur. Tahsil qilg'ali bu mulkka kelibdur. Tab'i dag'i yaxshidur. Bu matla' aningdurkim:

*Dar kamandi tu na har besaru po aftoda ast,
In baloyestki, dar gardani mo aftoda ast⁽¹³⁴⁾.*

Mavlono Ahliy — Turshiz viloyatidindur. Tab'ida xeyli choshni bor. Bu matla' aningdurkim:

*Dush afg'oni man az chashmi maloyik xob burd,
Xirmani mahrozi tufoni sirishkam ob burd⁽¹³⁵⁾.*

Mavlono Nargisiy⁽¹³⁶⁾ — Marv viloyatidindur. Mazlumvash yigitdur. Bu matla' aningdurkim:

*Onroki dardi ishq'i tu devona soxta,
Majnun sifat bago 'shai vayrona soxta⁽¹³⁷⁾.*

Mavlono Xizriy — go'yoki birovning mamluki erkandur⁽¹³⁸⁾. Xojasi ani, yo ul xojasini ozod qilibtur. Bori xojavor yurur va o'zin ozodavash ko'rguzur. Bu matla' aningdurkim:

*Umri man beruxat, ey zuhrajabin, meguzarad,
Hayf az avqoti sharifamki, chunin meguzarad⁽¹³⁹⁾.*

Mavlono Botiniy — faqir va soda kishidur. Balxda bo'lur. Tavakkul qadami bila Makkaga borib keldi. Dag'i Balxda go'sha ixtiyor qildi. Bu matla' aningdurkim:

*Baski, dori tangdil, ey g'unchai xandon maro
Jon zi dil omad ba tangu dil girift az jon maro⁽¹⁴⁰⁾.*

Mavlono Fazliy — hiriylidur. Kichik erkanida naqqoshliq qilur erdi va nazmg'ina ham aytur erdi. O'zin tamom shoir xayol qilg'ondan so'ngra tamomi naqqoshlikni tark qilib, shoir bo'ldi. Bu matla' aningdurkim:

*Zohid, biyor xirqavu rahni sharob kun,
Asbobi zuhdu xonai taqvi xarob kun⁽¹⁴¹⁾.*

Mavlono Sho'xiy — Shayx Said Lodaning o'g'lidur. Agarchi yaxshig'ina tab' nasibi bo'lubtur, ammo otasi tavrudin ham benasib emasdur va bu matla' aningdurkim:

*Nest rah peshi sagoni tu mani ovoraro,
To bad-eshon go'yam ahvoli dili bechoraro⁽¹⁴²⁾.*

Mavlono Zohiriy — darveshvash yigitdur. Bu toifa bila gohi faqir qoshig'a kelur, tab'i xoli az rangi emasdur. Bu matla' aningdurkim:

*Sog'ari bodaki, jon ravshan az on ast maro,
Mavji on sayqali oyinai jon ast maro⁽¹⁴³⁾.*

Mavlono Xulqiy — hiriylidur. Tab'i nazmlarg'a yamon emas. Bu matla' aningdurkim:

Ey sarvinoz, dar dili mo jo namekuni,

Jo mekuni, vale ba dili mo namekuni⁽¹⁴⁴⁾.

Mir Asadulloh — simnonliqdur. O‘z mulkidin ilm talabiga shahrg‘a keldi va faqirning madrasasida sabaq o‘qur erdi. Surat va siyrati yaxshi yigitdur.

Mir Ahadulloh — Balxdindur. Ul dag‘i shahrg‘a tahsil uchun kelibdur. Yaxshi tab‘i bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Ey shabi g‘am, dur az on sham‘i jamolam so‘xti,
Solho dar va‘dai ro‘zi visolam so‘xti⁽¹⁴⁵⁾.*

Mavlono Shoh Ali — faqirning madrasasida tahsil qylur va faqirg‘a mutaalliq eldindur.

Mavlono Zeboiy⁽¹⁴⁶⁾ — faqir ani ko‘rmaymen, ammo she‘rin eshitibmen. Bu matla’ aningdurkim:

*Qomatat shevai raftor chu bunyod kunad,
Sarvro bandai xud sozadu ozod kunad⁽¹⁴⁷⁾.*

Mavlono Said — siyoh jarda kishidur. Hamonoki ubudiyatqa mansubdur, o‘z holig‘a munosib bu matla’ aningdurkim:

*G‘ulomi xeshtanam xonad lola ruxsore,
Siyohi ro‘yi man kard oqibat kore⁽¹⁴⁸⁾.*

Mavlono Darvesh Ali — tabobatqa mashg‘uldur va bu fanning hoziq va mohirlari aning tab‘in ta‘rif qiladurlar. Muolijasini ham ko‘rganlar o‘kodurlar. Tab‘i ham yaxshidur. Ammo muammog‘a ko‘prak mashg‘uldur.

Mavlono Qallosiy⁽¹⁴⁹⁾ — atvori taxallusig‘a munosib kishidir. Go‘yo ushbu munosabatdin bu taxallusni ixtiyor qilibdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Onki, bar xuboni olam podshoh dorad turo,
Hoham az chashmi badi mardum nigoh dorad turo⁽¹⁵⁰⁾.*

Mavlono Gadoiy⁽¹⁵¹⁾ — turkigo‘ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she‘ri shuhrat tutti, bir nav‘i aytur va uning mashhur matla‘laridin biri budurkim:

*Ohkim, devona ko‘nglum muftalo bo‘ldi yana,
Bu ko‘ngulning ilgidin jong‘a balo bo‘ldi yana.*

Mavlononing yoshi to‘qsondin o‘tubdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloi jon emish
Kim, aning dardi qoshpda yuz o‘lum hayron emish.*

Mavlono Vohidiy — Mavlono Hoji Muarrifning o‘g‘lidur. Mashhadlig‘dur va anda bo‘lur. Bu matla’ aningdurkim:

*To turo turrai anbar shikane paydo shud,
Dili ovorai moro vatane paydo shud.*⁽¹⁵²⁾

Zova Qozisi — yaxshi tab‘lik yigitdur. Masnaviylarni rangin aytur. Amir Xusravning ba‘zi masnaviylarig‘a bu yaqinda tatabbu’ qilibdur. G‘arib xayollar qilibdur. Va o‘zga nazmlar ham aytur. Bu matla’ aningdurkim:

*Ki go‘yad bar sariri mulki xubi podshohiro,
Ki bar dar nolai zorest miskin dodxohiro*⁽¹⁵³⁾.

Mir Husayn — mashhadlig‘dur, yaqinda tahsil uchun shahrg‘a kelibtur va «Ixlosiya» xonaqohida bo‘lur. Tab‘i yaxshidur.

Mavlono Koshiy — ham mashhadlig‘dur. Bu matla’ aningdurkim:

*Ey dil, ba g‘amash kay saru savdoi tu doram,
Parvoi xudam nest chi parvoi tu doram*⁽¹⁵⁴⁾.

Mavlono Zoyiriy — ham mashhadlig‘dur. Tolibi ilmliqqa mansubdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Maro sarvest dar dil karda jo, dar chashmi ravshan ham,
Chu gul pokiza ro‘ hamchun sabo pokiza doman ham*⁽¹⁵⁵⁾.

Mavlono Qoneiy — ham bu toifadin. Bu matla’ aningdurkim:

*Ruhi tu qiblai dilhoi beqaroron ast
Nishoni poi tu mehrobi xoksoron ast*⁽¹⁵⁶⁾.

Mavlono Ziyoiy — Nishopur zurafosidindur. Bu matla’ aningdurkim:

*Ba xuni oshiq imshab tashna binam la‘li serobash,
Madeh may, soqiyo, tarsamki, az masti barad xobash*⁽¹⁵⁷⁾.

Mavlono Nuriy — dag‘i Nishopur shuarosidindur, g‘ayri ul Nuriyki mashhadlig‘dur. Bu matla’ aningdurkim:

*Xadangatki, shud naxli gulzori dil
Nayovarad bore magar bori dil*⁽¹⁵⁸⁾.

Mavlono Fayziy — jo‘nobodlig‘dur. Ko‘prak avqot Gozurgohda bo‘lur va tolibi ilmliq qilur. Tab‘i nazmlarda dag‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Garchi dashnomam rasad az la'li shakkarbori u,
Hast yak shirine dar talxii guftori u⁽¹⁵⁹⁾.*

Mavlono Ayniy — o‘baliqdur. Hofizdur, kitobat ham qilur va tab‘i ham nazmlarda muloyimdir. Bu matla’ aningdurkim:

*Manam dur az mahi ro‘i tu har shab to sahar giryon,
Surohivor dil pur xunu bar sar chashmi tar giryon⁽¹⁶⁰⁾.*

Mavlono Mu‘iniy — sherozliqdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Az sad suxan ba hiyla yake gush mekuni,
On ham naguftaam kifaromush mekuni⁽¹⁶¹⁾.*

Mavlono Xizriy — ul dag‘i emdi paydo bulg‘on yigitlardindur va sig‘ari sindadur. Umid ulkim, yaxshiroq aytqay. Bu matla’ aningdurkim:

*Zi hajrat dil damodam nolavu ohu fig‘on dorad,
G‘amat gar qasdi dil mekard, aknun qasdi jon dorad⁽¹⁶²⁾.*

Ustod Muxammad Ubahiy — kordgarlik san‘atig‘a mansubdur. Fahmi yomon emas. Bu matla’ aningdurkim:

*Nasimi xuldu umri Xizr mebaxshad agar doni,
Havoi dashti Gozurgoh obi jui Sultoni⁽¹⁶³⁾.*

Mavlono Kavkabiy — munajjim yigitdur va o‘z fanig‘a munosib taxallus ixtiyor qilibdur. Faqir andoq xayol qilurmenkim, oni ko‘rmaymen. Ba‘zi yoronlar derlarkim, ko‘rubsey, xotirg‘a kelmadi. Bu matla’ aningdurkim:

*Be ruxash har qatrai xun bar sari mujgon maro,
Mash‘ale boshad furuzon dar shabi hijron maro⁽¹⁶⁴⁾.*

Mavlono Mehnatiy — ul dag‘i emdi paydo bo‘lg‘on shoirlardindur. Faqir ani hanuz ko‘rmaymen. Bu matla’ aningdurkim:

*Sahar chu bo‘i xud on moh dar niqob girift,
Fig‘on zi xalq baromadki, «oftob girift»⁽¹⁶⁵⁾.*

Mavlono Shukriy — masalomez ayturda Mavlono Sayfiy‘a tatabbu’ qilur. Ul uslubda zehni yaxshi borur. Bu matla’ aningdurkim:

*Chu zi xat pурсamat az mushki Xo‘tan mego‘i,
Chand bo mo ba sarizulfi suxan mego‘yi⁽¹⁶⁶⁾.*

Mavlono Haqiriy — emdi paydo bo‘lg‘on xush tab‘ yigitlardindur. Ammo tab‘ida xili choshnisi bor. Hiriqliqdur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Meravam dar go‘shai mayxona cho xush mekunam,
Jomi may meyobamu onjo furukash mekunam⁽¹⁶⁷⁾.*

Mavlono Asiriy — ham emdi zuhur qilg‘an shuarodindur. Ammo nazmi hanuz shuhrat tutmaydur va she‘rida masal ravishi bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Shudam az yor judovu ba balo uftodam,
Chi balo bud ki az yor judo uftodam⁽¹⁶⁸⁾.*

Mavlono Sa‘d — mutasarrif tab‘liq shoirdur va tab‘ida xeyli xayolangezlik bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Bargi gul nestki uftoda ba tarfi chaman ast,
Punbai dog‘i dili bulbuli xunin kafan ast⁽¹⁶⁹⁾.*

Xoja Kalon Bazzoz — shahr elidindur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Anjum mashumur on chi dar in gunbazi xazrost,
K-az bahri tamoshi ruxat didai havrost⁽¹⁷⁰⁾.*

Xoja Mansur — Jurjon mulkidindur va bitikchi qavmidindur, filvoqe‘ki, ul qavmda andin odamivashroq va insoniyatliqroq kishi yo‘qtur. Tab‘i bag‘oyat yaxshidur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Pardai lola tihi didamu og‘ushta baxun,
Yodam omadki maro rafta dil az parda burun⁽¹⁷¹⁾.*

Sulton Mahmud — Xoja Mansurg‘a qarobat bo‘lur, Hoja Shamsiddin Muhammad bitikchining, o‘g‘lidur. Nujum ilmini istixroj qilg‘ucha bilur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Shud ro‘zgori man siyah az hajri yori man,
Kasro mabod ro‘zi manu ro‘zgori man⁽¹⁷²⁾.*

Mavlono Nizom — astrobodlig‘dur. Qasidani yaxshi aytur va bu «Bahoriya» qasidasi yaxshi voqe‘ bo‘lubturkim:

*Boz gulzori xat az sabzai tar pando kard,
Kori bo‘stoni jahon rangi digar paydo kard⁽¹⁷³⁾.*

Mavlono Yoriy — astrobodlig‘dur. Tab‘ida xili sho‘xluq bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Naxoham peshi mardum dida bar ruxsori yor aftad,
Chu pesh oyad nazar bar ro‘i u beixtiyor uftad⁽¹⁷⁴⁾.*

Mavlono Doiy — ham astrobodlig‘dur. G‘arib xayol topmoq huzurida ko‘p bo‘lur. Bu matla’ aningdurkim

*On pariroki, zi gulbargi qabo dar bari ust,
Har tarafbandi qabo nestki, bolu pari ust⁽¹⁷⁵⁾.*

Bobo Sho‘rida — qasidaxonliqqa ma‘ruf va mashhurdur. Tab‘ ahlining ko‘pi bila musohib bo‘lubtur va tab‘ida ko‘p choshni zohir bo‘lur. Qariliq bobida aytilg‘an masnaviydin bu bayt aningdurkim:

*Qadam shud chun kamonu umri man shast,
Javoni hamchu tir az shasti man chast⁽¹⁷⁶⁾.*

Mavlono Sufiy — ham astrobodlig‘dur. Yaxshi tab‘i bor va inshosi ham xubdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Nest dar hajri tuam za‘fzi bemorii dil,
Tarsam ozurda shavad tab‘i tu az zorii dil⁽¹⁷⁷⁾.*

Mavlono Hamidgul — Mavlono Abdulvahhobning o‘g‘lidurkim, oti yuqori o‘tti, fuzul va devonadur. Lutfi tab‘din xoli emastur. Bu matla’ aningdurkim:

*Shab xoki tiyra bistari mo bedilon bas ast,
Chodirshabi kashidai mo osmon bas ast⁽¹⁷⁸⁾.*

Mavlono Bihishtiy — Hamid-gulning inisidur. Ammo ham tab‘da, ham tavrda anga hech nisbat yo‘qtur. Bu matla’ aningdurkim:

*Sham‘, imshab tarki da‘vi bo ruxi on moh kun,
Tira kardi majlisi moro, zabon kutoh kun⁽¹⁷⁹⁾.*

Mavlono Fig‘oniy⁽¹⁸⁰⁾ — Xoja Afzalg‘a qarobatdur. Yaxshi tab‘i bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Har ki chun surati Chin didaba ro‘i tu kushod,
Chashmi digar zi tamoshoi tu barham nanihod⁽¹⁸¹⁾.*

Mavlono Sharoriy — astrobodlig‘dur. Go‘yo rangida humrat bor uchun bu taxallusni ixtiyor qilibtur. Bu matla’ aningdurkim:

*Nadoram beshtar z-in toqati bemehrii jonon,
Xudoyo, bar man on nomehribonro mehribon gardon⁽¹⁸²⁾.*

Mavlono Fidoiy — ham astrobodlig‘dur va sayidzodadurkim, zohiriy safosi bor. Otasi bila Baytullo safarig‘a borib keldi. Tab‘i dag‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Hamesha ro 'y ba devor bud Majnunro
Ki, az raqib bipo 'shad sirishki gulgunro⁽¹⁸³⁾.*

Mavlono Mahramiy — Astrobodning mutaayyinlaridindur. Tolibi ilm ham bor va Xoja Mansurning akasidur va faqirvash yigitdur. Bu matla' aningdurkim:

*Mudom voizi mo man'i boda nush kunad,
Chi xush buvadki, dame darkashad xamush kunad⁽¹⁸⁴⁾.*

Mavlono Ayoniy — ham astrobodlig'dur. Xeyli tasarrufluq tab'i bor. Bu matla' aningdurkim:

*Dar sar az loi tahi xum havasi hast maro,
Baxti bad bin ki bad-on ham narasad dastmaro⁽¹⁸⁵⁾.*

Mavlono Volahiy — oliy ostonda mulozimdur. Bu matla' aningdurkim:

*On chashmai hayotki, yoband jon az u,
Juz oby hasratam nabud dar dahon az u⁽¹⁸⁶⁾.*

SayidXanjar — chechaktulo'qdur. Tahsil uchun shahrga keldi, ammo bot tark qilib sipohiylik ixtiyor qildi. Bu matla' aningdurkim:

*Judo zi yor ba juz dardi ishtiyoq nadoram,
Ajal, biyoki, digar toqaty firoq nadoram⁽¹⁸⁷⁾.*

Mavlono Zoriy — emdi paydo bo'lg'on xush tab'lardindur. Bu matla' aningdurkim:

*Chu seli ashk zi chashmi pur ob meoyad.
Du dida bar sari on chun hubob meoyad⁽¹⁸⁸⁾.*

Mavlono Noziriy — yaxshi tab'liq yigitdur. Zehnida tasarruf bor. Bu matla' aningdurkim:

*Meshavad dar qahr agar xudro kusham az bahri u,
Vah, chi qahr ast on ki xudro mekusham az qahri u⁽¹⁸⁹⁾.*

Mavlono Zotiy — yangi xushtab'lardindur. Bu matla' aningdurkim:

*Nay garchi dam zi zamzamai zeru bam zanad,
Dar peshi nolaam natavonadki, dam zanad⁽¹⁹⁰⁾.*

Mavlono Mir Ali — Hazrat Maxdumiy Nuran madrasasida bo'lg'ur va alarg'a mulozim ham bor. Bu matla' aningdurkim:

*Maro besarv qadash boshad, ey dil,
Ba jon har lahza tiri hajr hosil⁽¹⁹¹⁾.*

Paxlavon Kotib — ham ul Hazratning ash'or va musannafotin kitobat qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Iyd astu maro bemahi xud xurrami nest,
Xalqe hama dar shodiyu chun man g'ami nest⁽¹⁹²⁾.*

Uchinchi majlisning xatmi

Bu hazratkim⁽¹⁹³⁾, bu majlis ahlining sadrinishinidurlar sahobi maoniylari gavharrez va bu jamoatkim, ul hazrat xirmanani maoniysining xushachinidurlar, gulshani tab'lari gulafshon va sumanbez, sarxaylg'a vusuli ilohi yetsun va xaylg'a sharafi saodat va mag'firati nomutanohi kasib etsun. Va Sultoni sohibqironkim, ul hazratning nukot va maorifining daqoyiqi alfozini va haqoyiqi maoniysini hech donishvarlardin yaxshiroq bilmadi va hech ahli tab' alarning ushri ashirini fahm qilmadikim, majlisda nazm tariyqida hamroz erdilar va nasr uslubida puktapardoz. Ul hazrat ruhoniyyatidin alarg'a fayzi beg'oyat va imdodi benihoyat yetsun va bu faqir hamkim, bu hazratning bandai dargohi va ul hazratnng xoki rohimen mahrum bo'lmusun.

*Chun bor edilar bu hazratu ul hazrat,
Kim, ul hazrat haq sari qildi rihlat.
Bu hazrat ko'p umr ila topsun davlat,
Men bandag'a davlatida kunji uzlat⁽¹⁹⁴⁾.*

TO'RTINCHI MAJLIS

Asr fuzalosi zikridakim, she'rga mashhur va mubohiy emastular, ammo allardin nazm tariyqida ko'p latoyif zohir bo'lur va ko'p zaroyif bosh urar

Ul jumladin:

Pahlavon Muhammad Go'shtigirkim, ko'b fazoyil bila orostadurkim, go'shti fani bavujudi ulkim, aning andoq haq va mulkidurkim, ma'lum emaskim, hargiz bu fanda andoq paydo bo'lmish bo'lg'ay. O'zga fazoyilig'a ko'ra dun martabasidur. Musiqiy va advor ilmida davrining benaziridur. Chun kamoloti «azharu min ash-shams»⁽¹⁾dur, sharh qilmoq ehtiyoj emas, faqir Astroboddin bu ruboiyni Pahlavon xizmatlarig'a bitib erdimkim:

*Dar Ka'bavu dar dayr ba irshodi tuyem,
Dar savmaavu maykada bo yodi tuyem,
Zokir saharu shom ba avrodi tuyem,
Ya'neki, yatimi Ne'matobodi tuyem⁽²⁾.*

Pahlavon bu ruboiyni javob bitib erdikim:

*Ey Mir, tu piru mo ba irshodi tuyem,
Doim ba duoguiyu bo yodi tuyem,*

In shahr ba tu xush astu mo bo tu xushem,

Murdemu xarobi Astrobodi tuyem.

Bu matla' Pahlavonningdurkim, aytqonda Pahlavong'a podshoh ming oltun sila inoyat qildi:

*Guftamash: «Dar olami ishqi tu koram bo g'am ast»,
Guft xandon zeri lab: «G'am nest, kori olam ast»⁽³⁾.*

Holo faqr ahlining peshvosi va tariyq xaylining muqtadosi Pahlavondur, ba'zi el Pahlavonning nasabida ta'n qilurlar, ammo faqirg'a tahqiq bo'ldikim, yolg'on ayturlar.

Mir Sarbarahna — Turkistondindur. Xush tab' va xush mashrab va xush suhbat va shirin kalom kishidur. Atiq ur-rahmon Shayx Luqmon (quddisa sirruhu) mazorida yigirma yilg'a yaqin shayx va mutavalli erdi. Yil bo'ldikim, yuz ming, yuz ellik ming oltung'a yaqin aning avqofidin hosil qilib andoq masrifig'a yetkurdikim, xudo va xalqi xudo qoshida mustahsan tushub hech kishi hech nav' ayb topa olmadi. So'ngra xud sadorat maskanida mutamakkin bo'lub, ulvi himmatdin andoq oliy mansabdin o'z ixtiyori bila iste'fo qildi. G'oyat sho'x tab'lig'idin tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi. Bovujudi bu goh-goh Yaxshi tirziklar ham navish qilurlar va yigitlikda Oqil kungurga mutaallaq bo'lub, ofiyat tariyqin tark qilib, ul toifag'a tobe' bo'lub erishib yururda aning pesh saloti g'oyib bo'lg'onda, Mir ma'arakada pesh saloti bo'lub aytqon abyotdin bu ruboiydurkim:

*Ononki, parastandai xurshedu mahand,
Az chashmi tu dar orzui yak nigahand,
Kungur⁽⁵⁾ agar in astki man mebinam,
Xuboni digar pitangi ta'limgahand⁽⁶⁾:*

Mir ul viloyatning vojib ul-ehtirom sodotidindur, agarchi arzol va xubaso musallam tutmaslar va nimagina derlar, ammo ul toyifaning so'ziga e'tibor yo'qtur. Va Mirning mufrit taom yemakka ko'p shaafllari bor. Ul jihatdin ko'proq avqot imtilo⁽⁷⁾ marazig'a giriftordurlar.

Mavlono Burhoniddin — Hiri shahrining buzurgodalaridindur, donishmand va xushtab' va sabukruh kishidur. Bobur Sulton otig'a muammo risolasi bitidi «Javohir ul-asmo»⁽⁸⁾g'a mavsum.
Bu faqirg'a podshoh muhr taklifi qilg'onda, tarixe aytib erdikim, bag'oyat xub voqe' bo'lub erdi. Ammo chun faqirning ta'rifiki, nafs ul-amrda g'ayri voqe'dur lozim kelur erdi, bitilmadi.

«Ki» lafzidin so'nrag'i alfozdin tarix hosil bo'lur. G'aroyib ittifoqotindurkim, Mir Darvesh Alig'a muhr inoyat bo'lg'onda o'zining xotirig'a «Darvesh Ali muhr zad» tarkibi kelib erdi va o'n yil tafovut erdi va rost voqe' erdi. Va Mavlono holo Shohrux Mirzo

madrasasida va ba'zi madorisda darsg'a mashg'uldur va qalin talaba istifoda qilurlar. Ba'zi yoronlar mutoyiba yuzidin Mavlonog'a derlarkim, qadimiy xush tab'lardinsiz va ul iztirob qilur, ammo chorasi yo'qdur.

Mir G'iyosiddin Aziz — Mashhadda Imom Ali Muso ar-Rizo ravzalarida naqib va viloyatning ulug'idur. Ta'riflarida bayon qosirdur. Bu matla' alarning deb shuhrati borkim:

*Bozam az dasti bute domoni ismat chok shud.
Juz xayolash har chi bud az lavhi xotir pok shud⁽¹⁰⁾.*

Mavlono Mas'ud⁽¹¹⁾ — Shirvondindur, o'z mulkidin Hiriyg'a keldi ham ifoda, ham istifodag'a ba jid mashg'ul bo'ldi. Bu asnoda hazrat Maxdumi Nuran mulozamatlarig'a yetib, biror sabaqg'a dag'i musharraf bo'lur erdi. Holo mahdi ulyo «Gavharshodbegim» madrasasida va yana ba'zi madorisda mudarrisdur. Yuz obodon tolibi ilmdin ortuqroq har kun andin naf' olurlar, balki yiroq mamolikdin bu toifa aning darsi ishqig'a g'urbaat ixtiyor qilib kelurlar. Yaxshi axloqlik va darveshvash va foniysifat kishidur. Bir kun faqir bila namozi peshin qildi. Namoz tugagandin so'ngra yana ikki rakaat qildi. Faqir aytim ki, «tahvildor hisobin ado qilurda fozil kelturmak xiyonat dalilidur». Bu so'z shuhrat tutti va Mavlono aytur ermishkim, ikki rakaat ortuqsi namoz qildim, yillarkim, aning malomat va g'aromatidin qutula olmon. Bu matla' aningdurkim:

*Biso 'z sinai maston ba riqqati mai nob
Ki, nest so 'zi maro sozkor g'ayri sharob⁽¹²⁾.*

Hofiz Sharbatiy — Xurosonning muttaayinlaridindur. Odamivash, mutavoze' va muaddab kishidur va xushxonliqda faridi zamonadur. Sulton Abu Said Mirzo Iroqda buzulg'onida Makkaga borib mujovir bo'ldi. Andin bu tarixqacha yigirma besh yildurkim, ul davlatqa musharrafdur. Tab'i dag'i xubdur. Bobur Mirzo xiyobonidin may ichib keladurg'onda Mavlonozodai Abhariykim, shahrning muftisi va rindvash kishi erdi Mirzoning yonida sarxush ermish, Mirzo Hofizg'a debdurkim, tushub surohini olib bir bayt o'qub, bir ayoq tut. Hofiz surohini olib Mavlonozodadin ayoq tutib, bu baytni o'qubdurkim:

*Dar davri podshohi atobaxshu jurmpo 'sh.
Hofiz qarobakash shudu mufti piyolano 'sh⁽¹³⁾.*

Bobur Mirzo ko'p tahsin ehson qilibdur. Va Hofizning yaxshi naqshlari ham bor.

Xoja Kamoliddin Udiy — zarif kishi erdi va o'z zamonining xushnavozi erdikim, barcha xaloyiq ani musallam tutar erdilar. Tab'i ham she'rig'a muloyim erdi. Bu matla' aningdurkim:

Namexoham zi dida bar ruxat oyinaye sozam,

Zi mujgon bahri zulmat anbaroso shonaye sozam⁽¹⁴⁾.

Ali Karmol — dagʻi Udiy erdi. Bagʻoyat safih va badzabon kishi erdi. Ammo yaxshi tasniflari bor. Bu matlaʻ aningdurkim:

*Kokulatroki, ba girdi sari u jon gardad,
Ba sari xud maguzarashki, pareshon gardad⁽¹⁵⁾.*

Mir Atoullloh⁽¹⁶⁾ — Nishopurdindur. Andin ilm tahsili uchun shahrgʻa keldi. «Kofiya» va «Mutavassit» oʻqur erdi. Donishmand boʻlgʻuncha bir navʻ mustahsan maoshqa muvaffaq boʻldikim, andin ortuq mumkin ermas. Bovujudi donishmandlik, sheʻr va muammo va sanoyeʻda dagʻi mahorat paydo qildi va muammogʻa koʻp mashgʻul boʻlur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafu qilmas, ammo sanoyeʻda kitobe tasnif qilibdur. «Badoyeʻi Atoiygʻa» mavsumdur. Emdi bayozgʻa bordi. Maʻlum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jamʻ va mufidkitob bitimish boʻlgʻay. Bovujudi ihtisor maqlubi mustaviy⁽¹⁷⁾ sanʻatidakim, andin mushkulroq sanʻat boʻlmas.

Aning tabʻi diqqatigʻa bu bayt dalili basdur. Faqir gustohlik yuzidin Mirgʻa dermenkim, fazoyil va kamolotingizgʻa koʻra darveshligingiz ham boʻlsa erdi, xub erdi. Bilurkim, musallam tutmasa, sobit qilurmen, zaruratdin musallam tutar.

Mir Murtoz — kichik yoshdin berikim, ilm kasbigʻa mashgʻuldur. Anga tegrukim koʻprak ulumda donishmand boʻldi — oʻz mutolaasi. bila boʻldi. Kecha tong otquncha va kunduz oqshom boʻlgʻuncha ishi mutolaa erdi. Bovujudi bu zuhdi dagʻi aʻlo martabada erdi va soyim ud-dahr⁽¹⁸⁾ erdi. Bu riyozatlar jihatidin mavoli anga Mir Murtoz ot qoʻydilar va holo bu laqab bila mash-hurdur. Chun bahsda lajoji koʻp erdi aning bila har kim masala bahs qilsa erdi, mulzam boʻlmagʻuncha qutulmas erdi, balki mulzam boʻlsa ham. Shahr zarif va shoʻxlari «Vali shaloin»⁽¹⁹⁾ ham derlar. Holo vuzu va namozida mubolagʻa jihatidnn anga vasvos paydo boʻlubdur, va shatranjgʻa andoq magʻlubdurkim, bir harif ilgiga tushsa, xalos boʻla olmas. Bu jihatdin hariflar andin qocharlar. Mashhurdurkim, agar ikki harif ilgiga tushsa, biri bila oʻynab, yana birining etagin berk tutib oʻltururkim, biri qochsa, bori biri ilgida boʻlgʻan. Ba har taqdir andoq benazir kishi oz boʻlgʻay. Bu matlaʻ aningdurkim:

*To nayoyad sui dil gʻayri xayoli dilsiton,
Bar sari rah mardumoni chashm gashta didabon⁽²⁰⁾.*

Mavlono Husayn Voiz⁽²¹⁾ — «Koshifiy» taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Yigirmi yilgʻa yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono zufoʻnun va rangin va purkor voqeʻ boʻlubtur. Oz fan boʻlgʻaykim, dahli boʻlmagʻay. Xususan vaʻz, insho va nujumki, aning haq-qidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor va musannafotidin biri «Javohir uttafsir⁽²²⁾» durkim, «albaqara» surasin bir mujallad bitibdurkim, munsifi qatʻ bila yuz juz boʻlgʻay. Bovujudi barcha xiraliq va donoliq shahr shoʻxlaridin biri Xoja Hofizning bu matlaʻin bitib, minbarining ustigʻa qoʻygʻondur, budurkim:

*Voizon k-in jilva bar mehrobu minbar mekunand,
Chun ba xilvat meravand on kori digar mekunand⁽²³⁾.*

Olib o‘qug‘ach ko‘p mutag‘ayyir va muztarib bo‘lib, xili xoriji mabhas so‘zlar aytib necha vaqt va‘z aytmadi. Xasmi noma‘lum xud o‘z maqsudin hosil qildi. Ammo Mavlono qilg‘onining xato erkaniga voqif bo‘lg‘ach yana o‘z ishi boshig‘a bordi. Bormasa ikki xato bo‘lur erdi. Bok yo‘qdur, aybsiz tengridur. Bu matla’ aningdurkim:

*Sabz xato, zi mushki tar g‘oliya bar saman mazan,
Sunbuli tobdodaro bar guli nastaran mazan⁽²⁴⁾.*

Mavlono Muin Voiz — Mavlono Hoji Muhammad Farohinning o‘g‘lidurkim, mashohirdindur. Holo o‘zi dag‘i azim voizdur va muridlari ko‘p. Minbar ustida devonavor ilik tashlamog‘i va taxtani tepmagi ko‘pdur va o‘zin «Muni devona» bila ta‘bir qilur va ko‘p baland va past so‘zlar aytur. Chun junung‘a mu‘tarif, har nav’ so‘z aytsa ma‘zurdur, she‘rida vazn, qofiya va radifg‘a muqayyad emas, esa maof bo‘la olur. Bir qatla Hazrat Amir ulmo‘mnin Ali⁽²⁵⁾ning imoni taqlidiy ekandur deganga, ul hazratning ruhidin g‘arib siyosat va shikanjalar ko‘rdi. Hamonoki tavba qildikim, qutuldi. Va og‘asi Mavlono Nizomiddinkim, donishmand va muttaqiy va darvesh ani desa bo‘lurkim, ikki qatla Hiri shahrining qazosin taklif bila anga berdilar. Ikkalasi qatla o‘zin azl qildi. Umid ulkim, bu qatla qabul qilg‘ay va azl qilmag‘ay. Derlarki, aytur ermishkim: «Muini mo qobiliyati bis‘yor dosht, in zinapoyai chubin uro zoye’ soxt»⁽²⁶⁾.

Har taqdir bila shahrda muqarrar voiz Mavlono Muindur. Shaxr masjidi jome‘ida jum‘a kuni iydgohda ikki bayram kuni va‘z ul aytur. Bu matla’ aningdurkim:

*Magar fasli bahor omadki, olam sabzu xurram shud,
Magar vasli nigor omadki, dil bo vasl hamdam shud⁽²⁷⁾.*

Sulton Ibrohim Mushasha’ — Sulton Muhsinningki, Arabistonda podshohdir, aning inisidur. Donishmand va muttaqiy va bag‘oyat ahl kishidur va xattot ham bor va arabiy she‘rni yaxshi aytur va devoni ham bor. Bu bayt aningdurkim:

*Sol-al habl fiymo bayn folibin soyil
Fikam jazz haddalabin mobayn kam habl⁽²⁸⁾.*

Mirxond⁽²⁹⁾ — Sayid Xovandshoh o‘g‘lidurkim, Balx (qubbat ul-islomiy)ning mutaayin donishmandi va buzurgi erdi va o‘zi yigitlikda ulum takmili qildi va holo bovujudi kibari sin va ulvi nasab va kasrati hasabki barcha mujibi ujb anoniyatdurlar, ul miqdor betaayyun va foniy mashrab va xush axloq kishidurkim, andin o‘tmas. Insho va tarix fanida benazirdur. Bu faqir iltimos bila avvali ofarinishdin bu kungacha tarixi jome‘i biturkim, nisfig‘a yetibdur. Inshoolloh, tugaturiga muvaffaq bo‘lg‘aykim, tavorix arosida andin mufidroq tarix bo‘lmag‘usidur. Vus‘ati mashrab bila adami taayyun jihatidan gohi biror ayoq icharda daf‘i malolat yo kasrati nishot uchun, nard o‘ynarg‘a ham tanazzul

qilurlar. Va mashliq va mabhtluq olamin ham ko‘p ta‘rif qilurlar. Amir Xusravnng «Dar‘yoi abrori» tatabbuida bu bayti xub voqea bo‘lubturkim:

*Harki dast az obi hayvon shust, Xizri vaqt o‘st,
V-on ki az zulmoti nafs omad burun Iskandar ast⁽³⁰⁾.*

Mavlono Xondamir⁽³¹⁾ — Mirxondning farzandidur va salohnyatlik yigitdur. Tarix fanida mahorati bor.

Mavlono Hamididdin⁽³²⁾ — Hazrat Mavlono Muhammad Tabodkoni (quddisa sirruhu)ning xalafidur. Insoniyati zotiy va darvishvashligi jibilliy voqe‘ bo‘lubtur. Adab va tavozey va ta‘zim va hayosi mufrit va asru behad tushubtur. Buzurgvor atosining xonaqohida darveshlar burung‘i dastur bila borcha aning tegrasida mujtame‘durlar. Xilvat va uzlat va samo va safo mavjud. Mavlono hanuz zohir ulumi takmilidin forig‘ bo‘lmaydur. Agarchi ehtiyohi dag‘i yo‘qtur, ammo vajhi akmal bila tilarki, takmil qilg‘ay. Tab‘i bag‘oyat xub voqe‘ bo‘lubtur va botinining g‘oyat soflig‘idin necha yildirkim, Mavlono Muhammad Arab firibin yeb, ani darveshlik tariyqida rosih, balki musulmon balki muxlis xayol qilur. Ammo bo‘la olurkim, o‘z holining satr va kitmoni uchun malomat tariyqida bu ish ixtiyor qilmish bo‘lg‘ay. Bu matla‘ aningdurkim:

*Gahe zi xasta dilon yod metavon kardan,
Dile, zi bahri xudo, shod metavon kardan⁽³³⁾.*

Mir Kamoliddin Husayn — Mir Rafeiddin Husaynga xoharzoda bo‘lur. Xurosonda ulum tahsili qildi va Iroqqa tushti. Sulton Ya‘qub yaxshi e‘zoz va ehtirom qilib Biyobongni suyurg‘ol berdikim, yuz ming oltung‘a yaqin har yil tegar erdi. Oncha g‘animatqa himmat etagin silkib, yana Xurosong‘a kelib, darveshlik ixtiyor qildi va hazrat irshod maobiy Nuran xizmatida matbu‘ va maqbuldur va tasavvuf ilmida tab‘i bag‘oyat qobil va alar istilohotidin sohibi vuquf. Hazrat Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirruhu)ning «Manozil ussoyirin ig‘a sharh bitibdur va ani muborak manzilda shayx qilg‘onda bunyod qilibdur va kitobning xutbasin bu oyat bilan ibtido qilibdurki: «Rabbi anzilni munzalan muborakan va anta xayr ul-munzilin»⁽³⁵⁾.

Va yana rasoyil ham ilgida borkim, alarg‘a o‘tgan kishi Mirning fazoyil va kamolatin fahm qilg‘ay.

Mir xushshakl va xushtab‘ va xushmuhovara yigitdur. Barcha hunarlar bila orosta va mundin o‘zga aybi yo‘qturkim, darveshvasht va sufivash kishidur va o‘zin shayxliq ismig‘a mavsum qilibdur va bo‘la olurkim, bu ham ahvolining satr va kitmoni uchun malomatn ixtiyor qilmish bo‘lg‘ay. Bu matla‘ aningdurkim:

*Az in bog‘i jahonoro chi son oram qadam berun
Ki, boshad ravzai xuldash darun, bog‘i Eram berun⁽³⁶⁾.*

Mir Ixtiyoriddin⁽³⁷⁾ — yaxshi tab'lik, yaxshi tavrlig' yigitdur. Mavloni Nizomiddin qazo masnadida mutammakkin erkanda, mahkamasi va dor ulqazosida sijillot va qaboliyot va shar'iyot anga, evrular erdi. Arabiyat va fiqhi ta'rif qilg'uncha bor, dyorlarki, bir tasnif ilgidadurkim, tugansa ma'lum bo'lurki, ne miqdor salohiyati bor. Oz ishida ayb topsa bo'lur. Ammo habislar der ermishlarkim, dastorin bu nav' donishmandona chirmag'uncha ko'p zahmat ko'rar erkin. El tilidin qutulg'on kishi yo'qtur va «Poi Hisor» havzi tuganganida bu tar'ixni xub aytibdurkim:

*Havzeki, chu xoham az safoyash go'yam,
Sad bor dahan ba obi hayvon sho'yam
Har chandki, hast manbaash chashmai
Xizr, Ta'rixni vay az jo'yam*⁽³⁸⁾.

Mavloni Muhammad Badaxshiy — Qunduzning Ishkamish otlig' kentidindur. Avvali holidi andin tahsil uchun chiqib Samarqandg'a bordi va bir necha vaqt anda sabaq o'qub Hiriya keldi. Tahsil ishin takmil qilur vaqtda g'oyat xushtab'lig'idin va musohiblar xotiri jihatidan lavandlig'larg'a tushti va rindliq tariyqin ul martabag'a yetkurdikim, mast yo maxmur bosh va oyoq yalang ko'y va ko'cha va bozorda yurur erdi. Hodii tavfiq tavba nasib qilib, ani tuz yo'lg'a keturdi. Holo tab' ahli orasida andin somonliqroq kishi yo'qtur. Podshoh va gadog'a maqbul va muloyimdur. Va muammo fanida risola bitibdurkim, ko'p el orasida mashhur va shoye'dur. Ammo agar muhovirotda gohi so'zga betaamul javob berur, chun g'alat kam tushar, hech tushmas va muammodin boshqa dag'i nazmlari bor. Bu matla' aningdurkim:

*Xayoli qomatash dar didai bexob megardad,
Chu on mohiki, har su dar miyoni ob megardad*⁽³⁹⁾.

Mavloni Hoji Muhammad — Mashhaddindur. Ko'prak avqot bu faqir bila musohibdur va farzand o'rnig'adur, balki andin ham azizroq. Axloqda malakiydur, bashar surati bila kelgan va atvorda farishtadur, inson hay'atida zuhur qilg'ok. Tab'i sofiy va tafakkuri barcha diqqatlarg'a vofiy. Zehni mushkulkusho va taammuli funun ishkoliq'a raso. Ba'ze mahal biror nazm dag'i andin bosh urar. Bu matla' aningdurkim:

*Ey baso, tavbai derinaki, chun tavbai man,
Xubro'yon bishikastand ba yak chashm zadan*⁽⁴⁰⁾.

Mir Husayn Muammoiy⁽⁴¹⁾ — Nishopurdindur. Shahrda tahsil qildi. Oncha hamida axloq va pisandida atvori borkim, sharhidin qalam tili va qalamzan iligi ojizdur va valoyat osori holidin paydo va fano namudori zotidin huvaydodur, Mir xizmatlarida bir tifi ta'limin iltimos qilib ermishlar va shogirdi andinkim, tufuliyat muqtazosidur, o'qumoqqa kohilliq qilmish bo'lg'ay. Mir bir azizg'a iltimos qilibdurlarkim, shogirdining atosig'a aytg'aykim, o'g'lig'a, muloyimat bila nasihat qilsun. Ammo andoq qilmag'aykim, tifi bilg'aykim, bu Mir qoshidin ekandurkim, nogoh ko'ngilginasi Mirdin og'rimag'ay.

Mundoq tariyqi ko'pdur va muammo fanining latofat va nozuklugin ul yerga yetkurdikim, andin o'tmak mumkin ermas, va hukm qilsa bo'lurkim, bu yo'lni band qildi.

Hofiz Muhammad Sultonshoh — xushxon hofizdur va xushnavis xattotdur. Bulardin boshqa solik va pokiza ro'zgor kishidur va yaxshi tab'i ham bor. Bu matla' aningdurkim:

*Shakli hilol abro'yat az chashmi tar naraft,
Mohi zi ayni bahr, bale sui bar naraft⁽⁴²⁾.*

Mavlono Faxriy⁽⁴³⁾ — Hiriyl shahrining odamizodalaridindur. Bu matla' aningdurkim:

*Guftiki hargizam ba tu-dil mehribon nabud,
Ey sarvi nozanin, ba tuam in gumon nabud⁽⁴⁴⁾.*

Sayyid Ja'far⁽⁴⁵⁾ — Sayyid Muhammad Nurbaxshning o'g'lidur. Shoh Qosimdinkim, og'asi bo'lgay ko'p yaxshiroqdur. Xurosong'a keldi. Podshoh e'zoz va ikrom qilg'ondin so'ngra, yilda besh ming oltun yormoq va ikkk yuz harvor oshliq vajhi maosh uchun muqarrar qildilar. Bovujudi ulkim, bir quruq boshlig' mujarrad kishi erdi, ozdur deb yomonlab Arabistong'a bordi. Ammo xushtab' va yaxshi yigitdur. Va lekin, atosi mahdiylik da'vo qilg'ondin ne balolarkim, boshig'a keldi va holo qirq yildin ortuqdurkim, o'lubdur. Aqidasi hanuz budurkim, otasi yo Mahdiydur yo mahdiy ekandur. Bu matla' aningdurkim:

*Turki man dast chu bar xanjari bedod burd, ,
Tashnaro obi zuloli Xizr az yod burd⁽⁴⁶⁾.*

Mir Sayyid Husayn Abivardiy⁽⁴⁷⁾ — tahsil uchun viloyatidin shahrg'a keldi. Aning asnosida hazrat Kichik Mirzo mulozamatida Ka'ba safarig'a borib Iroqda ayrilib qoldi. Andin Rum va Misr va Halab balki ul tarafning ko'prak mamolikiga musofirat qilib, olti-etti yil qolib arabiy tilni ravon qilib mutabarruk mazorotg'a yetib, balki Makka va Madinag'a musharraf bo'lib, ko'p azizlar suhbatin topib, Xurosong'a keldi. Borurda aql va tab'i qillatig'a mat'un erdi, kelganda ikkalasin tamom qilib keldikim, hech kishig'a mahalli ta'n va tashne' bo'lmag'ay. Bir bayt moddasida aqli va tab'i ne miqdor ekanin isbot qilibdur. Ul bayt budurkim:

*Ey zi mehri orazat gardun g'ulom,
Yusufero kardaand Ya'qub nom⁽⁴⁸⁾.*

Tab'i natijasi bu bo'ldikim, mundoq bayt aytti va vuquf ahli bu baytning ma'nisi yo'qtur, nomavzundur deganda, emasdur, deb bahs qildi va aql natijasi bukim, Xuroson ahlin tajhil qilib, bu baytin xubluqg'a bitib Iroqg'a Ya'qub Mirzo o'rdusig'a yibordi va Mirning mundoq ishlari loyuaddu va loyuhosudur. Ammo chun qobildur, bok emas. Umid borkim, islohpazir bo'lg'ay!

Sayyid G‘iyosiddin — Mashxadning sodoti, balki nuqabosidindur. Ahl va muloyim kishidur. Mazox va mutoyiba mizojig‘a g‘olibdur. Sho‘xluqdin faylasufvash va ulvi nasabdin tazvir va buzurg manishlikda beixtiyor tushubtur. Chun Sayyidning humoyun basharalarida sufrat g‘olibdur, Sayyid shirg‘a ham derlar. Ba‘zi maymung‘a ham tashbih qilurlar. Faqir xud bu nav‘ gustoxliqlar qila olmasmen, ammo Mirning markabin ul itga o‘xshatibmenkim, anga bir maymunni mindururlar. Agarchi Mirg‘a noxush kelur, ammo hazl bila o‘tkarur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Dame az dasti duni vo narastam,
Biyo, soqiyki, yakdam mayparastam⁽⁴⁹⁾.*

Sayyid Asadulloh — yaxshi tab‘liqdur.

Mavlono Qosim — Mavlono Abdurahim munajjimning nabirasidir. O‘z zamonida nujum ahkomida muqarrar va musallam erdi va o‘zi ham nujum fanini yaxshi bilur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Mo masti mudomem zi mayxona chi pursam,
Az beshu kami sog‘aru paymona chi pursam⁽⁵⁰⁾.*

Mavlono Ali — hamonoki turshizlikdur va tab‘i muammo fanida ko‘p muloyim tushubtur.

Shayxzoda Purodiy — Shayx Abusaid Purodiyning xalafidur. Ikki pushtidin valoyat anga mavrusiydur. Va o‘z zotida ham qabuliyat ko‘pdur. Oz fursatda xututni andoq bitidikim, ul fan ustodlari o‘ttiz yilda oncha bitimaqdurlar. Holo tahsidg‘a mash-g‘uldur, derlarkim, rushd osori zohirdur⁽⁵¹⁾. Bu ruboiy aningdurkim:

*Chung man ba g‘ami tu dar jahon farde nest,
Dil so‘xtai niyozparvarde nest,
Xoham g‘amu dardi xeshro sharh kunam.
Lekin chi kunamki, hech hamdarde nest⁽⁵²⁾.*

Mavlono Safiy⁽⁵³⁾ — Mavlono Husayn Voizning o‘g‘lidur. Bag‘oyat darveshvash va foniy sifat va dardmand sheva yigitdur. Hiriydin Samarqandg‘a Hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror suhbatig‘a musharraf bo‘lur uchun bordi va andoq derlarkim, onda qabul sharafin topib, irshod va talqin saodatig‘a sarafroz bo‘lub, yana Xurosong‘a keldi. Tab‘i xub voqe‘ bo‘lubturkim, bu matla‘ aningdurkim:

*Bo labi la‘lu xatu g‘oliyagun omadai
Ajab orosta az xona burun omadai⁽⁵⁴⁾.*

Mavlono Shihob — Mudavvin laqabi bila mashhurdur va ani «ajoyib ul-maxluqot» desa bo‘lur. Bovujudi ulkim, «Kalomulloh» oyotini bot topar uchun tadvin qilibdurkim, ulamo

va qurro taajjub va hayrat yuzidin tahsin kilurlar. Mundin boshqa ham salohiyatliq kishidur. Bir nav' qadimona she'r ham aytur, ammo yaqindur odamiyliq suratidin munxale' bo'lub o'zga jonvor suratig'a masx bo'lg'ay. Andoqkim, insoniyat siyratidin subo' va bahoyim siyratig'a mubaddal bo'lubtur. Ammo bu da'vo isbotig'a bu misra'ki «maqlubi mustaviy» san'atida aytibdur.

Bovujudi bular anga shahr shayx ul-islomidin ajab zulm o'ttikim, hech kishi g'avrig'a yeta olmadi.

Hofiz Jaloliddin Mahmud — «Ixlosiya» xonaqohining shayxidur va «Qudsiya» masjidi jomeining xatib va imomi va yaxshi mehrobxon hofizdur. She'r va muammo aytur va xatni yaxshi bitir. Muncha salohiyatni bot kasb qildi. «Ixlosiya» madrasasig'a kelganda nomavzun ham tashlar edi. Emdi ham yongilib hamul tariyqni masluk tutsa ajab emas, nechunkim, ham shayxdur va ham xatib va ham imom. Bu matla' aningdurkim:

*Masih agar shunavad yak takallum az dahanash,
Digar zi sharm naboshad majoli dam zadanash⁽⁵⁵⁾.*

Mavlonο Pomiy — sabzavorliqdur. Insho bila noma xatin biturga mashhurdur. Ammo inshoda hech munshi oni begonmas, batahsis Mavlonο Abdulvose⁽⁵⁶⁾ va «noma» xatida hech hushnavis oni pisand qilmas, xususan Shayx Abdullo Devona va Xojai Dehdorki⁽⁵⁷⁾, hazrat podshoh majlisida nadimlik yuzidin ko'p elni taqlid va tashbih qilur mustahsan tushar. Mavlononing takallumida bir hol borkim, ani anga tashbih qilibtur, sobun chaynaydur va og'zidin mag'zoba zohir bo'ludur va takallumni ham taqlid qilurda ikkalasin ahli idrok ko'p tahsin qilurlar. Bu matla' aningdurkim:

*Lofad ba xatat nofa zihi besaru poi,
G'ammozi siyah botini mo dar baxatoi⁽⁵⁸⁾.*

Ba ba'zi zurafo derlarkim, Xoja Dehdor uchun bu matla'ni aytibdur, nechunkim xeyli munosabati bor va yiroq ham emaskim, chin aytadur ermish bo'lg'aylar (vallohu a'lam).

Mavlonο Abdulvose' — insho fanida mohir, bag'oyat sabukruh kishidur, ul g'oyatqachakim, xuffat va taxattukga bosh tortar. Zurafo aning bila mutoyiba ko'p qilurlar. Ul shirin iztiroblar qilurki, yana mu'jibi hazl bo'lur. Safohat qilsa ham, eldin qutulmas. Anga bu mansab Xoja Majdiddin Muhammad davlatidin yetishtir. Derlarki, aning uchun besh yuz baytdin ortuq hajvi bor va soyir xalq uchun ming baytdin ortuq. Bu matla' aningdurkim:

*Ey kashida turki chashmat dar qamon payvasta tir,
Mohi nav gasht az kamoni abruvonat go'sha gir⁽⁵⁹⁾.*

Xoja Sulton Muhammad — Shoraxtdindur. Shahrda nash'u-namo topti. Xushsuhbat va xushmuhovara kishidur. Suhbati mujibi bast va takallumi mujibi nishotdur va noma xatin

dag'i shirin bitir va boshining tuki biror nima ozroq uchun burun ko'p mutaraddid va mutag'ayyir bo'lur erdi. Ammo emdi vus'ati Mashrabi ul yorga yetibdurkim, majlisda bosh yalang-o'lturur va bir sari mo'gami yo'qtur. Tab'i yaxshidur. Bu matla' aningdurkim:

*Ba dandon uqdai zulfi turo xohamki bikshoyam,
Az in savdo shudam devonavu zanjir mehoyam⁽⁶⁰⁾.*

Mirak Husayn — aning o'g'lidur va tab'i emdi nazmlarg'a moyil bo'lubtur. Bu matla' aningdurkim:

*Kujo rasad zi tu, ey bevafo, visol maro
Ki, az jununi g'amat nest e'tidol maro⁽⁶¹⁾.*

Mavloni Muhammad Noiniy — ahl kishidur. Tib ilmidin vuqufi bor. Nazmlardin muammo fanida ko'prak shuuri bor. Bu fan ustodlari ittifoq bila muammo ta'rifin mundoq qilibdurlarkim, «mavzun kalomdurkim, ishorat va imo bila andin ot hosil bo'lur» va ul debdurkim, «mavzuni kalom qaydi ta'rifda hojat emas va ishorat bila ham emasdur». Va misol muni debdurkim, birovning oti «Sadr»⁽⁶³⁾dur. Yana birov so'rsakim, oting nedur? Ayt! Ul ilik ko'ksiga qo'ysa, dalolat anga qilurkim, oti Sadr bo'l-g'ay. Va birov bir maxzan bir yerda dafn qildi va ustida bir zange sarnigun osti, daqiqtab' nigun «zang» din «kanz»⁽⁶⁴⁾ vujudin tahqiq qilurkim, hech qaysida ne kalomning daxli bor va ne nazmning». Ammo fan donolari bu taxayyulin bang xayolotig'a haml qildilar.

Mavloni Nur — soda va abdo'vash kishidur. Bir majlisda anga aytildikim hukamo hissi shommani⁽⁶⁵⁾ dimog'ning to'rida ta'yin qilibdurlar. Bas bu e'tibor bila mashmumotni ikki qosh orasig'a islasa kerakki, isi botroq ma'lum bo'lg'ay. Ul bu so'zni ma'qulsinib, yaxshi islik ash'yoni ikki qosh orasig'a qo'yub, nafasni yuqori tortar erdi. Ammo xoli az tab' emas. Bu matla' aningdurkim:

*Turo nilufari pirohanu man monda hayronash
Ki, sar bar mezanad xurshed har ro'z az girebonash⁽⁶⁶⁾.*

Mavloni Sher Ali — olamning mashohiridindur. O'z zamonida «nashta'liq» xatin andoq bitidikim, hech kishi taqlid qila olmadi, balki mushkilki, hargiz ham taqlid qilsa bo'lg'ay. Tab'i ham tasavvuf va ham muammo va soyir fazliyotda yaxshidur. Holo muddatedurkim, inzivo ixtiyor qilibdur. Va o'z nomurodlig'ig'a mashg'uldur. Va el bila ixtiloti yo'qturkim, tengri bu davlatni har kimga hamki, faqr davlatig'a tolibdur anga arzoniy tutsin.

Mavloni Sulton Ali⁽⁶⁷⁾ — mashhadlig'dur. Bu kun Xurosonda va olamning aksar bilodida «nasx ta'liq» xatida qiblat ul-kuttobdur va kitobat mulkning qalamravi yak qalama anga musallamdur. Oncha hamida axloq va guzida atvor bila orosta va pirostadurkim, sharhidin qalam tili ojiz va husni xulqda naziri yo'qtur va tab'i dag'i xub voqe' bo'lubtur. Bu matla' aningdurkim:

*Gul dar bahor az on ruxi gulgun namunayest.
Chun ashki manki, az dili purxun namunayest⁽⁶⁸⁾.*

Ammo chun Mashhadiydur, ul alfozg'a tamom tag'ayyur bera olmaydur, va lekin ko'p hunar muqobalasida oz ayb tushmas.

Mavlono Sulton Ali- Qoyiniy — darvesh yigitdur va hazrat Maxdumiy Nuran mulozamatlari sharafi anga dast berubdur va alar musannafotidin o'zga nima oz kitobat qilur va necha yil Makkada mujovir erdi va tab'i va salohiyati ko'pdur. Ammo bir kun anga kitobat buyurulub erdi, muzd ta'yin qilurda mubolag'ani ul yerga yetkurdikim, har bir baytim bir tangaga arzir, deb bir ma'nidin yiroq ham emas. Ul so'zlarkim, ul bitir ortuqroqqa ham arzir. Bu matla' aningdurkim:

*Ey ishqat otash dar zada nomusu nangu nomro,
Doda ba bod nesti-yu hastii xosu omro⁽⁶⁹⁾.*

Mavlono Sharifi Bog'i Shahriy — ham kotib yigitdur va yaxshi tab'i bor va nazmlarg'a dag'i ishtig'ol ko'rguzur. Bu matla' aningdurkim:

*Navbahoron garchi gul az sabza berun medamad,
Sabzai xatti tu az gulbargi tar chun medamad⁽⁷⁰⁾.*

Mavlono Shoh Ali — habissheva yigitdur va zihni muammog'a yaxshi borur.

Mavlono Bahlul — tabibsheva, tolibi ilm yigitdur.

Sufiy Piri Sesadsola — Darvesh Husaynning nabirasidur va Mavlono Muhammad Chohuning o'g'lidur. Sufiliqqa tabobatni zam qilibtur. Go'yo maraz riyozatin tortqon soliklarga «Mutu qabla an tamutu»⁽⁷¹⁾ irshodin qilur. Bu ruboiy aningdurkim:

*Manamoy ba g'ayri man rux, ey siym zaqan,
K-az g'oyati g'ayratam ravad jon zi badan,
Xoham ki shavam mardumaki didai xalq,
To rui tu hech kas nabinad juz man⁽⁷²⁾,*

Sufining mizojining tezlik va nozikligi bu g'oyatg'acha derlarkim, bir yigitga taalluq lofi urar ermish, ammo yigiti aning rayi bila bormasa safihona alfoz bila fahsh aytur ermish va tayog'lamoqg'a dag'i ham qilur ermish (Aluhdatu alar-roviy)⁽⁷³⁾.

Mavlono Vasliy — Mavlono Xoja Kalon qozining o'g'lidur. Otasini Hiriy ahli ittifoq bila aql va ra'yg'a musallam tutarlar erdi. O'zi xeyli salohiyatlik yigitdur. Kabir va sag'ir shatranjni xub o'ynar. Yaxshi suhbatliq, xushtab' va salim nafas odamiydurur. Bu matla'ni yaxshi aytibdurkim:

Maro dar dida nur az gardi rohi on sipoh omad,

Bihamdillahki, nuri chashmi man az gardi roh omad⁽⁷⁴⁾.

Mavlono G'iyosiddin — tolibi ilm va xush-tab' yigitdur. Holo tabobatqa mashg'uldur va shuhrati tabobatqa o'zga ishlardin ko'prak emishdur. Balki rasoil tasnif qilibdur va nazmlarda hazrat Shayxning «Maxzan ulasror»ig'a tatabbu' qilibdur. Rangin va hamvor aytibdur. Bu matla' aningdurkim:

*Ey sabo, k-on bog 'i orazro tamosho kardai,
Muztarib mebinamat go 'yo gule vo kardai⁽⁷⁵⁾.*

Shayxzodai Ansoriy — Shayx Abdulla Devonaning o'g'lidur. Kichik yoshidin tahsilg'a yaxshi mashg'uldur va muammo fanida ko'p muloyimat andin zohir bo'lur, ham ayturida va ham ocharidakim, ulug'roq elga mahalli taajjubdur.

Andoq zohir bo'lurkim, volidasi ham xush tab'durur va «Bediliy»⁽⁷⁶⁾ taxallus qilur. Go'yo bu matla' aningdurkim:

*Ravam ba bog 'u zi nargisi du dida vom kunam
Ki, to nazorai on sarvi xush xirom kunam⁽⁷⁷⁾.*

Shayx Abdullo — dag'i agarchi majnunshior kishidur, ammo chun salim fitrati bor, goh-goh tiliga nazmlar o'tar. Bu matla' ul jumladindurkim:

*Mani miskin ba sari ko 'i tu harchand davidam,
G 'ayri oheyu sirishke zi dilu dida nadidam⁽⁷⁸⁾.*

Desa bo'lurkim, aning uyida zano-mardi xush tab'durlar.

Xoja Mahmud — sabzavorlikdur. Bobo Ali Xushmardon⁽⁷⁹⁾ ning nabirasi, Xoja Imodiddin Hasan o'g'lidur. Otasining yaxshi-yomonida so'z desa bo'lmaskim, bag'oyat mashhurdur. Ammo jaddi darvesh kishi erdi. xonaqohi va muridlari bor erdi. Uzi salohiyatliq yigitdur. Xututni yaxshi bitir, nazmi ham yaxshi. Bu yaqinda «darjiy»⁽⁸⁰⁾ bitib erdi va olti asl qalamni tartib bila sabt etib erdi va «darj»ning oxirida necha bayt masnaviy ham xatlari ta'rifida nazm qilib erdi va so'ngg'i baytida tarix ham «darj» qilib erdi. Ul budurkim:

*Chun usuli shash qalam kardam raqam,
Gasht tarixash «usuli shash qalam»⁽⁸¹⁾.*

Ustod Qulmuhammad⁽⁸²⁾ — Shibirg'ondindur. Qichik yoshida g'ijjak cholar erdi. Qobiliyat osori ul fanda andin ko'p zohir bo'lur erdi. Tarbiyatig'a mashg'ul bo'luldi. Holo ul fan ustodlari mutaaddid aning musannafotin yod tutub, shogirdligiga mubohiydurlar. Tolibu ilmliqqa dag'i mashg'uldur. Uzga ushoq fazoyili ham bor: ma'rifati taqvimdek, naqqoshliqdek, xatdek. Ammo ud va g'ijjak va qo'buzni asrida oncha kishi chala olmas va. muammo qavoidin ham mazbut bilur.

Mavlono Sharbatiy — ul faqir qoshida ulgʻayibdur. Tarix va inshodin sohibi vuqufdur va sheʼr va muammodin xabardordur va naqqoshliq ham bilur. Bir tasnifi ilkidaborkim, tugansa koʻp favoyid andin elga mutasavvardur. Abnoi jinsida oncha salohiyatliq kishi ozdur. Funun kasbida ul martabada mohirdurkim, kichik yoshida qorilikni ham kasb qilibdur. Bu matlaʼ anyngdurkim:

*Junun omad shior va mehri roʻi on parizodam,
Mani devona z-on roʻ dar zaboni mardum aftodam⁽⁸³⁾.*

Pahlavon Darvesh Muhammad — Pahlavon Muhammad (alayhir-rahma)ning inisidur. Holo-Pahlavon oʻrnida qoyim maqomi uldur. Bu matlaʼ aningdurkim:

*In maqomestki, injo ruxi purgard xush ast,
Dardmandiyu niyozu dili purdard xush ast⁽⁸⁴⁾.*

Inisi Husayniy ham muammo aytur.

Muhammad Ali — ham Pahlavon ushshoqlaridindur.

Pahlavon Sulton Ali Goʻshtigir — ul dagʻi Pahlavon (alayhir-rahma)ning xulafosidindur. Yaxshi tabʼi bor. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Musofirest maro dar safar nameoyad,
Ba manki, bexabaram z-oʻ xabar nameoyad⁽⁸⁵⁾.*

Xoja Abu Said — Mehnadindur. Hazrati Sultoni tariyqat Shayx Abu Said Abulxayr (quddisa-sirruhu) avlodidindur. Xoja Muayyad Devonaning oʻgʻlidur. Nomurod kishidur. Ammo oʻz sheʼrin oʻqurda yigʻlamsinib oʻqur, dagʻi oʻzi mutaassir boʻlub, hardam ulugʻ tinar, to bas qilmagʻuncha el tinmas. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Ba tavba dodanam, ey shayx, iztirob makun,
Maro, baroi rizoi xudo, azob makun⁽⁸⁶⁾.*

Mavlono Hoji — Mashhadda imom Ali Muso» ar-Rizo (alayhittahiyati vasano)⁽⁸⁷⁾ ravzasida imom va muarrifdur va «Gavharshodbegim» masjidi jomeida xatibdur. Fozil va sunniy mazhabdur. Aql maoshi ul martabadadurkim, bovujudi tasannun ul ravza boshidagʻi sodot bila borishur, bu jihatdin baʼzi ani nifoqqa va baʼzi xuruj mazhabigʻa nisbat berurlar. Yaxshi tabʼi bor. Bu matlaʼ aningdurkim:

*Kadom ayshu tanaʼum buvad barobari inam
Ki, sar zi xob baroram sabohu roʻi tu binam⁽⁸⁸⁾.*

Mavlono Abdurrazzoq — tolibi ilm kishidur. Ammo balohati gʻolibdur. «Gavharshodbegim» madrasasining talabasi, sohib jamʼ vazifalarin kechroq barot bitidurgon uchun shikoyatga bu faqir qoshigʻa keldilar. Ittifoq bila soʻzni ul ayturgʻa

muqarrar qilg'on er mishlar. Faqir jamoati kasir ko'rdum ersa so'zlarin so'rdum. Aning taqirig'a havola qildilar.

Andin so'ru ldi, ersa bu iborat bila takallum surdikim «barot namenavisad»⁽⁸⁹⁾. Va rangining hurmati bor uchun mutoyiblari ani «surx qalb»⁽⁹⁰⁾ derlar. Bu matla' aningdurkim:

*Joni man toza shud az la'li tu xunxorii dil,
Ba'daz in movu sari ko'i tuvu zorii dil*⁽⁹¹⁾.

Mavlon o Hoji — darvesh va munqate' kishidur va Hazrati Maxdumiy Nuranning mulozim va musohiblaridur. Necha qatla Ka'bag'a borib, ba'zi qatla, hamonoki, yayoq ham bor ekandur. Ul hazratning andoqki, aning bila xususiyati bor, oz kishi bila bo'lg'ay. Gohi nazm ham aytur. Tab'i yaxshidur. Bu matla' aningdurkim:

*Pirona sanam toza nihole ba bar omad,
K-az meva g'amu g'ussavu xuni jigar omad*⁽⁹²⁾.

Mavlon o Jamoliddin — Hazrat Maxdumiy Nuranning qarobatlaridindur. Tolibi ilm bo'lubtur. Agar lavandlig'i mufrit bo'lmasa erdi, donishmand ham shoyad bo'lg'ay erdi. Ul hazratning shahar ichidagi madrasasida mudarrisdur. Bu matla' aningdurkim:

*Manam on qumrii nolon zi shavqi sarvi dil jo'yat
Ki, doram tavqi gardan az xami qullobi abro'yat*⁽⁹³⁾.

Xoja Abu Nasr — Xoja Muayyad Mehna (alayhirrahma)ning o'g'lidur. Mehna shayxzodalarining nohamvor maoshi ko'ptur. Andoqkim, alar har qachon bir-birlari bila nizo' qilsalar, ikki jonibdin yasol yasab, o'q va qilich va nayza bila urushurlar. Ammo holo ba'zideydurlarkim, Xoja Abu Nasr xeyli salohga kiribdur. Inshoollohki, rost bo'lg'ay! Bu matla' aningdurkim:

*Namonad sabru toqat otashi g'am chun shavad tezam,
Az on chun shu'la binshinam dame, sad bor barxezam*⁽⁹⁴⁾.

Xoja Husayn Kirangiy⁽⁹⁵⁾ — Abivard viloyatidindur va Xoja Abu Nasr Mehnaning xoharzodasidur. Otasi Xoja Qanbar Xurosonning mutaayyin arboblaridin erdi. O'zi mujid va sulb va yakro'y kishidur. Yillar sadorati oliy mansabida mutamakkin erdi va podshoh inoyati anga a'lo darajada. Ul bu inoyatqa andog', mustazhirkim, ba'zi mahalda podshoh maslahati uchun tengriliqdin ham tajovuz qilur erdi bo'lg'ay. Oqibat podshohning muborak xotirig'a ani andoq ko'rguzdilarkim, aning iloji kishi ilgidin kelurning imkoni yo'qtur. Magar ham tengri podshohning muborak xotirig'a solg'ay (inshoolloh). Va Xojaning yaxshi tab'i bor. Bu bayt aning abyotidindurkim:

Hech ohe juz ba yodat bar nameoyad zi dil,

Hech naqshe juz xayolat dar nameoyad ba chashm⁽⁹⁶⁾.

Xoja Qutbiddin — Hazrat Shayx Abu Said Abulxayr avlodidindur. Bag‘oyat solih va muttaqiy va pokiza ro‘zgor kishidur va shayx atvori aning atvoridin zohirdur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Muddate shud k-on pari paykar nameoyad ba chashm,
Soxt manzil dar dilu digar nameoyad ba chashm⁽⁹⁷⁾.*

Xoja Yusuf Mehna — Xoja Rukniddinning o‘g‘lidur va hazrat Shayxning buzurg avlodidindur. Tolibi ilm va solih va xush tab‘ yigitdur va tab‘ida ko‘p muloyimat bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Dili zoramki, jo dar zulfi on nomehribon dorad,
Gar az savdo pareshonhol boshad joi on dorad⁽⁹⁸⁾.*

Xoja Abu Tohir — Xoja Abdulloh Mehnaning o‘g‘lidur, xeyli latif tab‘i bor. Bu matla‘ aningdurkim:

*Onchi shabho bar dilam z-on ja‘di purxam merasad,
Bar giriftoroni zanjiri balo kam merasad⁽⁹⁹⁾.*

Xoja Qutbiddin Ahmad — Hazrat shayx ul-islom Zinda Fil Ahmad Jom (quddisa sirruhu)ning avlodidindur. Farishtavash va malaksheva kishidur. Chun Xoja Ahmad Jomiy qush asrab solur, alar dag‘i taqlid qilibdurlar. Solur chog‘ida ulog‘lari yo‘q ermish, bag‘oyat biyik kishi, bir qullarig‘a o‘zlarin ko‘tarib qush solur ermishlar. Bu matla‘ aningdurkim:

*Sabo, biyor g‘ubori rahi suvori maro
Ki, to‘tiyo buvad on chashmi ashkbori maro⁽¹⁰⁰⁾.*

Mavlono Muhammad Xurosoniy — louboli va lavandsheva, abtarvash kishidur. Va hodii tavfiq anga rahnamoyliq qilib, ani hazrat Mavlono Muhammad Tabodkoniy (rahmatulloh) xizmatig‘a soldi. Ul buzurgvor ilgida tavba qilib, sufiya odob va tarinqiga mashg‘ul bo‘ldi va «arbain»lar o‘lturub, derlarkim, kushonishlar topti va yayoq soyim ud-dahr muborak safarin qilib ul davlatqa musharraf ham bo‘ldi. Holo uzlat kunjida ibodatg‘a mashg‘uldur. Va bu ruboiy aningdurkim:

*Yak chand zi do‘ston judo xoham bud,
Bo mehnatu dard muftalo xoham budx
To yor nasozad oshnoii xesham,
Begona zi xeshu oshno xoham bud⁽¹⁰¹⁾.*

Xoja Kamoliddin Husayn — Xoja Nizom ul-Mulkniig o‘g‘lidur. Otasining taayyun va ishthori burung‘i Nizom ul-Mulkdin ortug‘roq bo‘lmasa, o‘ksuk ham emas. E‘tibor

yuzidan aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidan ortti, nechukkim, ul vazir erdi, bu vazorat mansabin tay qildi va holo ashrofi oliy martabasida mutamakkundur. O‘zi muloyim yigitdur. «Noma» xatin yaxshi bitir. Va derlarki, musiqiyda ham daxli bor va ba’zi naqshlarni anga mansub qilurlar.

Tab’i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Garchi dar jannat nasimi xuldu obi kavсар ast,
Xonai xammorro obu havoі digar ast⁽¹⁰²⁾.*

Xoja Abdulloh Sadr⁽¹⁰³⁾ — Xoja Muhammad Marvorid⁽¹⁰⁴⁾ o‘g‘lidurkim, muddate vazorat devonida muhr bosar erdi va o‘z ixtiyori bila istig‘for qilib, ofiyat kunji ixtiyor qildi. Bu toifadan anga muyassar bo‘lg‘ondek oz kishiga bo‘lmish bo‘lg‘ay. O‘zi kichik yoshida ulum kasb qildi. Advor va musiqiy ilmida va xutut fanida benazir bo‘ldi. Va qonunni ma‘lum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish bo‘lg‘ay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfaroз bo‘ldi. Ud jumladin biri, sadoratdur. Va insho fanini ham kamolg‘a yetkurdi. Va o‘zi yaxshi muhovaraliq va yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatliq yigitdur. G‘aflat va beparvolig‘din o‘zga hech aybi yo‘qdur. Chun yigitdur, umidi daf bor. Va bu matla’ aningdurkim:

*To dil dahonu turrai on dilnavoz yoft, .
Xo‘rd obi zindagoni umri daroz yoft⁽¹⁰⁵⁾.*

Xoja Yahyo — Xoja Abdullohning inisidur. Yaxshi tab’i bor. Bu matla’ aningdurkim:

*Ba in shukrona, ey hamdamki, mego‘i suxan bo u,
Chi boshad gar bigo‘i shammaye az holi man bo u⁽¹⁰⁶⁾.*

Mavlonо Fasihiddin — Mavlonо Nizomiddin Hiravin ahfodidindurkim, alarni Nizomiylar derlarkim, Xurosonda mundin sharifroq nasab yo‘qtur. yigirmi yoshig‘a yaqin ekanda ulumni takmil qildi. Holo o‘ttuz yilg‘a yaqin borkim, ifodag‘a mashg‘uldur. Zohir ulumidin hech qaysi bo‘lmaq aykim, dars aytmaq ay. Va har bir ilmki aytur, ko‘rida havoshiy va mufid musannafoti borkim, ulamo andin bahramanddurlar. Muncha purkorlig‘ va ranginlikbila aql va bazli ham borkim, munofii bu ulumdo‘r. Ko‘p hamida axloq va pisandida avsofg‘a muttasyfdur. Bovujudi mo‘ncha kamol bu faqirning tanazzul qilib, safar va hazarda ko‘prak avqot o‘z sharif suhbatі bilan musharraf qilur. Necha fikr qililsa, bu tiyra ro‘zgor nako‘hida atvor musohibliq‘idin o‘zga ayb onda topsa bo‘lmas, ammo aybsiz tengridur.

To‘rtinchi majlis oxiri

Bu diqqatpesha va zarofatandesha azizlardin agarchi ba’zi ajal mayidın mast va bexabardurlar, ammo ba’zi hayot bazmida sarmast va jilvagar va nazmgustardurlar, tengri

taollo o'tgan jamoatni o'z qoshidin g'ariyqi daryoi rahmat qilsun va qolg'on ahli xizmat va ubudiyatni shoh lutfidin shoyistai ehsoni beminnat.

Ruboiy:

Ul xaylg'a tengri rahmaty yor o'lsun,
Bu jam'g'a shah lutfi madadgor o'lsun,
Ham shohqa yuz falakcha miqdor o'lsun,
Ham qullari ehsong'a sazovor o'lsun!

BESHINCHI MAJLIS

Xurosonning va ba'zi yerning mirzodalari va soyir» Ozodalari zikridakim, tab' salomati va zihi istiqomati alarg'a boisi nazm bo'lur, ammo mudovamat qilmaslar

Ul jumladin:

Amir Davlatshoh⁽¹⁾ — Firuzshohbekning amakizodasi Amir Alouddavla Isfaroyiniyning o'g'lidur. Firuzshohbekning muknat va azamati xud olam ahli qoshida gunashdin ravshanroqdur, ta'rifqa ehtiyoj ermas. Amir Alouddavla dag'i ahl kishi erdi. Ammo dimog'i hiffat paydo qilib, zoye' bo'ldi. Va lekin Amir. Davlatshohhushtab' va darveshvash va ko'p salohiyatlig' yigitdur. Obo va ajdodi tariyqidinkim, amorot va zohir azamat va tajammuli bo'lg'ay, kechib go'shaye ixtiyor qilib, faqr va dahqanat bila qanoat qildi va fazoyil va kamolot iktisobi bila umr o'tkardi. Ushbu mazmundakim, bu muxtasar bitiladur, «Majma ush-shuaro»⁽²⁾ tasnif qilibdurkim, har, kishi ani mutolaa qilsa, musannifining iste'dod va kamolin ma'lum qilur. Ammo bu yaqinda xabar keldikim, foniyl olamdin rihlat qilibdur. Voqe' bo'lsa tengri ani rahmat qilg'ay.

Bu matla' aningdurkim:

*Zihi az oftobi orazat chashmi jahon ravshan,
Zi chashmi ravshani karda dilamro xonumon ravshan*⁽³⁾.

Mir Husayn Ali Jaloyir⁽⁴⁾ — «Tufayliy» taxallus qilur erdi. Aln Jaloyirning o'g'lidurkim, otasi Yodgor Mirzo eshigida amir ul-umaro va sohib ixtiyor erdi. Ammo o'zining otasig'a nisbati yo'qtur. Faqirsheva va foniyvash va betakalluf va xushtab' yigitdur. Nazmlarg'a tab'i muloyimdur. Ammo qasida uslubi aning haqqidur. Andoqki, bu toifa ham musallam tutarlar. Sulton sohibqiron otig'a g'arro qasoyidi bor. Ul hazrat ham ani yaxshi tarbiyatlar qildilar. Andoqkim, viloyat bildi va qo'sh devonida muhr bosti va parvonachi bo'ldi va taqarrub va nayobatqa daxli bor erdi.

Falakning andinkim, fazl ahlig'a hasadi bor, bir taqsir bila oni dargohi falak ishtibohdin yiroq solibdur, aning xud bu qayg'udan kunduz qarori va kecha

uyquasi yo'qtur. Umid ulkim, podshohona lutf va karam dastgiri bo'lg'ay.

Bu matla' aning qasoyididindurkim:

*Bihamdillahki, digar rah ba iqboli shahi odil,
Burun omad gulam az xoru xor az povu va po az gil⁽⁵⁾.*

Umid ulkim, bu matla' munosibi holi bo'lg'ay. Bu g'azal matlai ham aningdurkim:

*Bute k-az gul buvad ozori po dar gashti bo'stonash,
Chi ro' dar dida jo'yam bovujudi xori mujgonash⁽⁶⁾.*

Aybi mufrit lavandlig' va junundin o'zga yo'qtur.

Mir Haydar⁽⁷⁾ — «Sabuhiy» taxallus qilur. Ota otadin bu dargohning boyrisi, balki tug'masidur. Bu faqirg'a shiddati qarobatdin farzandlig' nisbati bor. Tufuliyatdin shabob ayyomng'acha ulum iqtisobi qildi va tab'i she'r va muammo va soyir fazliyotda mo'loyimdur. Agarchi bot tark qildi, ammo sipohiylikda ham erdamlarkim bo'lur, o'q otmoqda jald va qilich chopmoqda chobuk va soyir jalodatlarda oncha borkim, asrining ahli pisand qilurlar. Chun junun nasha'sidin bebahra emasdur, suluki tariyqida ko'p ofat va andoz bo'ldi. Umid ulkim, oqibat istiqomatda rosih bo'lg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*May ast la'li tu yo shahdi nob: az in du kadam ast?
Xay ast bar ruhi tu yo gulob: az in du kadam ast?⁽⁸⁾*

Abdulvahhob — «Suhoiy» taxallus qilur. Shayximbekning xoharzodasidurkim, Abdurrazzoq atkaning o'g'li. bo'lg'ay. Shayximbek ta'rifi o'z zikrida aytili. Abdurrazzoq dag'i go'yoki Alouddavla Mirzo⁽⁹⁾ devonida muhr bosqondur. O'zi dag'i sipohisheva yigitdur. Kitobe, derlarkim, jam' qilg'ondur va otin «Abdolnoma»⁽¹⁰⁾ qo'yg'ondur. Ammo faqir ko'rmadim. Bukim, tab'ini gohi tag'oyisi ta'rif qilur, anga shu sharaf basdur. Bu matla' aningdurkim:

*Doshtam az chashmi bemorash ba dil sad gunna dard,
To ba chashmi xud nadid on dardro bovar nakard⁽¹¹⁾.*

Go'yoki birovning ko'zi og'rig'onda aytqondur.

Sulton Husayn⁽¹²⁾ — «Xatmiy» taxallus qilur. Shayx Bahlulbekning o'g'lidur. Agarchi otasi holo faqr tariyqin ixtiyor qilib go'sha tutubdur, ammo Sulton sohibqiron davlatidin Xorazm taxtida hukumat qilib, amorat devonida muhr bosti va og'asi yillar Balx (qubbat ulislomiy)da hukmron erdi. O'zi faqirvash va nomurodsheva yigitdur. Tab'i ham xoli az salomat emas. Bu matla' aningdurkim:

Maro bis'yor mushkil menamoyad furqati jonon,

Vidoi joni shirin hast dushvor, ey musulmonon⁽¹³⁾.

Mir Ibrohim — Sulton Husaynning o‘g‘lidur va faqirning og‘asining nabirasidur. Faqir oni o‘g‘il, chilay asrabmen.

Muhammad Solih⁽¹⁴⁾ — ismi munosabati bila «Solih» taxallus qilur. Nur Saidbekning o‘g‘lidurkim, ko‘p vaqtlar Chahorjo‘y navohisidin Adoq navohisig‘a degicha amorat qildi va Sulton Abu Said Mirzo eshigida, Ulug‘bek va Jo‘gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi. Ammo bag‘oyag badfe‘l va badxulq kishi erdi. O‘zi muloyim yigitdur. Atvorining otasi atvorig‘a nisbati yo‘qtur. Anga ham g‘arib sahv tushtikim, Sulton Sohibqiron qullug‘idin g‘aybat ixtiyor qildi.

Ba‘zi derlarkim, bexudlig‘ olamida yomon musohiblar ani bu yomon yo‘lg‘a tutubturlar. Tab‘ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko‘pdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Nayam oshufta gar po‘shida kokul mohi tobonash,
Chi g‘am az tiragii shab, chu boshad subh poyonash?⁽¹⁵⁾*

Sheram — Xurosonning odamizodalaridindur. Solim nafsliq va salim tab‘liq yigitdur va tab‘i nazm tavrida ko‘p muloyimdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Yoridin har kim tushar ayru parishonlig‘ chekar,
Vasl qadrin bilmagan mendek pushaymonlig‘ chekar,*

Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:

*Mashav nosih ba ko‘i aqlu donish rahnamun Moro
Nadorem ixtiyori to chi farmoyad junun moro⁽¹⁶⁾.*

Mir Ishqiy Jahon Malikbekning nabirasidurkim, g‘oyat taayyundin go‘yoki ta‘rifi hojat emas. Amir Yodgorbekkim, zikri yuqori o‘tti, inisining o‘g‘lidur va otasi Aloulmulk dag‘i tab‘din xoli emas erdi. Tab‘i yaxshidur. Bu matla’ aningdurkim:

*Zi bahri on ki oyad qissai jononi man berun,
Zi xubon har zamon dar anjuman oram Suxan berun⁽¹⁷⁾.*

Mir Ali Do‘st — «Rafiqiy» taxallus qilur. Alaykabek⁽¹⁸⁾ning nabirasi bo‘lur. Aning sha‘ni andin azimroq va shuhrati andin ko‘prokdurkim, sharh qil-moq bila kishi oni elga tanitqay. Otkim, mazkur bo‘ldi, basdur. Anga ma‘ruf madrasa va go‘rxona va raboti basdur. O‘zining tab‘i muloyim tushubtur. Bu matla’ aningdurkim:

Davoi dardi dili xeshro ko'jo jo'yam,

Ko'jo ravam, chi kunam, holi dil kiro go'yam? ⁽¹⁹⁾

Yomg'urchibek — «Sipohiy» taxallus qilur. Mir Valibek o'g'lidir. Mir Valibek⁽²⁰⁾ning ta'rifi hamul Alaykabek ta'rifiga hukmi bor. O'z tavridda azamati andin ortuq bo'la olur erdikim, o'ksuk yo'q. Ammo osori oncha qolmadi. O'zi xushtab' voqe' bo'lubtur. Bu matla' aningdurkim:

*Ba masjideki, ravam dar firoqi dilbari xesh,
Bahona sajda kunam bar zamin niham sarn xesh⁽²¹⁾.*

Muhammad Ali Jaloyir — «Nisoriy» taxallus qilur. Ali Jaloyir o'g'lidir va Husayn Alibekning inisidur. Ikkalasining ta'rifi yuqori o'tubdur. Ammo o'zi ne sipohiylikda otasig'a o'xshar va ne o'zgaga. Atvorda og'asig'a nisbati bor. G'arib tavrlik kishidur. Chun Xuroson ahlining aksari bilurlar, bitimak befoydadur. Ammo she'r aytur. Bu matlai yaxshi voqe' bo'lubturkim:

*Kase hargiz maro beg'am nadidast,
Chu man g'am didaye g'am ham nadidast⁽²²⁾.*

Mavlono Kavkabiy — emdi zohir bo'lubtur va Shayx Boyazid Ilaning o'g'lidir. Faqir ani ko'rubmen, ammo she'r ayturin ma'lum qilmaydur erdim. Mashhadda bo'lur va oboajdodi go'rxonasida bo'lur. Andin kelganlar bu matla'ni andin naql qildilarkim:

*Kushti! mani dilxastaro, turki kamonabro'i man,
To boz yobam zindagi tiyre biyafkan so'i man⁽²³⁾.*

Ibrohim Muhammad Xalil — Muhammad Xalilning o'g'lidir va Xalilbek yillar Nimro'z mulkidin G'azni navohisig'acha hukumat qildikim, ba'zi vaqtda hech podshohqa tobe' ham emas erdi va bu Ibrohimning yaxshi tab'i bor. O'zi dag'i muloyim tavrliq vaadab va hurmatlig' yigit erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Ko'rub ag'yorni filhol ilik ko'ksungakim, urdum,
Emas ta'zim uchun, xanjarlari zaxmini yoshurdum.*

Mir Habibulloh — Mir Sadrning o'g'lidir. Otasining ta'rifi yuqorida mazkur bo'ldi. O'zi muloyim yigitdur. Ud cholarg'a ham qobiliyati bor, ham ishq bor. Umid ulkim, ul fanda yaxshi bo'lg'ay, tahsil ham qiladur. Bu matla' aningdurkim:

*Az chi dar shomi g'amat olam ba chashmam shud siyoh,
Gar namurd az sarsari oham charog'i mehru moh?⁽²⁴⁾*

Muhammad Ja'far — Muhammad Ali Ko'kaltosh o'g'lidurkim, otasi Mashhadi muqaddasa dorug'asidur. O'zining yaxshi tab'i bor. Bu matla' aningdurkim:

*On shabki, sham'i chehraro az tob meafro'xti,
Rahme nakardi bar manu parvonavoram so'xti⁽²⁵⁾.*

Shoh Quli Uyg'ur — kichikdin tab'i tahsilg'a va aksar fazliyotqa muloyim erdi. Ota-onaning suyukligi jihatidin omi qoldi. Va ko'prak qobiliyati zoye' bo'ldi. Qabilaning mirzosidur. Hukm uldurkim, ul qilg'ay, Tab'i muammoda muloyim tushubtur.

Darvesh Abdulloh — Tarxoniyalarda Shayx Salmon atkaning o'g'lidur. Tab'i nazmlarg'a kichikdin moyil erdi. Bu matla' aningdurkim:

*Az xayoli labu dandoni tu chashmam ki pur ast,
Hamchu ro'destki, sangash hama yoqutu dur ast⁽²⁶⁾.*

Abduqahhor⁽²⁷⁾ — Shayxzoda Muhammadning o'g'lidur. Otasi podshoh devonida amorat mansabi topti, bahodir kishi erdi va zotida bovujudi omiylig' muloyamat bor erdi. Ug'liga bulardin hech meros tegmadi. Ammo muammo faniga qobiliyati bor otig'a bu muammo aningdurkim:

Bek Malakiy — Hasan Malakiyning o'g'lidur. Kishi otasi bobida andoqki, har necha ta'rif va vasf etsa tamom qila olmas. Aning bobida aks voqe'dur. Agarchi burun biror muammog'ina ayta olur erdi, ul dag'i emdi yuqorig'i hampoyidek, andin ham oriydur.

Soqiy — Ja'far baxshining o'g'lidur. Kichikligida qobiliyati ko'p erdi, ham nazmlarg'a, ham soyir insoniyatqa, turkiy va forsiy she'rda rushdi bor erdi va sipohilik tariyqida jalodati ul martabada erdikim, Xurosonning sipohilaridin mutaayyin va muqarrar kishilar ani imkoni boricha ta'rif qilurlar erdi. Arkoni davlat qoshida, balki podshoh hazratida multafat va maqbul erdi. Hech ma'lum bo'lmadikim, anga na balo urdikim, ushbu sifatlardin hech nima anda qolmadi va el orosidin chiqti. Umid ulkim, bu idborin haq taolo iqbolg'a mubaddal qilg'ay. Bu matla' aningdurkim:

*Qilodai sagi u kun zihi girebonam,
Ki, har zamon nafitad chok to ba domonam⁽²⁸⁾*

Turkcha masnaviyda kechimlik ot ta'rifida debturkim:

*Tazarve erdi ra'noliqda oti,
Iki yonchoq bo'lub ikki qanoti.*

Beshinchi majlisning g'oyati

Bu tab' latofati bila orosta, ozodalar va zehni zarofati bila piyrosta mirzodalardin ham agarchi ba'zi adam makmanida pardai ixfodadurlar, ammo ba'zi vujud anjumanida zoviyai zuhur va baqodadurlar, ma'dumlarni haq rahmati mag'firatidin bahramand qilsun va mavjudlarni shohning xizoni in'omu lutfidin arjumand va sarbaland etsun!

Ruboiy

yo rabki, chu shahni aylading arsh janob,
Zillullah aning zotig'a yozildi xitob,
Utgan qullar yozug'ini qilma hisob,
Qolg'onlarin et bazmida iqbol taob.</div>

OLTINCHI MAJLIS

Xurosondin o'zga mamolik fuzalo va zurafosi zikridakim, bu asrda holo bordurlar va har qaysi o'z xo'rdi holig'a ko'ra shiringuftor "va sohibdevon va ash'ordurlar

Ul jumladin Samarqand ahlig'a shuru' qilali:

Ahmad Hojibek⁽¹⁾ — Sulton Malik Koshg'ariyningkim, zamonining bebadallaridin erdi, o'g'lidir. «Vafoiy» taxallus qilur. Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur. Xurosonda tarbiyat topti. Hirot dor us-saltanatida o'n yilg'a yaqin hukumat qildi. Samarqand mahfuzasida ham muddate hokim erdi. Va bir qarn bo'la bordikim, istiqlol bila amorat va istiqror bila podshohg'a nayobat qiladurkim, hech kishi andin bir nomuloyim nimakim, mujibi e'tiroz bo'la olg'ay, naql qilmaydur. Bovujudi bu Bekning sipohiylikda jalodat va bahodurlug'in har kishikim tanir, musallam tutar. Va tab'i bag'oyat xub voqe' bo'lubtur va nazmg'a ko'p iltifot qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Girifti joni man az tan ba zulfi purshikan, basti,
Kushodi parda az ruxsori xeshu chashmi man basti*⁽²⁾.

Xoja Xurd — Samarqand taxtining yakqalama qozisi va «Ulug'bek Mirzo» madrasasining mudarrisidir. Bovujudi fazlu kamolu aql va donish hulyasi bila orastadur va bovujudi zuhdi taqvo, husni axloq zevari bila piyrostadur. Muncha mashog'il va avoriz bila chun lutfi tab'i g'olibdur, nazm va insho va tarix va muammo fununida ham ishtig'ol ko'rguzur va ismiga bu muammo aningdurknm:

Va **Bobo Xudoydod** kim, derlarkim, abdoldin ermish, Samarqandda favt bo'lg'onda, favtning tarixini⁽³⁾ topqondur. Faqirning «Vaqfiya»⁽⁴⁾ sining

tashihin qilurda tarix⁽⁵⁾ topibtur. Ikkalasiga ta'rif hojat ermas. Aning diqqatig'a ikki adl guvohdurlar.

Abulbaraka — harnekim, Xoja Xurd qozi vasfida aytilibdur, aning moddasida tamom bar aks voqe'dur. Chun Xuroson va Samarqandda ani andoqkim bor, bilmas kishi yo'qtur. Koboha holatini mazkur qilmoqda ko'p behijobliq kerak va ul sharh bir naql bilakim, aning bobida bir soxib davlatning muborak og'zidin chiqibdur, iktifo qililur. Aning sharhi bukim. Abulbaraka Shahrisabzda qozi erdi, podshoh hazratida aning zulmidin dodxoh ko'p kelgan jihatdin ma'zul bo'ldi va Xurosong'a keldi. Munda dag'i g'arib shahkorlar tashladikim, g'arobatining tuli bor. Munda ham tura olmay, yana Samarqandg'a bordi. Anda dag'i arkoni davlatdin ba'zini munga kelturgandurkim, yana ul yerda qozi yo'q ekandur. Aning havodorlari ul mansab egasizdur, munosib kishi topibbiz deb, bir libos bila podshoh arzig'a yetkurgandurlar. Yana ba'zi navvob ul badmaosh kishidur, deb ul so'zni rad qilg'ondurlar. Podshoh degandurkim, har necha badmaosh va badbaxt bo'lsa, ul burunqi qozidin yaxshiroq bo'lg'usidur.

Aning nazmidin xotirda yo'q erdi, ammo bu baytni zurafo aning uchun debturlar:

*Devi shayton sifat Abulbaraka,
Bod joyash ba haftumin dargga⁽⁶⁾.*

Xoja Xovand — Xoja Fazlulloh Abullaysin (rahmahum olloh)ning o'g'lidur. Donishmand va xushtab' yigitdur. Tab'i ham nazm sori, ham hazl sori moyil bor. Eshitgandurkim, Abulbaraka Hiriyga kelganda Darvesh Husayn bila aning orasida kudurate voqe' bo'lg'ondur. Abulbaraka Darvesh Husayng'a qattig' kelsun deb, buq'asiga mujibi ihonat bo'lsun deb, qarong'uda kelib Piri Sesadsola qabri boshida hadas qilibdurkim, o'zi ul mazor boshiga borg'oni hamul ma'ni-o'q erdi. Xoja Xovand bu ma'nida hazl yuzidin bu baytni aytibdur, bag'oyat munosib va yaxshi voqe'. bo'lubtur va bayt budurkim:

*On javonmargeki, o' bar Piri Sesadsola rid,
Pir agar gardad, nagardam hech pirero murid⁽⁷⁾.*

Amir Mahmud Barlos⁽⁸⁾ — bovujudi ulvi nasab va kasrati hasabdin darveshvasht va foniy mashrab va betakalluf kishidur. Va Kirmon viloyatida hukumat qildi va muddatedurkim, podshoh eshigida: amorat devonida muhr bosadur.

Bu matla' aningdurkim:

*Maguki, hast ruxi man zi ob ravshantar
Ki, hast peshi man az oftob ravshantar⁽⁹⁾.*

Darvesh Shuhudiy⁽¹⁰⁾ — Darvesh Sanid Boyazid parvonachining o'g'lidir. Kichik ekanda xeyli sho'xluq qilar erdi. Endi darveshliq va saloh suratig'a kiribtur va Mir Sarbarahna ayttikim, oncha kashf va karomat hosil qilibdurkim, agar birovning saqolin tutub aytsakim, yigirma ikki ming to'rt yuz sakson besh tuk-tur, sari mo'yi taxalluf qilmas. Majlis ahlidin birov dedikim, magar sizning mahosingiz tuki adadidin sizni voqif qilibdur, el kulushtilar. Mirga tafovut qilmadi.

Bu matla' aningdurkim:

*In dog'hoki, bar tani ahli muhabbat ast,
Bar ko'hi dard rexti boroni hasrat ast⁽¹¹⁾.*

Mavlono Mo'miniy — «Xalosiya» xonaqohida tahsil qilur. Oti Abdulmo'mindur, taxallusi bu munosabatdin voqe' bo'lubtur. Samarqanddindur. Tab'ida muloyimat bor. Bu matla' aningdurkim.

*Bikusho dahanki, no'shi labo' no'shxand ham,
To qiymati shakkar shikani, narxi qand ham⁽¹²⁾.*

Orif Farkatiy — Samarqand navohisining Farkat degan mavzuidundur. Ko'p vaqt Xurosonda, Hirot taxtida bo'lur erdi. Goh sabaq o'qur erdi va goh lavandliq qilur erdi. Va irfon izhorig'a mash'uf erdi. Iroq sori bordi va ahvochi ma'lum bo'lmadikim, ne bo'ldi. Bu matla' aningdurkim:

*Dar holati takallum az nozuki zabonash,
Bargi gulest go'yo dar g'unchai dahonash⁽¹³⁾.*

Mavlono Nosiriddin — Ahmad Hojibek mulozimidur. Otasi donishmand va muttaqi va valoyat shior kishi ermish. Ammo o'zi sipohiyliqqa havasnok va takallufotqa rog'ib kishidur. Doyim turkcha aytib qush solo otlang'an va tablboz bog'lab beliga bahli⁽¹⁴⁾ sanchqay va rangin otlarg'a minarg'a mayl qilg'ay. Bovujudi bu ishlar tab'in yaxshidur. Bu yaqinda andin bir bayt naql qildilar. Imkoni borkim, Samarqand sho'x va habislari anga bu baytni bog'lamish bo'lg'aylar. Ul bayt budurkim:

*Tubuchoq abrashe agaram zeri zin buvad,
Mulki jahon maro hama zeri nigin buvad⁽¹⁵⁾.*

Mavlono Baqoiy — xorazmliqdur, Yaxshi tab'liq va yaxshi xulqluq yigitdur. Onasi rizosi uchun bovujudi odami istitoat va nomurodliq haj

safarin ixtiyor qilib, onasini eltti. Hanuz ahvoli ne bo'lg'on, xabari kelmaydur. Umid ulkim, matlubi hosil bo'lub kelgay. Bu matla' aningdurkim:

*Namehohamki, dil dar bandi on zulfi duto aftad,
Charo az pahlui man darmande dar balo aftad⁽¹⁶⁾.*

Mavlono Xayriy ham xorazmliqdur. Devonavash, abtarsheva yigitdur. Doyim iflos va falokat bila o'tkarur. Ammo shoirlikda xeyli quvvati bor. Qasoyidi bor, g'azaliyoti ham yamon emas. Tab' ahli qoshida mat'undur mungakim, abyotining ma'nisin so'rsalar bilmas, bilsa ham ayta olmas. Ammo ul muni musallam tutmas. Bu matla' aningdurkim:

*Ba ro'zi tashnagi obi ravon nabvad havas moro,
Dami tig'i turo gar bar gulu yobem bas moro⁽¹⁷⁾.*

Mavlono Soyilin — qarshiliqdur. Aningdek sari' ulqalam kotib o'z zamonida yo'qtur. Har kunda besh yuz bayt osonlik bila bitir Turkvash soda yigit ko'runur. Ammo ko'rungandek emas. Bu yaqinda devon dag'i tartibi huruf bila tuzatti. Bu matla' aningdurkim:

*Na bar zaxmash dilam paykoni on abro' kamon dorad
Ki, bahri zaxmi digar obi hasrat dar dahon dorad⁽¹⁸⁾.*

Mavlono Shamsiy — badaxshonliqdur. Faqir ani agarchi ko'rmaymen, ammo Mavlono Muhammad Badaxshiydin ta'rifin eshitibmen. Andoq ma'lum bo'lurkim, tab'ida xili tasarrufluq va sho'xluq bor. Bu matla' aningdurkim:

*Chashmoni man ba ro'yat dar oshiqi chunonand,
K-az rashk yak digarro didan nametavonand⁽¹⁹⁾.*

Mavlono Solihiy — agarchi xurasonliqdur, ammo ko'p yildurki, Hisordadur. Hamonoki, avval rozaliq san'atig'a⁽²⁰⁾ mansub erdi va she'r ayturdin so'ngra aruz o'rgandi va sanoyi'din dag'i sohibi vuquf bo'ldi. Andoq eshitalurkim, Hisorda podshohning kitobdoridur. Xayolg'a andoq kelurkim, bu matla' aning bo'lg'ankim:

*Agar, ey sham', shabe hamnafasi man boshi,
Chi duo behtar az in astki, ravshan boshi⁽²¹⁾.*

Mavlono Darvesh Dehakiy⁽²²⁾ — Qazvin viloyatidindur. Xishtmolliq san'atig'a mansubdur. Derlarkim, abdolvash kishidur. Devoni doyim beliga bog'liqdur. Har bayti, yo ma'nisig'a ehtiyoj bo'lsa, ko'rgali filhol devonin chiqarib, topib ko'rguzur. Fil-voqe' faqirning to she'rg'a shuurum

bor ul tarafdin aning abyotidin yaxshiroq nazm kelmadi. Bu matla' aningdurkim:

*Bar misoli surati devor bejon mondaam,
Pusht bar devoru ro' so'i tu hayron mondaam*⁽²³⁾.

Bu bayti dag'i xub voqe' bo'lubtur:

*Ba g'ayri noqai Layliki, mekanad xore,
Digar kiro g'ame az rahguzori Majnun ast*⁽²⁴⁾.

Qozi Iso⁽²⁵⁾ — sovaliqdur. Sulton Ya'qub ani ul martabada ta'zim va tarbiyat qildikim, hech podshoh ahli aloqadin hech kishini oncha tarbiyat qilganini tarixlarda ko'rulmaydur. O'zi savdoyi mizoj va mutakabbur kishi erdi. Derlarkim, she'rg'a andoq mash'ufdurkim, kunda o'n g'azal, balki ko'proq ham aytur ermish. Bu matla' aningdurkim:

*Har kas bagashti gulshanu gulzori xeshtan,
Movu dile chu g'uncha giriftori xeshtan*⁽²⁶⁾.

Muknat va azamati chog'i hech ish qilmadikim, andin desa bo'lg'ay. Holo xabar budurkim, sufi Xalil ani o'lturubtur (Vallohu a'lam!)

Shayx Najm⁽²⁷⁾ — ham sovaliqdur va Qozi Isog'a qarobatdur. Sulton Ya'qub qoshida andin maxsusroq va noyibroq kishi yo'q erdi. Har necha qozi Iso elga istig'no va azamat ko'rguzdi. Ammo shayx xaloyiq bila yaxshilar borishti. Fuqaro va masokinning ishiga ko'p madadkorliqlar qildi. Andoqki, yaxshi oti atrof va javonibqa bordi. Bu faqir bila dag'i g'oyibona muhabbat va yorliq va iniliq qoidasin mar'i tutti. Bu matla' aningdurkim:

*Ba sho'xi mexurad xuni dili man chashmi xunxore,
Baloi fitnajo'e ofati jone.xitamkore*⁽²⁸⁾.

Xoja Afzal⁽²⁹⁾ — Kirmon mulkining ashrofidindur. Tab'i va axloqi xub mutaanniy va mutavoze' yigitdur. Ahli qalam bu zamonda barcha muttafiqdurlar mungakim, siyoq va daftar va hisob va zarb va qismat ilmida benaziri davrondur. O'n besh yilga yaqin hazrat Sulton sohibqiron qullug'ida vazorat devoni aning ixtiyori erdi. Majdiddin Muhammad buzug'lig'idakim, ahvoliga futur yetmagan kishi qolmadi, ani dag'i podshohqa yomon ko'rguzdikim, zaruratidin jalo ixtiyor qildi. Ammo ul safarda Makka ziyoratig'a musharraf bo'ldi. Balki mirhojliq mansabi anga mufavvaz bo'ldi. Har necha ul mamolik salotini mulozamat taklifi qildilar, qabul qilmadi, debturkim: «Agar qulluq qilsam, o'z podshohimg'a

qilurmen yo‘q ersa yo‘q». Holo derlarkim, Qum viloyatidadur. Bu matla‘
aningdurkim:

*To har sharare dona shavad kishti jahonro,
Barbod dihad otashi dil xirmoni jonro⁽³⁰⁾.*

Adhami Ibrohim — Shoh turkmanning taxallusidir. Turkman beklarida
mutaayyin xushtab‘ va zarofatliq kishi erdi. Devoni ham bor. Bu matla‘
aningdurkim:

*Hargizam dil be xayoli anbarin xole nabud,
In dili devona hargiz xoli az xole nabud⁽³¹⁾.*

Xoja Alouddin — Kirmon mulkidin. Xoja Afzaliddin Muxammadqa qarobatdur va Bibicha Mukajjimaning inisidir. Zohirin ulumni takmil qilg‘ondin so‘ngra mayli darveshliqlarga g‘olib bo‘lub, Mak-ka azimati qildi va o‘ttiz yilg‘a yaqindurkim, anda mujovir bo‘lub, suluk va toatqa, mashg‘uldu. Andoq ma‘lum bo‘lurkim, bu sulukda biyik manzilat va yorug‘lug‘larg‘a musharraf bo‘lubdur va oliy martabag‘a yetibdur. Ulvi himmatdin dunyo mofiyhog‘a etak silkib maqsud ka‘basida munqaviy bo‘lubdur va hamuldarajadin moxalaqalloh balki mosivollohni mavhumi mahz, balki ma‘dumi mutlaq bilib vusul harimida e‘tikof qilibdur. Bu yaqinda silai rahim rioyati uchunki, adoi farz qilg‘ay, Xurosong‘a kelib erdi, necha vaqt hazrat Maxdumiy Nuran bila suhbatlari xushti. Ul jihatdin tavaqquf qildi. Chun ul hazrat baqo olamig‘a rihlat qildi, yana Makka azimati, asli maqomg‘a bordi. Borurda yo‘lda Shayx Nizomiy «Xamsa»sining avvalg‘i kitobi «Maxzan ulasror» vaznida bir masnaviy antib yuborib erdi va ko‘p haqoyiq va maorif anda darj qilib erdi. Bu yaqinda Makkadin yana bir masnaviy ham tasavvuf istilohatida hadiqa vaznida aytib yuboribdurkim, aning ta‘rifidin qalam tili qosirdur, ahli tahqiq o‘qug‘ondin so‘ng qoyilining kamolin ma‘lum qilg‘aylar. Kitobi hamdining avvalg‘i bayti budurkim:

*Ey ,jahon yofta namud az tu,
Bar adam tuhmati vujud az tu⁽³²⁾.*

Mavloni Shahidiy⁽³³⁾ — Qum shahridindur. Oshuftavash va devonasor kishi ko‘runur. Ammo bu tariyqlari ja‘li rang ham bor. Iroqdin Xurosong‘a ikkn navbat kelib bordi. Badihasi ravondur va taassubi g‘olib va tab‘i hazlg‘a ko‘p rog‘ibdur. Bu matla‘ aningdurkim, yaxshi voqe‘ bo‘lubdur:

*Biyo, ey ishq, otash zan dili afsurdai moro,
Ba nuri xesh ravshan kun charog‘i murdai moro⁽³⁴⁾.*

Mavlonο Humoiy — ma'lum emas ne yerliqdur. Ammo ko'prak avqot, balki hamisha Iroqda bo'lur. Bir qatla kelib ketti. Bag'oyat faqir va kamsuxan va nomurod kishi ko'runur. Ammo nauzu billoh andinkim, bir majlisda anga bir ayoq bersalar, ul arbada va purgo'yliqkim, andin zohir bo'lur, aning sharhi mutaazzirdur. Har taqdir bila bu matlai yaxshi voqe' bo'lubturkim:

*Jono, manam zi dasti firoqi tu murdaye,
Xun dar tanam namonda chu nori fushurdaye⁽³⁵⁾!*

Mavlonο Xolidiy⁽³⁶⁾ — Hisori Shodmon tarafidin bo'lur. Hiriy shahrig'a tahsil uchun kelib. ko'p vaqt sabaq o'qub, xeyli salohiyat kasb qildi. Hamonoki, Xolid Valid avlodidindurkim, «Xolidiy» taxallus qilur. Bu matla' aningdurkim:

*Matars az tani xoki ba vaqti kushtani man,
Agar ba tig'i tu garde rasad ba gardani man⁽³⁷⁾.*

Mavlonο Yoriy⁽³⁸⁾ — sherozliqdur. Andinkim, Xurosong'a keldi. Naqqoshliqqa mansub erdi, ammo muvtadiy erdi. Faqir oni tazhib ahlig'a siporish qildim, oz fursatda obodon naqqosh bo'ldi. Va lekin andoq ma'lum bo'ldikim, g'arazi naqqoshliq o'rganmakdin naqshbozlig' ekandurkim, andin ajab naqshlar ish yuzaga keldi va aning sharhining tuli bor. Bu matla' aningdurkim:

*Zi ashki didaki, dil pur zi durri maknun ast,
Biyoki, bahri nisori tu ganji Qorun ast⁽³⁹⁾.*

Mavlonο Mirakiy ham sherozliqdur. Sayr rasmi bila Xurosong'a keldi. Bir necha vaqt turub, muovadat qildi. Kichik yoshlik, xom tab'roq yigitdur. Imkoni bordurkim, tab'ig'a ko'p ish buyursa puxtalig' paydo qilg'ay. Bu matla' aningdurkim;

*Jono, mabosh dar pai ozoru kin hama,
K-in olami xarob nayarzad bad-in hama⁽⁴⁰⁾.*

Mavlonο Ahliy⁽⁴¹⁾ — sherozliqdur. Hamonoki, tolibi ilmlig'i bor. Nazmlardan har sinf she'rda mahoratlig' kishidur, bataxis qasida uslubida. Necha qatla Sherozdin rangin qasidalar aytib yuborib erdi. Bu yaqinda Xoja Salmon Sovajiy. «masnu'» qasidasig'a javob aytib bir g'arib ruboiy dag'i izofat qilib yuboribdur. Hola oncha chog'liq quvvatlig' kishi demaslarki, bo'lg'ay. Bu matlai ham xeyli choshnilig' tushubturkim:

Manu Majnun du, asiremki, g'amu shodii most,

Harki in sheva nadonist na az vodii most⁽⁴²⁾.

Mavlonο Fazlullo ham sherozliqdur. Tijorat tariyqi bila Astrobodg'a keldi. Lavandvashlig'i g'olib uchun beparvolig' qilib, dastmoyasig'a nuqsonlar voqe' bo'ldi. Salohiyatliq yigitdur. Tolibi ilmlig'i ham bor. She'r va muammo va nard va shatranji hozirona va g'oyibona, balki sag'ir va kabirni bilur. Bu matla' aningdurkim:

*Saodati tu fuzun bodu davlati tu ziyodat,
Hazor sol bimoni ba davlatu ba saodat⁽⁴³⁾.*

Mavlonο Muin⁽⁴⁴⁾ ham Sherozning odamizodalaridindur. Xurosong'a kelganidin beri faqirlar tegrasida bo'lur. Zohiri xud sodavash ko'runur, Ammo bu yaqinda andin bir hazl ko'ruldikim, sodalig'ning munofisi erdi. Bu matla' aningdurkim:.

*Shud dalqi muraqqa' garavi bodavu shodem,
K-oxir ba sari ko'i mug'on joma nihodem⁽⁴⁵⁾.*

Xoja Imod — Lor viloyatidindur. Tijorat bila maosh o'tkarur. Odamivash yigitdur. Masnaviysida xili rang va ziynat bor. «Layli va Majnun»g'a tatabbu' qilibdur. Ko'p eldin yaxshiroq tushubtur va g'azal tavrida dag'i yaxshi tab'i bor:

*Burd sui lab zabonu shu'la zad bar joni man,
Kard zohir lam'ai az otashi pinhoni man⁽⁴⁶⁾.*

Mavlonο Bayzoiy — Mahmud Barlos Hisordin elchilikka kelganda bila kelib erdi. Ul borg'onda xasta bo'lub qoldi. «Dor ush-shifo»⁽⁴⁷⁾ da muhofizatin qilg'ondin so'ngra sihat topib, yana Hisorg'a bordi. Hamonokim, hamul navohiydindur. Bu matla' aningdurkim:

*Bizan bar sinai man xanjaru afkan sar az tan ham
Dari in xonai torikro bikshovu ravzan ham⁽⁴⁸⁾.*

Sayyid Imod — Yazd shahridindur. Iroqtin qonuniylik unvoni bila keldi. Munda xeyli iltifot topti. Ammo beaql, bemaoshlik bila har ne topqonnn zoye' qildi. Ul chog'ir bila nardning oluftasidur. Bu matla' aningdurkim:

*Dilam nashkuft dar bog'i jahon chun g'unchavulola,
Zi paykoni on mah to nashud pargola-pargola⁽⁴⁹⁾.*

Oltinchi majlisning nihoyati

Bu balogʻat maob va fazoyil intisoblardin ham birori, agar zamon sahifasida oʻz nazmlari savodidek mavjuddur, ammo aksari zamona vafosidek nobuddur va podshohlari ham fano mahallidin ketibdurlar, baqo sarmanziligʻa yetubdurlar. Va filhaqiqat, Sultoni sohibqironning qarobat va tavobiidin erurlar ham modihlari, haq taolo lutfidin maʼzur va ham mamduhlari ruhi ravzai rizvonda masrur va mabrur boʻlsun:

Ruboiy:

*To modihlaridin asar oʻlgʻay mavjud,
Mamduhlari ruhini tutqil xushnud.
To modihu mamduhlar oʻlgʻay nobud,
Sultoni zamongʻa umr bergay maʼbud!*

Majolis un-Nafois (II- qism)

Alisher Navoiy

YETTINCHI MAJLIS

Salotini izom va avlodi vojub ul-ehtimolari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xub bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xubdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub va marg'ubdur

Muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni:

Temur Ko'ragon⁽¹⁾ — agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor. Tabarruk haysiyatidinkim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo'lg'ay va ul latoyifdin biri bila ixtisor qushilur. Mundoq naql qilurlarkim, chun Tabrizda Mironshoh Mirzo⁽²⁾ chog'irg'a ko'p ishtig'ol ko'rguzdi. Dimog'i va mizoji e'tidol tariqidin inhirof topib, andin nomuloyim amr ko'p surat tuta boshladi.

Samarqandda ul hazrat arzig'a bu nav' yetkurdilarkim, uch nadimi borkim, mufrif chog'ir ichmakka bois alardurlar. Hukm bo'ldikim, tavochi miqdor bila chopib borib uchalasining boshin keltursun. Alardin biri Xoja Abdulqodir erdi va yana biri Mavlono Muhammad Koxin erdi va yana biri Ustod Qutb Noyi erdi. Tavochi bo-rib ikkisini yasoqqa yetqurdi. Ammo Xoja Abdulqodir qochib qalandar bo'lub, o'zin devonaliqqa solib mulkdinmulkka mutavori yurur erdi, to ulkim, ul hazrat yana Iroq yurushi qildi. Ul mamolikda Xojaning ul holi ba'zig'a ma'lum bo'lub, yuqori arz qildilar. Hukm bo'ldikim, tutub keltursunlar. Ul hazrat taxtda erdilarkim, Xojai faqirni devonaliqqa qo'ymay, sudrab taxt ilayiga kelturdilar. Andin burunkim, siyosat hukm bo'lg'ay, chun Xojaning kamolotidin biri qur'on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un bila qur'on o'qumoq bunyod qildikim, ul hazratning g'azabi lutfqa mubaddal bo'lub, fazl va kamol ahli sori boqib, bu misra'ni ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi biym chang bar mushaf zad⁽³⁾.

Andin so'ngra Xojag'a iltifot va tarbiyatlar qilib, o'z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar balki qarlarda mundoq latif so'z voqe' bo'lmas. To olam ahli bilg'aylarkim, Sulton sohibqirong'akim, majolisda paydar-pay xub abyot va yaxshi so'zlar darmahal voqe' bo'lur dag'i. mavrusiydurkim, nisbatin ul jaddi buzurgvorg'a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va bu biri jahon mulkida jovidon bo'lsun!

Xoqoni Said Shohrux Mirzo⁽⁴⁾ kim, avlodi vaamjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo'ldi. Ham nazmg'a mashg'ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so'zlar

ko‘p ul hazratdin ham voqe‘ bo‘lur erdi. Muni ham bir naql bila ixtisor qililur. Bu faqiri haqir Bobur Sulton muborak tilidin mundoq eshittimkim bir majlisda akobir sari bo-qib Shohrux Mirzodin naql qildilarkim, ustod Qivomiddin me‘morg‘a bir imorat jihatidin e‘tiroz qilib bir yil mulozamatdin mahrum ekondur. Yil boshida taqvim istixroj qilib bu vasila bila shoyad Mirzoning muborak dindorin ko‘ra olg‘aymen deb eshikka kelib, sudurni vosita qilib, oni sudur ko‘rguzub taqvimin arz qilibturlar, Mirzo tabassum qilib bu baytni o‘qubdurlarkim:

Tu kori zaminro naku soxti

Ki, bo osmon niz pardoxti⁽⁵⁾.

Aningdek otadin mundoq o‘g‘ul hech ajab emas.

Abobakr Mirzo — nabira bo‘lur. Bahodirlug‘i va qilichi zarbi Chig‘atoi ulusida mashhurdur. Chun tab‘ida nazm choshnisi bor ermish. Hamul bahodirlug‘ tavridda bu tuyuq andin mashhurdurkim:

Er kerak o‘rtansa yonsa yolina,

Yora yeb yotsa otining yolina.

It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq,

Er otonib dushmanig‘a yolina.

Agarchi ba‘zi alfozi turkonarohdur, ammo tajnisini yaxshi topibdur.

Sulton Iskandar Sheroziy ham nabiradur. Saltanat tajammulini, derlarkim salotindin ozi oncha qilmish bo‘lg‘ay. Yetti yo sakkiz yilliq saltanatida go‘yoki uch ganj topibdur. Mavlono Haydar turkigo‘y, aning modihi ekandur. Bu aning masnaviysidindurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degan,

Er nafasidur dami Iso degan.

va Sulton Iskandarni derlarkim, tab‘i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qilurlarkim:

To‘lun oyg‘a nisbat ettim yorumi,

Ul xijolatdin kam o‘ldi yorumi.

Tori mo‘yungning zakotin men beray,

Yo Misrki, yo Halabni yo Rumi.

Burung‘i tuyuqdin bu turkonaroqdur.

Xalil Sulton⁽⁶⁾ — hazrat sulton us-salotinning voqeasidin soʻngra Samarqand taxtida saltanat qildi. Zurafo va shuaro majlisida jamʼ boʻlurlar erdi. Mashhurdurkim, oʻzi sheʼr aytur erdi. Andoqkim, devoni taʼrifida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi, ushbu matlaidin oʻzgakim:

Ey turki pari paykarimiz, tarki jafo qil,

Komi dilimiz, laʼli ravonbaxsh ravo qil.

Ulugʻbek Mirzo⁽⁷⁾ — donishmand podshoh erdi. Kamolati bagʻoyat koʻp erdi. Yetti qiroat bila qurʼoni majid yodida erdi. Hayʼat va riyoziyini xoʻb bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bogʻladi va holo aning ziji oroda shoyeʼdur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmgʻa mayl qilur. Bu matlaʼ aningdurkim:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,

Shoʻxi makunki, chashmi badon dar kamini tust⁽⁸⁾.

Boysungʻur Mirzo⁽⁹⁾ — xushtabʼ va saxiy va ayyosh va hunarparvar podshoh erdi. Xattot va naqqosh va sozanda va goʻyandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orogʻa kirdi, maʼlum emaskim, hech podshoh zamonida paydo boʻlmish boʻlgʻay. Ulcha imkoni bor, olamni xushluq bila oʻtkardi. Derlarkim, bu matlaʼ aningdurkim:

Nadidam on du rux, aknun du moh ast,

Vale mehrash base bar joni mo hast⁽¹⁰⁾.

Taxallusi budurkim:

Gʻulomi roʻi u shud Boysungʻur

Gʻulomi xubroʻyon podshoh ast⁽¹¹⁾.

Bobur Mirzo — darveshvasht va foniy sifat va karim ulaxloq kishi erdi. Himmati olida oltunning dagʻi kumushning tosh va tufrogʻcha xisobi yoʻq erdi. Tasavvuf risolalaridin «Lamaʼot»⁽¹²⁾ bila «Gulshani roz»⁽¹³⁾gʻa koʻp mashʼuf erdi. Tabʼi dagʻi nazmgʻa muloyim erdi. Bu ruboiy aningdurkim:

Chun bodavu jomro baham payvasti,

Medon ba yaqinki, rindi bolo dasti,

Jomast shariatu, haqiqat boda

Chun jom shikasti, ba yaqin badmasti⁽¹⁴⁾.

Agarchi turkcha nazmlar ham aytur erdikim, barchag‘a qabul erdi. Ammo u bayt ham aningdurkim:

Necha yuzung ko‘rub hayron o‘layin,

Ilohi, men sanga qurbon o‘layin.

Abdulatif Mirzo⁽¹⁵⁾ — savdoyi mizoj va vasvasiy tab‘ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe‘lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o‘lturdi. Har ovinakim, saltanat Shiruyag‘a vafo qilg‘oncha anga qildi. Ammo tab‘i nazm erdi va she‘rni obodon aytur erdi. Bu matla‘ aningdurkim:

Bar dilu jon sad balo az yak nazar ovard chashm,

Chun biguyam shukri in, yo rab, nabinad dard chashm⁽¹⁶⁾.

Jahonshoh Mirzo⁽¹⁷⁾ — dag‘i she‘r aytur erdi. Bu maqta‘ aningdurkim:

Az lutfi do‘st yoft haqiqi murod dil,

Be jiddu jahdi toatu be minnati amal⁽¹⁸⁾.

Ya‘qub Mirzo⁽¹⁹⁾ — turkman salotinida aningdek pisandida zotlig‘ va hamida sifotlig‘ yigit oz bo‘lg‘ay. Darveshsifat va foniyvash erdi. Bu ruboiy aningdurkim:

Olamki, dar u sabot kam mebinam,

Dar har tarabash hazor g‘am mebinam,

Chun ko‘hna rabotestki, az har tarafash

Rohe ba biyoboni adam mebinam⁽²⁰⁾.

Sayid Ahmad Mirzo⁽²¹⁾ — salim tab‘ va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrda devoni bor. Va masnaviy tavrda «Latofatnoma» aningdur. Bu turkcha matlai yaxshi vaqe‘ bo‘lubturkim:

Sayd etti firoqing meni murg‘i sahariydek,

Qil odamiyliq, qilma nihon yuzni paridek.

Bu forsiy matla‘ ham aningdurkim:

Maham gar pesh az in pinhon bimonad,

Ajab, gar bedilonro jon bimonad⁽²²⁾.

Sulton Ahmad Mirzo — darveshvas, yaxshi axloqlik, pisandida atvorliq, odamisheva kishidur. Ota jonibidin xushtab'liq anga mavrusiydur. Yillar Xuroson taxtida hukumat qildikim, hech kishi andin shikoyat qilmadi va ta'n etmadi. Va Sulton sohibqirong'a ota mayobasidadur va ikki devon ixtiyori va mulku mol mushorun ilayhi va sipohi va cherik mu'tamaddun alayhi uldur va gohi nazm ham aytur. Bu bayt aningdurkim:

Sen kiby sho 'xi sitamgar dunyida paydo qani,

Sehr bobida ko 'zungdek kofiri yag 'mo qani?

Boyqaro Mirzo — bovujudi ulkim, Sulton Sohibqironning tug'qon og'asi erdi. Yillar Balx (qubbat ul-islomiy)da saltanat qildi. Va lekin shikasta nafsliq va kichik ko'ngulluk, tavozu' va ta'zimliq kishi erdi va haqshunoslig'i a'lo martabada erdi. Tab'i dag'i nazm hul'yasidin muarro emas erdi. Bu matla' aningdurkim:

Zihi tajallii husni tu dar jahon paydo,

Va z-in tajallii u gashta joni mo shaydo⁽²³⁾.

Kichik Mirzo⁽²⁴⁾ — xub tab'liq, tez idrokliq, sho'x zehnlilik, qaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatda yaxshi tolibi ilm bo'ldi va ko'proq ulum va funundin o'z mutolaasi bilan vuquf hosil qildi. She'r va muammoni xub anglar erdi, balki ko'ngli tilasa ayta ham olur erdi. Bovujudi bu fazoyil darveshliqlarga moyil bo'lub, Makka ziyorati sharafig'a musharraf bo'ldi. Ammo bag'oyat mustag'ni kishi erdi. Bo'la olurkim, faqir istig'nosi erkan bo'lg'ay. Bu ruboiy aningdurkim:

Umre basaloh mesutudam xudro,

Dar shevai zuhd menamudam xudro.

Chun ishq omad kadam zuhdu chi saloh,

Alminnatulillah, ozmudam xudro⁽²⁵⁾.

Ba'zi derlarkim, bu ruboiy hazrat Maxdumiy Nuran bila tavorud⁽²⁶⁾ voqe' bo'lubtur. Andoq dag'i bo'lsa ulug' davlat turur.

Sulton Badiuzzamon Mirzo⁽²⁷⁾ — husni surat va husni siyrat bila orosta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila piyrosta yigitdur. Razm atvoridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidin ichmak va bag'ishlamoqda bemonand. Tab'i ham nazm uslubida muloyimdur. Bu matla' aningdurkim:

Mahi man, be guli ro 'yat dilam xum gashta chun lola,

Jigar ham az g'ami hajrat shuda pargola-pargola⁽²⁸⁾.

Bu turkiy matla' dag'i tarkibda xub va holatda marg'ub voqe' bo'lubturkim:

*Ey sabo, gar so'rsa holim shammai ul sarvinoz,
Evrulub boshig'a men sargashtadin yetkur niyoz.*

Shoh G'arib Mirzo⁽²⁹⁾ — sho'x tab'lig' va mutasarrif zehnlilik va nozuk taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma'dum va mutaxanyila va hofizada adili noma'lum. Ov va qush xotirig'a marg'ub va qurro va o'qush ko'ngliga mahbub. Bu matla' aningdurkim:

*Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor?*

Bu matla' ham yaxshi voqe' bo'lubturkim:

*Tarki mehr aylab agarchi bo'ldi jonon o'zgacha,
To tirikman, qilmag'umdur ahdi paymon o'zgacha.*

Bu matlai xos xayol va g'arib ado topibdurkim:

*Porso yoring'a may ichmak shior o'lmish yana,
Baski tortarman sabu, egnim figor o'lmish yana.*

Bu forsiy matlai ham bag'oyat oshiqona tushubturkim:

*Bozam baloi jon g'ami on mohpora shud,
Ey voy, on marizki dardash du bora shud.*

Bu matlai ham bag'oyat oshiqona va muxlisona va muassirona voqe' bo'lubturkim:

*Do'ston, har gah guzar so'i mazori man kuned,
Joi takbiram duoi joni yori man kuned*⁽³⁰⁾.

Devon ham jam' qilibdur. Yaxshi matla'lari bu muxtasarg'a sig'mas, magar yana bir kitob bitilgay.

Faridun Husayn Mirzo⁽³¹⁾ — Faridun hasabliq va Husayn nasabliq. Zoti ta'zim va viqorliq va xulqi adab va hurmat shiorliq, yoy kuchida yagona va o'q otarda zamona ahliga nishona. Toat va taqviyg'a moyil. Zikr va tilovatqa mashg'ul yigitdur. Xub tab'i va muloyim zehni bor. Bu matla' aningdurkim:

*Garchi dar ko'i tu pomoli jafu gardidam,
Ba xudo gar sari mo'e zi vafo gardidam*⁽³²⁾.

Bu turkcha matla' ham aningdurkim:

Ey sabo, yetkur manga sarvi ravonimdin xabar,

Rahm etib bergil manga oromi jonimdin xabar.

Muhammad Husayn Mirzo⁽³³⁾ — xaloyiq ani adolat va shijoat va saltanat oyinida ko'p ta'rif qilurlar, ammo ulcha zohir bo'ldi — bag'oyat sarkashlik va begonavashlik go'yo zotida bor. Har taqdir bila derlarkim, bu matla' aningdurkim va yaxshi tushubtur:

Oludai gardi zi pai saydki, gashti,

G'arqi araqe bar dili garmki, guzashti⁽³⁴⁾.

Boysung'ir Mirzo⁽³⁵⁾ — tab'i diqqatliq va zehni javdatliq. Saltanat taxtida faqrpeshalik va makrumat bisotida fanoandeshalik yigitdur. Fazoyil va hunarlarga rog'ib va fazl ahli taqviyatig'a murtakib. Nazm oyini dag'i anga maqbul va gohi ul fikrga tab'i mashg'ul. Bu matla' aningdurkim:

Kosh dar ishq'i buton devonaye boshad kase,

Tarki olam karda dar vayronaye boshad kase⁽³⁶⁾.

Sulton Mas'ud Mirzo⁽³⁷⁾ — ravshan zehnlilik va mustahsan tab'liq va pokiza hisol va mahmud faol yigitdur. Vafo va diljo'yulug aning shiori, saxo va darveshxo'yulug aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas'ud. Nazm zeb va ziynat itmomida abnoi jinsqa maqsud. Bu turkcha matla' aningdurkim:

Yor borib jong'a qo'ydi dog'i furqat, ey rafiq,

Ko'ngluma kor etmasunmu dardi g'urbat, ey rafiq?

Sulton Ali Mirzo⁽³⁸⁾ — holo Samarqand mulkida saltanat taxtida mutamakkindur. Derlarki, tab'i nazmg'a moyildur. Bu matla'ni andin naql qilurlarkim:

Vaslida mag'rur bo'ldung hajrida zor, ey ko'ngul,

Ne aning birla, ne onsiz, toqating bor, ey ko'ngul.

Yettinchi majlisniig tuganchisi

Bu oliyjoh podshohlar va anjumsipoh falak dastgohlard in avvalg'i Jamshid⁽³⁹⁾ va Faridun⁽⁴⁰⁾ monand ota bila farzandg'a so'ngg'i avlod va axfod va amjodqa falak Jamshid bila Faridung'a ichirgandek, ayog'i ichurdi va vujud bazmgohidin surdi va adam faromushxonasig'a kiyurdikim, dunyoda haq taolo alarni shohi taxtgir qilg'ondek oxiratda ham muqarrabi dargoh va arshi sarir qilg'ay. Va alarning mulku taxt va saltanat in va toju sipoh va hashamat in alarg'a vorisi barhaq va mulkka horisi mutlaq,

ya'nn Sulton Sohibqironig'a musallam tutg'ay va ruhlarining sham'in ham o'z o'chog'lari shu'lasida bila yorutg'ay va soyir shohzodalar dag'i bu davlatdin bahramand va shoh inoyatidin sarbaland bo'lg'aylar.

To Temuru Shohrux degan bo'lg'ay ot

Andin so'nggi shahlar bori farxunda sifot.

Ey davlatu iqbolg'a orostai zot,

Majmuicha bo'lsun sanga davroni hayot.

SAKKIZINCHI MAJLIS

Sulton sohibqironning latif tab'i natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra'nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo'stonida ranginlig' va ravonlig'din gul'uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig' va ranglikdin sarvi ozodedur, ulxad

Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurshedi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzabr shikori, adolat chamanining sarvi sarbalandi va muruvvat ma'danining gavhari arjumandi, ko'shish razmgohining Rustami⁽¹⁾ dostoni va baxshish bazmgohining Hotami⁽²⁾ zamoni, fasohat ilmining nukta birla sehrsozi va balog'at jahonining diqqat bila mu'jiza pardozi - Sulton us-salotin Abdulg'ozu Sulton Husayn Bahodirxon –

Kim, mulki davomi to qiyomat bo'lsun,

Zotig'a bu mulk uzra iqomat bo'lsun,

Adl ichra tariyqi istiqomat bo'lsun,

Olam ahli uchun salomat bo'lsun.

Bu xusravi gardunjohnkim, nasabi bobida xoma sursam yuz ming xon va xoqonni bu juzvi muxtasarda yig'ishtursa bo'lurmi? Va bu doroi anjumsipohnkim, hasabi sharhida qalam ursam yuz tuman xoqon va qoonning hamida axloqicha so'zni bu muhaqqar avroqqa yig'ishtursa bo'lurmu? Nasabi bobida fasohatshior yaxshilar «Nasabnoma»⁽³⁾ bitibdurlarkim, har safhasi Moniy korgohin xijil etar va hasabi sharhida balog'atdisor munshilar tarixe tartib beribdurlarkim, har varaqi Chin nigoristonin munfail aylar. Har kishi ul «Nasabnoma»g'a boqsa bilg'aykim, xoqon va roy anga bir turk va bir hindu bandadur. Va har kim, ul tarixni mutolaa qilsa, anglag'aykim, Jamshid va Iskandar aning ham bilganlaridin, ham qilg'onlaridin sharmandadur. Bas chun bu muxtasarda nima ul jins so'zlardin sug'ursa bo'lmas va alar sharhida nukta sursa bo'lmas. Va yuqorig'i so'z uslubi taqozoi ul qilurkim, ul hazratning latoyifi tab'idin bir necha matla' bila bu avroqqa zeb va ziynat qilg'ay va natoyiji zehnidin bir necha bayt bila bu ajzog'a

qadru qiymat berilgay va har oshiqona matla' bila dard ahli jonig'a shu'lai fano yoqilg'ay va har dardmandona bayt bila ishq ahli ko'nlig'a barqi balo chaqilg'ay. Bas emdi, shuru'i maqsudqa va ruju'i matlubqa qilali-im, so'z itnobi ul sharif tab'g'a mujibi kalol va fasonai tuli ul latif zehng'a boisi malol bo'lmasun. Ul hazratning xub ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur va devon ham murattab bo'lubtur. Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har g'azaldin bir matla' yozildi:

«ALIF» HARFI:

Manzurning xo'yining bul'ajablig'idakim, mehrida oshiq jon bersa, bovar qilmoslig'ining besabablig'ida:

Ne ajoyib xo'y erur, ey sho'xi siyminbar, sanga —

Kim, necha mehringda jon bersam emas bovar sanga.

Mahbubning mufrif iltifotidin behol bo'lub bexudona ul iltifotni izhor qilur ma'nida bu matla' g'arib ado topibturkim:

Evrulub gul boshig'a bulbul visol o'lg'ay anga,

Gul aning boshig'a evrulsa, ne hol o'lg'ay anga.

Gul vaqtida birov xor g'amidin muftalo erkanining izhori va loladek bag'rida yuz dog' bila erkanining namudori:

Bo'ldi gul vaqti-yu men xor g'amidin muftalo,

Hajr o'tidin loladek bag'rimda yuz dog'i balo.

Ko'ngli nolasin vayronadag'i cho'g'z faryodig'a nisbat qilibtur. Ul ma'ni sharhida bu matla' yaxshi tushubtur:

Vahki, ko'nglum nolasi hardam buzulg'on jon aro,

Go'iyu bir cho'g'z erur faryod etar vayron aro.

Sirishki daryosidin girdobg'a tushganin va torjismi ul girdobdin pechu tobg'a qolg'onin bu matla'da izhor qilurkim:

To tushubturmen sirishkim bahridin girdob aro

Zulfidek sargashta jismim qoldi pechu tob aro.

«BE» HARFI:

Furqat o‘tidin jismi betob ekanin va g‘amgin ko‘pgli pechu tobidin ko‘zida xunob ekanin bu matla’da g‘arib nav’ ado qilur. Bu matla’ mavqufdur o‘zga abyotqa, ammo dastur bila matla’ bitildi:

Furqatingda yo ‘q edi jismimda jon, ko ‘nglumda tob

Ko ‘zda xunob erdi-yu, g ‘amgin ko ‘ngulda iztirob.

Bedillig‘idin telba ko‘nglin tilay borg‘oni bu g‘azalda oxirg‘acha musalsal aytilibdur va zebo deyilibdur:

Telbarab itgan ko ‘ngulni istadim har yon borib,

Tog ‘u daryovu biyobonlarni bir-bir axtorib.

Manzur yuzi olida ko‘zgu rashkidin pechu tobi va ko‘nglida ul quyosh tobidin zarradek iztirobi:

Zarra yanglig ‘, ayb emas, ko ‘nglumga tushsa iztirob,

Mehri ruxsorig ‘a hardam chun erur ko ‘zgu hijob.

Firoq zulmidin jonig‘a o‘t va ko‘nglida tobin o‘tqa tushgan qil pechu tobig‘a tashbih qilibdur va g‘arib tashbih voqe’ bo‘lubtur:

Ey firoqning zulmidin jonimda o ‘t, ko ‘nglumda tob,

O ‘tqa tushgan qil kabi jismim aro ham pechu tob.

Musofir yori hajridin ko‘nglining xaroblig‘in va ul oshubdin joni betoqat va betoblig‘in xubrok vajah birla ajab yaxshi ado qilibdurkim:

Bir musofir oy xayoli qildi ko ‘nglumni xarob,

Qolmadi jonimda onsiz vahki ne toqat, ne tob.

«TE» HARFI:

Manzur labidin obi hayotni xijl va Iso⁽⁴⁾ oni qoshida dam urmog‘din munfail degani obi hayotdek ravonso va Iso damidek ruhafzo tushubtur:

Ey dudog ‘ing sharbati sharmandasi obi hayot,

Nutqung ollida erur Isog ‘a dam urmoq uyot.

Hajri barqidin shabistonig‘a o‘t tushganining ifshosi va uchqunidin bayt ul-ehzoni kuyganining adosi ajab o‘tluq matla’ tushubturkim:

Vahki, hijron barqidin tushti shabistonimg‘a-o‘t.

Uchquni birla tutashti bayt ul-ehzonimg‘a o‘t.

«SE» HARFI:

Bu harfda turk shuarosining malik ul-kalomlari she‘r aytmaydurlar, balki ayta olmaydurlar, to anga ne yetgayki, bu muqobalada kishi oni keturgay yo nisbat bergay. Bu matla’ ta’rifida muncha basdur:

Yor ko‘yidin o‘tarda ko‘rguzur bu zor maks,

So‘z desa dog‘i javobida qilur bisyor maks,

«JIM» HARFI:

Rahmsiz yori qonin to‘kib tarahhum qilmag‘oni va mehirsiz dildori holin ko‘rib tabassum qilmag‘onini aytur:

To‘kub qonim, tarahhum qilmading hech,

Ko‘rub holim, tabassum qilmading hech.

Bu radif ham go‘yoki sharif tab’ va latif zehning ixtiroidurkim, eshitilmaydur, bag‘oyat shirin va dilpazir va rangin voqe’ bo‘lubtur:

Xasta jonim za‘fig‘a la‘li shakarboring iloj,

Zor ko‘nglum dardig‘a jonbaxsh guftoring iloj.

«HE» HARFI:

Bu harfqa dag‘i turkiy alfoz guharin nazm silkiga tortquvchi shuaro taarruz qilmaydurlar, hamonoki, ishkoli jihatidindur, yordin ne kelsa, oni muboh bilib, jon berurda debtur:

Yordin ne kelsa oshiq bersa jon bo‘lg‘ay muboh,

Daftari ishq ichra go‘yo buyla bo‘lmish istiloh.

«XE» HARFI:

Bu harfda turkigo‘y shuarokim, devon tartib qilibdurlar, o‘zlarin ma‘zur tutub o‘tubdurlar va bag‘oyat xub matla’ durkim:

Oy yuzungdek ko‘rmadi bir mehr davronida charx,

Balki kun tortib xijolat mehri raxshonida charx.

«DOL» HARFI:

Ma'shuq vasli umididin muddate mustamand bo'lub ul davlat muyassar bo'lg'ondin so'ngra sihat marazg'a mubaddal bo'lg'on tahririda bu ikki baytning dag'i ma'nisi bir-biriga muvaffaq va musalsal voqe' bo'lubtur asru va g'arib tartib va ajib tarkib tushubtur:

Muddate ishqing xayoli birla erdim mustamand,

Bodai vasling bila bir dam bo'lay deb bahramand.

Chun bu davlat bo'lg'udek bo'ldi muyassar, voykim,

Sihatim ul lahza tole' za'fidin topti gazand.

«ZOL» HARFI:

Bu harfda dag'i muqaddam turkiygo'y shuarodin, xok Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar, nazarg'a kelmaydur, hamono yo'qtur:

Qildi ruhafzo labing qulmak bila jonimni ahz,

Yig'latib kofir ko'zung ham naqdi iymonimni axz.

«RE» HARFI:

Ul mazmundakim, bovujudi ulki, bahor vasli muyassardur, ko'ngul firoq xazonining xorlaridin ozurdadur, bu matla' so'znok voqe' bo'lubturkim:

Toza bo'ldi bog'u ko'nglumda firoq ozoridur,

Jilva qildi gul, netay, bag'rimda hijron xoridur.

Mahbub jamolidin ko'z ravshan bo'lub, xasta ko'ngulga visoli maskan bo'lg'on shukronag'a bu matla'dek oz voqe' bo'lubturkim:

Shukrlillahkim, jamolingdin ko'zum ravshandurur,

Xasta ko'nglumga visoling kulbasi maskandurur.

Jononning za'f holatida sustayg'onining xasta jonining za'f qilg'oniga tashbih qilibdur va ko'p munosibdur:

Za'fdin hardam chu ul oromi jonim sustayur,

Jonim o'lub xasta, jismi notavonim sustayur,

Ko'ngli firoqu dard o'qidin yora erkani va bag'ri hajr tig'i zahmidin yuz pora bo'lg'onini base xub bu nav' ado qilurkim:

Ohkim, ko'nglum firoqu dard o'qidin yoradur,

Vahki, bag'rim tig'i hijron zaxmidin yuz poradur.

Ishq oshubidin uy kunjida ashki gulnor erkanin zohir qilur va guliston sayrida gul aning ko'zlariga xor ko'runganin paydo etar:

Bo'lsam uy kunjida, ashkim qatrasida gulnor erur,

Azmi gulzor aylasam, gul ko'zlarimga xor erur.

Furqatdin ko'ngul qatra-qatra qon erkanin burung'i misra'da aytib, so'nggi misra'da o'tqon mukarrar lafz muqobalasida «Olloh-olloh» lafzi ham mukarrar va asru muassir ado topibdurkim:

Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur

Olloh-olloh, bu ne hajri behadu poyon erur.

Jannat sabzasi yorning xatti namudoricha ermaslig'in aytibdur va Masiho⁽⁵⁾ nutqi dildorning la'li shakarboricha bo'la olmaslig'in debtur:

Qaysi jannat sabzasi xatti namudoricha bor,

Yo Masiho nutqi ul la'li shakarboricha bor?

Bir g'unchai xandondin ayru ko'nglida qolg'on xorxorin ko'rguzubdur va tinmag'ur jong'a onsiz dunyidin rihlat maqomin tuzubtur:

G'unchai xandon borib, ko'nglumda qoldi xor-xor,

Tinmag'ur jonimg'a onsiz dunyida bore ne bor.

Gulro'yning g'unchadek og'zi va ruxsori uzra ko'rganin zarra xurshed yuzida paydo bo'lg'onga xub tashbih qilibdur:

Uylakim xurshedi tobi zarrani paydo qilur,

G'uncha og'zing sirrini ham gul yuzung go'yo qilur.

Ko'zi yorining yuziga tushgach, ko'ngli beqaror bo'lg'oni va yor ham ani o'z lutfi mehridin umidvor qilg'onni sharhida base xub va pisandida tushubtur:

To ko'zum tushti yuzungga, ko'nglum o'ldi beqaror,

Sen ham etting lutfi mehringdin meni ummidvor.

Gul ruxsori yonida sarig‘ lola sanchqon va yonida zulfni kokulidek keyin solg‘on namudorida:

Gul yuzi atrofida ul lolai asfarmudur,

Yonida zulfimudur yo kokuli anbarmudur?

Zulfi sahobining soyaboni oydek yuziga yoyilg‘onn va sarsardek oh tahrikidin ul bulut gah yopilg‘oni va gah ochilg‘oni husn bahorida bag‘oyat turfa ko‘runurining sharhi:

Soyaboni zulfikim, oydek yuziga yopilur,

Sarsari ohimdin ul gah ochilur, gah yopilur.

Vaslidin bahra yetmay, tig‘i hijron ko‘nglini halok qilg‘ani va hajr zahri berg‘oniga o‘xshar va vasldin taryok topilmagoni:

Tig‘i hijron surdi yetmay vaslidin ko‘nglumga bahr,

No‘sh bermasdin burun, berdi manga bir qatra zahr.

Elni noz kulkusi bila tirguzmakdin hikoyat va o‘zining rishtai hayotin zulm ilgi bila uzmakdin shikoyat:

Elga boqib har zamon yuz noz ila kulmak nedur?

O‘zgalarni tirguzub, vah, meni o‘lturmaq nedur?

Mahvashe bexabar erkandin aning xotiri zori hayronidin sharhi hol va g‘amkashi g‘ofil erkandin aning rozi pinhonidin gilaomiz maqol, base xub voqe‘ bo‘lubturkim:

Mahvashe yo‘q so‘rg‘ali bu zori hayrondin xabar,

G‘amkashe yo‘q topqali bu rozi pinhondin xabar.

Habibekim, fig‘onidin anga asar bo‘limg‘ay aning anduxi va rafiqekim, yomon holidin anga xabar bo‘limg‘an, aning fig‘on va anduhi:

Ne habibekim, fig‘onimdin anga bo‘lg‘ay asar,

Ne rafiqekim, yamon holimdin ul topqay xabar.

O‘tluq ohining shararlarin mahbub yuzigakim sochilur zar huqqa harirning zar rishtalarig‘a tashbih qilur:

Chun yuziga o‘tluq ohimning sharori sochilur,

Go 'iyo zar huqqayedurkim yuziga yopilur.

«ZE» HARFI:

O'z niyozi va badxo'y yori nozi sharhida bu nozanin matla ne balo niyozmandona voqe' bo'lubturkim:

Vah, ne holatdurki, men har necha ko'rguzsam niyoz,

Ey mahi bemehr, sendin zohir o'lmas g'ayri noz.

Ashk qoni va ko'ngul choki izhorida bu matla' yagona va bag'oyat oshiqona voqe' bo'lubtur:

Qon ko'rub ashkimni, ko'nglum yorasini so'rmangiz,

Chok o'lub ko'ksun, jigar pargolasini so'rmangiz.

Bu matla' ma'nisiniig g'arobati ishq shu'lasidin ravshanrog'dur va o't zabonasidin muayyanroq:

Ishqni man' etsalar shavqim o'ti aylar sitez,

Shu'la yanglig'kim, nafas ta'siri aylar oni tez.

Nargis ko'zruk va g'uncha og'izlig' gul'uzori ko'zu og'zin nargis bila g'unchag'a tarjeh⁽⁶⁾ qilg'oni ajib nav' voqe' bo'lubtur:

Nargis olmas yerdin ul fatton kuzung olida ko'z,

Og'zing olida tutulmish g'unchaning og'zida so'z.

Oshiqona kinoyat bila husn ahlig'a elni shaydo qilur ma'nida nasihat qilibdur va olamg'a rasvo qilur ma'nida mav'izat etibdur, base g'aribdur:

Ba'dazin, ey husn ahli, elni shaydo qilmangiz,

Bevafoliq aylabon olamg'a rasvo qilmangiz.

«SIN» HARFI:

Vaslidin mahrumluq bobida manzurni ko'rmak muayassar bo'lmasa, anga nazar tushgon yerni ko'rmak orzu qilibdur. Bu nodir ma'nidur:

Bir nafas ul oyni ko'rmak chun emasdur dastras,

Oni ko'rgan yerni, vah, borib ko'royin bir nafas.

Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonalg‘on dog‘ini g‘unchai xandon va lolai No‘‘mon⁽⁷⁾g‘a tashbih qilibdur va ma‘nisi she‘r sanoyeidin «tajohil ul-orif»⁽⁸⁾ uslubida xush voqe‘ bo‘lubtur:

Ayladi la‘li tabassum, g‘unchai xandon emas,

Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolai no‘‘mon emas.

O‘z niyozi va nozaninining istig‘nosi izhorida va o‘zi jon bermakida aning beparvolig‘ining osorida shundoq matla‘ oz voqe‘ bo‘lubturkim:

Menda har dam yuz niyozu anda istig‘novu bas,

Har zamon yuz jon beray ul sho‘x beparvovu bas⁽⁹⁾.

«SHIN» HARFI:

Yorning o‘zgalarga iltifotidin gilamandlig‘i va ko‘nglini muxotab qilib ko‘ngli oromidin shikoyatpayvandlig‘i:

Ey ko‘ngul, ul dilraboning o‘zga yori bor emish,

Vah, sanga dushman bo‘lub, ul o‘zgalarga yor emish.

«SOD» HARFI:

Bu harfda dag‘i turkigo‘y fasohatshiorlar varaq g‘oziga qalam surmaydurlar va hech nav‘ nazm arog‘a kelturmaydurlar:

Ey ko‘ngul, bo‘lsang vafosiz dilrabolardin xalos,

Shukr qil, bo‘lg‘on kishn yanglig‘ balolardin xalos.

«ZOD» HARFI:

Turkigo‘y balog‘atosorlar bu harfning ham tarkin tutubturlar va hech nav‘ nazmg‘a jilvai zuhur bermay o‘tubturlar:

Ishqdin to qilmisham paydo meni shaydo maraz,

Qilg‘udekdur za‘fliq jismimni nopaydo maraz.

«TO» HARFI:

Turk kalomining malik ul-kalomlari bu harfda dag‘i takallum tuzmaydurlar va kalima nazm haysiyatidin varaqda ko‘rguzmaydurlarkim:

Ey jamoling gulshanida sabzai serob xat,

Orazing kofuri uzra zeb mushki nob xat.

«ZO» HARFI:

Bu harf hamul jumladindurkim, turk tilining shirinash'or va shakarguftorlari dushvorlig'i jihatidin mutlaq taarruz qilmaydurlar:

Ko'nglum etti ishq asrorin qilib takror hifz,

Kimsa qilg'ondek kalomi poki vahy osor hifz.

«AYN» HARFI:

Bu qofiya va radif hazrat Sulton Sohibqironning ixtiroidurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o'tidin kuydi jonim o'zga nav',

O'rtadi ofoqni o'tluq fig'onim o'zga nav'.

«G'AYN» HARFI:

Ishq dog'idin shukr izhori qilibdur va hajr dog'idin shikoyat osori ko'rguzubtur, base muassir tushubdurkim:

Dog'i ishqing bermish erdi xasta ko'nglumga farog',

Vahki, qo'ydi shu'lai hijron yana dog' uzra dog'.

«FE» HARFI:

Ishqu muhabbat havosining humoyi baland parvozi Xoja Hofiz Sheroziy — kalomi tavrada tushubtur va salosat va tarkibda anga yovushubto'r:

G'am sipah qasding'a chekti, soqiyo, tut jomi sof.

Kim, bo'lur jomi may ichkandin daler ahli masof

«QOF» HARFI:

Firoq tiyraligining majorasi va o'z kuymakligining dardi bedavosi:

Qildi baxtimni qaro zulfidek ul moh az firoq,

Necha ko'ydurogay meni dilxastani oh az firoq.

Yor ishtiyoqinng suubatida va dardi firoq uquba-tida bu matla' behad Dilnavoz va bag'oyat jongudoz voqe' bo'lubtur:

Bor emish yor ishtiyoqi asru qattiq ishtiyoq,

Vasl topmon, vah, tunganmas dard emish, dardi firoq.

Telba ko'nglining ishqda shaydoliq'in va o'zga parilarg'a beparvolig'in bir rafiqni muxotab qilib arz qilur:

Telba ko'nglum to erur ishq ichra shaydo, ey rafiq,

Aylamas o'zga parilar sori parvo, ey rafiq.

Manzurning la'li labi ustida sabzai xat hay'atin ko'rub ajab ranglarda bu matla' voqe' bo'lubtur va filvoqe' rangin tushubtur:

La'li uzra sabzai xatti namudorig'a boq,

Sho'xi rangomizning shingarfu zangorig'a boq.

Ko'ngli o'tining oromi yo'qlug'iga hasrat ohi tortibdur, hamonoki, ul o't shu'lasini bu yaldin ortibdurkim:

Ohkim, ishqing o'tini bir zamon oromi yo'q,

Istagan orom ul o'tqa juz xayoli xomi yo'q.

«KOF» HARFI:

Matlubning mohi orazin saodat matlai va xoki dargohin ahli binish to'tiyosig'a nisbat berilibdur. Bu matla' salis va sof va pok tushubturkim:

Ey saodat matlai, ul orazi mohing sening,

Ahli binish to'tiyosi xoki dargohing sening.

Mohi tobonin muxotab qilib andin ayru tushganda chashmi giryonining qon yoshin izhor qilibdur, mubkiyi muhlik tushubtur:

Sendin ayru tushgali, ey mohi tobonim mening,

Dam-badam qonyoshi yig'lar chashmi giryonim mening.

Bu faqirning bir g'azaliga bu g'azal javob voqe' o'lubturkim, o'zum insof yuzidin mu'tarifmankim, andin yuz martaba ortuqroq tushubturkim:

Tushgali hajringda, ey sarvi gulandomim mening,

Ne ko'zumda uyqu bor, ne jonda oromim mening.

Shomi hijronin ko‘rub, mehr otin tutmag‘on mazmunida va va‘dai subhi visol aylab yorutmog‘on afsunida:

Shomi hijronim ko‘rub sen mehr otin tutmading

Va‘dai subhi visol aylab vale yorutmading.

Ishqdin jahon ichra, afg‘onidin kalom va ko‘yu-ko‘chada bu dostonidin payom:

Vahki, ishqingdin jahon ichra fig‘onimdur mening,

Barcha ko‘yu-ko‘chada ham dostonimdur mening.

Mahbubning zulf ochqonidin va o‘z oshufta ahvollig‘i va qoshi chinidin ko‘ngli behollig‘i bobida:

Zulf ochib men telbani oshufta ahvol aylading,

Qosh uza chin ko‘rguzub ko‘nglumni behol aylading.

G‘am tundi bodidin jismi binosi vayron, balki yer birla yakson bo‘lur ma‘nida bu matla‘ bag‘oyat xub ado topibdurkim:

G‘am yeli jismim binosin bo‘ldi vayron qilg‘udek,

Qaysi vayronkim, qaro yer birla yakson qilg‘udek.

Manzurning savodi xatti aro la‘li xandoni muqobalasida o‘z g‘ami aro ko‘zi durri g‘altonin solibdur, dilpazir tushubturkim:

Ul savodi xat ichinda la‘li xandonin ko‘rung,

Bahri g‘am ichra ko‘zumning durri g‘altonin ko‘rung.

Bayt ul-ehzonining tiyraligin dudi hijronidin degani xub va vayronining yemirulganin ashk to‘fonidin degani diloshub voqe‘ bo‘lubturkim:

Dudi hijrondin qarordi bayt ul-ehzonim mening,

Sayli ashkim birla ham yemruldi vayronim mening.

Sarsari ohin bayt ul-ehzoniga ofat degani xush oyanda debtur va vayronidin gardi balo boshig‘a yog‘arini dilraboyanda ado qilibdurkim:

Qolg‘och ohim sarsarig‘a bayt ul-ehzonim mening,

Yog‘durur gardi balo boshimg‘a vayronim mening.

«LOM» HARFI:

Safar azmida musofiridin ayrilur chogʻda xayrbod mazmunluq alfozni radif qilib aytqon sheʻrning matlai furqatnamo kelibdur va anduhoso aytilibdur:

Oh ila-azm ettim, ey rozimgʻa mahram, yaxshi qol,

Dard ila ayrildim, ey dardimgʻa marham, yaxshi qol.

evafosi koʻyida koʻngliga maskan qilmogʻini targʻib qilmogʻi xub va yigʻlab holini ado qilurda shevan qilmogʻini taʻlim bermaki margʻub:

Ey koʻngul, ul bevafo koʻyida maskan aylagil,

Zor yigʻlab, sharh etib, holingni shevan aylagil.

Manzuridin bir nazargʻa xursand boʻlub hajr torin vasl sarrishtasigʻa payvand qilurin xubroq vajah birla istidʻo qilur:

Netti, bir boqmoq bila koʻnglumni xursand aylagil,

Hajr torin bir zamon vaslinggʻa payvand aylagil.

Ishqdin boshigʻa kelgan suubat sharhida takallum koʻrguzmak va Farhodu Majnun oʻl suubatni xayol qila olmasligʻida tarannum tuzmak majnunvor va farhod-osor kelibdur:

Ishqdin keldi mening boshimgʻa oncha saʻb hol,

Kim, oni Farhod ila Majnun qila olmas hayol.

Bu gʻarib xayoldurkim, Sulton Sohibqironniigʻ xotirlarigʻa kelibdur va nazm ahliga zohir qilib erdilarkim, aytsunlar, barcha ayttilar, ammo hech qaysi ul hazratcha ayta olmadilar. Ul bu matlaʻdur:

Hajring oʻti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,

Gar bino qilsang mazorim tarhin ul kul birla qil.

Xurvashening gulshan koʻyidin ravzai rizvon munfail va yuzu xattidin lolavu rayhon xijil erkanin latifoyin bila zohir qilibdur:

Gulshani koʻyungdin, ey jon, ravzai rizvon xijil,

Yuzu xatting rashkidin ham lolavu rayhon xijil.

Vasl orzusidin koʻngli qushigʻa qanot tamannosi qilib, vasl havosida parvoz buyurgʻoni oshiqona va mushtoqona tushubtur:

Kirpikimdin, ey ko'ngul, hardam qanotlar soz qil,

Hajr dashtidin visoli ko'yiga parvoz qil.

Bu faqirning mashhur matlaig'akim:

Anglading, yo yo'qmukim, aylar safar yor, ey ko'ngul,

Vahki, bo'lduk hajri ilkidin yana zor, ey ko'ngul

javob voqe' bo'lubtur, ammo yuz martaba ondin ravonroq va yaxshiroq voqe' bo'lubtur:

Chun junun zanjirig'a bo'ldum giriftor, ey ko'ngul, Bo'lg'asen men telba holidin xabardor, ey ko'ngul.

«MIM» HARFI:

Ishq o'tidin o'z dardu hasratini va furqat dardidin yor g'aflatini bu matla'da asru va so'znok ado qilibdur:

Haddin oshti ishqing o'ti birla dardu hasratim,

Voykim, sen g'ofilu kuyirdi dog'i furqatim.

Ma'shuq umidida dardu hasratini izhor qilib betoqatlig'ig'a rahm etmasida u matla'dao'q javob ul tab'i durarbordin va xomai guharnigordin raqam topibdurkim, vasfida aql hayron va fahm sargardon:

Necha bo'lg'ay vasling ummidig'a dardu hasratim,

Rahm qilkim, yo'qturur hajringda emdi toqatim.

Masal tavridda bu matla'dek parvarda, va orosta, va murattab, va piyrosta oz voqe' bo'lubturkim, ul hazratning latif tab'idin va sharif zehnidin bosh urubdur:

Men halok o'ldum g'amingdin sen qo'yoshsen, ey sanam,

Ayb emas gar mendin o'lsa kamligu sendin karam.

Ham bu matla'g'a javob agarchi masal tavridda emas, ammo g'arobat jonibini mar'i tutulub, bas nozuk va pokiza deyilibdur:

Vahki, ishqim shu'lasi hardam chekar andoq alam,

Kim, maloyik ko'zi dudidin bo'lur har lahza nam.

Bu matla' qofiyasida ikki she'r aytilar, uchunchu matla' ham quvvat yuzidin aytilibdur, alardin ortuq bo'lmasa, kam ham ermas:

Sen g'amim bilmay xayoling birla bordur hayratim,

Bilganingni anglasam, bilmam, ne bo'lg'ay holatim.

Yer qaddi hajridin sarv maylin mafqud debdur va yuzi shavqidin gul orzusini kobud bilibdur. Alhaq ravshan va rost tushubturkim:

Qaddu yuzung hajridin, vahkim, menga bo'lmish mudom,

Sarv mayli bartaraf, gul orzusi xud harom.

O'z jismig'a tutoshqon shu'lani yorg'a arz qilurg'a bu matla'ni ham otashin va rangin xayol qilibdur:

Otashin xil'at dema jismim uza, ey dilbarim

Kim, erur ishqing o'ti birla tutashqon paykarim

Pariro'yi tarki muhabbat qilg'anin bildirur, bu jihatdin jovidon ko'ngliga furqat o'ti tutashqonik yor arzig'a yetkurar:

Qilg'on ermish ul pari tarki muhabbat, bilmadim,

Tushgon ermish jovidon ko'nglumga furqat, bilmadim

Bu qofiyada bovujudkim, ikki rangin matla' o'tubdur, nazm tavridda g'oyat qudratdin so'z adosida nihoyati diqqatdin bir matla' dag'i deyilibdurkim, xubluqdag ul matla'larcha bor:

Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam,

Ko'nglum ichra g'am uza g'amdur alam uzra alam.

So'zu gudozin ham degali mahvash topmag'ondin alami va rozin aytkoli mushfiqe ko'rmagondin g'ami maraq voqe' bo'lubtur:

Qani bir mahvash, ang'a so'zu gudozimni desam.

Qani bir mushfiqki, birdam ong'a rozimni desam

Ham bu matla' tavridda-o'q qofiyag'a tag'yir berilib, hamul radifda bu matlai dag'i asru diloro vaanduhafzo tushubtur:

Topmadim bir mushfiqekim, holi zorimni desam,

Yoxud ul guldin ichimda xor-xorimni desam.

Parivash hajrida ozorlaridin ani xabardor qilmoq orzu aylabtur va aning jilvasi muqobalasida ko‘zin guharbor qilmog‘ni havas qilibdur va ikkisi nodir voqe‘ bo‘lubturkim:

Zor o‘larmen ul pari yo‘qkim xabardor aylasam,

Jilva qilgach, ollida ko‘zni guharbor aylasam.

«NUN» HARFI:

Mavlono Yaqiniyg‘a⁽¹⁰⁾ javob aytilibdur. Va yaqindurkim, Mavlono tirik bo‘lsa erdi, joni birla insof bergay erdikim, andin yaxshiroq voqe‘ bo‘lubtur:

Ey visoling xasta ko‘nglum marhami, oromi jon,

O‘lmadim hijron elidin men qatig‘ jonlig‘ yamon.

Va bu bahr va qofiyada yana bir she‘rdurkim, ikkalasi bir-biridin xubroq tushubturkim:

Ey sening qoshu ko‘zung bir fitnai oxir zamon,

Lablaringdur xasta ko‘nglumga hayoti jovidon.

Yuz davrida qiron ta‘rifida va bu matla‘ o‘tkan ikki matla‘ qofiyasida voqe‘ bo‘lubtur, tajnis rioyat qililibdurkim, bu nav‘ shirin va rangin va xush tartib oz voqe‘ bo‘lmish bo‘lg‘ay:

Ul quyoshkim oy yuzining davrida qilmish qiron,

Barcha mahvashlar arosida erur sohibqiron.

Bu matla‘ faqirning bir matlai muqobalasida tushubturkim, agar burunroq aytilmish bo‘lsa erdi, faqir hargiz o‘z matlaimni aytmag‘ay erdim Aytmish bo‘lsam ham, bitmagay erdim:

Tig‘ ila ko‘ksimni qilding zaxm, ey siymin badan,

Qoni turmaydur deb ul zahm uzra kuydurdung tugan.

Ishq suubatidin holining bir-bir shiddatnn aytib, hech kishiga bu hollar bo‘lmasun, deb istid‘o ko‘rguzmakda bu matlai ajab xub tushubturkim:

Ishq aro hech kim mekingdek zoru shaydo bo‘lmasun,

Bo‘lsa ham, vah, men kibi mahjuru rasvo bo‘lmasun.

Ma‘shuq ishtiyoqidin xayol qilmish bo‘lg‘aykim, oni ko‘rgachfig‘on jondin burun chiqqay va joni xud rashkdin fig‘ondin burun chiqqani g‘aribado topibdur:

Seni ko'rgach der edim chiqqay fig'on jondin burun,

Chiqmasun deb rashkdin jon chiqti afg'ondin burun.

Bu matla' hamkim, qofiya tag'yir topib hamul radifda voqe' bo'lubtur, g'oyat zebolig'da va nihoyat ra'nolig'da voqe' bo'lubturkim:

Vasl aro o'ltur meni hijron jafosidin burun,

Netti gar qilsang xalos oning balosidin burun?

Yor vaslida hijron balosi biymidin o'lum orzu qilmoqki, hijron dog'i bila nogah kuymaki va vasl aro o'rtag'on dog'i darmonsiz debtur, ya'ni mahzi darmon:

Vasl aro o'ltur meni to dog'i hijron ko'rmayin,

Kuydur andoq dog' ilakim, hech darmon ko'rmayin.

O'z qotilig'a zoru hayronlig'in va aning bodai ishqidnn ko'z va zulfidek mast va parishonlig'in xush debdur va dilkash ado qilibdur:

Vahki, bir qotilg'a andoq zoru hayronmen bukun

Kim, ko'zu zulfi kibi mastu parishonmen bukun.

Mahzun ko'ngulning yorsiz devona bo'lmog'ining uzri va ul hajridin Vomiq va Majiundek rasvoliqqa afsona bo'lmog'ining ma'zirati:

Yorsiz mahzun ko'ngul devona bo'lmay naylasun,

Vomiqu Majnun kibi afsona bo'lmay naylasun? ⁽¹¹⁾

O'rtangan ko'ngli dudidin olam qarorg'oni va o'rtangan bemehri qahri lutfoyin va lutfi itoboludin o'z-o'zi bila takallum qilibdur va tarannum ko'rguzubtur:

Kuydi bu mahzun ko'ngul olam qarordi dudidin,

Qahri lutfoyin bila lutfi itoboludidin.

O'z qotili vayrona qabrini ziyorat qilg'oli kelganin iddio qilur va ul vayronani imorat qilmog'ni istid'o etar bobda:

Gar kelib vayrona qabrimni ziyorat qilg'asen,

Rahm etib, ey qotilim; oni imorat qilg'asen.

Gulchehrasi kelsa savsandek demaktin lollig'i va kelmasa hajridin bodi sabodek behollig'i:

Kelsa ul gulchehra, savsandek demaktin lolmen,

Kelmasa, bodi sabodek hajridin beholmen.

Sabrsiz ko‘nglining ishq va jununin va notavon holining dardu shavqi bir-biridin fuzunin devonavor degoni va majnunkirdor ado qilg‘oni:

Sabrsiz ko‘nglumga boqsam ortadur ishqun junun,

Notavon jonimni ko‘rsam, dard ila shavqi fuzun.

Manzurning xat va zulfida bu uch matla’ durkim, birbiriga javob voqe’ bo‘lubtur. Qofiya va radifi ul hazratning bu fanda mujtahid tab’ining ixtiroidur. Avvalg‘i matla’ budurkim:

Sabzai xatting ichida o‘ylakim jondur nihon,

Huqqai la’ling aro ham durri g‘altondur nihon,

Ikkinchi matla’ budurkim:

Zulfi ichra bel, xat ichra la’li xandondur nihon,

Uylakim, jondur nihon, ham rishtai jondur nihon.

Uchinchi matla’ budurkim:

Zulfi ichra gul, gul ichra la’li xamdondur nihon,

Tunda mehru mehr aro bir chashmai jondur nihon.

Ishq shiddati ajzidin ko‘zni a’ moliqqa xitob qilg‘oni base dardmandona tushubturkim:

Ko‘zlarim ko‘r et, qazo, bir shakli mavzun ko‘rmayin,

O‘zni bir laylivashe ishqida Majnun ko‘rmayin.

Bu matla’ dag‘i o‘z holi sharhidakim, anvo‘i baliyat bir ishq jihatidin bir-birining ustida bo‘lmish bo‘lg‘an. Bu matla’ yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Yo‘q damekim, telbalardek ul parig‘a zor eman,

Sabru hushumdin judo, dardu balog‘a yor eman.

Manzurning parchami oshuftalig‘i sharhida va o‘z ko‘nglining anda barhamlig‘i adosida bu matla’ ko‘ngullarni oshufta va barham qilg‘udek tushubtur:

Ul quyoshkim, charx aro oshufta parchamdur bukun,

Xasta ko‘nglum zulfi tobi ichra darhamdur bukun.

Filjavobi bag‘ayr:

Ul quyoshning mehri nechun bandag‘a kamdur bukun,

Ko‘z yoshim tinmay oqardin yer yuzi namdur bukun.

Parivash yori ishqidin holining parishonlig‘ikim, til sharhidin lol bulg‘ay, nihoyat xubliqdan bayon topibdur:

Bir parivash ishqida andoq parishon holmen

Kim, aning sharhin qilurda asru gungu lolmen.

Gardun bedodidip elni boda qutqorur mazmunda soqiyni muxotab qilib, may tutmoq istid‘osida bu bayt mufattihdur:

Soqiyo, tutqil to‘la gardun knbi sog‘arnikim,

Jonima dermen dame bedodi gardun ko‘rmayin.

«VE» HARFI:

Sabodin sarvi ravonining kelgan xabarini so‘rar va andin jon, isi, kelgan munosabat bilan ruhi ravonining hadisini so‘rar:

Ey sabo, bergil xabar sarvi ravonim keldimu?

Jon isi sendin kelur, oromijonim keldimu.

Bu she‘rning qofiyasidini so‘ngra atf vovin⁽¹²⁾ kalimaning asli harfi o‘rnig‘a tutulub g‘arib ixtiro‘ qilibdur:

Ey jafo tig‘i, kelib majruh ko‘ksumni yoru,

Qo‘l yalang aylab solib haryon ichimni axtaru.

«XE» HARFI:

Ko‘ngli ranj bilan kuyub jononig‘a demag‘onin bulbul kuysa guli xandonig‘a g‘am bo‘lmaslig‘in tashbih qilib, ishq chamanida bulbuldek gulbong urg‘oni:

Ranj ila kuydi ko‘ngul demas ani jononig‘a,

Qayda bulbul kuysa g‘am bo‘lur guli xandonig‘a.

Sarvi parirux yodig‘a kelsa, hur va jannat yodidini chiqarni yod qilib, bu-tarona bilan g‘amgin ko‘nglin shod qilurkim:

Har qachonkim kelsa ul sarvi parirux yodima,

Kelmas ul dam jannatu hur xotiri noshodima

Ko'ngliga xitob qilurkim, aning dardin mahi tannoziq'a yetkurgay va jonining halokligin sarvi noziq'a arz etgay:

Ey ko'ngul, dardimni arz et, ul mahi tannoziq'a,

Xasta jonimni halokin ayt sarvi noziq'a.

Bu matla'din yorning kinoyatomez uzrxohlig'ining man'idurkim, shirin labin shakarrez qilib, ul afsun tili bila oshiq o'tini tez qilmag'ay:

Uzr uchun shirin hadisingni shakarrez aylama,

Bu fusun birla o'tumni dam-badam tez aylama.

Sarvi ozodining bog' aro jilva qilg'oni uchun ishq ahli ohu faryodi kuydururining adosi so'znok tushubtur:

Jilva qildi bog' aro ul sarvi ozodim yana,

Kuydurur ishq ahlini bu ohu faryodim yana.

Malik ul-kalom Mavlono Lutfiyning mashhur matlai javobida debtur:

Ey qading tubiyu jannat xaddi gulgun ustina.

Bu matla' voqe' bo'lubturkim:

Xattining tori tushubtur la'li maygun ustina,

Uylakim, jon rishtasi bir qatrai xun ustina.

Basirat ahli qoshida zohirdurkim, tafovut ne chog'likdur. Ne uchunkim, Mavlono yuzni jannatqa nisbat qilubdur va bu munosib tashbihdur. Bovujudi bu ikki misra' bir-biriga marbut emas va javobi bovujudi g'arobati ma'ni ikkalasi bir-biriga muvofiq va alfozi bir-birining muqobalasida loyiq voqe' bo'lubtur. Va qofiyaga tag'yir berib ham ushbu radif bila yana uch g'azal deyilibtur. Bovujudi ulkim, Mavlono javobi matla'da xat ta'rifidur, uch matla'ning ikkisida xat ta'rifidur va birida xol ta'rifidur. Mundin nazm tavrida g'oyati quvvat ma'lum bo'lur.

Ul uch matla'din biri budurkim:

Ul zumurrad xatki chiqmish la'li xandon ustina,

Sabzai xatting ichida uylakim jondur nihon,

Ikkinchi matla' budurkim:

Sabzai xatting savodi la'li xandon ustina,

Xizr go 'yo soya solmish obi hayvon ustina.

Uchinchi matla'kim xol ta'rifida voqe' bo'lubturkim:

Nuqtai xoling ajab yo 'q la'li xandon ustina

Kim, bo 'lur bir qatra doim obi hayvon ustina.

Ishq uyquni ko'zdin uchurg'oni jihatidin kechaning sa'b holi sharhida bu matla'ning xublug'i gunashdin ravshanroqdur:

Bir quyosh hajrida chektim o'tluq afg'on bu kecha,

Kuymagim dudidin o'ldi charx giryon bu kecha.

Filjavobi big'ayrihi:

Oncha chektim bir kuyosh hajrida afg'on bo ' kecha

Kim, fig'onimdin uyumas jinnu inson bu kecha.

Mehroraz yori chehra ochib jon o'rtarining tazarrui va oshkoro lutf ko'rguzub ko'nglini pinhon o'rtarining tazallumi:

Orazing mehrin ochib, jismim aro jon o'rtama,

Oshkoro lutf etib, ko'nglumni pinhon o'rtama.

Filjavobi big'ayrihi:

O't solib el jonig'a sen meni pinhon o'rtama,

O'rta jonimni-yu, jonim, elni chandon o'rtama.

Ishq oshubi va bedodi hikoyatida va hajr zulm va taaddisi shikoyatida bu matla' asru dardmandona va bag'oyat niyozmandona tushubtur:

Necha ul oy hajrida ko'nglum buzulg'ay g'am bila,

Necha jismim uyi yemrulgay g'amu motam bila.

Bu qofiya va radif ham ul hazratning xossai tab'idur va hech yerda eshitilmaydur va bag'oyat shirin va rangin tushubtur. Hajr shomi suubatida o'zini anjum va aflok bila mashg'ul tutar kayfiyatida bu g'azal boshtin oyoq xub va puroshub voqe' bo'lubturkim:

Hajr shomi oy chiqib men yig'lar erdim dard ila,

Sayrlar qildim seni istab mahi shabgard ila.

Bu avqotda hukm bo'lub erdikim, turkigo'y shuaro tatabbu' qilg'aylar. Ba'zeki, ayttilar — lat yedilar, ba'ze ayta olmaslig'ig'a mu'tarif bo'ldilar. Ul jumladin biri faqir erdimki, insof berdim va matlai budurkim:

O'tka solg'il sarvni, ul qaddi ra'no bo'lmasa,

Yelga bergil gulni ul ruxsori zebo bo'lmasa.

Yorni ag'yor bila ko'ra olmaslig'idin ko'z qoni deb ayni rashkdin bu matla' xub ado topibdur:

Qani ko'z kim, seni ko'rgaymen dame ag'yor ila.

Yo taammul qilg'amen ag'yor ila guftor ila.

Ishq zulmidin toriqqanda ko'zga ham yor va ag'yor sori boqardin man'qilur ma'nida bu matla' ham oshiqona, ham dardmandona tushubturkim:

Ey ko'z, o'zga yuz sori o'zungni hayron istama,

Bir vafosiz ishqidin ko'nglungni ham qon istama.

Ul hazratning xossa ixtirootidin bu to'rt she'rdukim, «o'zgacha» lafzin radif qilib, qofiyalari har qaysining o'zgacha voqe' bo'lubtur. Har qaysining latofati birbiridin ortug'rog' tushubtur va alardin biri budurkim:

G'am yeli ayshim binosin qildi vayron o'zgacha.

Hushu sabrim mulkini yer birla yakson o'zgacha.

Ikkinchi matla' budurkim:

Ohkim bo'ldum yana ishq ichra shaydo o'zgacha,

Aqlu hushumdin judo xalq ichra rasvo o'zgacha.

Uchunchi matla' bu nav' voqe' bo'lubturkim:

Bo'lg'ali la'ly uza xatti namudor o'zgacha,

Tutti ohim barqidin ko 'k yuzi zangor o 'zgacha.

Yana bir matla' bu nav' voqe' bo'lubturkim:

Vahki, hijron tarhin ul oy soldi bunyod o 'zgacha,

Notavon ko 'nglumga bunyod etti bedod o 'zgacha.

Ko'ngliga sabrdin o'zga chora ishqida bilib sabr qila olmag'ondin bechoralig' izhori qilibdur va bade'ado topibdur va g'arib muaddo bo'lubtur:

Chorai ishq'i nedur, juz sabru mahzun ko 'ngluma,

Chun qila olmas, qiling bir chora majnun ko 'ngluma.

G'ardun shikoyatidakim, ofiyatin rasvolig' bila badal qilmish bo'lg'ay, bu matla' nishotfarso va anduh afzo voqe' bo'lubturkim:

Ey ko 'ngul, gardun baliyat toshini yog'durdilo,

Har taraf sabrim uyin devorini sindurdilo.

Bu radifda yana bir matla'kim, g'azal tavrida marsiyaomez Xoja Hofiz Sheroziyga voqe' bo'lg'on yo'sin bila ul hazratqa dag'i voqe' bo'lubtur va bag'oyat nodirdur:

Voy, yuz ming voykim, sarvi ravonim bordilo

Sabru hushum mulkidin oromi jonim bordilo.

«YO» HARFI:

Matlubin istab, topolmaslig'idin va hech hamdam ani bu musibatda zorlig'in so'rmaslig'idin o'z-o'zi bila gilamandlig' izhor qilibdur:

Qayda istay, istasam, qaydin topay sen yorni

Kim, manga hamdam bo'lub so'rg'ay dame men zorni.

Ko'ngul har necha yor dardu g'amidin ozor topar, ammo aning mohruxsorin ko'rgach, mehri fuzunroq va muhabbati sarrishtasi uzunroq bo'lur mazmunda bu matla' benazir tushubtur:

Nechakim, tortar ko 'ngul dardu g'amu ozorini,

Mehrim ortar har necha ko 'rsam mahi ruxsorini.

Parivashining qaro libosidin hayrat qilg'onikim, quyosh qaronqu tunda ko'runmak g'aribdur va vasl kavkabi sa'di hajr tiyra shomida tulu' qilmoq ajib:

Hayratim bor to qaro qilmish libosin ul pari,

Kim qaronqu tunda ko'rmish oftobi xovariy.

Ko'zin sarvi siyminbari kelur mujdasidin yig'lamoqdin tiyibdur, jonin xurshidi anvari vasli bashoratidin kuymakdin man' qilibdur:

Yig'lama, ey ko'zki, ul sarvi siyminbar kelgusi,

Kuymagil, ey jonki, ul xurshidi anvar kelgusi.

Jonida harf g'ami yozar tahririg'a ko'ngli ajz va notavonlig'idin unamaslig'ig'a tadbir va chora topmasdin bechoralig' zohir qilur:

Jong'a ayturmen, yozay harfi g'aming tahririni,

Ko'nglum o'lmas, vahki, bilmasmen bu ish tadbirini.

O'z sabz xatining sabzai xati hajrida o'lsa, qabri sabzasi xati hijron nishtari butmak iddio qilibdur va g'arib ma'ni voqe' bo'lubtur:

Sabzai xatting savodi birla o'lsam, ey pari,

Sabzai qabrim ne tong, gar bo'lsa hijron nishtari.

Bu matla'ning burung'i misraida xat va lab ta'rifida va ikkinchi misraida yuz va zulf hayrat izhori voqe'dur. To'rtalasi nodir tushubtur:

Mushkbo' xattinmu dey, yo la'li durborinmu dey,

Yuzi iymoninmu dey, yo zulfi zunnorinmu dey?

Bu matla' ham manzurini husn yuzidin Shirin va Laylig'a va o'zin ishq bobida Farhod va Majnung'a tarjih qilibdur. Bu nav' oz eshutilibdur:

Husn ila sen komilu Shirinu Layli shuhrati,

Ishq aro men zor o'lub, Farhodu Majnun tuhmati.

Ishq o'ti hirqati ta'rifidakim, ul o'rtamagan nima qolmamish bo'lg'ay, bu matla' so'znok tushubturkim:

Ishqing o'ti jismu joni notavonim o'rtadi,

Turfa o't erdiki, paydovu nihonim o'rtadi.

Hajr tunida vasl orzusidin bul'ajab xayolin bayon qilur va firoq shomida visol shavqidin sa'b holin ado ko'rguzur:

Kecha hajringdin visolingg'a hayolim bor edi,

Hech kimga ayta olmonkim, ne holim bor edi.

Bu qofiya va radifda bu faqirning ham she'ri bor va mashhurdir, ammo ul hazratning bu she'rikim, aning javobi tushubtur, hech nisbati yo'qdurkim:

Qilmag'ay erdim yuzin ko'rmak tamanno koshki,

Solmag'ay erdim ko'ngul mulkiga g'avg'o koshki.

Mahzun ko'nglini aldab dilrabosining kelur xabarini debtur va org'adab ishratfizoi vasli xabarin aytibdur, ajab nav' shirin voqe' bo'lubturkim:

G'am yema, mahzun ko'ngulkim, dilraboying kelgusi,

Bazmi ishqing tuzguchi ishratfizoying kelgusi.

Ishq tariyqida o'z kamolin zohir qilurkim, ishq ahli yagonalari andin so'zu gudoz tamanno qilibdurlar, balki boshtin-ayoqlarig'acha ul o'tqa yoqibdurlar:

Ishqim o'tidin kelib Majnun bir uchqun istadi,

Ol dedim, sung'ach ilik, boshtin oyog'in o'rtadi.

G'oyat bedillig'idin, g'am dashtida itgan notavon ko'nglin yod qilur va tarki jon aylagan bexonumon ko'ngli yodi bila o'z anduhin ziyod qilur:

Vahki, g'am dashtida itgan notavon ko'nglum qani?

Tarki jonim aylagan bexonumon ko'nglum qani?

Hijron balosidin jonig'a yetib, ajalg'a iltijo qilur va el mojarosidin toriqib, o'lumni orzular, bu uslubda so'z bas g'aribdur:

Ey ajal, osuda qil hijron balosidin meni,

Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni.

Bahor fasli bo'lub aysh guli ochilg'oni va g'am xazoni yelidin sabri xirmoni sovrulg'oni bobida deyilibdur:

Navbahor o'ldi, ochilmas, vahki, ayshim gulshani

G'am xazoni yelidin sovruldi sabrim xirmani.

Bu she'r qofiyasida yana bir she'r o'ttiki, bu anga javobdur va ikkalasi bir-biridin xubroq tushubtur:

Bir parivash shavqi, vahkim, jismu jonim o'rtadi,

Ayrilib har uchqun andin xonumonim o'rtadi.

Zolim yorni zulm qilmoqqa beixtiyorlig'i aytilibdur va o'zining mazlumshiorlig'ini xubroq vajah bilan ado qilibdur:

Yer zulm aylar uchun beixtiyor o'lmish netay,

Vah, anga javru sitam qilmoq shior o'lmish netay.

Yor firoqidin yoshu qon to'kmoq ko'zining fani bo'lg'onni bu jihatdin ul bahru kon inju va la'l maxzani bo'lg'onni g'arib suratda nazm qilur:

Ey firoqingdin ko'zumning yoshu qon to'kmak fani

Kim erur ham la'lning qoni, ham inju maxzani.

Yor ko'yida tushgan so'zon ko'nglinki, yori poymol qilmish bo'lg'ay, yerga tushgan o'tqa tashbih qilg'onikim, ayog' bila yerga surtub o'chururlar, xossa ma'nidur:

Tushgali so'zon ko'ngul ko'yung aro filhol oni,

Yerga tushgan o't edikim, aylading pomol oni.

Hijron sog'aridin dam-badam o'zdin borurni ibo qilib, vasl jomi muyassar bo'lsa, labolab sipqorurni muddao qilibdurkim:

Necha hijron sog'aridin dam-badam o'zdin boray,

Vasl jomin gar tutar bo'lsang labolab sipqoray.

Bovujudi o'z ishq o'ti va yor husni o'ti riqqati qalb va tarahhum jihatidinkim, ishq ahli lozimasidur yana bir mazlumi zor ishqining o'ti bila ham ko'nimak va matla'din she'rning oxirig'acha bu ma'nini har baytda izhor qilibdurkim, nazm elidin hech kimga dast bermaydur:

Bas emas erdi manga ham o'z o'tum, ham yor o'ti

Kim, anga afzun dag'i bo'lmish yana bir zor o'ti.

Jon og'ziga yetganda jonon labin tamanno qilmoqki, jon topshirg'ay va jonong'a yashurun naqdi pinhon topshirg'ay, bas latif voqe' bo'lubtur:

Yetti jon og'zimg'a yetkur labnikim, jon topshuray,

Bori o'lmasdin burun bu naqdi pinhon topshuray.

Majnunni ishq tariyqida o‘ziga o‘xshatmoq va devonalig‘ rasmin anga o‘rgatmak kamoli oshiqliqqa va devonaliqqa doldur va ishq va junun ahlig‘a bu nav’ bas bul’ajab holdur:

Ishq aro Majnunni dermenkim, o‘zumga o‘xshatay,

Hushini zoyil qilib, devonalig‘ni o‘rgatay.

Parivashining tufuliyat jihatidin yorlig‘ bilmasin va aning shavqidin shaydo ko‘ngli hushyorlig‘ bilmasin zohir qilib, dard ahli qoshida o‘z dardi dilin aytibdur:

Ul parivash tiftl, vahkim, yorlig‘ bilmas netay,

Shavqidin shaydo ko‘ngul hushyorlig‘ bilmas netay.

Ul olam ahli sultoni himmati qoshida baski sultonlig‘i muhaqqir ko‘rinur va faqirni filhaqiqat saltanatqa tarjih qilur, bu baytdakim, haqiqat ma‘nisi majoz suratida ado topibdur. Umid ulkim, ul hazratning tariyqida ham necha majoz bo‘lsa haqiqatda mubaddal bo‘lg‘ay va majoz ahlig‘a ehson va haqiqat ahliga mustahsan voqe‘ bo‘lubtur:

Kim gadoying bo‘lsa olamdin kechib, ey dilrabo,

Faqr ahli ichra ul sultoni olamdur bukun.

Xilvat⁽¹³⁾. Olam ahlig‘a andoqki, majlis bo‘lur, majlis ahli hasratidin tab‘g‘a kalol va zehng‘a malol yuzlangandin so‘ngra har toifa o‘z xurdi holig‘a ko‘ra maxsuslari bila xilvat ixtiyor qilurlar. Chun «Majolis unnafois»ning yetti majlisni tab‘ ahli g‘avg‘osi va nazm xayli alolosi bila o‘tkarildi. Sekkizinchi majlis Sultoni Sohibqiron majlisidurki, ani andoqki, haqidur bayon qilmoq mumkin ermas va ul da‘vog‘a aqlkim, munsif hakamdur, ruxsat bermas. Nechukkim, bo‘lsa shikasta va basta va ba‘zi parishon va ba‘zi payvasta ado topti. Emdi xilvatda dag‘i bir-ikki naql ul hazratning g‘ayri nazm latoyifidin ham bitilsa va bir-ikki so‘z sharh etilsa yiroq bo‘limg‘ay.

Uljumladin — Mavlono Lutfiy (alayha rahma)ki, o‘z zamonida Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul kalom erdi, bir kun bahor ayyomidakim bulug oshiq ko‘zidek ashkbor va ul ashk qatarotidin har biri: ma‘shuq va‘dasidek bir mavhum tor oshkor qilur erdi, bu faqirg‘a yo‘luqti va dedikim, bu yog‘in torlari maxsus bo‘ladur, Mir Xusrav (alayha rahma) hinducha ash‘orida bir ajib-g‘arib ma‘ni aytibdur va ul budurkim: mahbub bahor ayyomida bir yon boradurmish bo‘lg‘ay va yog‘in jihatidin yer balchiq bo‘lmish bo‘lg‘ay va aning. ayoqi balchig‘din toyib yiqilur chog‘ida g‘oyat nozuklugidin yog‘in rishtasin madadi bila tutub qo‘pmish bo‘lg‘ay. Bu faqir bu ma‘nini eshitgach, xushhol bo‘lub, Mir Xusravning bu daqiq xayolig‘a ofarinlar o‘qudum va tab‘ ahlidin yog‘in taqribi bila harkim qoshida bu so‘z naql qilildi. Manga yuzlangan xushvaqtlig‘ anga ham yuzlanib, Mir Xusravning ta‘rifida beixtiyor bo‘ldi. Bir kun ham mazkur bo‘lg‘on taqrib bila Sultoni sohibqiron Oliy majlislarida banda bu so‘zni arz qildimkim, bir kun Mavlono Lutfiy Mir Xusravdin bu nav’ g‘arib ma‘ni naql qildi, deb. Xayolimda

bu-kim, ul hazratning ham latif tab'larig'a xush kelib, ta'rifda mubolig'a qilg'uvsilardur. Banda ko'p shaaf bila aytqon uchun filjumla tabassum qilib, inbisot izhori qildilar. Ammo ko'p iltifot voqe' bo'lmadi. So'ngg'i kun andoq ma'lum bo'ldikim, ul hazratning muborak tab'larig'a Mir Xusravning bu xayolida e'tiroze yuzlangan ermish bo'lg'ay, yana hayrat dast berdikim, Mir Xusravning bu xayolig'a jame' tab' ahli ta'rif va tahsindin o'zga hech nima zohir qilmadilar, oyo, ul hazrat ne e'tiroz qilib erkinlar. Oliy majlisda yer o'pub, arz qildimkim, ul e'tirozni guharbor alfozdin eshitmak muroddur. Dedilarkim, ul e'tirozbudurkim, ul yog'in qatrasini yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasig'a dag'i hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi bo'lg'ay, aning madadi bila yiqiladurg'on o'zin asramog'i maholdur. Ul hazrat bu e'tirozni naql qilg'och, faqir bildimkim, men va har kishi hamkim, bu ma'nini eshitib, tahsin qilibdurbiz — barcha g'alat qilg'on ermishbiz. Quloq tutub o'z nuqsi tab'img'a mu'tarif bo'ldim. Andin so'ng ul hazrat dedilarki, bu bayt andoq bo'lubturki, e'tiroz mahalli yo'qturkim;

Za'fdin kulbamba qo'pmoq istasam aylar madad,

Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a.

Umid ulkim, mundoq sof tab' kuzgusiga hargiz davron havodisidin g'ubore o'lturmag'ay va mundoq ravshan zehn sham'in hargiz navoyibi sarsari o'churmagay.

Uljumladin budurki, Mavlono Qabuliy degan kichik yoshlik yigit Qunduz va Hisor tarafidin kelib erdi, tab'i turkiy va forsiy nazmg'a muloyim erdi. Oliy majlisqa musharraf bo'lub, podshohona tahsin va ehsong'a ham sarafrozbo'lub erdi. Bir kun bir turkiy g'azalki, matlai budurkim:

Na'l kestim dardi afzun bo'ldiyu kam bo'lmadi,

Dog' qo'y dum so'zi kam bo'lg'ay debon, ham bo'lmadi

aytib kelib erdikim, yuqori arz qilg'ay. Faqirg'a berdikim, tegrasida evrulgaymen va xotirg'a kelganni anga aytqaymen. Chun o'qudum «ham bo'lmadi», qofiyasini yaxshi aytmaydur erdi. Derdikim, yaxshi qofiyasi budur, mundin yaxshiroq bog'lasang bo'lur erdi. Ul dedikim, men xili tashvish torttim, yaxshi bog'lay olmadim. Albatta, bu qofiyani siz bog'lang. Chun mubolag'a qildi, faqir ul qofiyani bog'ladim, bu nav'kim:

Sarv moyil bo'ldikim, o'pgay ayog'ing tufrog'in,

Yo'qsa har soat sabo tahrikidin xam bo'lmadi.

Alqissa, Qabuliy bu she'rni bitib navvobdin birining vositasi bila Oliy majlisqa yetkurubdur. Ul hazrat o'qug'ondin so'ngra debturlarki, ikkinchi bayti aning nazmining rangi emas, xayolg'a andoq kelurkim, falon muyi aning bu she'rida aytmish bo'lg'ay.

Faqirni tilab bu bobda takallum qildilarki, — bu baytni oyo ulmu aytib erkin, yo birovmu

aning uchun deb erkin? Faqir taajjub qildim, ammo lutfi yo‘q erdiki, ul g‘arib yigitkim, bu she‘rni o‘tkarib erdi, degaymenkim, — bu baytni men aytibmen. Chun iqror qilmadim. Mubolag‘a bila so‘ruldi, ul hazratqa chun ravshan bo‘lub erdi, inkor qila olmadim. Dedimkim, muborak xotirg‘akim, mavridi fuyuzi g‘aybiydir, chun zohirdur ne nav‘ tong‘aymen. Bag‘oyat munbasit bo‘lub, hukm bo‘ldikim, Qabuliyni topib keltursunlarkim, bu bobda aning bila mutoyaba qilali. Filhol ani topib Oliy majlisda hozir qildilar. Hazrat julus hukmi buyurub, iltifot zohir qilib, she‘rini tahsin qildilar. Faqir mutaraddidkim, ta‘rif bunyod bo‘ldi, anga ajab sharmandalig‘ bo‘lg‘usidur va faqirg‘a andin ortug‘roq. Ul bobda hech so‘z demadilar. Muddate o‘lturdi va so‘z o‘zga taraflar tushti, to ulki, majlis nihoyatqa yetti va el tarqaldilar. Oz kishi mahramlardin qoldi. Navvobdin biri arz qildikim, Qabuliyni kelturdilar va ul bayt bobida aning bila mutoyaba qilmadilar, hamonoki unutuldi. Hazrat buyurdilarkim, unutulmadi, ammo ul so‘z zikrida anga uyat bo‘lur erdi, tilamadukki, g‘arib yigit majlisda el arosida uyatlig‘ bo‘lg‘ay, ul sababdin aning she‘ri va ul bayt bobida so‘z deyilmadi. Bu faqir yer o‘pub arz qildimkim, bu rahm yolg‘uz anga voqe‘ bo‘lmadikim, manga dag‘i bo‘ldi.

Subhonolloh! Ofarin ul sone‘g‘akim, bir sohib davlatqa muncha husni xulq va kamoli fazl va baland idrok va tab‘ va zehni pok karomat qilibdurki, bu afsonalarni yasab, birovga bog‘lasalar, eshitgan kishi inona olmag‘ay, balki ja‘liydir deb, aytquchining takallumig‘a quloq solmag‘ay.

Bu Sultoni Sohibqironning eramoyin suhbatlarida va firdavstazyin xilvatlarida bu nav‘ g‘arib latoyif va ajib zaroyif har lahza mutaoqib va mutavotir va har lahza mutazoid va mutakosir zohir bo‘lur, to sipehr shabistonining sham‘i zarrin lagani badri munir bo‘lg‘ay va aflok shahristonining mash‘ali anjumani mehri olamgir o‘lg‘an, bu adolat avjining to‘lun oyig‘a kamlik yuzlanmasun va bu saltanat-burjining xurshidi olamoroyi kamol darajasidik aylanmasun!

Ul humoyun tab‘ning bu nav‘ diqqatsozlig‘ va nuktapardoqliq‘larini sipehr dabiri yillar bitisa tamom etmas va xiradi xurdadon xush taqriri qarilar aytsa itmomig‘a yetmas. Avlo ulkim, ixtisor bila tamom qililg‘ay va duo bila ixtitom berilg‘ay:

Yo rab, bu zamona shahlarining shohi,

Kim, ko‘ngli erur sirri nihon ogohi,

Bergil anga avj mohdin to mohi,

Balkim neki bor esa aning dilxohi.

Ko‘k arsasi bazmgohi o‘lsun, yo rab,

Kun shamsasi chatri johi o‘lsun, yo rab,

Kavkab adadi sipohi o‘lsun, yo rab,

Har ishda Hah panohi o'lsun, yo rab.</div>

IZOH VA TARJIMALAR

MUQADDIMA

1. «Va durudi noma'dud ul xulosai ma'dum va mavjudg'akim» mavjud bo'lgan va bo'lmagan narsalarning yaratuvchisiga sanoqsiz maqtov va duolar bo'lg'ay, demakdir.
 2. «Maliki allom» — Oллоh ko'zda tutiladi.
 3. Qur'oni karimning nozil bo'lishi haqida so'z ketmoqda.
 4. Jabroil — Islomdagi to'rt farishtadan biri. Xudo bilan payg'ambar o'rtasida elchilik qilgan farishta. Muhammad payg'ambarga Qur'on shu farishta orqali nozil bo'lgan.
 5. «Xayr ul-anom alayhissalavotu vassalam» — arabcha: odamlarning yaxshisi, unga salom va duolar bo'lsin demakdir. Bu ibora Muhammad payg'ambar nomiga qo'shib yoki uni nazarda tutib aytiladi.
 6. Abdurahmon Jomiy (1414 Jom, — 1492 Hirot) — fors-tojik adabiyotining ko'rkamli namoyandasi, shoir, mutafakkir va olimdir. Alisher Navoiy 1476—1477 yillarda Jomiyning o'ziga pir qilib oladi va uning hayoti oxirigacha oralaridagi samimiy do'stlikka sadoqatni saqlagan. «Jomiy va Navoiy» majmuasining noshiri mashhur matnshunos olim Porso Shamsiyev shu majmua muqaddimasida yozgan edilar: «Chin insoniy xislatlardan sabot, matonat, g'ayrat, tolmas mehnatkashlik bu ikki do'stning mushtarak xususiyatlari bo'lib qoldi. Bu mushtarak xususiyat bulardagi buyuk ijodiy kuch va mahoratning deyarli bir mezonda borganligida ko'rinadi. Jomiy biror asar yozsa, birinchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorda isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko'rsatib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyning o'ziga madadkor, qiynalganida mushkullarini hal qiluvchi va ishlarga rag'batlantiruvchi ulug' homiy va murabbiy deb bilar edi». (P.Shamsiyev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). Toshkent, «Fan», 1966.).
- Bu ikki ulug' siymolar bir-birlarining tashabbuslari bilan asarlar yozar, bir birlariga o'z asarlarida madhiyalar bitar edilar. Alisher Navoiy Jomiy haqida uning vafotidan keyin maxsus «Hamsat ul-mutahayyirin» (Hayratlanganlar beshligi) asarini yozgan.
7. «Madda zilli va irshodahu» — arabcha: Oллоh uning soyasi va to'g'ri yo'lini uzaytirsin, demakdir.
 8. «Bahoriston» — Jomiyning 1487 yilda Sa'diy Sheroziyning mashhur «Guliston» asari payravligida yozgan axloqiy va tarbiyaviy mazmundagi asari. Jomiy o'z o'g'li Ziyovuddin Yusufga darslik tarzida yaratgan. «Bahoriston» muqaddima va 8 bob

(ravza)dan iborat: 1) oriflar sarguzashti; 2) ulug‘lar hikmatlari; 3) adolatli shohlar haqida; 4) saxiylik targ‘ibi; 5) ishqiy hikoyatlar; 6) hazl-mutoyibalar; 7) she‘r va shoirlar; 8) tamsillar.

Navoiy bu yerda «Bahoriston»ning yettinchi bobini nazarda tutadi. Mohiyatcha, bu bob tazkira bo‘lib, unda Rudakiydan Navoiygacha 37 nafar mashhur shoirlar haqida ma’lumot mavjuddir.

9. Sultoni Sohibqiron — baxtiyor sulton ma’nosini anglatuvchi bu laqab ulug‘, jahongir podshohlarga berilgan. Bu yerda Husayn Boyqaro nazarda tutiladi. Ilmi nujumda ikki sayyora to‘qnashgan paytda tug‘ilgan bolani anglatadi. Uning g‘oyat ulug‘ martabali bo‘lishiga ishonishgan.

10. Nigorxona — rasmlar xonasi; Nigorxonai chin — Chin rasmlari xonasi. Bu yerda Navoiy Jomiy «Bahoriston» asarida shoirlarga bag‘ishlangan bobni shunday bezadiki, unga Chin (Xitoy) nigorxonasining ham rashki keladi, deb ta’riflaydi.

11. Amir Davlatshoh (taxminan 1436/38 — vaf. 1497, Samarqand) tazkiranavis. Otasi Amir Baxtishoh Shohrux Mirzoning lashkarboshilaridan bo‘lgan. Davlatshoh «Uloin» taxallusi bilan she‘rlar ham yozgan. 1471 yilga qadar Husayn Boyqaro xizmatida bo‘lgan. Hirotdan qaytgach, otasi mulkida dehqonchilik qilgan va adabiy ijod bilan shug‘ullangan.

12. «Tazkirat ush-shuaro», Davlatshohning 1486 yilda yozgan asari. Unda Iroq, Eron va O‘rta Osiyoda X—XV asrlarda yashab njod qilgan 150 dan ziyod shoirlar haqida ma’lumotlar beriladi. Bu asar Navoiy tavsiyasi bilan yaratilgan bo‘lib, Navoiyning ijodi va arboblik faoliyati haqida maxsus bob bor.

13. «Sultoni Sohibqironning humoyun valodatlari» — Husayn Boyqaronng tug‘ilgan yili (1438 y.) nazarda tutiladi.

14. «Ammo holo bu fano dor ul-g‘ururidin baqo dor us-sururig‘a intiqol qilibdurlar» — hozirda o‘tkinchi g‘urur saroyidin (ya’ni, bu dunYodan) abadiy xursandchilik saroyiga (ya’ni, u dunyoga) ko‘chib o‘tishgan (ya’ni, vafot etishgan) demakdir.

15. «Holo bu farrux zamonda namoyandadurlar» — hozir bu baxtiyor zamonda hayotdirlar, demakdir.

16. «Majolis un-nafois» — Nafis majlislar demakdir.

AVVALGI MAJLIS

1. Amir Qosim Anvor — Shoh Qosim Anvor Tabreziy (1346, Tabrez—1433, Jom). Arab va yunon, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan hamda shu tillarda she'rlar yozgan. Umrining aksar qismini Hirotida kechirgan. Samarqandda ham yashagan.

Shoirmnng to'la kulliyoti 1959 y. Tehronda nashr qilingan, unda g'azallar devoni, «Anis ul-oshiqin» (Oshiqlar do'sti) nomli masnaviysi, «Tavajjuhnama» (Ollohga intilganlar haqida asar), «Voqiai Hirot» (Hirot voqialari), «Risolai vujud» (Borliq haqida risola), «Makotib» (Maktublar), «Savolu javob» va boshqa asarlari o'rin olgan.

Qosim Anvor tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi sifatida mashhur. U, ayniqsa, Jaloliddin Rumiya ergashgan. Shuningdek, Qosim Anvor asarlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalar ham ilgari suriladi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida ham bu shoir haqida ancha mufassal ma'lumot beradi.

2. «Quddisa sirrihu» — arabcha: sirri muqaddas bo'lg'ay, degan ma'noni anglatadi va vafot etganlar haqida aytiladigan duo hisoblanadi.

3. Valoyat ahli — valiy, avliyo odamlar.

4. Haqoyiq va maorif — ishq haqiqiy va ma'rifat mazmunida yozuvchilar.

5. Sadridin Ardabiliy — XIV asrdagi mashhur tasavvuf shayxlaridan.

6. «Anis ul-oshiqin» — Oshiqlarning do'sti demakdir. Qosim Anvorning asari.

7. Tarje' — qaytarish, takrorlashni anglatadi. She'rda takrorlanuvchi band bo'lib, bunda shoir vazni bir, qofiyasi boshqa bo'lgan bir necha band she'rning har bandi so'ngida bir baytni takrorlab keltiradi. Takrorlangan bayt har band oxiridagi bayt bilan bog'lanib borishi shart hisoblanadi.

8. Baytning tarjimasi (bundan keyin «tarj.:» deb berib boramiz): Ollohga shukrki, sening ikki jahon mulkiga sarmoya bo'lgan ishqing mening yuragim va jonimdir.

9. Tarj.: Rindmiz, oshiqmiz, jahon o'rtovchilar va yoqavayronlarmiz. Sening g'aming turganda dunyo g'amini chekishdan ne foyda?!

Bu baytdagi «rind» so'zinnng ta'rifi «G'iyos ul-lug'at»da: «Rind—shariat qoidalarini johillik yuzasidan emas, ongli suratda inkor qiluvchi odam», deb beriladi. Tasavvuf istilohotida «rind» barcha boylik, lavozim, zohiriy iltifotu mulozimatlardan o'zini yiroq tashlab, olam va odamning eng yuksalgan poyasida o'zini ozod sezuvchi hur fikrli

nsonni anglatadi.

10. Jaloliddin Rumi (1207—1273)—shoir va mutafakkir. Ismi Muhammad, laqabi Jaloliddin. Jaloliddin Rumiyaning otasi Bahouddin Valad Chingizxon yurishi arafasida Balxdin Nishopurga ko‘chasi va shoir Shom, Halab va Arzanjonda ilohiyot, fiqh, riyoziyot (matematikaga oid fanlar), tarix va boshqa ilmlarni o‘rganadi. Davrning mashhur shayxlaridan Burhoniddin qoshida 1232 yildan sufiylik tariqati va shariatdan tahsil oladi. Quniyada esa Shams Tabriziy bilan uchrashadi va uni ma‘naviy ustoz deb tanlaydi. Jaloliddin Rumiyaning «Masnaviyi ma‘naviy» nomli asari uni dunyoga mashhur qiladi. Unda ilohiyot, falsafa, tasavvufga oid masalalar o‘z aksini topgandir. 6 mustaqil daftardan iborat bu asarda ko‘plab rivoyatlar hikoyatlar, masalu latifalar o‘rin olgan.

11. Tarj.: Tabrizda bir Sayyidzoda bor edi.

12. Tarj.: Fe‘l, sifat, zot va ismlarning bilan hamma yashirin va oshkor narsalarning asli o‘zingsan.

13. Jorubkash—masjid, madrasa, xonaqo va mozorni supuruvchi xizmatkor. Navoiy bu yerda Jom viloyatidagi Xarjurd degan joydagi mozorda dafn etilganlarga, jumladan Qosim Anvorga o‘z hurmati va e‘tiqodini nzhor etadi.

14. Xamsa va salosina va samona mia — arabcha: 835 y.ni anglatadi. Milodiy hisobda 1431—32 y. ga to‘g‘ri keladi.

15. Mir Qosim Anvor ko‘zda tutilat.

16. Imom Ali Muso ar-Rizo — Ali Ibni Muso, laqabi Ali Rizo. Islom aqidalariga ko‘ra sakkizinchi imom. U avval Madinada yashagan, 816 y. da Xalif Al-Ma‘mun tomonidan Xurosonga keltirilgan va 817 y. da Marvda 33 ming odam qatnashgan yig‘inda valiahd deb e‘lon qilingan. Imom Rizoning nomi Ma‘mun nomidan keyin tangalarda zarb etila boshlagan. Ma‘mun hatto unga o‘z qizi Xabibani beradi. Ali Rizo Eronda qadimgi Tus shahri yaqinidagi Nukon degan qishloqda to‘satdan vafot etadi. Ma‘mun uni g‘oyat katta dabdaba bilan Sanobod degan Xorun ar-Rashid maqbarasi joylashgan bog‘da dafn qiladi. Keyinchalik bu yerda Mashhad shahri paydo bo‘ladi. Hozir Mashhadagi Imom Rizoning hashamatli maqbarasi musulmonlarning ziyoratgohidir. Navoiy vazirlik davrida Imom Rizo maqbarasining janubiy qismida go‘zal bir ayvon qurdirgan va undagi ustunlarning biriga Husayn Boyqaro nomini o‘ydirdigan. Bu yerda shoir Mir Maxdumning otasi Makkadan Mashhadga Ali Rizo maqbarasi ziyoratiga kelganli bayon etiladi.

17. «Man xadima xudima» — arabcha: kim birovga xizmat qilsa, unga ham kimdir xizmat qiladi, demakdir.

18. Tarj.: Chalg‘uchi tarona chal, soqiy may tutgil, kimki, «may harom» degan bo‘lsa, uning qoni haloldir.

19. Tarj.: Meni rindlik olamida rasvolikning nishonasi qilding, dilimni olib, jonimni yuz nadomatga qo‘yding.

20. Muammo — arabcha: yashiringan, berkitilgan, demakdir. Muammo Sharq she‘riyatida kichik lirik janr turlaridan biri. Misra‘, bir-ikki baytda (ba‘zan jumla, ibora yoxud bir so‘z ham bo‘lishi mumkin) ism yoki biror so‘z yashiringan bo‘ladi. Muammoda esa unga murakkab imo-ishoralar bo‘ladi. Muammoni maxsus qoidalarga asosan (unga ramz, imo, kinoya, o‘xshatish, so‘z o‘yini, arab alifbosidagi harflar nuqtalarini almashtirish, so‘zlarning boshqa tillardagi sinonimlarini topish, teskari aylantirish yoki «abjad» hisobi (harflarning raqam ma‘nolari) va h. k. yo‘llar bilan topib olish, yechish kerak bo‘ladi. Muammoni tuzish va uni yechish qoidalariga bag‘ishlangan maxsus risolalar ham yaratilgan. Ayniqsa, XV asrda muammo keng tarqalgan edi. Jomiy va Navoiy ham muammo haqida risolalar yozganlar.

Bu muammoda «Ahmad Mirak» ismi yashiringan. Asliyatda shunday yoziladi.

Tarj.: Men may istamayman, uni berma va tutma. Sa‘dni yor ko‘chasi boshig‘a eltib qo‘y.

Birinchi misra‘ning yana shunday mazmuni bor: so‘z avvalidagi [harf] menda yo‘q.

Agar dan olib tashlasak, qoladi. Uning raqam ma‘nosi 10, harflarda yoziladi. Bu ikki harfning raqam yig‘indisi bo‘ladi. 9 raqami yana birikuvidan hosil bo‘ladi. Shunday qilib, «may» so‘zidan «ah» bo‘g‘imini chiqardik. ni — «mad»ni ol, degan ishoraga binoan «Ah»ga «mad»ni qo‘shsak «Ahmad» chiqadi. dan «mi» olinadi. Yuqoridagidek ikkinchi misradan «Sa‘dni qoldirib «ro»ni, ya‘ni «r» harfini qo‘y so‘zining avvaliga, ya‘ni, birinchi harfi oldiga olib borib qo‘yiladi va «Mirak» hosil bo‘ladi. Natijada ko‘rsatilgan muammo yechimi «Ahmad Mirak» ismi chiqadi.

Ko‘rinadiki, muammoni yechish arab alifbosiga asoslanadi va uni tarjimasini berish bilan maqsad hosil bo‘lmaydi. Shuning uchun muammolarni arab alifbosida berdik va tarjima qilmadik.

21. Tarj.: Men yomonlik qildim, uzr aytish gunohdan yomonroq.

Chunki bunda uchga buzilgan da‘va bor: borlik, kuch va quvvat. Keyingi misra‘ arabcha bo‘lib, kuch bilan quvvat esa xudodan boshqa hech kimda yo‘q.

22. «Maqsadi aqso» — eng so‘nggi maqsad.

23. «Qasidai burda» — arab shoiri Ka'ba Ibni Zuxayr (VII asr) asari. Burda degani yo'l-yo'l matodan tikilgan ustki kiyim — qaboni anglatadi. Rivoyatga ko'ra, Muhammad payg'ambar shol dardiga muhtalo bir bemor ustiga o'z burdasi ustki kiyimini tashlagan ekan, u davo topib, tuzalib ketibdi. Qasidaning nomida shu rivoyatga ishora bor. Qasida uch qismdan — an'anaviy lirik muqaddima, didaktik qism va madhdan iborat. «Qasidai burda»ga juda ko'plab naziralar yozilgan, muxammaslar bog'langan, sharhlar bitilgan. Musulmonlar qasidaga ma'lum davrlarda ilohiy ma'no ham berib, uning ayrim parchalarini tumor tarzida o'zlari bilan olib yurganlar (qarang: Fil'shtinskiy I.M. Arabskaya klassicheskaya literatura. M., «Nauka», 1965).

24. Shohrux Mirzo (1377—1447) — temuriylar sulolasidan, hukmdor. Temurning o'g'li. Ulug'bekning otasi uning podshohligi davrida Samarqand, Hirot va Marvda bir qancha bino, istehkom hamda inshootlar qurildi, ilm-fan, madaniyat rivoj topdi. Navoiy «Majolis un-nafois»ning yettinchi majlisida Shohruxga alohida maqola bag'ishlaydi.

25. Tarj.: Ey bu olamda yashirin ham, oshkora ham o'zingsan, oshiq yuragining dardi ham, asl davosi ham o'zingsan.

26. Tarj.: Men turkman, hinduni Jaypolning o'laksasi deganman, Junaning dabdabasini bir dona arpaga ham olmayman.

27. «Ajoyib ud-dunyo» — Dunyoning ajoyib (ishlari); «Javohir ul-asror» — Sirlarning javharlari.

28. Tarj.: Yana tun bo'ldi, ko'zim yig'i maydoniga suv urdi: Ko'z yoshining seli uyqu sipohiga hujum qildi.

29. Ta'rix — adabiy janr turlaridan bo'lib, unda abjad hisobi usullarini tatbiq etish bilan biror muhim voqea, ulug' kishilar vafoti, binolarning bunyod etilishi vaqti va h. k. lar yilini yozib qoldiriladi. Ta'rix yaratuvchilarni ta'rixgo'ylar deyiladi. Ta'rix she'r bilan aytilsa, g'oyat munosib sanaladi. Ta'rix moddasi bo'lgan so'z, misra', baytlar arab harfida yozilib, abjad hisobi bilan chiqarilishini e'tiborga olib, ta'rix moddasi bo'lgan so'zlarni arab alifbosida keltirdik: so'zidagi harflar abjad bo'yicha yig'indisi 866 y. (1461—62 y.) so'zidan ham shu sana chiqadi.

30. Kotibiy — Shamsiddin Muhammad Ibn Abdullo (tav. noma'lum, Turshez — 1435, Astrobod) XV asrdagi mashhur shoir, xattot va munshi. Yaxshi xattot bo'lganligidan Kotibiy taxallusini olgan. Shoirning Nishopurda tahsil olgani, Hirot, Samarqand, Mozandaron, Gilon, Hijoz, Tabrez va Isfahonlarda bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud. Umrining oxirida Astrobodda qo'nim topgan va shu yerda dafn etilgan.

Manbalarda Kotibiy qalamiga 140 asar mansub dsb qayd qilinadi. Uning «Qasidalar

dsvoni», «Gʻazallar devoni», «Xamsa» dostonlari mashhurdir.

31. «Zul-bahrayn» — Ikki baharli. «Zul-qofiyatayn» — Ikki qofiyali.

32. Tarj.: Koʻz va dil tufayli tuproq badanim oʻt va suv ichidadir. Koʻz bilan koʻrgil va dil bilan rahm qilgil, ishim xarobdir.

33. Tarj.: Ey toʻgʻri yuruvchi taqdir kamoning oʻqdek; Sening oʻqdoningga bezakli osmon qoplon dumidekdir.

34. Tarj.: Koʻrshapalak feruza rang gunbazdan gunbaz feruzasiga qarab ketdi.

35. Toun marazi — vabo kasali.

36. Tarj.: Vabo olovi qahridan tuprogʻi mushkdan ham xushboʻyroq boʻlgan Astrobod birdaniga xarob boʻldi. U yerda yoshu qaridan hech kim qolmadi, chunki «oʻrmonga oʻt tushsa hoʻl va quruq barobar yonadi».

37. Ashraf—Abu Ali Husayn ibni Hasan Marogʻiy. Darvesh Hasan Xiyoboniy (tugʻ, nomaʼlum — vaf. 1460) nomi bilan tanilgan. 1436—1440 yillar mobaynida «Xamsa» anʼanasini davom ettirgan. «Minhoj ul-abror» (Taqvodorlarning yorugʻ yoʻli), «Riyoz ul oshiqayn» (Ikki oshiqning mashaqqatlari), «Shirnn va Xusrav», «Ishqnomoma» yoki «Layli va Majnun», «Haft avrang» (Yetti taxt) va «Zafarnoma» nomli «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni yozgan. Shoirning toʻrtta sheʼrlar devoni va «Sad pandi Ali» (Alining yuz pandi) nomli Hazrat Aln hikmatlarining tarjimasi boʻlgan manzumas ham mavjud. Aftidan bu oxirgi asari Navoiyning «Nazm ul-javohir» nomli asariga oʻxshash koʻrinadi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ashraf haqida yozadi va Hirotda boʻlganini taʼkidlaydi. Shoir «Xamsa» ustida uzoq yillar mehnat qilgani va nihoyat uni tugallashga noil boʻlgani xususida Navoiy Ashrafning quyidagi baytini keltiradi:

Az sharafi vasli tu Ashraf shudem,

Davlati mo bud musharraf shudem.

(Tarj. Sening vasling sharafi bilan Ashraf (yaʼni, sharafli) boʻldik, bu biz uchun davlat edi musharraf boʻldik).

38. Tarj.: Bilimda ilgʻor boʻlgan shaxs qoshida gunohkorni oʻldirishdan gunohni kechish afzalroqdir.

39. Tarj.: Oʻqning choʻpi boʻlishni istayman, toki sen baʼzi-baʼzida holimga koʻz uchi bilan qaragaysan. Bu yerda shoir oʻq tortganda, koʻz qiri bilan nishonga boqishi kabi

holatni nazarda tutmoqda.

40. Xoja Ismatullo (tugʻ. nomaʼlum—vaf. 1437, Buxoro)—asosan Buxoroda yashab ijod etgai shoir. Xalil Sulton saroyida boʻlgan. Feodallar isyonidan soʻng shoir sargardonlikka uchraydi. Ulugʻbek hukmron boʻlgach, Ismat Buxoriyni saroy xizmatiga taklif etadi. Lekin shoir uzlatni, darveshlar orasida boʻlishni afzal koʻrib taklifni qabul qilmaydi. Shoirning sakkiz ming baytdan iborat sheʼrlar devoni, «Ibrohim Adham» nomli masnaviysi maʼlum. Uning tasavvufiy taʼsurolar, sufiyona hissiyotlar bilan yoʻgʻrilgan sheʼrlari xalq orasida mashhur boʻlgan.

41. Xalil Sulton (1384—1411)—Temurning nabirasi, Mironshohning oʻgʻli. 1405—1409 yillarda Samarqandda hukmronlik qilgan. Temurning Hindiston yurishida qatnashib, oʻzining harbiy salohiyati bilan ulugʻ bobosi ragʻbatini qozongan Xalil Sulton 1402 y. da Turkiston hukmroni qilib tayinlangan edi. Lekin 1404 y. da Temurning ruxsatisiz oddiy tabaqa qizi goʻzal Shodmulkka uylangani uchun uning gʻazabiga uchragan edi. Temur vafotidan 1 oy keyin 1405 y. 18 martda taxtga oʻtirgan Xalil Sulton Movarounnahrda chetlarda tan olinadi. Feodal nizolari, vorislar orasidagi toʻqnashuvlar natijasida Xalil Sulton 1409 yil 30 martda asir olinadi va Fargʻona, Andijon, Oʻtrorlarda sargardonlikdan bezib, Shohrux bilan shartnoma tuzadi va taxtdan voz kechadi. Oxiri Rayga joʻnaydi. Manbalarning taʼkidlashicha, Shodmulk ham uning ortidan Rayga keladi. Xalil Sulton Rayda vafot etadi. Shuningdek, manbalarda Xalil Sultonning Shodmulkka boʻlgan muhabbati hamda oʻz dushmanlari, hatto xoinlarga nisbatan ham olijanob boʻlgani taʼrif qilinadi.

Xalil Sulton saroyida olimu fozillar, sanʼatkor va shoirlar ijod qilar, oʻzi sheʼriyat bilan shugʻullanar edi. Navoiy ushbu asarning yettinchi majlisida Xalil Sultonga alohida maqola bagʻishlaydi va sohibi devon boʻlganini qayd qiladi. Xoja Ismat Buxoriy Xalil Sulton devoni taʼrifida qasida ham bitgan ekan.

42. Tarj.: Yurak kabobdir undan shoʻr [gʻavgʻo] qoʻzgʻatganlar, chunki u yurakka Xalil (chin doʻst, demakdir) tuzdonidan tuz sepganlar.

43. Tarj.: Bu bepoyon dengiz jahonlarni oʻz ichiga olgandir. Ilohiy aql gʻavvosi undan gavharni payqay olmaydi.

44. Tarj.: Ey darding oʻqi oshiqlar yuragiga nishona! Butun xalq sen bilan ovorayu oʻrtada sen gʻoyibsan.

45. Tarj.: Goh butxonada goʻshanishinman, goh masjidida istiqomat qilaman. Yaʼni seni uyma-uy qidirib yuraman.

46. Tarj.: Dil shishadir, koʻzlaring uni har tomonga olib boradilar, ular mastdirlar,

mabodo sindirib qo‘ymagaylar.

47. Tarj.: Chang va daf sadolarndan dilim vaslingni istaydi. Chunki har bir teri ostida xudoning bir do‘sti bor.

48. Yax‘yo Sebak (tug‘. noma‘lum—vaf. 448—49 y.) — shoir, aruzshunos olim va xattot. Avval «Tuffohiy», so‘ngra «Fattohiy», «Xumoriy» va «Asroriy» taxalluslarida yozgan. Nishopurda yashagan. «Majolis un-nafois»ning forsiyga tarjimoni Faxriy Hirotiy shoir nazmiy risolalar, «Ta‘biri xob» (Tush ta‘biri) nomli asar va «Husnu Dil» degan doston yozgani haqida ma‘lumot beradi.

49. Tarj.: Ey, lola davrida piyolani maydan xoli qiluvchi umr o‘tdi. Bu hasrat dog‘iga qachon davo qilursan?!

50. Xoja Hofiz—Shamsiddin Muhammad (tug‘. 1321—vaf. 1390, Sheroz) buyuk fors shoiri. Yetim qolgach, nonvoyga shogird tushgan, Qur‘onni yod bilgani va yaxshi tilovat qilgani uchun «Hofiz» nomi bilan shuhrat qozongan. She‘riyatda uni taxallus qilib oladi. Hofiz ham ishqi majoziy, ham ishqi haqiqiy haqida yonib yozgan. Hofiz g‘azalsaro shoirdir. Uning devoni vafotidan so‘ng tuzilgan. Sudiy degan turk olimi (vaf. 1591) Hofizning mukammal devonini tuzgan. Keyinchalik shoir she‘rlariga ko‘plab sharhlar yozilgan. XVII asr oxirlaridan boshlab, Hammer, Purgshtal. tarjimalari, Gyotening «G‘arbiy-Sharqiy devoni» orqali Hofiz G‘arbda shuhrat qozondi. Eron olimlari Abdurahim Xalxolin, Muhammad Qazviniy, Qosim G‘aniy, Said Nafisiy, Muhammad Mu‘in va boshqalar Hofiz ijodini har tomonlama tahlil etdilar, Hofiz g‘azallariga jild-jild sharhlar bitdilar. Ovrupo sharqshunoslaridan Ya.Ripka, A.Arberri, X.Ryomer, X.Ritter va boshqalar, rus olimlaridan Ye.3.Bertel's, A.N.Boldirev, I.S.Braginskiylar ham hofizshunoslikka yetuk hissa qo‘shdilar.

Navoiy Hofiz g‘azaliyotini puxta bilgan va o‘zining «Devoni Foni» deb nomlangan forsiydagi g‘azallaridan 237 tasini Hofiz g‘azallariga tatabbu‘ qilib yozgan. Bu masala tojik olimi akad. A.M.Mirzoyev tomonidan qisman tadqiq etilgan va Navoiyning Hofizning g‘azaliga javobiyalaridan namunalar alohida risola tarzida nashr qilingan. (Qarang: A.Mirzoyev. Foni va Hofiz. Dushanbe, «Irfon», 1961).

51. Tarj.: Ey bangilar, nasha bargining arrasi (yaproq qirralari) sizning aql va imoningiz ko‘chatining tomirini kesmoq uchun o‘tkirlashgandir.

52. «Bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing shogirdimen» — mashhur aruzshunos Darvesh Mansurdan Navoiy aruz ilmini o‘rgangan. U esa Yax‘yo Sebakning shogirdi bo‘lgan. Navoiy bu yerda «vosita bila Mavlononing shogirdimen» der ekan, ana shuni nazarda tutadi.

53. 852 (1448-49 y.).

54. Hujjat ul-islom Imom Muhammad G‘azzoliy — Abduhomid Muhammad ibni Muhammad Tusiy (tug‘. 1058, Tus—vaf. 1111, shu shahar), mashhur mutakallim, faqih va sufiy. Avval Go‘rgan madrasasida, keyin Nishopur yaqinidagi «Nizomiya» madrasalarida tahsil ko‘radi. Bir necha muddat Bag‘doddagi «Nizomiya» madrasasida mudarrislik qiladi. So‘ngra Shom, Falastin va Hijozda yashaydi. G‘azzoliy asarlarida falsafa, ilohiyot, riyoziyot, mantiq, tabiiyot va axloqqa oid masalalar yuzasidan bahs yuritiladi. G‘azzoliyning tasavvufga oid asarlari xalq orasida keng ma‘lum bo‘lgan. Masalan, «Kimyoi saodat», «Eh‘yo ul-ulum ad-din» (tirilish va din ilmi). G‘azzoliy falsafasi asosida xudoni aql bilan anglash mumkin emas, uni ruhiy iltijolar, sig‘inish va ibodatlar orqali anglash mumkin, degan aqida yotadi. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat»ida Muhammad G‘azzoliyga alohida maqola bag‘ishlangan. Unda olimning kuniyati (abu, ibn, umm, bint kabi so‘zlar bilan boshlanadigan laqabi) Abu Homid va laqabi Zayniddin deb ko‘rsatilgan. Misrning Iskandariya shahrida, Nishopurda yashagani ham qayd qilinadi. G‘azzoliy Nishopurda xonaqoh va madrasa qurgan. Navoiy G‘azzoliyning yana «Yoqut ut-ta‘vil» (So‘zning (boshqa ma‘nodagi) yoqutlari), «Javohir ul-Qur‘on» va «Mishkot ul-anvor» (Qandil nurlari) nomli asarlar yozganini ta‘kidlaydi.

55. Anvariyy — Avhaduddin Ali Ibni Muhammad Ibni Ishoq (tug‘. 1105, Abivardning Xovaron nohiyasi — vaf. 1187, Balx) mashhur fors shoiri. Tus madrasasida tahsil ko‘rgan. Ilmi nujum, xikmat, handasa, falsafa va tib ilmlarini puxta egallagan. Tabiatan sho‘x va ozod fikr shoir 20 yoshlarida Sulton Sanjarga qasida bag‘ishlagan va hukmron tomonidan saroyga taklif etilgan. Ma‘lum muddat Marv va Nishopurda istiqomat qilgan, nihoyat 1154 y.da Balxga kelgan. Anvariyyning hajviyalari g‘oyat o‘tkir bo‘lib, zamona adolatsizliklari, zulmkorliklari va hukmron tabaqalarning axloqiy tubanliklariga qarshi qaratilgan edi. Anvariyyning donishmandligiga, ma‘rifatga chorlashlari, haqiqatgo‘yiligi va turmush tarziga ko‘ra hakim deb ataganlar. Anvarining qasidanavislikning payg‘ambari deb ta‘riflaganlar. Shoirning qalamiga 250 ta qasida, 337 ta g‘azal, 472 ta ruboiy, 557 ta qit‘a mansub bo‘lib, she‘riyatining umumiy hajmi 15000 baytni tashkil etadi. Anvariyy devonidagi she‘rlarga Alaviy Shodiobodiy (XVI asr) va Abdulhasan Farohoniy (XVII asr)lar tomonidan sharhlar bitilgan. Tojik olimi R.Hodizoda 1972 y. da shoir devonini izohlar bilan nashr etgan.

56. Tarj.: O‘z istagimni Ray mulki bilan qiyos qilganimda...

57. Alauddavla Mirzo— Shohruxning nabirasi, Boysung‘ur Mirzoning (vaf. 1433) o‘g‘li. 1447—1448 y. larda Xurosonning bir qismini—Xiroat atroflarini boshqargan.

58. Bu qasida matla‘ining birinchi misra‘ida abjad hisobi bilan 849 (1445— 46 yil) berilgan; ikkinchi misra‘idan ham xuddi shu ta‘rix chiqadi.

59. Abu Said — temuriylardan. Sulton Muhammadning o‘g‘li. 1451-58 y. Larda Movarounnahr hokimi, 1458-69 yillarda esa temuriylar davlatining oliy hukmdori; U o‘zidan oldingi shoh Abdulqosim Boburga nisbatan ancha qattiqqo‘l, zulmkor edi. Navoiy va uning tog‘alari Mir Said Kobuliy, Muhammad Ali G‘aribiylar Husayn Boyqaroning Abu-Saidga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlaganlari uchun ularga g‘oyat sovuq munosabatda bo‘lgan Abu Said ilm va san‘at ahlini qadrlamagan hukmron bo‘lgani uchun ham munosabatlarni yaxshilashdan ko‘ra Navoiyga Hirotni tark etish oson tuyulgan va u Samarqandga ketgan edi. Navoiyning Abu Saiddan norozilik tuyg‘ulari uning “Masnaviysi” — Sayyid Hasan Ardasheriga she‘riy maktubida o‘z aksini topgan. Bu asarda Navoiy o‘zining Xirotdan Samarqandga ketishini beixtiyor qilingan safar, deb e‘tirof etadi. Boburda esa «Bilmon, ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hiridin ixroj qildi», degan ma‘lumot bor. Navoiy Abu Said 1469 yilda Eronning G‘arbiy qismlarini o‘ziga bo‘ysundirish maqsadida yurish boshlab, Ozarbojyonda qatl etilgandan so‘ng, Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, yangi hukmdorning taklifi bilan poytaxtga qaytadi.

60. Abdullatif Mirzo (tug‘. 1422—23, vaf. 1450)—temuriylardan. Mirzo Ulug‘bekning uchinchi o‘g‘li, Hirotida bobosi Shohrux Mirzo tarbiyasida voyaga yetgan. 1440 y. dan boshlab harbiy yurishlarda qatnashgan Abdullatif Ulug‘bekka qarshi fitnalarda ishtirok etib, oxiri 1449 y. da qo‘shin tortadi va Samarqand beklari ko‘targan isyon sababli Ulug‘bek poytaxtga qaytadi. Abdullatif Damashq kentini ishg‘ol qiladi va otasi, ukasi Ablulazizni qatl ettirib Samarqandni egallaydi. 1450 y. da Samarqand shimolidagi Bog‘i maydon yonida Ulug‘bek tarafdorlari tomonidan o‘ldiriladi, Navoiy asarning VII majlisida Abdullatif haqida ma‘lumot beradi va uning tabiatiga xos bo‘lgan vasvasiylik va shafqatsizlikni ko‘rsatib o‘tadi. Ammo «she‘rni obdon aytur erdi», — deb ham ta’kidlaydi Navoiy.

61. Tarj.: Yo‘qlik dashtida u og‘izni o‘ylab yurardim, u sabza miyiq ko‘rinadi-yu yo‘limning Xizri bo‘ldi. Bu baytda shoir mahbuba og‘zining nihoyatda kichikligi, miyig‘idagi mo‘ychalar yangi ungan yashil sabzalarga o‘xshashligi va u ko‘rinishi bilan qorong‘ulikdagi yo‘lida Xizr bo‘lib tuyulganini ta’riflaydi.

Xizr esa afsonalarga ko‘ra, «obi hayvon» (tiriklik suvi)ni topgan va undan ichib, hamisha tirik yuradigan sirli karomatlar sohibi. Badiiy adabiyotda Xizr g‘oyibdan paydo bo‘lib, yo‘ldan adashganlarga qo‘mak beruvchi ham deb tasvirlanadi. Xizr yaxshilik va fahmu idrok timsoli hisoblanadi.

62. Tarj.: Gul, gul, dedim, may ichida ruxsoring rangi namoyon bo‘ldi, uning g‘unchasi tabassum qildi-yu u gul oldida boshqa gullar hech bo‘lib qoldi.

63. Ulug‘bek Mirzo — Muhammad Tarag‘ay (tug‘. 1394, Sultoniya —vaf. 1449, Samarqand) buyuk ilmi nujum va riyoziyot olimi, davlat arbobi. Temurning nabirasi,

Shohruxning o‘g‘li. 17 yoshida Movarounnahr va unga yondosh o‘lkalarning hokimi bo‘lgan. 1447 yil Shohrux vafotidan keyin temuriylar davlatining oliy hukmdori bo‘ldi. 1449 yil Ulug‘bek uning siyosatidan norozi quchlar va shahzoda Abdullatif fitnasi natijasida shahid qilinadi. Ulug‘bek davrida ilm-fan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, me‘morchilik keng rivojlanadi. Uning o‘zi aniq fanlar qatori musiqa ilmi va adabiyot bilan shug‘ullangan, she‘rlar ham yozgan.

Navoiy bu asaridan tashqari dostonlarida, jumladan “Farhod va Shirin”da Ulug‘bek Mirzoni farax hamda g‘urur bilan tilga oladi.

64. Tarj. Biz baxti qaro, yomon kunga qolgan va yulduzi so‘ngan kishimiz; butun umrimizda biror kecha ham maqsadimiz sham‘i yonmagan.

65. Tarj.: Menda shunday og‘iz bo‘lishiga qaramay, she‘r aytayki, undan suv chakillab tursin.

66. Tarj.: Ey gul gulyuzlini ko‘rishni menga man‘ etuvchi, dil holatini bilmaysan, meni kechirgil.

67. Tarj.: Ahvolim sirlaridan birov ogoh bo‘lishinn istamayman, yo‘qsa, sahar chog‘ida bir oh tortib, butun olamni kuydirib yuboraman.

68. Jo‘gi Mirzo — temuriy shahzodalardan.

69. Tarj.: Yuzing mehri (quyoshi)dan tong singari sovuq damlar uraman; biror kun ko‘yingga yetishim uchun dil ko‘p sargardon qildi.

70. Xoja Salmon Jaloliddin Xoja Salmon Ibni Xoja Alouddin Muhammad (tug‘. 1310, Sova — vaf. 1376, o‘sha shahar) Salmon Sovajiy nomi bilan mashhur, fors shoiri. Zamonning aksar ilmlari, jumladan adabiyot, riyoziyot, she‘rshunoslik, tilshunoslikni mukammal egallagan. Shoir o‘zining «Qasidai Masnu’» nomli o‘ta murakkab, bir necha bahr, turli-tuman she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan muvashshah (bezatilgan, ziynatlangan, demakdir) tariqida yozilgan asari bilan shuhrat qozongan. Salmon Sovajiy “Kulliyot”i 16000 baytdan iborat. U g‘azallarida Xoju Kirmoni, Nosir Buxoriy, Hofiz Sheroziy va boshqa mashhur shoirlar an‘anasini davom ettirgan. Uning “Jamshed va Xurshed”, «Firoqnoma» nomli dostonlari ham bor.

71. Tarj.: Sening qomating tufayli olamda qiyomat ko‘tarildi; Agar qiyomat rost bo‘lsa, sening qaddingning o‘zi bir qiyomatdir.

72. Tarj.: Siz — tuz koni, biz sho‘rbaxtmiz; xudo bizga buni berdiyu senga uni.

73. Tarj.: O‘lgan pashsha(lar) oshim yuzidagi qayla; tirik bit(lar) nonim ustidagi kunjutlar edi.

74. Tarj.: Pokiza xilqatli podshoh madhida Siymiy bir kunda ikki ming bayt aytdi va yozdi.

75. Tarj.: Nozik ma’nodan xoli she’r butun umr bo‘yi bir qoralik bo‘lib qoladi (yoki bir qoralama bo‘lib qoladi).

76. Boysung‘ur Mirzo (tug‘. 1397, Hirot — vaf. 1434, o‘sha shahar) Temurning nabirasi, Shohruxning o‘g‘li. Avval Mozandaron, Astrobod va Jo‘rjon hokimi, keyin otasining vaziri bo‘lgan. Boysung‘ur Mirzo g‘oyat ma’rifatdo‘st shaxs bo‘lib, Hirotida juda boy kitobxona tashkil qilib, kotibu musavvirlar, naqqoshu sahhoflarni, zarkor ustalarni yig‘ib, ijodlariga madad bergan. Boysung‘ur Mirzoning tashabbusi va ishtiroki bilan Hirotidagi kitobat san’ati ahllari va matnshunos olimlar Firdavsiy «Shohnoma»sining 40 ta qo‘lyozma asosidagi mukammal matnini yaratganlar va uni go‘zal nasta’liq xatida ko‘chirib, nafis miniatyuralar, naqqoshlik lavhalari bilan bezaganlar. Hozirgi kunda bu mo‘tabar va nodir qo‘lyozma Tehronda, «Koxi Guliston» muzeyi fondida Navoiyning tabarruk dastxati («Navodir un-nihoya» matni) bilan bir yerda saqlanadi.

77. Tarj.: Quyosh kabi yuzingdan agar parda ko‘tarsang, mushtariy (sotib oluvchi, xaridor ma’nosini ham anglatadi) sayyorasi jonu dil bilan xaridoring bo‘ladi.

78. Tarj.: Ey soqiy, mayga shu qadar g‘arq bo‘ldimki, agar tuprog‘imdan biror gul unib chiqsa, undan may tomib turadi.

79. Tarj.: Samo shipidagi oltinsuvoq quyosh g‘ishti Sulton Ali Muso Rizo maqbarasining farshi (maqbarasiga yotqizish) uchundir.

80. Tarj.: Evoh! La’l (qip-qizil) labingning shirinligi mening abadiy hayotimdir; Labni tishlab, mening jonimdan, nima istaysan?!

81. Tarj.: Go‘zallar, xudo uchun men bilan bo‘ling; Xudoni bilaman (aynan: menda xudo bor), keyin sizlarni.

82. Bobo Savdoiy — «Majolis un-nafois» tarjimoni Faxriy Hirotiy bu shoirning vafot etgan yilini 853 (1450—51) deb ko‘rsatadi. Navoiy yozishicha, shoir 80 dan o‘tganda vafot etgan bo‘lsa, taxmin 773 (1372—1374) yillarda tug‘ilgan bo‘ladi. Ikkinchi tarjimon Muhammad Qazviniy esa shoirning Boysung‘ur Mirzo bilan qilgan ajonib hazl-mutoyibalarini keltiradi: Kunlarning birida tomda ikkovlari suhbatlashib o‘tirgan ekanlar, Mirzo so‘rabdi: Agar meni sevsang shu tomdan o‘zingni pastga tashla. Bobo Savdoiy darhol turib, tezlik bilan tom chetiga qarab yuguribdi va yetgach to‘xtabdi va debdi: Men

Sizni to shu yergacha yaxshi ko‘raman va bas. Bu so‘zlardan Mirzo g‘oyat zavqlanib kulibdi va debdi: Agar menda ayb ko‘rsang ayt, tanbeh ber, toki men uni tuzatay. Shoir debdi: Sizda sustkashlikdan bo‘lak ayb yo‘qdir. Mirzo so‘rabdi: Qanaqa sustkashligim bor? Shoir javob qilibdi: Bir og‘iz so‘z aytishda sustkashlik qilasiz. Agar menga bir ming oltin tanga berishlarini aytsangiz, men boyib qolardim. Mirzo kulib, shoirga ming oltin tanga baxshida qilgan ekan.

83. Tarj.: Xoling anbar, yuzing gul, miyig‘ing rayxondir; og‘zing g‘uncha, tishing inju, labing marjondir.

84. Amir Xusrav — Yaminuddin Abdulhasan Amir (tug‘.1253, Patyoli — vaf. 1325, Dehli) shoir, adib, mutafakkir, bastakor. Xusrav Dehlaviy nomi bilan mashhur. Otasi Sayfuddin Mahmud lochin qabilasidan bo‘lib, mo‘g‘ul istilosi arafasida Shahrisabzdan Hindistonga qochgan. Juda yoshlikdan she‘r yoza boshlagan, avvaliga «Sultoniy» taxallusini olgan Xusrav Dehlaviy uzoq muddat Bangola va Dehli sultonlari xizmatida bo‘lgan. Shoir klassik she‘riyatning barcha janr va turlarida ijod qilgan. Urdu va arab tillarida ham she‘r yozgan. U birinchi bo‘lib she‘rlarini alohida nomlar bilan hayotining turli fasllariga moslab 5 ta devonga ajratgan. Nizomiy Ganjaviyning «Panj Ganji» (Besh xazina) javobida 5 ta doston yozib, «Xamsa» deb atagan va bu bilan xamsachilik an‘anasiga asos solgan. Shoir shuningdek boshqa dostonlar, adabiyot ilmi, insho san‘ati va musiqa nazariyasiga oid ham asarlar yaratgan. Navoiy Xusrav Dehlaviyini har bir dostoni avvalida o‘zining mo‘‘tabar salafi sifatida ta‘riflaydi va uning she‘rnyatdagi san‘atkorligini yuksak baholaydi, she‘rlarida ham shoirga payravlik qiladi. «Nasoyim ul-muhabbat»da ham Xusravga alohida maqola bag‘ishlaydi. Unda shoirning Shayx Nizomiddin avliyo xizmatida bo‘lganligi, Shayx shoirga Muhammad Kosales (kosa yalovchi, gadoy) deb nom berganini yozadi. Navoiy bu yerda Mavlono Zohidiyning Xusravning mashhur qasidalaridan biri «Daryoi abror» (taqvodorlar daryosi)ga tatabbu‘ (o‘xshatma) qilganini yozadi.

85. Tarj.: 3uhraga chang yoki rubobni kim berdi; yo rab, tosh orasidagi la‘lga porloqlikni kim berdi? Zuhra — Cho‘lpon yulduzi (Venera). U Sharqda erta tongda, G‘arbda kechqurun porlab ko‘rnnadigan yorqin yulduz. Qadim yunonlarda Zuhra muhabbat ma‘budasi hisoblangan. Zuhrani Nohid ham deb ataladi. Zuhra go‘zallik, muhabbat hamda musiqa ahli xomiysi sanaladi.

86. Shayx Kamol — Kamoluddin Mas‘ud (tug‘. taxminan 1318—23, Xo‘jand — vaf. 1401, Tabrez) Kamol Xo‘jandiy nomi bilan mashhur. Shoir asosiy tahsilni Xo‘jandda, keyin Samarqandda olgan. Xorazm va Shosh (Toshkand)da ham istiqomat qilgan. Kamol Xo‘jandiy nihoyatda bilimdon shaxs bo‘lgan: adabiyot, arab tili, fiqh, hadis, kalom, hikmat, tafsir va tasavvufni puxta bilgan. Iroq va Ozarbayjoi hokimi Tabrez atrofidan Voliyonkuh degan mavze‘ni tuhfa qilgach, o‘sha yerda bog‘ barpo etgan va uni Behisht deb atab, bog‘dorlik bilan kun kechirgan.

Navoiy Kamol Xo‘jandiy ijodiga katta hurmat bilak qaragan va «Devoniy Foni» tarkibidagi, g‘azallardan 4 tasini shu shoirga javob tarzida yozgan.

87. Tarj.: Qismat kuni (nasiba taqsim etiladigan kun) zohiddan boshqa har kim o‘ziga baxshida qilingan ayshni oldi; u esa ne chog‘lik mashaqqat chekmasin quruq qoldi.

88. Tarj.: Tun kabi qora zulfing quyoshni (ya’ni go‘zalning yuzi) bariga olgan, tun quyoshga soya solganini kim ko‘rgan?!

89. Tarj.: Oshqlik ko‘chasida ahdi-paymoni mustahkam bo‘lgan bir ahli dil (ya’ni, dilbar, dildor) menga aytgan edi: Sendan boshqani qidirgan kishini talabgarlikka undama, sen shunday kishiga talabgor bo‘lgilki, u ham senga talabgor bo‘lsin.

90. Sulton Boyqaro — temuriylardan. Sultoi Husayn Boyqaroning akasi. Inisiga navkar edi. Boburning yozishicha, «devon boshida hozir bo‘lmas edi, g‘ayri devonda bir to‘shakta o‘l tururlar edi. Inisi Balx viloyatini berib edi. Necha yil Balxda hukumat qildi». (Bobirnoma, Toshkent, O‘zFA nashr. 1960, 221-bet).

91. Tarj.: Sening shirin labing shakar idishiga o‘xshaydi, tishing injusi gavhar shodasiga o‘xshaydi.

92. Tarj.: Junun ahllari sening tuzog‘ingga ilingan, shuning uchun Jununiy (ham) o‘sha xalqa (ichida) asirdir. Bu yerda shoir yor sochlarining uzun va jingalakligi va oshiqning ularga dilbastaligini ta’riflaydi.

93. Tarj.: Evoh! dard ko‘z qorasini xarob qildi; zamona ko‘zim chashmasini sarob qildi.

94. Tarj. Ko‘zimning qizargan jiyagiga oq dori surtish xuddi kabobga mayda tuz seplashga o‘xshaydi.

95. Tarj.: Osmon gunbazida aylanding, maydondan maydonga to‘p kabi sakrading, terga pishgan paytingda yomg‘ir yog‘ib, o‘rtada chaqmoq chaqnagandek bo‘lar edi.

96. Tarj.: To paymonam to‘lmagan damgacha mayxonadan chiqmaslikka ahd qildim.

97. Bobur Mirzo — Abulqosim Bobur. Temuriylardan, 1447—1457 yillarda Xurosonda hukmronlik qilgan. Shohrux vafotidan keyin avj olib ketgan temuriy shahzodalarning o‘zaro kurashlariga bardosh bera olmay shaharni tashlab ketganlar Abulqosim taxtga o‘tirgach, qaytib kela boshlaydilar. Ular orasida Navoiy oilasi ham bor edi, Shoirning otasi podshoh xizmatiga kiradi va bir oz muddatdan so‘ng Sabzavor xokimi qilib tayinlanadn. Otasi vafotidan so‘ng yosh Alisher ham podshoh saroyiga xizmatga kiradi.

Bu vaqtda Husayn Boyqaro ham Abulqosim Bobur xizmatida edi. 1957 yilda Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgan.

98. Tarj.: Yodingda bo‘lsinki, sening ko‘chang mening manzilim edi; ostonang tuprog‘idan ko‘zim ravshanlik topar edi.

99. Tarj. Aql ustodi uchun yechilishi qiyin bo‘lgan nozik ma’no, sinab ko‘rganimizda bir qultum may bilan hal bo‘lar edi.

100. Tarj. Mayning haromligini madrasa ahlidan so‘ray deb kimning eshigini qoqsam, (u yerdagilar) bexush va alast bo‘lib yotgan edi.

101. Mehri — XV asrning birinchi yarmida Hirotda yashagan shoira. Mehrining eri Xoja Abdulaziz Shohrux Mirzoning saroy tabibi bo‘lgan, Mehri sofdil, ravshanfikir, iste’dodli, shirinsuxan va hozirjavob bo‘lgani uchun malika Gavharshodbegimning yaqin suhbatdoshi — nadimasi ekan. Tazkiralarda qariyb bir ovozdan Mehrining nihoyatda go‘zal bo‘lganligi kayd qilinadi. Shoira bizzgacha yetib kelgan she’rlari u yoki bu hayotiy voqealar munosabati bilan badihona aytilgandir. Mehri fitna-fujurlar bois birmuncha muddat Shohrux tomonidan zindonband qilinadi. Lekin zindonda turib yaratgan isyonkorona she’rlari uni xalos bo‘lishida muxim rol o‘ynaydi. Navoiy keltirgan ikki bayt tazkiralarda berilishicha, Mehri qalamiga mansubdir. Shoira she’rlarida, dadil aytilgan fikrlar, aniq his-tuyg‘ular, alamli armonlar go‘zal badiiy obraz va vositalarda bayon etiladi.

102. «Valloxu a’lam» arabcha: Oллоh biluvchidir.

103. Tarj.: Uning jamolisiz ko‘z ravshanlig‘ining menga nima keragi bor?! Ko‘zimga ravshanlik yor diydoridan hosil bo‘ladi.

104. Tarj.: To‘satdan (unga) to‘qnash kelgan soatimdan dod! (Endi) qaytadan dilim joyiga kelishi uchun bir qancha muddat kerak bo‘ladi.

105. Tarj.: Meni bir jafо bilan o‘ldirib, pushaymon bo‘lgandirsan, yuragim qonini to‘kib, xafa bo‘lgandirsan.

106. Tarj.: Yo‘lning uzoqligi va Mug‘aylon tikanlari mashaqqatidan Ka’baga kelayotganingdan pushaymon bo‘lgandirsan.

107. Sulton Mas’ud Mirzo— temuriylardan. Abu Said Mirzoning nabirasi, Sulton Mahmudning to‘ng‘ich o‘g‘li. Feodal urushlar oqibatida, Boburning xabar berishicha, Qunduz hukmroni Xusravshoh Mas’ud Mirzo ko‘zlariga mil tortib ko‘r qiladi. «Shohiy» taxallusida she’rlar yozgan.

108. Tarj.: Zayn bilan birga bo‘lsang seni nojinslar-la yurishdan man’ qiladi. (Sen) Shunday begonasanki, o‘z g‘amingni chekmaysan.

109. Hazrati Mavlaviy Maxdumi Nuran — Abdurahmon Jomiy ko‘zda tutiladi.

110. Tarj.: Bu mayni sansiz labimga olib borar ekanman, buni shodxurram bo‘lish uchun qilmaymai; Sening qora zulfing kunimni qora qildi, o‘z qora kunimni kechaga aylantiraman.

111. Sa‘diddin Koshg‘ariy (vaf. 1457, Hirot)—Navoiyning «Xamsat ul-mutahayyirin»ida yozishicha, «Naqshbandiya» xojalarni silsilasining, ul zamonda komil va mukammal murshid va xalifasi erdi. Abdurahmon Jomiyning qaynatasi bo‘lgan.

112. Mir Shohiy — Amir Oqmalik Ibni Malik Jamoluddin Feruzkuhiy, taxallusi Mir (amir) Shohiy (tug‘, 1385, Sabzavor — vaf. 1453, Astrobod). Shoir xattot, naqqosh, musiqachi. Mir Shohiyning ajdodlari mo‘g‘ul istilochilariga qarshi dehqonlar va hunarmandlarning xalq harakati sarbadorlarning yetakchilari bo‘lganlar. Bu harakatga barham berilgach, Mir Shohiy Boysung‘ur Mirzo saroyidagi xizmatni tark etib Sabzavorga qaytadi va dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar bu shoir shaxsiyati va ijodiga yuksak baho berganlar. Navoiyning e’tirof etishicha, u Mir Shohiyning ko‘rmagan. Lekin oralarida yozishmalar bo‘lib turgan. Shoirning na’shi Astroboddan Sabzavorga keltirilib dafn etilgan.

113. Tarj.: Rahmsiz ko‘ngil tufayli xarob bo‘ldik, goh-goh bizni eslab turgil; Ko‘chang itlarimiz, bir tosh [otib] oxirda bizni shod etgil. 114. Tarj.: Sen jahon podshohisan, biz shahringning g‘aribimiz.

Sening uchun vatandan kechgan bexonumonlarmiz.

115.: Tarj.: Ey Sabzavor, ko‘z yoshim va ohim bilan ostin-ustin bo‘l! Chunki shoh shahri shohsiz (ya’ni, Shohiy) qolsa, hech narsaga yaramaydi.

116. Tarj.: Soqiy agar gul faslida may bermasa, mening qo‘lim soqiy etagida va gul oyog‘ida bo‘ladi.

117. Tarj.: Umr o‘tdiyu men maydan kecha olmayman, chunki bu xaroba olamdan men mast ketmoqchiman.

118. Tarj.: Yorim noz-karashmadan o‘q, qoshdan kamon tortdi, go‘zal yuzidan neki kelsa torta berdi.

119. Tarj.: Yuzing (qarshisida) kumushdan soʻz ochib boʻlmaydi, qoʻrquvdan uni oʻpib boʻlmaydi.

IKKINCHI MAJLIS

1. 896 (1490—91 y.)

2. Sharafiddin Ali Yazdiy (tugʻilgan yili nomaʼlum, Yazd yaqinida, Taft — vaf. 1454, oʻsha yer) — Shohruh Mirzo va uning oʻgʻli fors hokimi Ibrohim Sulton saroyida xizmat qilgan. 1429 y. Shohruh uni saroyga daʼvat etib Ulugʻbek Mirzoga murabbiy qilib tayinlagan. Olim «Zafarnoma» asarini ana shu adabiyot, tarixning bilimdoni Ibrohim Sulton nomi bilan bogʻlaydi. Bu asar Temur shajarasi, turkiy qabilalar tarixi va Chingizxonning toʻrt ulusini umumiy tarzda bayon etuvchi birinchi qism va Temur tarixini yorituvta asosiy qismga boʻlinadi.

Sharafiddin Ali Yazdiy «Sharaf» taxallusi bilan sheʼrlar ham yozgan. «Zafarnoma» 1969 yilda A.Oʻrinboyevnnng soʻz boshi, izoh va koʻrsatkichlar bilan tayyorlagan nashri, A.K.Arends tahriri va kirish soʻzi ila bosilib chiqqan.

3. «Asmoullah» — (Ollohning ismlari) Shayx Muhammad Tobodgoniy qalamiga mansub Allohning 99 muborak ismi va ularni zikr etishning fazilatlarini haqidagi asar. Unga juda koʻp sharhlar yaratilgan.

4. «Hulal» — «Hulali mutarraz» (gul tikilgan ipakli mato).

Bu asar muammoni tuzish, uni yechish yoʻllaridan bahs etuvchi nazariy asardir. Muammoga bagʻishlangan birinchi shu tarzda asar 1392 yilda yozilgan «Ihʼyo fil ilmi hall al-muammo» (Muammoni yechish ilmining jonlantirilishi) deb atalgan va Badiʼ Tabriziy degan tojir qalamiga

mansub boʻlgan.

5. Tarj.: Ey sufiy, mayparast rindlarni inkor etma, chunki piyolada doʻst aksining shuʼlasi bordir.

6. Tarj.: Jamoling bogʻidan koʻz va jonga zebu-ziynat yetishdi.

Nargis guliga koʻzing bilan gʻururlanish aniq farz boʻlib qoldi.

7. Tarj.: Ey koʻngil, shod boʻl, podshohlik osmonining quyoshi Sulton Husayn bizga mehribonlik soyasini soldi. Bu arabcha sheʼr mazmuni ochildi.

8. Maklubi mustaviy —she'riy san'at. Biror jumla yoki biror misra' she'rni o'ngdan ham, chapdan ham bir xil o'qiladigan qilib tuziladi. Xoja Fazlulloh Abullays.

10. Murod dorom (murodim bor) va — baroyad yorab (Iloho yetilgusi) so'zlari har ikki tarafdin bir xil o'qiladi.

11. Abu Hanifa (815—895) — adib va tarixchi, jug'rofiya, ilmi nujum, riyoziyot va tabiat fanlarining puxta bilimdoni bo'lgan. «Kitob ush-she'r va ash-shuaro» (She'r va shoirlar haqida kitob), «Kitob ul-fasohat» (Chiroyli uslub haqida kitob) kabi asarlari adabiyot ilmida noyob sanalgan.

12. Ibn Hojib — Jamoliddin Abu Amr Usmon Ibn Umar ibn Hojib (1175—1249) arab tili bo'yicha mashhur olim. Uning nahv— sintaksisga bag'ishlangan «Al-qofiya» va marfologiyaga oid «Al-shofiya» darsliklari asrlar mobaynida madrasalarda asosiy qo'llanma bo'lgan.

13. Sayid Sharif — Ali ibn Muhammad as-Sayyid ash-Sharif al-Jurjoni (tug'. 1339, Astrobod — vaf. 1413, Sheroz) Sheroz madrasasida va Samarqandda mudarrislik qilgan. Falsafa, ilmi nujum va fiqhga oid asarlarga sharhlar yozgan. Uning atamalar lug'ati va she'riyat sirlariga oid asarlari keng tarqalgan.

14. Tarj.: Sening sarv kabi qadding mening uchun jondir, balki ravondir. Ey sarv, men tomonga ravon bo'l, senga jonimni fido aylay.

15. Muhammad Tabodgoniy — mashhur shayxlardan. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida bu shayxning fazilatlarini haqida yozadi va asarlarini sanab o'tadi. («Majolisda» berilganlardan tashqari «Asmoulloh» (Ollohning ismlari), «Tazkirat ul-habib» (Do'stning tazkisasi) va «Vasoyo» (Vasiyatlar), zikr bobida «Arba'in» (Qirq) va faqr va suluk (xudoga yaqinlashish yo'li) yana bir «Arba'in»). Navoiy o'ziga Muhammad Tabodgoniyning alohida iltifoti bo'lganligini e'tirof qiladi. Shayx 891/1482—83 y.da Hirotidagi Chilgazi mahallasida vafot etgan. jumlasini bilan uning vafotiga ta'rix tushirilgan ekan. Abjad hisobida undagi harflar yig'indisidan 891 raqami kelib chiqadi. Shayx 87 yoshda vafot etgan ekan, demak u 804 (1401—1402) y. da tavallud topgan.

16. Shayx Zayniddin (Abu Bakr) mashhur shayxlardan, ilohiyot ilmida dong taratgan. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da yozishicha, Mashhad ziyorati Tusdagi muqaddas mozorlar tavofiga musharraf bo'lgan, 791 (1388—89) yilda vafot etgan.

17. Hoja Abdulloh Ansoriy — Abu Ismoil Abdulloh ibni Abu Mansur Muhammad (tug'. 1006, Hirot, Quhandiji — vaf. 1088 Hirot, Kozurgoh). Shoir, olim, tasavvuf nazariyotchisi, faqih. «Piri Hirot» laqabi bilan ham mashhur. Balx, Nishopur, Tus, Bistomda yashagan. «Ilohiynoma» (Munojot) ham deb ataladi, «Ganjnoma», «Sad

maydon» (Yuz maydon), «Nasoyeh» (Nasihatlar), «Tabaqot us-sufiya» (Sufiy tabaqalar) va boshqa ko‘p asarlar Abdulloh Ansoriy qalamiga mansubdir. Unga 3 ta devonni ham nisbat beradilar. Lekin mutaxassislarning tadqiqiga ko‘ra ularda turli so‘z san’atkorlarining she’rlari jamlangan.

18. «Manozil us-soyirin» (Kezuvchilar manzillari) — Abdulloh Ansoriyning mashhur asarlaridan biri. Bu nomda muallifning 2 asari ma’lum: biri arab, ikkinchisi fors tilida. 1082 yilda yozilgan va keyinchalik unga juda ko‘p tasavvuf bilimdonlari tomonidan sharhlar bitilgan.

Asarning badiiy qiymatlaridan biri shundaki, unda didaktik dostonlar yaratish uchun zamin hozirlangan, nasrdagi saj’ san’atining yuksak namunalari berilgan. Bu asar 1898 yil Tehronda tosh bosmada, 1953 yil Qohirada nashr etilgan.

19. Tarj.: Sarvdek qomatingdan boshqa [narsa]ga qaraydiganlar, rostini aytilsa hammalari past nazardirlar.

20. «Fusus» — Ibn al-Arabiyning «Fusus al-hikam» (Hikmatlar toshlari) asari. Payg‘ambarlik burch-uhdalari haqida g‘oyat murakkab imo-ishoralar va majozlarga to‘la arab tilida yozilgan.

21. Tarj.: Ey voh, sening yuzingdan ko‘zlarimga nur keladi: jamolingdan hamisha yomon ko‘z yiroq bo‘lsin!

22. Imom Faxr — Faxriddin Roziy, mashhur sufiylardan. Qazviniy «Majolis»ga qo‘shgan VIII majlisda Faxriddin Rofe‘iy degan mashhur avliyo dunyoga kelganida Imom Faxr uning og‘ziga o‘z so‘lagini tomizgan ekan va buning barakatidan Rofe‘iy komil olim bo‘lib yetishgan, deb yozadi.

23. Tarj.: Ul oying lab va tishlari nimaga o‘xshaydi? Xuddi qand dona-dona guruch ustida turganiga (o‘xshaydi).

24. Tarj.: Shohga shohning o‘zidan boshqa mahram yo‘q; shoh ahvolidan shohdan boshqa ogoh yo‘q.

25. Tarj.: O‘lim balosi va qiyomat qayg‘usi qomatimiz daraxtini chanbardek egib qo‘ydi.

26. Tarj.: Xalq Muflisiy devona bo‘libdi, deydi. Axir devonalikning o‘zi muflis (faqir)likdanku!

27. Tarj.: Yorning o‘qi dillarga yetilishidan rashkim keladi.

O‘qing boshqaga tegdiyu mening dilimga ta’sir qildi.

28. Mavlono Abdurazzoq — Kamoliddin Abdurazzoq Ibni Jamoliddin Ishoq Samarqandiy (1413—1482, Hirot). Tarixchi olim, sayyoh, she’riyat bilan ham shug‘ullangan. O‘zi Hirotida tug‘ilgan esada, otasi samarqandlik, bo‘lgani uchun va o‘zi ham shu shaharda bir necha muddat yashagani sababli «Abdurazzoq Samarqandiy» nomi bilan keng tanilgan. U tafsir, hadis, til va adabiyot ilmlaridan puxta xabardor bo‘lgan. Shohrux, Abdulqosim Boburlar xizmatida bo‘lgan. Abdulqosim Boburning harbiy yurishlarida qatnashgan. Abdurazzoq Samarqandiyning Navoiy tilga olgan va ta’rif qilgan tarixiy asari. “Matla’ us-sa’dayi va majma’ ul-bahrayn” (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilishi)dir, Unda O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston va Ozarbayjonda mavjud bo‘lg‘an siyosiy ahvolga, temuriylar davlati poytaxtlari Samarqand, Hirotidagi madaniy qurilishlar, Ulug‘bek Mirzoning ilmiy va siyosiy faoliyatiga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Bu asarni ikkinchi jildining birinchi qismi sharqshunos olim A.O‘rinboyev tomonidan 1960 yil o‘zbek tiliga tarjima qilindi va mufassal so‘z boshi hamda izohlar bilan nashr qilindi.

29. Tarj.: Mening mergan go‘zalim yana qoshlarini chimirdi, butun olamni o‘ldirdi-yu endi menga o‘q otmoqchi bo‘ladi.

30. Tarj.: Egingdagi nozik ko‘ylakni shamoldan hilpillashi, yangi davlatga yetishgan kishining kumush ustida titrashiga o‘xshaydi.

31. Tarj.: Mening sarvim nayshakardek yosh nihol shirin va xo‘shqomatdir, nayning barg kiyimlari ustidan kamar bog‘laganidek beli bog‘lidir.

32. Tarj.: Garchi aql ko‘zida yetti iqlim oltin xazina bo‘lib [ko‘rinsada], agar yaxshiroq qarasang, yetti boshli ajdahodir.

33. Tarj.: Jahon bog‘i olti toqli, ikki eshikli xonadir. Uning to‘rt tomonidan «alhazar!» (Hazar qil! Saqlan! Saqlan!) degan fig‘on eshitaladi.

34. Tarj.: Mayxonaning burchagi quyiladigan la’llardan (ya’ni, qizil maydan) safo xazinasiga aylangan. Undagi changning shakli g‘amni daf’ qiluvchi ajdah o‘g‘ziga o‘xshaydi.

35. so‘zidan «abjad» hisobida 816/1461— 62 yil kelib chiqadi.

36. Tarj.: Bog‘ sayriga, binafshazorni aylanishga chiqdim. Har bir binafshadan yorim sochlarining isi kelardi.

37. «Majolis» tarjimoni Faxriy Hirotiy Sog‘ariy she’riyatidan yana bir baytni keltiradi:

To shunidamki tavon la'li turo jon guftan,

Otashe dar dilam uftodki, natvon guftan.

Tarj.: Sening la'l (lablaringni) jon deb ataganlarni eshitdim deguncha, dilimga [shunday] bir otash tushadiki aytib bo'lmaydi.

Navoiy Jomiy haqidagi «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida Jomiyning Sog'ariy bilan hazl-mutoyiba qilishi haqida maroqli bir lavha keltiradi. Bir kuni Sog'ariy Jomiy xuzurida o'zining bir she'rini dabdaba va baland ovozda o'qiydi. Navoiy uning o'qishini ta'rif qiladi. Jomiy kulib: «Bizga mundoq boziy berur» (ya'ni: bizni shunday aldaydi), — deydi va quyidagi qit'ani aytadi:

Sog'ariy meguft: duzdoni maoni burlaand

Har kujo dar she'ri man yak ma'nni xush didaaid,

Didam aksar she'rxoyashro yake ma'ni nadosht,

Rost guftastki, ma'nixoshro duzdidaand.

Tarj.: Sog'ariy aytar edi: Ma'no o'g'rilari har qayerda mening she'rimdagi yaxshi bir ma'no ko'rsalar [ularni] olib ketganlar. Men aksar she'rlarida ma'no yo'qliginn ko'rdim. «Ularning ma'nolarini o'g'irlab ketganlar» deb rost aytgan ekan.

Shu lavhada keltirilishicha, Navoiy uning bir baytiga Sog'ariy javob yozganda Navoiy unda nuqsonni ko'rsatib beradi. Shoir, hechqisi yo'q, Jomiy shunday e'tiroz bildirdilar, deydi.

38. Amir Suhayliy — Nizomiddin Ahmad (1444—1502). Amir Shayxam nomi bilan mashhur shoir. Davlatshoh Samarqandiy ma'lumotiga ko'ra Shayx Ozariy (qarang: shu kitob 214-b. 11-izoh) shogirdi bo'lgan va ustoz tavsiyasi bilan Suhayliy (yorug' yulduz, demakdir) taxallusini olgan. Suhayliy o'zbek tilida ham yozgan. Davlatshoh shoirning turkiy devoni borligini xabar qiladi. Uning Xusrav Dehlaviyning «Daryoyi abror» (Taqvodorlar daryosi), Jomiyning «Lujjat ul-asror» (Sirlar to'plami), Navoiyning «Tuhfat ul-afkor» (Fikrlar tuhfas) asarlariga javoblari bor. Navoiy bu shoir bilan qalin do'st bo'lgan va uni «Yori-aziz» deb ardoqlagan. «Devoniy Foni»da unga tatabbu'lari o'rin olgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Suhayliyning: Shabi g'am girdbodi oham az jo burd gardunro, Furo' burd ajdahoi sayli ashkam rub'i maskunro.

Tarj.: G'am tunida ohim to'foni osmonni joyidan surib tashladi. Ko'z yoshlari selining ajdahosi yer yuzining [inson yashaydigan qismini] yutib yubordi. Bu she'r timsolida

Navoiy shoir she'riyatidagi badiiy obrazlarning o'ziga xosligi haqida fikr bildiradi va shu she'rni shoir Jomiy huzurida o'qib berganida, u shunday deganini keltiradi: «Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqutasiz?». O'sha vaqtlarda buo'nday go'zal zarofat, mutoyibalar xalq orasida tez tarqalib ketar edi. Suhayliyning forsiy devoni Tojikistonda Sharqshunoslik institutida, «Layli va Majnun» dostoni esa Bodlean ra Oksford kitobxonalarida saqlanadi.

39. Tarj.: Vaysiy va Sog'ariy ikkovlari Haram (Makka)ga safar qilmoqchi bo'ldilar. Lekin u biri eshagi yo'qligidan va bunisi eshakligidan u yo'ldan qoldilar.

40. Tarj.: Mening ko'zim injulari [yoshlari] bilan bahor buluti birday. Mening nolayu zorim bilan bulbul navosi birday.

41. Hazrat Shayx — Abu Muhammad Ilyos ibni Yusuf ibni Zakiy Muayid (tug'. 1141, Ganja — vaf. 1209, o'sha yerda) Nizomiy Ganjaviy nomi bilan mashhur shoir. Birinchi marta besh dostonidan iborat «Panj Ganj» (Besh xazina) nomi ostida «Xamsa» yaratgan; «Maxzan ul-asror» (Sirlar xazinasasi), «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» (Yetti go'zal) va «Iskandarnoma». Oxirgi doston «Sharafnoma» va «Iqbolnoma» nomli ikki qismdan iborat.

Davlatshoh Samarqandiy Nizomiyni sohibi devon shoir deb ta'riflaydi va uning hajmi 20 ming baytdan iborat deb yozadi. Eron olimlari chop etgan shoir lirikasida 16 qasida, 192 g'azal, 5 qit'a, 68 ruboiy va 17 fard jamlangan.

Nizomiydan keyin uning dostonlariga javob yozish an'anasi boshlangan. Navoiy ham turkiyda «Xamsa» yaratadi, undagi har bir dostonda Nizomiyni o'zining buyuk ustodi sifatida tilga oladi. «Nasoyim ul-muhabbat»da Nizomiyni buyuk shayxlar sirasida keltiradi va shoir dostonlaridagi «Nazmlar agarchi zohir yuzidan afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq (haqiqatlar) kashfi va maorif bayonig'a bahonadur» deb ta'riflaydi. Bu yerda Navoiy Fasih Rumiyning Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror»iga javob yozgani haqida ma'lumot beradi.

42. Tarj.: Sendan kimdir eshitgan har bir nafasni [so'zni] shaksiz undan o'zga ham eshitadi.

43: Tarj.: Yor vasli ko'yida ko'p yugurdim, [ammo] ishning haqiqati bilan tanish bo'lgan hech kimni ko'rmadim.

44. Tarse' san'ati — badiiy san'atlardan. She'rda birinchi misra' so'zlari bilan ikkinchi misra' so'zlarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lib kelishidir.

45. Tarj.: O'zni zarra qadar [ham] mavjud deb bilmaslik, kerak. Yaxshi-yomon so'zni

ko‘p aytmaslik kerak. Maqbul bo‘lmaydigan [narsa] ijod emas, nimaiki qabul qilinar ekan rad qilib bo‘lmas.

46. Jomiyning «Nafaxot ul-uns» (Do‘stlikning hush ishlari) asari 1475—1476 yilda yozilgan. 609 nafar tasavvuf ilmi namoyandalari haqida ma‘lumot beriladi. Mansur Xalloy, Abusaid Abulxayr, Ali Hamadoniy, Nizomiy Ganjaviy, Sa‘diy Sheroziy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziylar shular jumlasidandir.

Navoiy bu asarni turkiyga “Nasoyim ul-muhabbat” nomi ostida tarjima qilgan va bunda anchayin erkin yo‘l tutgan. Ko‘p yangiliklar kiritgan, jumladan turkiy mashoyixlar haqida ma‘lumotlar bergan.

47. Shayx Farididdin Attor Farididdin Abuhamid Muhammad ibni Abubakr, Ibrohim Nishopuriy (tug‘. 1145, Nisholur— vaf. 1221, o‘sha yer) shoir, mutafakkir. Otasi tabib va attor bo‘lgani uchun taxallusi Attordir. Ba‘zi manbalarda shoir «Farid» taxallusi bilan she‘rlar yozgani qayd etiladi. Attor adabiyot, kalom, hikmat, din ilmlari (tafsir, xadis fiqh)ni, shuningdek, tibbiyot va dorishunoslikni puxta bilgan. Tazkiralarda Attor asarlari adadi 190 deb ko‘rsatiladi. Shoirning «Mantiq ut-tayr» (Qush so‘zi) asari mashxur bo‘lib, Navoiy uni bolaligida sevib o‘qigan, hatto yodlab olg‘an. Umrining oxirlarida, 1499 yilda unga javoban «Lison ut-tayr» (Qush tili) asarini yozgan.

Bu yerda Navoiy Hofiz Ali Jomiy Attorning bir qasidasiga sharh yozgani haqida ma‘lumot beradi. Manbalar Attor qalamiga 100 qasida mansub deb xabar qiladi.

«Nasoyim ul-muhabbat»da Navoiy Attor «Tazkirat ul-avliyo»ning muallifi ekanidan so‘z boshlaydi. Hofiz Ali Jomiy sharh yozgan Attor qasidasi 26 baytdan ortiq ekanini va sharhning ba‘zi mazmunini beradi. Maqola so‘nggida Navoiy Attorning 104 yoshga yetib, 627 (1229-1230) y. da shahid bo‘lganini va mazori Nishopurda ekanini bayon etadi. Tojik darsliklarida esa bu sana 1220 -1221 y. deb ko‘rsatiladi.

48. Tarj.: Sen yuzingni berkitib bozorga kelding; xalqni bu tilsimga giriftor qilding.

49. Shayx Bahoviddin Umar (vaf. 875 (1470—71), Hirot) — mashhur shayxlardan. Xondamir «Habib us-siyar» (Do‘stlarning xislatlari) asarida xabar qilishicha, Shohrux Mirzo zamonida mo‘‘tabar allomalardan Sa‘duddin Qoshg‘ariy, Shamsiddin Muhammad Asad, Xoja Zayniddin Jomiy va boshqalar hamrohligida haj safarida bo‘lgan. Hirotida Iydgoh shimolida dafn etilgan. Abulqosim Bobur mirzo uning mazori ustiga oliy maqbara qurdirgan.

50. Xoja Abu Nasr Porso — olim, faylasuf, Naqshbandiya tariqatining mashhur olimi Muhammad Porsoning o‘g‘li.

51. «Majolis» tarjimoni Muhammad Qazviniy Navoiyning bu soʻzlarini tarjima qilar ekan, xuddi shunday taʼrixli qasidani Navoiy vafotiga uning yaqin doʻstlaridan Sohib Doro yozganligini ilova qiladi va har baytning birinchi misraidan «abjad» hisobida shoirning tugʻilgan yili va ikkinchi misraidan vafoti sanasi chiqadigan qasidadan birinchi baytini keltiradi.

52. «Bu ishlar bashar savhidin tashqari uchun ani derlar erdikim, Atorudni istixroj qilibdur». Bu yerda Navoiy shoirning taʼrixli qasidasining yuksak taʼrifini berib, uning iqtidoriga qoyil qolganini bildiradi va zamondoshlarini shoir, yozuvchilar homiysi, Atorud, (Merkuriy) aql, isteʼdod qudratining ramzi sanalgan sayyorasini goʻyo u kashfetgan, degan mubolagʻali eʼtirofni keltiradi.

53. Muhammad Qazviniy Sayyid Kamol 99 yil yashadi, deb maʼlumot beradi.

54. Tarj.: Ey (goʻzal), jon koʻziga ravshanlik sening yuzing nuridandir. Sening qadding sarvni yerga oʻtkazib qoʻygan.

55. Tarj.: Saodat shuʼlali ul shamʼdan jahonga yangidan ravshanlik yetishadi, deb umid qilamiz. Bu bayt Xondamirning «Habib us-siyar»da yozishicha, Abu Said bilan Husayn Boyqaro oralaridagi muxolifat paytida yozilgan. Bayt maʼnosini Abu Saidga yetkazganlarida shoirmi pinhona (qatl etishni buyurgan. Navoiyning yuqoridagi uni halok qilishganida bir joyga koʻmish uchun soʻngaklarini ham topisha olmadi mazmunidagi soʻzlarini Xondamir maʼlumoti bilan bogʻlab tushunmoq mumkin boʻladi.

56. Hazrat Shayx Abusaid Abulxayr oti Fazlulloh, mashhur din arbobi, olim. Tafsir, hadis, fiqh, tariqat ilmi, arab tili va adabiyotida komil bilimga ega boʻlgan. Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo asarida keltirilishicha, Abusaidning otasi Abulxayr attor boʻlgan va Sulton Mahmud Gʻaznaviy yaqinlaridan sanalar ekan. U bir saroy bino qilib, devorlariga Sulton, uning lashkarlari rasmini chizdirgan ekan. Yosh bola boʻlgan Abusaid oʻz xonasi devoriga «Alloh» soʻzini yozib chiqqach, otasiga koʻrsatibdi. Otasi «Buni nega yozding? debdi. Shunda bola: «Sen oʻz Sultoningning nomini yozding, men oʻz Sultonimning» deb javob beribdi. Shu asnodan boshlab, ota saroy devoridagi naqshlarni oʻchirtirib tashlab, farzandining taʼlim-tarbiyasi bilan mashgʻul boʻla boshlagan ekan.

57. Tarj.: Sening oy yuzingdan jon oynasi yasaganlar va u oynaga jonni telmurtirib qoʻyganlar.

58. Shoir Kamol Xoʻjandiy (qarang: ushbu kitob, 225-b. 86-izoh) koʻzda tutiladi.

59. Tarj.: «Koʻzingga ayt, bizning yuzimiz xayolidan boshqa hech bir suratni nazariga keltirmasin», dedi. Men «koʻzim ustiga» (yaʼni, jonim bilan), dedim.

60. Tarj.: Biz sening savdoyingda jonu boshdan kechishni istaymiz. Har damda jon komini la'l-lablaringdan shakarga to'ldirmoqchimiz.
61. Tarj.: Otashin la'lingdan gulnor yurakka o't tushgan, ey makkor sanam, sening ko'ngil eltishdan bo'lak ishing yo'q.
62. Tarj.: Butun yeru ko'kda bo'lgan hayqiriqlarning boshlanishida «jonim xudoga» degan ovoz chiqar edi.
63. Tarj.: Ey ayriliqda qolgan, sen o'z do'stlaringdan uzoqdasan, biz bu shaharda shunday holdamiz, sen esa boshqalarning shahrida [yurasan].
64. Tarj.: Xovar sahrosi bizning qo'limizni gulning etagidan tortib oldi. [Endi] qiyomat sahrosida bizning qo'limiz sahro etagida bo'ladi.
65. Tarj.: Tong ufqdan oq bayrog'ini chiqarginda, ohim osmon cho'qqisiga tug' tikadi. (Yana bir bayti:) Xudoga shukrki, Hirot [shahri]ning qozisiman, insonlar atoridaman, eshak emasman.
66. Tarj.: Agarchi shahr vaqflarini butunlay sovurgan esada, xudo xayrini bersinki, shu binoni qurdi.
67. Kichik Mirzo — Mirzo Muhammad Sulton, temuriylardan. She'riyat bilan ham mashg'ul bo'lgan. Xusayn Boyqaroning opasi Okobegimning o'g'li. Tog'asi xizmatida bo'lgan. Navoiy Kichik Mirzoga ushbu asarning yettinchi majlisida alohida maqola bag'ishlaydi.
- Xondamirning «Makorim ul-axloq» (Yaxshi xulqlar)ida xabar berilishicha, Navoiy tashabbusi bilan uning mablag'iga Marv shahrida «Xusraviya» nomli madrasa bino qilinganida uning birinchi g'ishtini Kichik Mirzo qo'ygan edi. Bino bitganda (podshohlik demakdir) so'zidan «abjad» hisobi bilan binoning qurilish ta'rixi, 881 (1476—1477) y. chiqarilgan edi.
68. Mavlono Ja'far Hirot xattotlik maktabi namoyandalaridan nasta'liq xatida dong taratgan.
69. Tarj.: Ey har go'zalning chehrasini ochuvchi, sening noming har bir bemorning shifosidir.
70. Tarj.: Soyang har joyga tushsa, o'sha yerdan gul o'nib chiqadi, yolgiz gul emas, boshdan-oyoq gulu shakar unadi.

71. Tarj.: Yana hayit keldi, ey jonim, kel qurboning bo‘lay, so‘yilgan qo‘yning ko‘zidek hayroning bo‘lay.

72. Tarj.: Sensiz yig‘i orasida uxlab qolsam, tushimda o‘zimni suv oqizib ketayotgan ko‘raman.

73. Tarj.: Senga mushtoqman va uzoqdaman, jon qiynovchi g‘amim shundandir. Ortiq mushtoq kishilar uzoqroqda bo‘ladilar, oh[lar] tortishim shundandir.

74. Tarj.: Agar boshimga minglab balo keladigan bo‘lsa, shunga sazovorman. Xalqning eng yomonimanu [lekin] o‘zimni yaxshi deb bilaman.

75 «Ixlosiya» madrasasi —Hirotda Navoiy o‘zi qurdirgan madrasa. Bu zeb-ziynatli bino Hirotning Injil daryochasi soxilida qad ko‘targan va Navoiy «bu madrasag‘akim, xulusi (samimiy) ixlosdin yasaldi «Ixlosiya» ot qo‘yuldi», deb yozgan edi.

76. Tarj. Bu gavharlarni ko‘m-ko‘k daryoda yetishtirganlar, ko‘rgilki bu mash‘allardan yolqinli quyosh paydo qilganlar.

77. Tarj.: Yorning la'li (labi)dan bir bo‘sa oldim. [Bundan] hayot topdim, jon oldim.

78. Tarj.: Sanavbar (daraxti) sening qadding xizmatkorligidan ajralgandan beri sochi to‘zigan devona bo‘lib qoldi.

79 Tarj.: Ishim yaxshi bo‘lmay, yomon bo‘lganiga xafa emasman, bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa bo‘lmas, oxiri nima bo‘lar ekan?

80. «Bard» so‘zi «sovuq» ma’nosinn anglatadn. Aftidan bu shoir tabiatan sovuk, qo‘pol so‘z bo‘lgan bo‘lsa kerak.

81. Tarj.: Shoh Abulqosim davrida Sulton Ali Muso Rizo [shahid bo‘lgan] Mashhad jannatdan ham yoqimli buldi.

82. Tarj.: Sening mushk hidli kokiling har bir dil uchun o‘zgacha bir banddir. Sochingnng har bir tolasi jon rishtasiga o‘zgacha bir payvanddir.

83. Tarj.: Iting oldiga har damda alohida parchalar tashlab turmoq uchun ko‘ngil qushining patini yulib, ko‘ksini qovurdim.

84. Tarj.: Peshtoki dilbarning qoshiga o‘xshash bu joy mamlakat podshohining tuproqdan yuksaltirgan binosidir.

85. Tarj.: Yulduzlar bilan bezalgai bu falakning eski varaqlari yulduzlar singari qo‘shinga ega bo‘lgan ko‘p shohlarning ko‘hna tarixidir.

86. Hazrati shayx ul-islomiy Ahmadi Jomiy Abu Nasr ibni Abul Hasan (tug‘. 1049, Jom vaf. 1141, o‘sha shahar) olim, mutasavvif shoir. Ahmadi Jomiy nomi bilan mashhur. Laqabi Zindapil (tirik fil) yoki Jandapil bo‘lib, bu nom bilan ham keng taniqli bo‘lgan.

Ahmad Jomiy Shayx ul-islom martabasiga ko‘tarilgan, uning «Anis ultolibin» (Toliblar do‘sti), «Kunuz ul-hikmat» (Hikmat xazinalari), «Bihor ul-haqiqat» (Haqiqat daryolari), «Siroj us-soirin» (Sayr qiluvchilar charog‘i), «Miftoh un-najot» (Najot kalidi) va boshqa asarlari ma‘lum. Ahmad Jomiyning oshiqona va orifona g‘azallari devoni ham bor bo‘lib, xalq orasida aichaynn tarqalgan. «Sabzpariyu Zardpariy» nomli qissani va XVII asr shoiri Jomiy Garmiyning «Varqa va Gulshoh» asarini xato tarzda Ahmad Jomiyga nisbat beriladi. Aftidai bu asarlar tarkibida shoir she‘rlari ko‘plab uchrasa kerak. Navoiy «Lison ut-tayr»da g‘oyat insondo‘stlik va oliyhimmatlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan bir hikoyatni keltiradi.

87. Tarj.: Shodlik, zavq va xushchaqchaqlik mavsumi yetishdi. Agar gado hach o‘z dilidagi murodiga yetishsa ne ajab!

88. «Alayha rahma» — arabcha. Unga [Allohning rahmati] bo‘lg‘ay demakdir.

89. Tarj.: Marjon (suv hayvoni) panjasining va o‘rdak oyog‘ining qizilligi daryolarda suv o‘rniga qon oqqanidan bo‘lmay, nimadan edi?!

90. Tarj.: Ko‘chang atrofida yuz zorlanishlar bilan aylanaman, uzoqdan bahona qilib, yana aylanaman.

91. G‘azlfulurushluq do‘koni—yigirilgan ip do‘koni demakdir. Ye.E.Bertel's «g‘azlfulurush» deb o‘qib, yozgan edi: «na bazarax Gerata sush‘estvovali knijni‘e lavki, gde znatoki literaturi‘ mogli naytn lyuboye novoye proizvedeniye... Sush‘estvovali osobi‘e torgovsi‘ gazelyami (g‘azlfulurush), kotori‘m mojno bi‘lo zakazat' kopyiu liricheskogo stixotvoreniya...» (qarang: Bertel's Ye.E. Navoi i Djami, 1965. s. 28-29).

92. Tarj.: Agar senga ma‘qul bo‘lsam, «Qabuliy»man, yo‘q esa: ikki dunyoda mendek nomaqbul topilmas.

93. Tarj.: Ey xitoylik qora ko‘z, jon qushi senga ulfatdir, bo‘lak qora ko‘zlarga nisbatan dilbarim ohu (kiyik) kabidir.

94. Tarj.: O‘jar dilbarim bilan bir lahza birga bo‘larmikanman deb, hayot [yo‘lini] kesishda yuz joydan hiyla qo‘zg‘ataman.

95. Tarj.: Kechasi o‘tirib shu qadar behisob sharob berki, hisob kuni (ya’ni, qiyomat kuni)gacha o‘rnimdan tura olmay qolay.
96. Tarj.: Sen hargiz bizning g‘amgin dilimizni shod qilmading Boshqalarni o‘ldirdingu meni yodga olmading.
97. Tarj.: Ey Ayoziy, pashshaxonangning rangi pashsha o‘tirgan rangda; To‘ning ham, ko‘ylaging ham, etiging ham pokiza emas.
98. Tarj.: Garchi mening dilim har doim yor visolini izlasa-da, yor menga qarshilik qilib, ag‘yor dilini qidiradi.
99. Tarj.: Men bebaxt oshiqmanu, mastman, nima qilsa bo‘ladi?
- Ko‘ngilni bag‘ishlaganman, jonim qo‘lim kaftida, nima qilsa bo‘ladi?
100. Tarj.: Men shundaymenki, may va qadahdan boshqa faxrlanadigan narsam yo‘q. Gul yuzli soqiy, kosalarni to‘ldirib-to‘ldirib uzataver.
101. «Tabh ishida madad qilmakim, sherik bo‘lursen» mazmuni: taom pishirishda madad qilma, sherik bo‘lishing mumkin. Bu yerda go‘zal va mutoyibali lutf ishlatilgan.
102. Tarj.: Ul bodom ko‘zlining xandon pistadek lablari xayolida chashm deb atalgan ko‘zlarim qon chashmasi bulog‘iga [aylandn].
103. Tarj.: O‘g‘ri uy asboblarini tuynukdan tortib ketganidek, ul go‘zalning xoli ko‘nglim borlig‘ini ko‘z ravshanlig‘idan tortib oladi.
104. Tarj.: Ul og‘izdan hech kim qilcha ham nishona ko‘rsata olmaydi. Bu g‘amdan shunday tang bo‘ldimki, [buni] hech kimga ko‘rsatmasin.
105. Pahlavon Muhammad (vaf. 1493, Hirot) — XV asr Hirot madaniy markazining yirik namoyandalaridan. U riyozot matematika, ilmi nujum, kimyo, falsafa, adabiyot, san’at va kurash turlaridan gushtigirlikda nom chiqargan. Yaxshi bastakor va xonanda bo‘lgan. «Gushtigir» taxallusi bilan she’rlar ham yozgan. Navoiyning 40 yillar mobannidagi yaqin do‘sti, ota o‘rnidagi murabbiysi ham edi. Navoiy bu yaqin kishisi va maslakdoshiga maxsus «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli asar yozib, uning shaxsiyati va iste’dodi qirralarini ochib beradi. Ushbu tazkiraning IV majlisini Pahlavon Muhammadga bag‘ishlangan maqola bilan boshlaydi.
106. Tarj.: Xo‘janddan kelgan bir kishi qozi bulmoq maqsadida shaxarda aylanar edi,

biroq sadr uning qozi bo'lishiga rozi emas edi. (Oxiri) bir eshakni sadrga pora berib, qozi bo'ldi. Agar eshak bo'lmasa, qozi bo'lmasdi. Keyingi jumlada so'z o'yini ishlatilgan, uni ikki ma'noda tushunish mumkin.

107. Tarj.: Muhabbat qoidasida yordan gina qilish yuqdir, bulmasa ul vafosizdan ko'pgina qilgan bo'lur edim.

108. «Siyar un-nabiy» — Payg'ambarning xislatlari.

109. Tarj.: Falak o'z otiga [minib] chopganda, qar bir oyga bir nag'al tashlab ketdi.

110. Tarj.: U meni goh cho'p bilan, goh musht bilan uradi, o'ynay-o'ynay meni o'ldirmoqchi bo'ladi.

111. Tarj.: Men umr bo'yi havas orqasida yurakka payravlik qildim, umr o'tdi, bilmaymanki, nimaga erishdim.

112. Tarj.: Ey zohid, bizning qiblamiz dildorning qoshi, [sening qiblangdan] afzaldir, Sen masjid bilan bo'laver, sening yuzing devorga bo'lgani ma'qul.

113. Mavloni Riyoziy — Imomiddin Riyoziy Samarqandiy (vaf, 1479, Samarqand). Shoir xattotlik, musiqa, ilmi nujumdan xabardor va Qur'oni majidni yetti qiroat bilan o'qiydigan hofiz bo'lgan. Ba'zi tazkiralarning ma'lumotiga ko'ra, yoshligida vafot qilgan. Riyoziy devonida g'azal, qit'a, ruboiy va fardlar mavjud bo'lib, devon nusxalari London, Bangola, Dushanbe kitobxonalarida saqlanadi.

114. Tarj.: Ul hilol qoshlining qulog'idagi inju bir yulduzdir,

Husn yuzasidan quyoshga yondashib turadi.

115. Tarj.: Husn yuzasidan ul hilol qoshlining qulog'idagi inju shunday bir yulduzdirki, oy bilan yondashib turadi.

116. Tarj.: Kishilar yangi oyga tikilib turganlarida u g'oyib bo'lganidek, qora oting javlon urgan paytida nag'aligina ko'zga chalinadi.

117. Tarj.: Agar ko'chang shu suv va havosi bilan mening manzilim bo'lsa, na Xizr suvi, na o'lik tiriltira oladigan (Iso) nafasi kerak bo'ladi.

118. «Mir'ot us-safo» — Soflik oyinasi.

119. Tarj.: Sufiy maqsad injusini qidirib borib (ya'ni yosh to'kaverib), «majma' ul-

bahrayn» (ya'ni, ikki daryoning to'planish joyi) bo'ladi; Chunki har bir yig'layotgan ko'z chashmasidan bir daryo hosil qilgan.

120. Tarj.: Ey noz qilishga o'rgangan, biz senga yolboruzchilarmiz. Seni zamona ajoyib ko'ngil oluvchi qilib yaratgan (ekan).

121. Mavlono Lutfiy (tug'. 1366, Hirot—vaf. 1465) — shoir, tasavvuf bilimdoni. Navoiy so'zi bilan aytganda, forsiy va turkiyda o'xshashi yo'q so'z san'atkori. Lutfiy devoni g'azal, tuyuq, qit'a, ruboiy, qasida va fardlardan tarkib topgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Lutfiyga alohida maqola bag'ishlaydi. Unda, jumladan, yozadi: «Agarchi shoirlik tariqida ma'ruf va mashhur bo'ldi, ammo darveshlik tariqini dog'i ilkidan bermadi. Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi». Lutfiyning Shohrux Mirzo, Boysung'ur Mirzo va Abdurahmon Jomiylarga go'zal qasidaları bor. Lutfiy «Gul va Navro'z» nomli doston ham yozgan. Lekin bu asarni Lutfiy qalamiga mansub emasligi haqida adabiyotshunosligimizda munozaralar olib borildi. Lekin masala hamon hal bo'lgani yo'q.

122. Tarj. Tunga o'xshash zulfingdan quyosh [yuzing] soyaparvardir; Tun kabi zulfingda oy o'rniga quyosh chiqqandir.

123. Tarj.: Agar oshiqdar dilining ishi chin kofirga tushsa, shu singari bemehr, badfe'lga tushgandan qo'ra yaxshidir.

124. Mavlono Yaqiniy — (XV asr) shoir. Yaqiniyning nasrda yozilgan «O'q va Yoy munozarasi» o'zbek adabiyotida shu janrning yetuk namunasi sanaladi. Birinchi bo'lib bu munozarani E.Rustamov "Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV v" nomli asarida atrofli tahlil etib bergan.

125. Tarj.: Bir nafas bo'lsa ham quyoshga dam urmagan tong sensan, mevasidan hech kim yeya olmaydigan daraxt sensan.

126. Mavlono Atoiy — (XV asr) shoir. Adabiyotshunosligimizda bu shoir she'riyati ham bir tomonlama, faqat dunyoviy muhabbat kuychisi (Lutfiy kabi) sifatida talqin qilinib kelar edi. 1991 yil S. Rafiddinov nashr qildirgan Atoiyning to'la devoni so'z boshisida shoirning tasavvufiy she'rlari tahliliga ham urinishni ko'ramiz:

127. Mavlono Sakkokiy — (XIV asr oxiri —XV asr birinchi yarmi) shoir. Mirzo Ulug'bek davrida kamolga erishgan va she'rlari bilan shuhrat qozongan. Sakkokiy Xoja Muhammad Porsoga, Xalil Sulton (qarang: 219-bet, 41 izoh)ga atab bittadan va Ulug'bek Mirzoga atab 5 ta qasida yozgan. Ulug'bek Mirzoning Amiri kabiri Arslon Xoja Tarxonga ham 4 ta qasidasi bor.

128. Tarj.: Bu diyorda bizning ko'ngil ovlovchimiz yolg'iz o'zingsan va bas; sendan bir qiyo boqishingni o'tinamiz va bas.

129. Xoja Yusuf Hamadoniy — kuniyati Abu Ya'qub (vaf. 535/1140 -41, Marv) olim va mashhur shayxlardan. Bog'dod, Isfaxon va Samarqandda hadislarni eshitgan, zamonning taniqli allomalari suhbatida bo'lgan. Hirotida ham yashagan. Oxiri avval istiqomat qilgan shahri Marvga qaytgan va o'sha yerda olamdan o'tgan. Ashobi (yaqin do'stlari) orasida Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoniylar bo'lganligi haqida manbalarda ma'lumot uchraydi.

130. Tarj.: Sen jannat daraxti kabi sarvu shamshod qomatsan. Men qomatingni qanday ta'rif qilay?! Qiyomatsan!

131. Tarj.: U har doim senga da'vo qiladi. [Lekin] u da'voni bema'ni qiladi. Sening mevang Samarqand olmasi kabi shirinu, uniki Balx olxo'risidek achchiqdir.

132. Tarj.: Umr o'tdi, g'aflatdan shundayin mastmanki, ne chog'lik tavba qilmayin, uni yana sindirdim.

133. Tarj.: Sening bemor ko'zlaring meni har dam toqatsiz (zaif) qilib qo'yadi. Ey jonon, sening jon bag'ishlovchi la'l-labing jonimga qasd qiladi.

134. Mirzo Ali Idigu Temur — «Majolis» tarjimonlari Idigu nomini Faxriy— Qazviniyda— tarzida beradilar. Aftidan Mirzo Ali Gilon hukmroni bo'lgan.

135. Tarj.: Azob bilan o'ldirilgan shahidlarning qabriga qaragilki, (qablarn ustiga] dil otashi va sening o'qingdan tug' tikilgandir.

136. Mirzobek (vaf. 1490—91, Samarqand) — shoir. Xondamirning «Makorim ul-axloq»da yozishicha, Mirzobek vafotining ta'rixi so'zidan abjad hisobida 896 (1490-91) y. beriladi: Navoiy «Mirzobek farzand masobasida (darajasida, o'rnida) erdi», deb yozadi.

137. Ahmad Hojibek (vaf. 1495—96, Buxoro) — Shoir, arbob, taxallusi «Vafoiy». 10 yil Hirotida, 1496 yilgacha Samarqandda hokimlik qilgan. Boburning xabar qilishicha, Ahmad Hojibek Boysung'ur Mirzo siyosatidan norozi tarxoniyalar fitnasi oqibatida Buxoroga Sulton Ali Mirzo ustiga lashkar tortib yengilganida asir olinadi va vahshiyona qatl etiladi. Navoiy Samarqandda tahsil olayotgan 1465-1469 yillarda Ahmad Hojibek unga murabbiylik qilgan va oddiy jihatdan madad berib turgan. Ahmad Hojibek tadbirkor va adolatli bo'lgan. Bu haqda Xondamir «Makorim ul-axloq»da maroqli bir voqeani keltiradi. Unda asirlardan biri Navoiy aralashuvi va Ahmad Hojibek xayrixohligi tufayli mudxish jazodan qutilib qolgani haqida hikoya qilinadi. Ushbu tazkiraning VI majlisi

Ahmad Hojibekka bag‘ishlangan maqola bilan boshlanadi.

138. Sallamulloh — arabcha: Alloh salomat qilsun, demakdir.

139. Sayyid Hasan Ardasher (vaf. 1488—89, Hirot) — shoir, tasavvuf arboblardan. Navoiy Sayyid Hasan bilan birinchi marta 1455—56 yillarda uchrashgan va u bilan hayotining oxiriga qadar do‘st bo‘lib qolgan. Navoiyga ota o‘rnida bo‘lgan bu oqil va bilimdon alloma vafoti uni qattiq g‘amga chulg‘agan va do‘sti, maslakdosh murabbiysiga atab maxsus «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» nomli asar yozgan. Unda Sayyid Hasanning bilimlari ko‘lami — arab tili, fiqh, she‘rshunoslik, muammo ilmi, ilmi nujum, musiqa nazariyasini mukammal bilishi, inson sifatida g‘oyat xoksor, kamtar, yumshoq ko‘ngilli va sabr-to‘zimli bo‘lgani bayon etiladi. Navoiy Sayyid Hasan vafotiga marsiya (har bandi 8 baytli 7 banddan, ya‘ni 112 misradan iborat) yozgan. Marsiyada ko‘rkamli olim, fozil va shoirdan, ajoyib insondan judolik tuyg‘ulari, dil armonlari, samimiy va tiniq insoniy kechinmalar qalamga olinadi. Sayyid Hasan Navoiy hayotida, uning ijodiy kamolotida muhim o‘rin tutgan. Shair o‘zining birinchi yirik «Hasbi hol» deb yuritiladigan asari — she‘riy maktubini Samarqanddan Sayyid Hasanga yuborgan, bu hol yuqoridagi fikrimizga ma‘nodor dalildir.

140. «Suluk ixtiyor qilib, arbainlar chiqarib, ko‘p maqosidi ma‘naviy hosil qildi» — qirq kun chilla o‘tirib, toat-ibodatlar bilan ko‘p ma‘naviy maqsadlarga erishdi, degan ma‘noni anglatadi.

141. Tarj.: Dilorom bilan tong paytida to‘la qadaxlarni sipqorishdan, g‘uncha singari har ikkimiz tor bir qo‘ylak ichida chirmashib quchushmog‘imizdan yoqimliroq nima bor?!

UCHINCHI MAJLIS

1. Madda zillahu—arabcha: Ollah soyasini (ya‘ni, umrini) uzun qilsin!, demakdir.

2. Xoja Muhammad Tayobodiy — Jomiyning maxsus xizmatkori.

3. Tarj.: Yo‘lovchi, bilgilki, qahr paytida qiyinchiliklarni ko‘tarish oson [ko‘rinadi], tuyaning og‘zida quruq yantoq xurmodek totli [tuyuladi].

4. «Mushorun-ilah va mo‘‘tamadun-alayh» arabcha: ishorat, ya‘ni zikr qilib o‘tilgan va o‘ziga e‘timod (ya‘ni, ishonchli)li bo‘lgan, demakdir.

5.«Iydiya» — arabcha: bayramona, hayitlik ma‘nosini anglatadi.

6. Tarj.: Shukr, ey ko‘ngil, yana yuz bezak va go‘zallik bilan bayram go‘zalining gardani yangi oy og‘ushiga kirdi.

7. Tarj.: Ko‘ngli siniq, holi parishon oshiqni o‘ldirma. Qanoti singan qushga jafo toshini nega otasan?

8. Tarj.: Hamisha qomating tufayli nolayu zor chekaman. [Bu] balo daraxti devonalik mevasini bermasa edi, deb qo‘rqaman.

9. Tarj.: Holdan tolganligidan iyagining aylanasi bulturgi olmaga o‘xshab qolgan edi.

10. Mavlono Sayfiy (vaf. 1503, Buxoro)—shoir, adabiyotshunos. Buxoro va Hirotta tahsil olgan. 1487 y. Buxoroga qaytgan. Sayfiyning 2 ta devoni: «Risolai aruz», «Risolai musiqiy» asarlari bor. Birinchi risolasi she‘r va shoirlik, aruz qonun-qoidalari, bahri va doiralari anchayin sodda va ravon til hamda uslubda yaratilgan. She‘rlar devonida an’anaviy g‘azalchilik yo‘lida yozilgan she‘rlarni mazmun jihatidan o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ularda, Navoiy ta’kidlaganidek, kasb-hunar egalari madh etiladi. Ma’lumki, keyinchalik bu xil asarlar «shahroshub» (shahr ahlini hayajonlantiruvchi) she‘riyat deb atala boshlangan.

11. Tarj.: Ey ko‘ngil, jononim nozik belini ta’rif qilding, bu bilan jonimning nozik jonini tilga olib, yaxshi ketding.

12. Tarj.: Pardozi go‘zalim, ko‘p kishilar bilan chiqishadiyu, men xastaning holiga aslo parva qilmagin.

13. Mavlono Osafiy — Xoja Shamsiddin Hiraviy (tug‘. 1449, Hirot — vaf. 1517)—shoir. Hirot adabiy muhitining yirik namoyandaligidan. Sohibi devon shoir. Uning mukammal devonini 1968 yilda Hodi Arfa’ Kirmoniy katta so‘z boshi bilan Tehronda nashr ettirgan. Xondamir «Makorim ul-axloq»da Navoiy bilan Osafiy oralarida o‘tgan iliq hazil bilan yo‘g‘rilgan bir suhbatni keltiradi. Navoiy o‘zining «Soqiynoma»sida Osafiyni yaqin do‘stlari va hammaslamlari qatorida hamda zakovatli shoir sifatida tilga oladi. Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoye’» (Voqeyi badialar) asarida ham Jomiyning bir g‘azaliga javob yozish tavsiya qilinganda, Osafiy va Hiloliy mas’uliyat sezib, javob yozmaganliklarini hikoya qiladi. «Majolis» tarjimoni Faxriy Hirotiy Navoiy adabiy anjumanlarida Osafiyning quyidagi:

Badin joni balokash kas nakardast, onchi man kardam,

Dar in chashmi siyahro‘ kas nadidast, onchi man didam.

(Tarj.: Bu balokash jonga hech kim menchalik jafo qilmagan. Bu qaro ko‘z bilan men ko‘rganni hech kim ko‘rmagan) matlaini yoddan o‘qib yurganligi haqida xabar qiladi.

Faxriy yana Osafiyning Navoiy vafotiga yozgan marsiyasidan bir bayt va tushirgan quyidagi ta’rixini keltiradi:

*On Miri balandqadr, oliy rutbat,
Chun kard az in jahon ba jannat rixlat,
Az soli vafotu joyi u pursidam,
Dodand javobi manki, jannat, jannat!*

(Tarj: Yuksak qadrli [va] oliy martabali ul (A) Mir bu jahondan jannatga ravon bo‘lganida, men vafot yili bilan uning joyini so‘radim. Menga «Jannat, jannat» — deb javob berishdi. so‘zlaridan «abjad» hisobida Navoiyning vafoti yili 906 (1500—1501 y.) chiqadi.

14. Tarj.: Muxtasib (shariatga xilof ishlarni tekshiruvchi) mayxonadan o‘tarda may quyqasini to‘kib tashlamadi. Boshimizga bir balo kelib edi-yu, lekin yaxshilik bilan o‘tdi.

15. Mavloni Binoiy — Kamoliddin Ali ibni Muhammad Sabz (tug‘. 1453, Hirot — vaf. 1512, Nasaf (hozirgi Qarshi) shoir, tarixchi, musiqachi. Otasi Muhammad Sabz banno — binokor, bo‘lgani uchun shunday taxallus tanlagan. She‘r yoza boshlaganida «Xoliy» taxallusini qo‘llagan. Jomiy va Navoiy adabiy maktabida voyaga yetishgan. 1487 yil Tabrezga Sulton Ya‘qub saroyiga ketgan. 1491 yil Hirotga qaytgan. So‘ngra Samarqandda 1500 yildan boshlab Shayboniyxon saroyida xizmatda bo‘lgan. 1510 yillardan Nasafda istiqomat qila boshlaydi. Binoiy 1512 yilda Eron shohi Ismoil Safaviyning Shayboniyga qarshi yurishida Qarshidagi qatli omda shahid bo‘ladi. Binoiyning 3 ta devoni, «Behruzu Bahrom» nomli dostoni, «Majma‘ ul-g‘aroib» (Ajoyib to‘plam) nomli qasidasi, «Shayboniyнома» va «Futuxoti xoniy» (Xon g‘alabalari) degan tarixiy asarlari, «Nuh rang» (To‘qqiz rang) va «Savt un-naqsh» (Naqsh savtlari) nomi ostida musiqaga oid ishlari ma‘lum. Binoiyning tarixi asarlari Muhammad Shayboniyxon xonadoni, shaxsiyati va hukmronligi, yurishlari voqealarini qamrab oladi.

Navoiy bilan Binoiy orasida qandaydir ziddiyat, to‘qnashuvlar bo‘lgani haqida Bobur ma‘lumot beradi va ba‘zi latifaga o‘xshash voqea, gaplarni keltiradi. Har qalay, Navoiyning Binoiy haqidagi maqolada unga haqqoniy baho bergani, iste‘dodini madh etgani, «Soqiynoma»da yodga olgani ular munosabatida keskin adovat bo‘lmaganligidan dalolat beradi. Binoiy ijodi haqida katga tadqiqot yaratgan olim akad. A.Mirzoyev bu masalani izchil tekshirgan hamda Binoiyning Navoiy haqidagi ta‘riflarini keltirib ijobiy dalillab bergan.

16. Tarj.: Kimki yorimning ko‘zlarini surma bilan qoraytirgan bo‘lsa, xuddi surmadek mening ro‘zgorimni (hayotimni) qora qildi.

17. Mavloni Muhammad Badaxshiy— qarang: ushbu kitob, IVmajlis. Xondamir va Vosifiy uning Navoiyga 30 yil xizmat qilgan yaqin kishilaridan bo‘lganligini e‘tirof

etadilar.

18. Tarj.: Kimki sarv [qomatligim]ning sallasini bejab qo‘ysa, chamandan suman guli terib nima qiladi?!

19. Xoja Majdiddin Muhammad (vaf. 1494, Tobuq)— Shohrux Mirzoning devonboshisi Xoja Pir Ahmad Xoniyning o‘g‘li. Husayn Boyqaro saltanatida parvonachi (vazir muovini, farmon ijro etuvchi) va vazir bo‘lgan. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, saroydagi ma’lum fitna-fujurlar Majdiddinga borib qadaladi. Bobur yozishicha, Husayn Boyqaroga birmuncha mablag‘ zarur bo‘lib, xazinachilardan so‘raganda, ular “yo‘qdir” deydi. Majdiddin yolg‘iz qoldirishlarini o‘tinib, shoh nazdiga shart qo‘yadi: «mening iligimni (qo‘limni) qaviy (kuchli) qilib, so‘zumi tajovuz qilmasalar (qaytarmasa, cheklamasalar) oz fursatda andoq qilayki, viloyat ma’mur va raiyat shokir (shukr qilgan) va xizona (xazina) mag‘fur (mo‘l) va sipohi vofir (farovon) bo‘lg‘ay». Shundan so‘ng shoh butun Xuroson uchun muhim ishlarni bajarishni Majdiddin ixtiyoriga topshiradi. Oz fursatda ko‘p yaxshi ishlarni bajarib, «viloyatni ma’mur va obodon qildi», deb yozadi Bobur. Lekin saroy «a’yonlari va beklari bilan ziddona maosh» (ziddiyatli muomala) qilgani uchun Majdiddin poytaxtdan uzoqlashtiriladi, taftish paytida behad boyliklar yig‘gani oshkor bo‘ladi.

Rus sharqshunosi Ye.E.Bertel's yozishicha, Navoiyning Astrobod hokimi qilib tayinlanishini, ayniqsa 1488 y. poytaxtdan noxush xabarlar eshitgan Navoiy Hirotga kelganida Husayn Boyqaro darhol qaytishini lozim ko‘rganini Majdiddinning nojoyiz faoliyati bilan bog‘laydi.

Bu yerda Navoiy Majdiddinning ehtiyojmandlarga bo‘lgan ters munosabatiga urg‘u bermoqdaki, shoir uning saroydagi faoliyati davrini «Majdiddin buzug‘lig‘lari» deb atagan edi.

20. Tarj.: Xoja Majdiddin ishimizni yo‘qqa chiqardi. Ushal kun qog‘ozimizni o‘qimay chirmadi qo‘ydi.

21. Tarj.: Yo‘lingga qalam singari boshim bilan to‘xtalmay yurib kelaman. Ey oy, men uchun xatdan sehrgarlik yo‘lini tuzding.

22. Mavlono Hasanshoh — Hirotning mashhur shoirlaridan. Xondamir “Habib us-siyar”da bu shoirning nozik iste’dodi, shirin suxanligi, har qanday majlisga fayz kirita olgan suhbatdosh bo‘lganini ta’rif qilib, yoshlik davrida Boysung‘ur Mirzoning o‘g‘li Sulton Muhammad mulozimi ekanida ular orasida o‘tgan bir hazl-mutoyibali naql keltiradi. Deyarli xuddi shu naqlni biz yuqorida Bobo Savdoiy nomi bilan bog‘li holda keltirgan edik (qarang: ushbu qitob, 224-bet, 82-izoh). Lekin bu naqlda Muhammad Sulton Hasanshoh shoirga 5000 dinor inoyat qiladi. Hasanshoh bilan Navoiy orasida

bo‘lib o‘tgan hazl hangomani Vosifiy keltiradi: “Hasanshoh ro‘zg‘ordan qiynalib, o‘g‘liga Navoiyga borib, otam o‘ldi, degin. Pul bersa yegulik narsalar xarid qilib kel,— deydi. Navoiy o‘g‘liga 30 xoniy pul beradi va achinib tasalli aytadi. Ertasi Hasanshoh

Navoiy huzuriga kirib keladi. Navoiy uni ko‘rib rosa kuladi va deydi: Ey Mullo, siz o‘lib edingizku, bu nimasi? Hasanshoh javob qiladi: Agar kecha pul bermaganingizda o‘lgan bo‘lardim”.

Xondamir ma‘lumotiga ko‘ra, Hasanshoh vafotiga Amir Sulton Ibrohim Aminiy degan shoir qit‘a ta‘rix tushirgan ekan. iborasidan abjad hisobi bilan 907 (1502—1503) yil kelib chiqadi.

23. Tarj.: Labing to‘g‘risida bir so‘z aytmoq istayman. Ul og‘iz haqida birgina so‘z aytmoq istayman.

24. Mutahhari Udiy — Hirot madaniy muhiti namoyandalaridan.

Aftidan tabiatida tama‘girlik, hirs kabi xislatlar bo‘lsa kerakki, Hasanshoh shoir bilan aloqador badixona qit‘a aytilishiga sabab bo‘lgan voqeani Xondamir . «Habib us-siyar»da keltiradi.

25. Tarj.: Mutahhar — oti bor o‘zi yo‘q narsadir. Najosatni mutahhar (tozalovchi) deb bo‘ladimi? Eshagi eshakka chopadiyu u pul topadi. Demak uni eshak aldovchi desa bo‘ladi.

26. Tarj.: Bir qo‘lingda qilichu bir qo‘lda qalam. Qilichbozlikni qo‘yib, qalamzanlik (yozuvchilik) qilgil.

27. Tarj.: Ko‘zga aytdimki, beadablik bilan qarama; u dediki, beadablik nima qilsin, ayni mushtoqlikdan, bu.

28. Firdavsiy Tusiy — Abulqosim Mansur ibni Hasan Tusiy (tug‘. 934, Tus shahri yaqinidagi Tabaronning Boji qishlog‘i — vaf. 1021) fors adabiyotining mashhur shoiri. Zamona bilimlarini puxta egallagani sababli uni “Hakim” degan faxrli unvon bilan atashgan. Yoshlikdan qissayu rivoyatlar, asotir va o‘tmish tarixi bilan qiziqqan, Firdavsiy Abu Mansur, Abulmuayyad Balxiy, Mas‘ud Marvoziy va Daqiqiy kabi shoirlarning «Shohnoma»larini qunt bilan mutolaa qilgan. 975-976 yillarda o‘zi «Shohnoma» yozishga kirishadi va 994 yilda uni tugallaydi. Asarni qayta tahrir qilish ishlari 1010—1014 yillarda yakunlanadi. Firdavsiyshunoslikda bu ikkinchi tahrirni shoir hukmron Mahmud G‘aznaviyga mo‘ljallab, u haqda o‘rni-o‘rnida madhu sanolar kiritgan, lekin shoh asardagi istilochilarga, zulmkorlarga oid aqidalarga rag‘bat, arablar va ularning diniga bo‘lgan zid qarashlardan kelib chiqib unga nopisand munosabatda bo‘lgan. Bunga

javoban Firdavsiy 100 bayt Mahmud Gʻaznaviyga hajviya yozib asarga kiritgan, deb talqin qilganlar. 1990 yil oxirida Eronda «Shohnoma»ning 1000 yilligi gʻoyat tantanali tarzda nishonlandi va shu munosabat bilan oʻtkazilgan Jahon Koigressida qilingan maʼruzalarda «Shohnoma»dagi Mahmud Gʻaznaviy haqidagi misralar va alohida hajviya Firdavsiy qalamiga mansub emasliga masalasi jiddiy qoʻyildi. Ushbu satrlar muallifi ana shu kongressda ishtirok etdi va yubiley munosabati bilan tashkil etilgan barcha tadbirlarda qatnashishga, koʻrgazmalar bilan tanishishga, qoʻlyozmalar saqlanayotgan fondlarda boʻlishga muyassar boʻldi. «Koxi Guliston» muzeyi fondida saqlanayotgan «Shohnoma»ning 40 ta Movarounnahr va Xuroson nusxalari asosida Boysungʻur Mirzo tashabbusi bilan tayyorlangan va uning mufassal soʻz boshisi mavjud hamda nafis 22 miniatyura va naqqoshlik sanʼatining hayratomuz namunalari bilan bezatilgan, nihoyatda goʻzal xat bilan 1429 yilda koʻchirilgan nodir va noyob qoʻlyozmasini oʻz koʻzi bilan koʻrish baxtiga musharraf boʻlganini bildiradi. Bu qoʻlyozma jahonga «Shohnomai Bonsungʻuriy» nomi bilan mashhur boʻlib, xalqimiz madaniyati tarixining zarrin sahifasi sanaladn. Aytish kerakki, Boysungʻur Mirzo muqaddimasi «Shohnoma»ning ilk tadqiqoti sifatida eʼtirof etiladi. «Shohnoma»ning eng qadimgi qoʻlyozma nusxasi Italiyaning Florensiya shahrida saqlanar ekan. Yubileyga ana shu nusxaning fotofaksimilesi va 7 jildli 4 kitobdan iborat fransuz olimi Jyul' Mul' tayyorlagan matn asosidagi nashri chop etilgan edi. Oʻzbekistonda «Shohnoma»ning uch jildln tarjimai bosilgan. Tarjimonlar Sh.Shomuhamedov, Nazarmat, Hamid Gʻulom va Jumaniyoz Jabborovlardir. «Shohnoma» va oʻzbek adabiyoti problemi yuzasidan adabiyotshunos H.Hamidov qator tadqiqotlarni amalga oshirgan.

29. Tarj.: Oʻshanda koʻp qoʻtoslarning moda va narlarini zanjir bilan bir-biriga [shunday] bogʻladilarki, xandaq oldida fillarga qarshi toʻsiq [paydo] boʻldi. Nega fildan qoʻrqishlik kerak, u ham sigir va eshak kabi toʻrt oyoqli [hayvon]dir.

30. «Haft paykar»—Yetti goʻzal. Nizomiy Ganjavny dostoni.

31. Tarj.: Paygʻambarlikka sen loyiqsan, [chunki] qoʻlingda, nomang bor. Muhri esa taʼzim [yuzasidan] orqasidadir.

32. Tarj.: Ul notekis keng dashtda bamisoli tipratikonga oʻxshash qirilmagan boshlar yotar edi.

33. Mavlono Darvesh Mashhadiy — Faxriy Hirotiy oʻzidan ilova qilib: bu shoirning yomon tilligi, johilligi Navoiy aytganidan yuz chandon koʻpdir. Lekin odamlar uning Allohdan oʻzining it feʼli, nafsdan forigʻ qilishlikni iltijo qilib yozgan darveshona bir bayti uchun afv etadilar, deb yozadi va forsiyda yozilgan bir baytini keltiradi.

34. Tarj.: Uning qoshidan bayram oyi asarini koʻrdi. Ul oydan darak boʻlmaganiga yil [ham] boʻldi.

35. Tarj.: Gulning yuzi (haqida) yana bir ovoza yuksalmaguncha, bo'stonda bulbuldan ham sado chiqmaydi.
36. Tarj.: Yana ul fasl keldiki, bazmning sham'i loladek porlaydi. Ra'no guli la'l kabi qip-qizil mayni oltin qadahda ko'taradi.
37. Tarj.: Kecha muhtasib hol so'rab derdi: May arzon bo'ldi, puli halollar qaydasiz?
38. Tarj.: Evoh, ey do'stlar, ul shirin la'l havas yuzasidan bizni o'ldirdi. Pashshadan bo'lak hech kim boshimizga kelmadi.
39. Tarj.: Raqib bilan so'zlashib turganingni ko'rdimu bu meni o'ldirdi. So'zlashdan to'xtadingu menning jonim tinchlandi.
40. Tarj.: Ajab emaski, agar bugun kechqurun parvona sham'ning umr daraxti xazon bo'la boshlaganini ko'rib jonini tark etsa.
41. Tarj.: Qanday yaxshi vaqtiki, go'zalim qo'lida g'azab qilichi bilan kelsa-yu hamma raqiblar qochib ketsalarda, men u bilan yolg'iz qolsam.
42. Tarj.: G'am tunida dilimdan chiqqan dud ul [go'zalning] kokili yodi bilan buralib va jingalak bo'lib ko'tariladi.
43. «Ohiy» — Faxriy Hirotiy «Oyatiy» deb beradi.
43. Tarj.: Oydin go'zal bo'lgan chehrasining sahifasi yodi bilan Qur'ondan fol ochsam, «Yusuf surasi» chiqdi. Bu yerda qalamga olingan Qur'oni karimdagi 111 oyatdan iborat «Yusuf surasi»da go'zallik timsoli Yusuf payg'ambar qissasi bayon etiladi. Shu asosda badiiy adabiyotda Qur'onda nomi zikr etilmagan ayol rivoyatlar zaminida Zulayxo deb atalib, doston va qissalar yaratilgan. O'zbsk adabiyotida «Yusuf va Zulayxo» dostonini XIV asr oxiri XV asr avvalida yashab ijod etgan Durbek degan shoir yozgan. Lekin afg'onistonlik olim Yoqub Vohidiy bu doston muallifining nomi Homid Balxiy degan masalani ko'tardi.
45. Tarj.: Ul quyoshning suvratiga shunchalik hayronmanki, agar menga tig' ursalar ham ko'zimni yummay turaveraman.
46. Tarj.: May ichish paytida soqiy may qadahining og'zini yopgani kabi ul [go'zalga] nima bo'ldiki, qopqoq bilan mening ko'zim qorasini berkitib qo'yadi.
47. Tarj.: Ey, mayning toblanishidan sening ruxsoring guli rang-barang bo'ladi, jamoling

bogʻining sabzasi ozgina-yu guli koʻpdir.

48. Tarj. Lutf-marhamatingni arzon qilib, goho gʻariblarni yoʻqlab tursang yomon boʻlmas edi. Chunki marhamat koʻrgazish goʻzallarning goʻzal odatidir.

49. Tarj.: Qoshing bilan bahslashishda yangi oy tezlik qilar va chimirilar edi. Quyosh yuzingni koʻrgach, oʻzini yumaloq va yassi qilib oldi.

50. Tarj.: Agar gʻam burchagida ul kumush tandan uzoqlikda oʻlib qolgudek boʻlsam, oʻlgan kunimning oʻzidayoq ishq ishiga xalal yetadi.

51. Tarj.: Gʻam sahrosida devonavor oʻzim-oʻzimga chang solaman. Goh toshni changallayman, goh tosh changalimdan tushib ketadi.

52. Tarj.: Mening koʻzimga togʻ bilan dasht fazosi tor boʻlib qoldi. Chunki menda Farhod gʻami va Majnun ishqining balosi bor.

53. Tarj.: Gʻamingda toʻkkan qonli koʻz yoshlarimdan menga tekkani — uning har bir qatrasini dilimning tugunlarini yechgani boʻldi.

54. Tarj.: Ul jaf o axtaruvchi [yorim] menga [hamisha] ozor berganidan ozgina qilgan gʻamxoʻrlihi ham koʻpdek tuyuladi.

55. Tarj.: Ey dil, hamisha taqvo ahli bilan ulfat boʻlaverish yaramaydi. May quyqasini yalaganlar bilan ham bir necha kun birga boʻlish kerak.

56. Tarj.: Zulfiing domiga tushdimu devonalikda shuhrat qozondim.

57. Tarj.: Koʻz yosh gavharlarini yor yoʻliga sochdim. Oshiq boʻlganim uchun shodman, xoʻb ish qildim!

58. Tarj.: Uning yoshlik chogʻini koʻrdim va din ahliga koʻrsatdim. Jonlarga balo boʻlsin, buni sizlarga topshirdim.

59. Tarj.: Muhtasib agar rind boʻlsa mayxona eshigini oʻzi ochib beradi. Rindlar uchun mayni yer ostidan boʻlsa ham paydo qiladi.

60. Mavlono Hiloliy — Badriddin (vaf. 1529, Hirot). Astrobodda dunyoga kelgan, Yili maʼlum emas. Hiloliy qalamiga 1 devon va «Shoh va Darvesh», «Sifot ul-oshiqin», «Layli va Majnun» nomli 3 doston mansub. Devoni 2700 baytdan tarkib topgan boʻlib, uni shoirning oʻzi 1521 yilda tuzgan. Faxriy Hirotiy tarjimasiga ilova qilib yozadi: «Hazrat Amir (yaʼni, Navoiy) duosi qabul boʻlib, shoir sheʼriyatda hamma mahorat

uslublarini paydo qildi va o‘z zamonining nodiriga aylandi» hamda Hiloliyning uchchala dostonidan 5 baytni misol tariqasida keltiradi. Muhammad Qazviniy ham o‘zidan: «Mir Alisher taklifi bilan ilmlarni egallash va oxiriga yetkazishga mashg‘ul bo‘lgan» deb qo‘shib ketadi. Hiloliy timsolida Navoiyning adabiyotga kirib kelayotgan umidli yosh kuchlarga alohida e‘tibor bilan qaraganini ko‘rish mumkin. Hiloliy ilk daf‘a Navoiyga o‘z she‘rini o‘qib berganda undagi badiiy iqtidorni sezib, taxallusini so‘raydi, «Hiloliy»— deb javob beradi. Shunda Navoiy «Hiloliy» emas, Badriy, Badriy!» (ya‘ni, sen «yangi oy» emas, «to‘lin oy» ekansan ma‘nosida), deb shoirni maqtaydi. Yana boshqa hikoyatga ko‘ra, kunlarning birida Navoiy shoirlarga ustoz Jomiyning mashhur g‘azaliga javobiya g‘azal yozishni buyuradi va eng yaxshilari uchun mukofot belgilaydi. Shunda Hiloliy va Osafiy degan shoirlar javob g‘azal yozmaydilar. Navoiy buning sababini so‘raganda, — javob yozishda o‘sha asardan ortirib yoki hech bo‘lmasa uning saviyasida yozish lozim, biz esa o‘zimizda yetarli kuch sezmadik, — debdilar. She‘rshunoslikda juda quvvatli ekansizlar deb, mukofatni Navoiy ana shu ikkala shoirga bergan ekan.

61. Tarj.: Bugun ul xushraftor va xushqomat neni shunchalik oyoqdan qoldirdiki, ertaga, balki qiyomat ertasiga ham o‘rnimdan tura olmasman.

62. Tarj.: Ey oqil, devonaga uyni nima keragi bor. Chunki men devona uyga boradigan yo‘lni bilmayman.

63. Tarj.: Yorning miyig‘i va labi sabz va qizil tusda jilva berganda, xasta ko‘nglimdan sabzrang va qizil o‘t ko‘tarildi.

64. Tarj.: Xudo sening xayoling bilan meni hamisha shod qilsin. Agar xayolingdan ayrulgudek bo‘lsam xudo saqlasin!

65. Tarj.: Bir Layli yuzli qonim ustiga barini yeldirib yetib keladi. Bu vaqtda Majnun dilimning ahvoli qanday bo‘lishligini bila olmayman.

66. Tarj.: Ko‘zlarim oy yuzli yorga [boqishdan] judo bo‘lgandan beri dilim qondan judo bo‘ldi, ko‘zlar qon to‘kishdan to‘xtadi.

67. Ko‘ftgarlik — po‘lat aslaha, anjomlarni tilla suvi bilan qoplash san‘ati. Muhammad Qazviniy tarjima izohida ko‘ftgarlikni kuftapazlik (taom turi) deb bergan.

68. Tarj.: Shundan xursandmanki, otgan o‘qi noshod ko‘nglimga jo bo‘ldi, endi o‘z o‘qini qidirganida meni ham yodiga oladi.

69. Mavlono Sohib — Fasihiddin Sohib Doro nomi bilan mashhur qasidanavis shoir. Navoiyning yaqin suhbatdosh do‘stlaridan. Navoiy vafotidan so‘ng Husayn Boyqaro

kitobxonasiga kitobdor qilib tayinlangan. Xondamir «Habib us-siyar»da Sohibning asli Astroboddan, deb yozadi va shaxmat-shatranj bobida xoh kabir, xoh sag'irni hozirona va g'oyibona tarzda yuksak mahorat bilan o'ynar edi, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Sohib Navoiy vafotiga marsiya ta'rix yozganini xabar qiladi. Muhammad Qazviniy esa Sohibning insho fanida mohir bo'lganini qayd etadi va Navoiy bilan Sohib oralarida bir safar asnosida, bo'lib o'tgan hazl-mutoyibani keltiradi hamda abjad hisobida har baytning birinchi misraidan Navoiyning tug'ilgan yili ikkinchisidan vafoti yili ta'rix chiqadigan qasida marsiyasini beradi. Bu qasida har bandi 8 baytli 5 banddan iborat bo'lib, shunday boshlanadi:

(Tarj.: Ey falak, shu yanglig' bedodlig' va berahmlig' qilding.

Vey ajal, jahon mulkini vayron qilding).

Birinchi baytdan 844 (1441), ikkinchisidan 906 (1501) kelib chiqadi.

Vosifiy Sohib Doro ota tomonidan menga qarindosh edi, deb yozadi.

Muhammad Shayboniyxon Naxshabdan chiqib, Hirotni bosib olishi munosabati bilan ham Sohib Doro qasidata'rix yozgan ekan. Vosifiy Sohib Doro nomidan «Badoye' ul-vaqoye'»dan bir turkum hikoyatlar keltiradi.: Ularning aksariyati Navoiy va zamondoshlari haqidadir. (Qarang: Boldi'rev A.N. Navoi v rasskazax sovremennikov. Sb. Alisher Navoi. M. — L., 1946).

70. Tarj.: Ey do'stlar, tokaygacha menga yor ko'chasiga borishlikni man' qilasiz, borishni tark qilmayman, mendan kechib qo'yaqoling.

71. Tarj.: Siyamda sitamkorning o'qidan yara bor. Jonim dildan, ovora dilim esa jondan batang keldi.

72. Tarj.: Shunday bir kimsani istaymanki, jon chiqar paytda menga o'z libosini kiygizsa, o'ladigan kunimda tobutimga ham yopsa.

73. Tarj.: Mening qaro baxtim habibim bilan uchrashishga mone'lik qildi, qanday badbaxtmanki, qaro baxtim ham mening raqibimga aylandi.

74. Tarj.: Dilim benavo bo'ldi, shuning uchun u g'amgindir, benavoning ham hamesha shunday bo'ladi.

75. Tarj.: Ul og'izni baqbaqa ustidan qidirdim, u oy kulib dedi: bu yerdan tilak hosil bo'lmas.

76. Tarj.: Ey oy [yuzligim], bu kecha o‘z nuring bilan bu koshonani ravshan qil, bo‘lmasa, bu uyga o‘t qo‘yib yuboraman.

77. Mavlono Majnun — Kamoliddin Mahmud Rafiqiy degan xattot va shoirning o‘g‘li. Uni «Majnun chapnavis» deb ham ataganlar. Chunki u chapdan o‘ngga qarab yozish usuli «bozguna» xatining mohir ustasi bo‘lgan (Qarang: Kazi-Axmad. Traktat o kalligrafax i xudojnikax (Vvedeniye, perevod i kommentarii B. N.Zaxodera). M.—L, 1947). «O‘rta Osiyo xattotlik san‘ati tarixi» kitobining muallifi, olim va xattot A.Murodov ma‘lumotiga ko‘ra Majnun «Risolai qavoidi xutut» (Xatlar qondalariga oid risola) nomli asar yozgan. Majnun harf shakllarini nuqta o‘lchovi sistemasi asosiga qurgan ekan. Xondamir esa Majnunning yaxshi qasidalar yozganini bildiradi.

78. Tarj.: Va‘z eshitishga borib, zor-zor yig‘layman. Bu bahona bilan yor hajrida yig‘layman.

79. Tarj.: Agar Layli va Majnun haqida yuzlab rivoyat bor bo‘lsa, bular bizning ishqimiz voqealarining hikoyasidir.

80. Tarj.: Sharob qadahida rindlarning boshi hubob bo‘ldi. Ko‘p boshlar [esa] qadah boshida sharobga aylandi.

81. Tarj.: Ey turk go‘zalim, har gal sen ziynatxonaga kirganningda, uni Xitoy suvratxonasiga aylantirib yuborasan.

82. Tarj.: Koshki edi, doim oyna uning qarshisida tursa, uning nazari boshqa ag‘yor tomoniga tushmas edi.

83. Tarj.: Nozli go‘zalimga dilim ahvolidan so‘zlab nima qilaman, axir sevgim izlari sarig‘ yuzimdan ko‘rinib turibdiku!

84. Tarj.: G‘am vodiysida sapamlar ishqida shuncha oh urdim. Endi men g‘am-diyda shodlik bilan kam nafas olayapman.

85. Tarj.: Har dam u maygun lablardan uzoqlashsam, ikkala qon sochuvchi ko‘zlarimdan kosa-kosa qon to‘kaman.

86. Tarj.: Garchi Majnunning dili ishq g‘amidan to‘la qon bo‘lgan esa ham, lekin mening bu holim qaysi Majnunda bo‘lgan?!

87. Tarj.: Ul qotil dilim xonasiga o‘z dog‘i bilan shunday muhr bosdiki, uning mehri o‘lganimdan keyin ham dilimda qolsin.

88. Tarj.: Ey dardlilarning qotili, sening tig'ingdan dardmandlar dili g'unchadek qon bo'lib ketgan.
89. Tarj.: Ul quyosh yuzlining tor og'zimi yaxshilab ko'rgim keladi, uning yuziga ko'zim tushishi bilan ko'zlarim xiralashib, ko'ra olmay qoladi.
90. Tarj.: Men sochlari to'ziq aqldan begonaman, ul parichehra ishqida dsvonaman.
91. Tarj.: Har bir xafa kishining nolasi [unga] jafoning ko'pligidandir. Men esa menga ham jabr qilganidan nola qilaman.
92. Tarj.: Ey parichehra, agar sen ko'zlarim saroyiga kelsang, dilim ko'zlarim pardasidan senga poyondozi to'shaydi.
93. Tarj.: Bugun kechani yorituvchi ul sham', mening mehmonim bo'ldi. Koshki edi, bu kecha qiyomatgacha tong otmasa.
94. Tarj.: Uning orzusida zarradek doim parishonman. Yuzining oftobisiz tinchligim ham yo'q.
95. Tarj.: Ey xushqomat sarv, ey jafu qiluvchi sho'xim, g'amlaring o'qidan bu majruh tanim chakalakzorga aylandi.
96. Tarj.: Dilim kaftidagi dog'lar yorimning qo'lidan kelgan. Garchi ular kuydirsada jonimning oromidir.
97. Tarj.: Hech vaqt yor mening zor-zor yig'laganimdan afg'on chekmadi. Chunki men uning afg'oniga yig'lamagan edim.
98. Tarj.: Agar dildorimga bir og'iz so'z aytish imkoniyatini topsam, afgor dilimning ahvolini arz qilardim.
99. Tarj.: Kimki qarshisida sening jamoling kitobini ko'rarkan, u qanday qilib mutolaadan ko'z uza oladi.
100. Tarj.: Garchi hayotim durust o'tmasada, ishq bilan shodman, bo'lak qismatim yo'q. Turmushning yaxshiligi va yomonligi bilan ishim yo'q.
101. Tarj.: Hijron vodiysida dard bilan g'amdand boshqa narsa yo'qdir. Undan [yorning] xayoli bilan olam [tashvishlaridan] osoyish topaman.
102. Tarj.: Ey soqiy, biz adabsizliklar qilsak ajablanma. Biz mast kishilarmiz, bizlarda

adab bo‘lmaydi.

103. Tarj.: Men uning itlari galasi ichidan joy topdim. Ostonasi g‘uboridan ko‘zimni ravshan qildim.

104. Tarj.: Nazar ahli mazorida agar lola unib chiqsa; u lola dil dog‘i va jigar qonidan [iborat] bo‘ladi.

105. Tarj.: Ko‘zlarim sening yuzing havasida bo‘lgani uchun menga orqa o‘girib, senga qarab turadi.

106. Tarj.: Yuzini oy deb atadim. Bu so‘zim butun shaharga tarqab ketdi. Tishlari haqida so‘zlagan edim, og‘zim durlarga to‘ldi.

107. Tarj.: Yorim meni nozu karashma zanjirida tutadi. Yana ishqida devonaligim meni xarob qiladi.

108. Mavlono Ziyrakiy — Hirotda anchayin tanilgan bu shoirning Navoiy «Majolis»da keltirgan g‘azaliga Turk sultoni Salimshoh Misr safari chog‘ida (924/1518 y.) Muhammad Qazviniyga javob yozishni taklif etadi. Qazviniy uning matlasini keltiradi. Vosifiy Navoiy bilan bog‘liq hikoyatlarda Ziyrakiyning turli anjumanlarda ishtirok etganini qayd qiladi.

109. Tarj.: Ishq yo‘lida jafu toshlari yo‘l ozig‘imdir; tog‘u dashtlarda lola — jigar go‘shamdir.

110. Tarj.: Uning yuzidagi xoldan behol bo‘ldim; uni yaratganga ofarinki, bu uning pargori nuqtasi bo‘ldi.

111. Tarj.: Ey falak, suyaklarimni tosh bilan yumshat; mabodo ko‘ngil oluvchimning tig‘ini o‘tmas qilib qo‘ymas.

112. Badiuzzamon Mirzo (tug‘. 1457, Marv — vaf. 1517, Istanbul) — shahzoda, shoir. Husayn Boyqaroning o‘g‘li, onasi Marv hokimi Sulton Sanjarning qizi Bika Sulton begim. Badiuzzamon 1495—1505 yillarda Siyiston va Balx hokimi bo‘lgan. 1497 yilda Astrobod hokimligini talashish natijasida Husayn Boyqaro bilan oralari keskin buziladi. Xadicha begim va vazir Nizomulmulk fitnasi oqibatida o‘g‘li Mo‘min Mirzo qatl qilingach, Badiuzzamon sarkashligi yanada ortadi. Shayboniyxon 1506 yil Hirotni bosib olganda Badiuzzamon Eronga Ismoil Safaviy huzuriga qochadi.

Muhammad Qazviniy ma‘lumotiga ko‘ra, Turk Sulton Salimxon Tabrizni egallaganida Badiuzzamonni izzat-hurmat bilan Istanbulga olib ketadi. Taxtdan umidini uzmagani

Badiuzzamon Sulton Salim xizmatida bo‘ladi va 1517 yilda toun (vabo) kasali bilan dunyodan o‘tadi. Navoiy bu shahzoda siyomosida davlatni idora etish siyosatini puxta bilgan, keng ilmlardan xabardor valiahdni ko‘rishni istagan va bu yo‘lda tinmay harakat qilgan. Unga «Xamsa» dostonlarida pandu nasihatlariga to‘la alohida boblar ajratgan, tez-tez maktublar yo‘llab turgan, jumladan usuli idora xususidagi, Mo‘min Mirzo qatli munosabati bilan va b. Navoiy yozgan maktublari «Munshaot» tarkibida mavjud. Faxriy Hirotiy Badiuzzamonning Mo‘min Mirzo qatliga yozgan quyidagi baytini keltiradi:

Vazidi, ey sabo, barham zadi gulhoi ra'noro,

Shikasti z-on miyon shoxi guli navrastai moro.

(Tarj.: Ey sabo, sen esding va ra'no gullarini sovurding. Shu orada mening endi gullay boshlagan yosh shoximni sindirding). Navoiy «Majolis»ning yettinchi majlisida Badiuzzamon haqida maqola beradi.

A.Murodov Habibning «Xat va xattoton» (Istanbul, 1887) asariga tayanib, Badiuzzamon Mirzonng turli xatlarni puxta bilganligi va ayniqsa, nasta'liq xatida g'oyat go'zal yozganligini bayon qiladi. Badiuzzamonning Abulfayz nomiga yozilgan bir «iydlik» (hayitlik) qit'asining rasmi mavjud ekan.

113. Tarj.: Zor ko'ngilning yonishi hech qachon ko'z yoshi bilan kamaymaydi. Mendagi bu o't faqat tuproqdan taskin topadi.

114. Tarj.: Yolg'izlar zamona bandlaridan ozoddirlar; ular ne birovning tuzog'iga tushgan va na ovchilardir.

115. Tarj.: G'amingsiz nafas ola olmayman; g'amsiz nafas chiqara olmayman.

116. Tarj.: Qo'l dilda, oyoq loyda qolgan; olamda bosh ko'tarib yura olmayman.

117. Tarj.: Dilga doim jafu yetkazib turasan. Boshqalarga qilgan jafolaring menga yana boshqa balodir.

118. Tarj.: Men dilsiz [bechora] hatto soyani ham uning yonida bo'lishini istayman. Ey hajr kechasi, kel va uni yer yuzidan yo'qot.

119. Tarj.: Kechasi ul ko'ngil yorituvchining iti yonida ketar ekanman, shodligimdan tonggacha ko'zimga uyqu kelmadi.

120. Tarj.: Agar mening etagimni malak-farishta tiriklik (Xizr) suvi bilan yuvgan bo'lsa edn, hozirda jononim etagidan qo'lingni uzoq tutgan bo'larding.

121. Tarj.: Jodu ko‘zing tufayli dil yuz pora bo‘ldi; men[endi] bir dil bilan emas, yuz dil bilan yuzingning oshig‘i bo‘ldim.

122. Tarj.: Yuzingsiz motamu g‘amim bor. Motam [bo‘lganda ham] oh qanday motamim bor!

123. Tarj.: Ishqing savdosidan boshim osq ostidadir. Chunki bizning sirrimiz boshlanishini ko‘rmdim.

124. «...abluq yo‘sunluq yigitdur»-ya’ni ikki yuzlamachi (laganbardor) tabiatli yigitdur.

125. Tarj.: Yor mening holimdan, ag‘yor esa afg‘onimdan yig‘laydi. Menga va mening ahvolimga do‘st ham, dushman ham yig‘laydi.

126. Tarj.: Hajringda g‘am olovi boshimga urib ketganida, ko‘zlarim girdobidan sham‘ kabi yoshlar to‘kaman.

127. Tarj.: Uning oy yuzi oyinasiga gard o‘tirmasligi uchun jamoliga bo‘lgan mehr qarshisida ohimning yo‘li bekildi.

128. Tarj.: Ey soqiy, men mastmanu sof may tutasan; agar badmastlik qilsam, yaxshisi, kechirgaysan.

129. Tarj.: Vaslingga bir dam yetishish abadiy hayotdan yaxshiroqdir; vaslingni eslash bilan shod edim, bu zamon shodroqdurman.

130. Tarj.: Kishilar ishqing yo‘lida, bemalol ketaveradilar, oshiq menu, boshqalar bekorga ovora bo‘ladilar.

131. Bu shoir haqida Muhammad Qazviniiy quyidagilarni ilova qiladi. Arabistonda musiqa sohasida keng shuhrat qozonadi. Uning ikki g‘ulomi bo‘lib, ular birgalikda bir-birlariga ovozlarini sozlab, hamovozlikda Shayxiyning asarlarini kuylaganlar. Birisi Siyohcha nomli hindu bo‘lib, Rumga ketadi. U 968 (1560—61) y. da Rumda yashaydi va ul diyorning musiqa sohasidagi mashhur san‘atkorlaridandir. Ikkinchisi rumlik bo‘lib, Hindistonga ketadi.

132. Tarj.: Yonayotgan ko‘ksimdagi bu narsa dog‘ emas, bu ishq muhridirki, sening sevging uchun jonimg‘a bosilgandir.

133. Tarj.: Bahor fasli, gul mavsumida [ko‘ngil] yozish kerak. Ey soqiy, may keltir, aytishning nima hojati bor!

134. Tarj.: Sening kamandingga har qanday baxtsiz ilnnavermaydi. Bu balo [domi] yolg'iz bizning bo'ynimizga tushgan.

135. Tarj.: Kecha oqshom meying nolalarim maloikalar uyqusini qochirdi; oying [atrofidagi] yorug'lik gardishini mening ko'z yoshlarim to'fonidan suv olib ketdi.

136. Bu shoir haqida Faxriy Hirotiy shunday ilova qiladi: Nargisiy Navoiy yozganidek, Marvdan emas, balki Amir (ya'ni Navoiy) xizmatiga Marvda yetishgan. Hozir (ya'ni, «Majolis» tarjima qilingan. 1520 yillarda) Abharning shayxzodalaridan bo'lib, shu o'lka odamlari uning ajdodlarini g'oyat hurmat qiladilar. Agar avvallar bevoshlarga qo'shilib, sharif vaqtini behuda sarf qilgan bo'lsa ham, hozir ko'proq vaqtini ro'za va namoz bilan o'tkazmoqda.

137. Tarj.: Sening ishqing dardi kimniki devona qilgan bo'lsa, Majnun kabi vayrona burchagidan joy egalladi.

138. “Go'yoki birovning mamluki ekandur. Xojasi ani yo ul Xojasini ozod qilibtur” kimningdir asiri bo'lgan bu shoirning ozod qilinishi haqida Navoiy xojasi uni ozod qilibdimi ekan yoki ozodlik olib, Xojasini o'zidan xalos qilibdimn degan ma'noda istehzo bilan yozadi.

139. Tarj.: Ey Zuhra manglayli, seni ko'ra olmay umrim o'tmoqda, esizgina, aziz vaqtlarim shunday o'tib bormoqda.

140. Tarj.: Ey xandon g'uncha, yuragimni siqiqda tutganing uchun jon [bu] yurakdan to'ydi-yu yurak jonimni oldi.

141. Tarj.: Ey zohid, to'ningni keltirib mayga garov qo'y; zohidlik asbobini va toat-ibodat uyini xarob qil.

142. Tarj.: Men ovoraga itlaring oldiga borib, bechora dilim ahvolini aytishga yo'l yo'q.

143. Tarj.: Sharob qadahidan menga jon ravshanligi keladi. Ul tiniq mayning mavji men uchun jon oynasidir.

144. Tarj.: Ey sarvi noz, bizning dilimizdan joy olmaysan, joy olasanku, lekin bizning dilimizdan emas.

145. Tarj.: Ey g'am tuni, ul sham'dan uzoqda mening jamolimni kuydirding; yillar visol kuning va'da qilib, meni yondirding.

146. Mavloni Zeboiy — shoiralar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarda Zeboiyning

ayol shoira ekanligi ta'kidlanadi va Jomiy uni madh etgani bayon etiladi.

147. Tarj.: Sening qomating yura boshlasa, sarvni ham o'z bandasi qiladi, ham ozod qilib yuboradi.

148. Tarj.: Ul lola yuzli meni o'zining quli deb ataydi, oxirda yuzimning qoraligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Navoiy shoirning qora rangli qullardan ekanligini va bu matlai o'z holiga munosib tushganligini bayon qiladi,

149. «Qalloshiy» — shuhratsiz, yalqov, daydi ma'nosini anglatadi. Navoiy shoirning «atvori taxallusig'a munosib» der ekan, uning tabiatida qusurlar borligiga ishora qiladn.

150. Tarj.: Seni olam go'zallarining podshohi qilib yaratgandan odamlarning yomon ko'zidan asrashini tilayman.

151. Mavlono Gadoiy — o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, sohibi devon shoir. «Majolis» yozilgan vaqtda 90 yoshdagi shoir taxminan 806 (1403—1404) yilda dunyoga kelgan. Uning yagona devoni Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Gadoiyning Shohruxning nabirasi Xalil Sultonga bag'ishlangan bir qasidasi bor. Uni E.Rustamov Temur nabirasi Xalil Sultonga xato nisbat bergan edi. Birinchi marta Gadoiy haqida shu satrlar muallifi 1962 yilda maqola e'lon qilgan. 1965 yilda shoir she'rlaridan kichik majmua chiqargan edi. 1973 yilda E.Ahmadxo'jayev Gadoiy devonini Parij nusxasi asosida so'z boshi bilan nashr qildi.

152. Tarj.: Senda anbar [hididan ham xushbo'y] soch paydo bo'lganidan beri bizning ko'nglimiz vatanli bo'lib qoldi.

153. Tarj.: Eshigingda arzga kelgan miskinlar nolayu zor qilib turar ekan, seni go'zallik podshohi deb kim aytadi?

154. Tarj.: Ey dil, uning g'ami bilan bo'lib seni savdoga qo'ydim, o'zim haqimda o'ylamaymanu, sening tashvishingni cheka olamanmi?

155. Tarj.: Mening sarvim dilimdan hzm, ko'zimdan ham joy olgan; u gul kabi pokiza, sabo kabi yoqimlidir.

156. Tarj.: Sening yuzing beqaror dillarning qiblasidir, oyog'ing izlari xoksorlar mehrobidir.

157. Tarj.: Bu kecha uning la'l lablari oshiq qoniga tashna ko'rinadi. Ey soqiy, [unga] may berma, mastlikdan uni uyqu elitmasin deb qo'rqaman.

158. Tarj.: Sen [otgan] o‘q dilim gulzorining daraxti bo‘ldi; u dil yukidan bo‘lak meva qilmaydi.
159. Tarj.: Uning shakar lablaridan garchi menga dashnom yetsada, achchiq so‘zlarida ham shirinlik tuyaman.
160. Tarj.: Men oy yuzingdan yiroqda har kecha sahargacha yig‘lab chiqaman. May idishi kabi qonga to‘la dilim, [ko‘z yoshi bilan] nam ko‘zim qarshisida yig‘laydi.
161. Tarj.: Yuzta so‘zdan hiyla bilan biriga quloq osasan, uni ham aytmassimdanoq esingdan chiqarasan.
162. Tarj.: Hajringda dil dam-badam nolayu oh chekadi. G‘aming dilga qasd qilib edi, endi jonga qasd qilmoqda.
163. Tarj.: Kozurgoh dalalarining havosi va Sultoniyning suvi, agar bilsang, jannat shabadasi va Hizr umrini baxsh etadi.
164. Tarj.: Uning yuzlarisiz kiprigim uchidagi har qatra qon hijron kechasining yonib turgan mash‘ali bo‘lib qoldi.
165. Tarj.: Sahar chog‘ida ul oy yuziga niqob tortganida, xalq orasida quyosh tutildi, deya fig‘on ko‘tariladi.
166. Tarj.: Miyig‘idagi sabzalardan so‘z ochsam, Xo‘tan mushkidan gapirasan; [shunday qilib] qachon bu bilan zulfi haqida so‘zlashasan?
167. Tarj.: Mayxonaga boraman, uning bir burchagidan o‘zimga joy tanlayman, may kosasini topamanu, o‘sha yerda sipqaraman.
168. Tarj.: Yorimdan ayrilib, baloga giriftor bo‘ldim, ne balo bo‘ldiki, yorimdan judo bo‘ldim.
169. Tarj.: Gulzorga to‘kilgan gul bargi emas, bulbul yuragi yarasiga paxtadan qilingan qonli kafandir.
170. Tarj.: Bu yashil gunbazda ko‘ringanlarni yulduz deb o‘ylama, yuzing tomoshasiga maxliyo bo‘lgan hurlarning ko‘zlaridir.
171. Tarj.: Qonga bo‘yalgan lola pardasini xoli kurib, yuragim pardasidan chiqib ketibdi, deb o‘ylabman.

172. Tarj.: Yorimning hajridan kunlarim qaro bo‘ldi. Mening kunlarim va ro‘zgorim hech kimning boshiga tushmasin.

173. Tarj.: Yana miyig‘idagi sabzalar gulzori yangi so‘lim maysalar paydo qildi. Jahon bog‘ining ishi yana boshqa rang paydo qildi.

174. Tarj.: Odamlar oldida ko‘zim yor yuziga tushmasin deyman, lekin u yaqin kelsa, yuziga beixtiyor nazarim tushib qoladi.

175. Tarj.: Ul pari kiygan libos gul bargidandir. Kiyimning har tarafidagi bog‘ichlar emas, uning par va qanoatlaridir.

176. Tarj.: Qaddim kamondek egildi; umr oltmishga yetdi, yoshlik yoydan o‘qdek tilib ketdi.

177. Tarj.: Zaiflik dil xastaligidan emas, sening hajringdandir. Dil nolasidan tab‘ing ranjimagay, deb qo‘rqaman.

178. Tarj.: Tunda biz oshiqqlarning to‘shagi qora tuproqdir, xolos. Ustimizga yopgan choyshabimiz [esa] osmondir, xolos.

179: Tarj.: Ey sham’, bu kecha ul oyning yuziga da’vo qilishdan kech, majlisimizni qorong‘u qilding, endi tilingni qisqa qil.

180. Faxriy Hirotiy bu shoirning nomini Xoja Mir Mast ekanligini va avval «Fig‘oniy», keyin esa «Ziyo» taxallusi bilan ijod qilgani va ta’rix tushirishda mohir bo‘lganini yozadi hamda shoirning bir ta’rix, qasidasidan bir matla’ va g‘azalidan bir matla’ keltiradi.

181. Tarj.: Kimki Chin suratiga o‘xshagan yuzingga ko‘z ochib qarasa, shundan so‘ng seni tomosha qilishdan ko‘zini uzmaydi.

182. Tarj.: Jononning mehrsizligiga bundan ortiq bardosh qila olmayman. Ey xudo, ul nomehribonni menga mehribon qilg‘il.

183. Tarj.: Qonli ko‘z yoshini raqibdan yashirish uchun Majnunning yuzi doim devorga o‘grilgan edi.

184. Tarj.: Voizimiz har doim may ichishni man’ qiladi: o‘zi shu maydan bir siphorsa-yu may uni vaysashdan bir dam to‘xtatsa, qanday yaxshi bo‘lar edi!

185. Tarj.: Boshimda xumning tagidagi loyga yetishish havasi bor edi, badbaxtlikni qaraki, o‘shanga ham qo‘lim yetolmadi.

186. Tarj.: Ul hayot chashmasidirki, odamlar undan jon topadilar. Ammo u chashmadan mening og‘zimdagi hayrat suvidan boshqa narsa yo‘qdir.

187. Tarj.: Yordan judolikda ishtiyoqdan bo‘lak dardim qolmadi. Ey ajal, kela qol, ayriliqqa toqatim qolmadi.

188. Tarj.: Ko‘zimdan yoshlar sel kabi to‘lib oqmoqda. Ikki ko‘z ul sel ustidagi hubob (qabarchiq ko‘pik)dek kelmoqda.

189. Tarj.: Ul [yor] uchun o‘zimni o‘ldirsam, uning qahri keladi. Vah, bu qanday qahrdirki, u qahr tufayli o‘zimni o‘ldiraman.

190. Tarj.: Nay ohanglar zamzamasi bilan dam ursa ham, mening nolam oldida ovoz chiqara olmaydi.

191. Tarj.: Ey ko‘ngil, menga uning sarv kabi qomati ko‘rinmasa, jonimga har lahzada hajr o‘qi qadalaveradi.

192. Tarj.: Bayram keldi, o‘zimning oydek go‘zalim bo‘lmagani uchun menga shodlik yo‘q, barcha xalq shod, mendek g‘amgin yo‘q.

193. «Bu hazratkim...»— Abdurahmon Jomiy nazarda tutiladi. Ruboiydagi «bu hazrat» Sulton Husayn Boyqaroni, «ul hazrat» esa Jomiyni anglatadi. «...ul hazrat haq sari qildi rihlat» misraidan Jomiyning vafot etgani anglashiladi. Ana shu uchinchi majlis avvalida esa Jomiyga hali hayot shoir sifatida ta‘rif beriladi. Gap shundaki, Navoiy «Majolis un-nafois»ki to‘ldirib, uning har majlisi alohida xotimalar yozgan va asarning ikkinchi tahririni yaratgan. Bu uhdani shoir 1498 yilda amalga oshirgan. Binobarin, bu vaqtda Jomiy hayotdan ko‘z yumgan edi. Yuqorida Jomiyniig 1492 yilda vafot etgani tilga olingan edi.

TO‘RTINCHI MAJLIS

1. «azharu min ash-shams»—arabcha: quyoshdan porloq, demakdir. Pahlavon Muhammadning kamoloti ta‘rifida aytilgan.

2. Tarj.: Ka‘ba va kalisoda sening irshoding bilanmiz, ibodatxona va mayxonada sening yoding bilanmiz. Saharda zikring, shomda esa sening duolaring bilanmiz. Ya‘ni, Ne‘mat-oboding yetimlarimiz. Pahlavonning javobiya ruboiysi:

Tarj.: Ey Amir, sen pirimizsan, biz sening irshoding bilanmiz. Doim duogo‘yingmiz va sening yoding bilanmiz. Bu shahr senga yoqimli-yu, biz sen bilan xushvaqtmiz. Biz o‘lganmiz, Astrobo‘ding [yo‘lida] xarob bo‘lganlarmiz.

Avvalgi ruboiyni Navoiy Astroboddan Pahlavon Muhammadga maktubda yozpb yuboradi va javob xatida keyingi ruboiyni oladi. Navoiy bu haqda «Holoti Pahlavon Muhammad» asarida ham yozgan.

3. Tarj.: Unga aytdimki, sening ishqing olamida ishim g‘amdin iborat bo‘ldi. U kulgi aralash miyig‘ida: «g‘am emas, olamning ishidir», dedi.

4. Tirziq — bir-biriga munosabatsiz ravishda birikkan so‘zlar.

Kelishmagan so‘zlardan she‘r bitish bo‘lsa kerak.

5. Kungur — devordan chiqib turgan xodani, devor ustidagi dandanalarni anglatadi, shunigdek, «behayo», «gadoy» hamda «nog‘orachi» ma’nosida ham keladi. Navoiy Mir Sarbarahna yoshligida «kungur» laqabli Oqil degan yigit bilan birga bo‘lib, poklikdan qaytib, uning yigitlari ta’siriga berilgan edi, deb yozadi. Mir Sarbarahna ijodidan keltirilgan ruboiy mazmuniga ko‘ra «kungur» so‘zi birinchi ma’noda olingan bo‘lsa kerak.

6. Tarj.: Quyosh bilan oyga topinuvchilar sening ko‘zingdan bir nazar orzu qiladilar. Ruboiyning keyingi bayti behayo mazmunda bo‘lgani uchun tarjimasini berilmadi.

7. Imtilo marazi — mechkay, yuxo — yeb to‘ymaslik kasali. Bunday bemorning behad semirib ketish hollari ham uchraydi.

8. «Javohir ul-asmo» — Ismlar javohirlari.

9. Tarj.: Ta’rixi shunday edi: «Alisher muhr bosdi». Navoiy ta’rixning to‘la matnini keltirmay (kamtarlik bilan ta’rif unchalik to‘g‘ri emas deya), uning moddasini beradi. abjad hisobida, 876 (1471—72 y.) iborasidan esa 10 yil tafovuti

bilan 886 (1481—82 y.) kelib chiqadi.

10. Tarj.: Sanamning dastidan poklikning etagi yirtildi. Xotir lavhi-sahnidan xayolingdan boshqa nimaiki bo‘lsa, o‘chib ketdi.

11. Mavlono Mas’ud — Xondamirning «Habib us-siyar»da yozishicha. Mas’ud Shirvoniy ilmi kalom, mantiq, falsafada zamona allomalaridan bo‘lgan. U «G‘iyosiya» - nomli madrasada ham mudarrislik qilgan. Navoiy ham uning ba’zi darslarini eshitgan. Faxriy Hirotiy «Mullo shudan oson ast, odamiy shudan dushvor» (Mullo bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin) matalini unga nisbat beradi. Xondamir Mas’udning «Hoshiyai sharhi hikmat ul-a’in» degan asari borligini xabar qiladi.

- 12.: Tarj.: Mastlar ko‘ksini tiniq mayning o‘tkirligi bilan kuydir, mening kuyishimga sharobdan boshqa hech narsa davo bo‘la olmaydi.
13. Tarj.: Muruvvatli va gunoh ishlarni yopib ketuvchi podshoh davrida Hofiz soqiy bo‘ldiyu, muftiy mayxo‘r bo‘ldi.
14. Tarj.: Ko‘zimni sening yuzing oyinasi qilmoqchi emasman, kipriklardan zulfingning anbar taratuvchi tarog‘i qilmoqchimasman.
15. Tarj.: Uning boshi atrofida jon bo‘lib qolgan kokilingni xayolingga keltirmaki, parishon qiladi.
16. Mir Atoullloh Amir Burhoniddin Atoullloh Husayniy Nishopuriy (taxm. XV asr 40 yillar, Nishopur — 1513, Mashhad) adabiyotshunos olim. «Ato», «Atoiy» va «Atoullloh» taxalluslarida ijod qilgan. «Ixlosiya» va «Sultoniya» madrasalarining mudarrisi bo‘lgan. Xondamir «Makorim ul-axloq»da yozishicha, Navoiy Mir Atoulllohga «Ixlosiya» madrasasi yaqinidan «maydoni keng, imorati ko‘p, havosi go‘zal va suvi shirin» hovli tortiq qilgan. Olimning «Badoye’ us-sanoye’» (Badiiy san’atlar) va «Risolai qofiya» nomli adabiyot nazariyasi, aruz va qofiya ilmiga oid asarlari bor, «Badoye’ us-sanoye’» Alibek Rustamov tomonidan 1981 yil o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.
17. Maqlubi mustaviy — arab alifbosida yozilgan, o‘ngdan ham, chapdan ham bir xil o‘qiladigan so‘z, ibora yoki she’r san’atini anglatadi.
18. «...soyim ud-dahr erdi» yil bo‘yi ro‘za tutadigan edi, ma’nosini anglatadi.
19. «Shahr zarif va sho‘xlari «Vali, shaloin» ham derlar» — Shahr hazilkashlari va sho‘xlari «Shilqim (xira)lar avliyosi (boshlig‘i)» ham derdilar. Navoiy tushuntirishicha, Mir Murtoz kim bilan nima masalada bahs boshlasa yengmaguncha, mulzam qilmaguncha tinchimas ekan, ya’ni odamni xit qilib tashlar ekan. Shuning uchun yuqoridagi laqab bilan ataganlar ko‘rinadi.
20. Tarj.: Ko‘ngil oluvchining xayolidan boshqa narsa ko‘ngilga kelmaguncha, yo‘li ustida ko‘z qorachig‘lari nazoratchi bo‘ladilar.
21. Mavlono Husayn Voiz (tug‘. yili noma’lum, Sabzavor yaqinidagi Bayhaq degan joy — vafoti 1505, Hirot), taxallusn «Koshifiy» shoir, adib, voiz. Nishopur va Mashhadga ham yashagan. Jomiy va Navoiyga juda yaqin bo‘lgan. Uning va’z, insho, nujum, axloq, tarix, tasavvuf, riyoziyot va fiqh fanlariga oid 37 asari bor, jumladan «Anvori Suhayliy» nomli mashhur asari «Kalila va Dimna»ning tarjimasidir,

Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida, o‘ziniig Abdurahmon Jomiy vafotiga yozgan marsiyasini katta ma’rakada Xusayn Voiz Koshifiyga o‘qitgan. Bundan Qoshifiy she’rlarni ham go‘zal o‘qigani va ovozi ham yaxshi bo‘lgani ko‘rinadi.

22. «Javohir ut-tafsir» — Tafsir javohirlari.

23. Tarj.: Mehrob va minbarda shunday yaxshi ko‘rinadigai voizlar xilvat joyga borganlarida boshqa ishlar qiladilar.

24. Tarj.: Ey sabzak miyig‘li [go‘zal], toza qora mushkni yosuman guliga sepma, [zulf kabi] toblangan sunbulni nastaran guliga urmagil.

25. Hazrat Amir ul-mo‘minin Ali — ibn Abu Tolib (661 yilda o‘ldirilgan) islomda «Xulafó ar-roshidin» (to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar), xalq orasida «choryorlar» deb atalgan to‘rt xalifaning to‘rtinchisi. Muhammad payg‘ambarning ham amakivachchasi, ham kuyovi (qizi Fotimaning eri). Islomdagi ikki asosiy oqimdan biri «Shia» (arabcha, guruh demakdir, bu yerda Ali tarafdorlarini anglatadi) oqimini tashkil qilgan. Alini, shuningdek, ajoyib sarkarda va qahramon shaxs sifatida ham ko‘p kitoblarda ta’rif qiladilar.

26. Tarj.: «Bizning Mu’inimiz ko‘p qobiliyatli edi, lekin bu yog‘och, zinapoyalar uni zoye’ qildi». Bu yerda va’z o‘qiladigan minbar zinalari ko‘zda tutiladi,

27. Tarj.: Bahor fasli keldimi ekan, olam qo‘kalamlashib, shodlikka to‘ldi, g‘o‘zalning visoli yetishdimikin, ko‘ngil vaslga hamdam bo‘ldi.

28. Bu arabcha she’r matnini anglab olmadik.

29. Mirxond — Muhammad ibni Xovandshoh ibni Mahmud (tug‘. 1433, Balx — vaf. 1498, Hirot) tarixchi. Otasi Burhoniddin Xovandshoh asli buxorolik bo‘lgan. Mirxond Navoiy taklifi bilan «Ravzat us-safo» (Safoli jannat) nomli temuriylarga bag‘ishlangan tarixiy asar yozgan. 7 jilddan iborat bu asarning 6 jildi Mirxond qalamiga mansub, 7-jildini nabirasi Xondamir yozgan.

30. Tarj.: Kimki obi hayotdan qo‘l yuvsan, zamona Xizri o‘shadir, Kimki nafs zulmatidan, chetga chiqsa Iskandar o‘shadir.

31. Xondamir — G‘iyosiddin ibn Humomiddin Muhammad (1475-1534), tarixchi, mashhur tarixchi Mirxondning nabirasi (qizining o‘g‘li). Yoshligidan to Navoiy vafotigacha uning xizmatida bo‘lgan, kitobxonasini boshqargan. Xondamir Navoiyning birinchi biografi hisoblanadi. U «Makorim ul-axloq» asarida shoir shaxsiyati, faoliyati, ijodiyotidan muayyan ma’lumotlar keltirib, uning sharxi holini yaratib beradi.

Xondamirning «Habib us-siyar» (3 jildli), «Xulosat ul-axbor», «Dastur ul-vuzaro» (Vazirlik uchun dastur), «Nomai nomiy» (Atoqli nomalar) kabi asarlari ma'lum. Husayn Boyqaro vafotidan keyin Xondamir Shimoliy Afg'onistonning Basht degan qishlog'ida yashab ijod qiladi. 1528 yil Hindistonga Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga jo' naydi. Boburdan so'ng Humoyun xizmatida qoladi. Bu paytlarda Xondamir «Humoyunnoma» degan asar yozgani haqida ma'lumotlar bor (qarang: D. Yusupova. Xondamir ijodi. Sharqshunoslik—1 to'plami. Toshkent, «Fan», 1990). 1534 yilda vafot etgan Xondamir Dehlidagi mashhur Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviy dafn etilgan qabristonga qo'yilgan.

32. Mavlono Hamididdin — Xondamirning «Habib us-siyar»da yozishicha, uning otasi Mavlono Shamsiddin Muhammad Tabodgoniy vafotidan keyin Hirotda (Xiyobonda) dafn qilingan joyning janubida Navoiy xonaqoh soldirgan, Hamiliddin shu xonaqohda toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lgan va 927-1520-21 y. vafot etgan.

33. Tarj.: Goho xasta dillarni yod qilmoq kerak, biror ko'ngilni xudo uchun shod qilmoq kerak.

34. «Manozil us-soyirin» — Sayr qiluvchilar manzillari. Xoja Abdullo Ansoriy asari.

35. B arabcha she'r mazmuni ochilmadi.

36. Tarj.: Jahonga kerak bu bog'dan qanday qilib tashqariga qadam qo'yay, chunki uning ichkarisi jannat bog'i, tashqarisi Eram bog'idir.

37. Mir Ixtiyoriddin — bu shoir nomini «Majolis»ning har ikki tarjimoni «Sayyid Ixtiyor» tarzida beradilar.

38. Tarj.: Bu havzning tozaligidan so'zlamochi bo'lganimda, og'zimni yuz marta obi hayot bilan yuvaman. Har chandki, Xizr chashmasi bo'lsa ham ta'rixini «Kavsar soqiysi»dan axtaraman. She'rning ta'rix moddasi iborasi bo'lib, abjad bo'yicha 897 (1486—87) chiqadi. «Poi Hisor» deb atalgan havz ana shu yilda bitilgan ekan.

39. Tarj.: Qomating xayoli unqusiz ko'zlarda suv o'rtasida har tomonga suzgan baliqdek aylanadi.

40. Tarj.: Ey bas endi! Go'zal yuzlar mening tavbamday, ko'p eski tavbalarni bir qarashdayoq yo'qqa chiqardilar.

41. Mir Husayn Muammoiy — «Habib us-siyar»da shoirning uzoq yillar «Ixlosiya» madrasasida yashagani, turli bilimlar o'rgangani, muammoda dong taratgani hamda 904/1498—99 y. da vafot etgani va shu madrasa gunbazi ostida dafn qilingani bayon

etiladi.

42. Tarj.: Hilol shaklidagi qoshlarning namli ko‘zlardan nari ketmadi. To‘g‘ri, baliq ham daryodan quruqlikka chiqmaydi.

43. Faxriy — «Majolis»ning birinchi tahririda bu shoir yo‘q, u keyin ikkinchi tahrirda (1498 yil) kiritilgan. Forsiy tarjimalar ham asos e‘tibori bilan avvalgi tahrir matnidan qilingan. Fikrimcha, bu «Majolis»ning birinchi tarjimoni Faxriy Hirotiy bo‘lishi kerak. Faxriyning to‘la ismi Sulton Muhammad ibn Amir Muhammad (tug‘. yili noma‘lum, Hirot — vaf. 1562—63, Hindistoi) shoir va adabiyotshunos. Asarlaridan «Latoifnoma» nomi ostidagi «Majolis un-nafois» tarjimasi. 189 nafar yangi shoirlar haqidagi ma‘lumotni ilova qilgan. «Tuhfat ul-habib» (Do‘stlar tuhfası), «Javohir ul-ajoyib», «Ravzat us-salotin» (Sultonlar jannati) kabi turli mavzudagi asarlari va «Sano‘ ul-hasan» (Go‘zal san‘atlar) nomli badiiyat masalalariga bag‘ishlangan risolasi, «Radoyif ul-ash‘or» degan har-xil shoirlar she‘riyatidan radiflar bo‘yicha tuzilgan majmuasi ma‘lum. Shuningdek, Faxriy qalamiga «Haft kishvar» (Yetti mamlakat) nomli afsona, asotirlar va axloqiy masalalardan baxs etuvchi asar hamda taxminan 5 ming baytdan iborat she‘rlar devoni ham mansub, degan ma‘lumotlar bor.

44. Ey sarvi nozanin, hech vaqt senga dil mehribon bo‘lmagan deb aytding. Sendan [mening] bunday gumonim bo‘lmagan.

45. Sayid Ja‘far Muhammad Qazviniiy yozishicha, bu shoirning devoni o‘sha davrlarda mashhur bo‘lgan ekan.

46. Tarj.: Go‘zalim zulm zanjiriga qo‘l solib, Hizr obi hayotini tashna odam yodidan ko‘tardi.

47. Mir Sayyid Husayn Abivardiy — Kamoliddin Husayn, shoir Navoiy xizmatida bo‘lgan. Xondamir “Habib us-siyar”da uning Iroqda Ya‘qub Mirzo saroyida bir necha yillar bo‘lganini yozadi va quyidagi maroqli lavhani keltiradi. Navoiy bu shoirni Sulton Ya‘qub Mirzo huzuriga Jomiyning kulliyoti va bir nechta boshqa asarlar bilan jo‘natadi. Shoir yetib borganida Sulton undan yo‘lda zerikmay keldingizmi?, deb so‘raydi. U, Jomiy hazratlarining kitoblarini mutolaa qilib keldik, deya javob qiladi. Keyin ma‘lum bo‘ladiki, kitobdor Jomiy kulliyoti o‘rniga boshqa asar berib yuborgan va shoir uni ochib ham ko‘rmagan ekan. Bu voqiadan Navoiy voqif bo‘lgach, Kamoliddin Husayndan juda ranjigan, keyinchalik unga hech qachon iltifot ko‘rsatmagan. So‘ngra u Balxda Badiuzzamon Mirzo xizmatida bo‘lib, yuqori lavozimlarga ko‘tarilgan. Shayboniyxon davrida esa elchilik qilgan.

48. Tarj.: Yuzing quyoshiga dunyo quldir. Yusufga Ya‘qub deb ot qo‘yibdilar. Navoiy bu bayt ham mazmun, ham shakl jihatidan past saviyada yozilgani haqida fikr bildiradi.

Muhammad Qazviniy esa, agar Navoiy «Yusufga Ya'qub deb ot qo'ydilar» tarzida emas, «Yusuf nomini Ya'qub qilding» deya o'qiganda edi, har jihatdan she'r yaxshi chiqqani ma'lum bo'lar edi, deb o'z fikrini ilova qiladi.

49. Tarj.: Biror dam dunyo dastidan qutula olmadim. Ey soqiy, kel, bir nafas mayparastman.

50. Tarj.: Biz doim mastdirmiz; mayxonadan nima ginayu, qadahlarining to'la va kamligidan nima gina!

51. «rushd osori zohirdur» yetuklik belgilarin ko'rinib turibdi, demakdir.

52. Tarj.: Jahonda sening g'amingda yurgan mendek boshqa bir kishi no'q. Yuragi kuygan, yolvoruchan odam yo'q. G'am va dardimni ochib tashlashni istayman, biroq nima qilayki, hech hamdard yo'q.

53. Mavlono Safiy — Faxriddin Ali Safiy (tug' . 1463, Sabzavor— vaf. 1533, Hirot) shoir va adabiyotshunos. Uning asarlaridan «Rashahoti ayn ul-hast» — naqshbandiya silsilasi haqida, «Mahmud va Ayoz» — Nizomiy «Layli va Majnun»iga javobiya tarzida yozilgan, otasi Husayn Voiz Koshifiyning «Asrom Qosimiy» risolasining qisqacha bayoni, «Latoyif ut-tavoyif» (turli tabaqalarning latifalari) ma'lumdir. Ali Safiyning «Latoyif ut-tavoyif»dan tanlab olingan ba'zi rivoyatlar K.Qahhorova va S.Inomxo'jayevlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan.

54. Tarj.: La'ldek qizil lab va xush is bilan kelibsan; ajoyib bezak bilan undan chiqibsan.

55. Tarj.: Masih agar uning og'zidan bir og'iz so'z eshitsa, uyalganidan ortiq dam urishga ham majoli qolmaydi.

56. Mavlono Abdulvose' — shoir, insho fanida mohir Navoiyning yaqin suhbatdoshlaridan. Xurosonning Nuri degan viloyatida dunyoga kelgan. Vosifiy «Badoye' ul-vaqoye'»da Abdulvose' Navoiy sharafiga Hirot yaqinidagi Barza degan joyda bergan ziyofatda qatnashgani va unga nisbatan qilingan hazlga g'oyat zukkolik bilan javob berganini hikoya qiladi. Navoiy shoirga bergan alohida maqolasida ham uning ana shu xislatini ta'kidlab o'tadi.

57. Xoja Dehdor — Xoja Hofiz G'iyosiddin Dehdor Jomiy va Navoiylarga yaqin, suhbatdoshlardan. Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin»da Xoja Dehdor haqida alohida lavha keltiradi: Husayn Boyqaro va Navoiy Jomiyga taom va yegulik narsalardan nasiba ilinganida Xoja Dehdor orqali yuborar ekanlar. U esa olib borgan narsalaridan o'zi miriqib yeb kelar, pul-muldan ham olib qolar ekan. Shular haqida Jomiy ruboiy, qit'alar bitar ekan. Navoiy asarida ana shunday she'rlardan 4-tasini keltiradi. Bu yerda Navoiy

Xoja Dehdorniig yana bir xususiyatini mohir taqlidchi ekanligini ham qayd qiladi.

Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin»da yozishncha, bir kuni Xoja Dehdor Jomiyning tushida ko‘ribdi, ular «Qur‘on o‘qi», debdilar. Husayn Boyqaro taxtni egallagan (1469 y.)dan so‘ng, 7—8 yil oldin ko‘rgan tushini Xoja Dehdor Navoiyga so‘zlab beradi. Navoiyning tavsiyasi va harakati bilan Xoja Dehdor Qur‘onni yodlab, yaxshi o‘qiydigan hofiz bo‘lib yetishibdi. Jomiy vafotidan bir necha soat oldin Navoiy topshirig‘i bilan Astrobodga yuborilgan Xoja Dehdor Hirotga jadal qaytib keladi. Ittifoqo Jomiy boshida Qur‘on tilovat qiladigan hofiz yo‘q ekan, darhol Qur‘on o‘qiy boshlaydi, xatm qilishi asnosida Jomiyning joni uziladi. Navoiy so‘zini Jomiy karomati 30 yildan ziyod vaqt o‘tgach natija berdi, deb yakunlaydi.

58. Tarj.: Mushk sening miyig‘ing xatlari bilan tenglashish lofini uradi qanday beboshlik! Bizning ta‘na qiluvchi qora yuragimiz yanglishgan.

59. Tarj.: Ey ko‘zing qaroqchisi kamoniga o‘qni qator tergan! Yangi oy qoshing kamonidan bir chekkaga yashirindi.

60. Tarj.: Soching tugunlarini tishim bilan yechishni istayman, biroq bu savdodan devona bo‘lib, zanjir chaynayman.

61. Tarj.: Ey bevafo, bizga visoling qachon nasib bo‘larkin; g‘aming jununidan menda hushyorlik qayda!

62. Bu muammoni Muhammad Qazviniiy keltiradi.

63. Sadr—arabchada ko‘krak, ko‘ks demakdir.

64. teskari o‘qilsa bo‘ladi. Ya‘ni «zang» qo‘ng‘iroq ma‘nosini anglatsa, «kanz» xazina demakdir.

65. «hissi shomma» — hid bilish hissi, «majmumot» — hidli, muattar narsalar: Bu yerda Mavlono Nurning soddaligini ko‘rsatuvchi bir voqea tafsiloti keltirilgan.

66. Tarj.: Ko‘ylaging nilufar rangli, men unga hayron qolaman, chunki har kuni uning yoqasidan quyosh chiqib keladi.

67. Sulton Ali Mashhadiy — Nizomiddin (taxm. 1432, Mashhad —1520, shu shahar), mashhur xattot, nasxta‘liq xatining mohir ustasi. Manbalar uni juda chiroyli bo‘lgan, deb qayd qiladi. «Qiblai ul-kuttob» (Kotiblar qiblasi), «Zubdat ul-kuttob» (Kotiblar sarasi), «Sulton ul-xattoton» (Xattotlar sultoni), «Kotib us-sultoni» (Saltanat kotibi) degan laqab-unvonlarga sazovor bo‘lgan. Ustozi Azhar xattot tavsiyasi bilan Hirotga

yuborilgan. Shayboniyxon kelgandan soʻng Mashhadga qaytgan va shu shaharda dafn etilgan. Sulton Ali Mashhadiy qalamiga xattotlik ilmiga oid «Sirot ut-sutur» (Satrlar yoʻli), «Sirot ul-xat» (Xat yoʻli), «Midod ul-xutut» (Xatlar siyohi) kabi sheʼriy asarlar mansubdir. Kunlarning birida Husayn Boyqaro unga «Men uchun bir qabr toshi yoz» deganida, Sulton Ali: «Shohimning bu farmonlari juda uzoq muddatga qaratiladi» — deydi. Shoh kulib: «Biz ham juda yaqin vaqtda oʻlmoq xayolida emasmiz. Siz ham koʻp tezkorlik qilmang» deb javob qilgan ekan. Sulton Ali Navoiy asarlarini koʻchirgan. Jumladan, shoirning ilk devoni va «Navodir un-nihoya» nomli ikkinchi rasmiy devoni (1488), «Xazoyin ul-maoniy»dan intixob-tanlanma (1492—93)lardir.

68. Tarj.: Koʻz yoshlarim qonli yuragimdan namuna boʻlgani kabi bahor chogʻida gul ul gulrang yuzdan namunadir.

69. Tarj.: Ishqing or-nomus va obroʻni oʻtga soldi katta-kichik barcha xalqning bor-yoʻgʻini yelga sovurdi.

70. Tarj.: Erta bahorda agar gul sabzalar orasidan unib chiqsa, sening mayin xatlaring yangi gul barglar (orasidan) unadi.

71. «Mutu qabla an tamutu» — arabcha, oʻlishingizdan ilgari oʻling, demakdir.

72. Tarj.: Ey kumush iyakli [goʻzal), mendan oʻzgaga yuzingni koʻrsatma, chunki kuchli rashkimdan jonim tanamdan chiqib ketadi. [Barcha] xalq koʻzining mardumaki — qorachigʻi boʻlishni istanman, toki sening yuzingni mendan boʻlak hech kim koʻrmagay.

73. «Al-uhdatu alar-roviy» — arabcha. Soʻzning toʻgʻri-notoʻgʻriligi aytgan kishining boʻyniga, demakdir.

74. Tarj.: Mening koʻzimga nur ul sipohning yoʻli gardidan keldi, xudoga shukurki, koʻzimning nuri yoʻl toʻzonidan keldi.

75. Tarj.: Ey sabo, ul (goʻzal) jamoli bogʻini tamosho qildingmi? Gulning gʻunchasini ochiltirgandek — seni iztirobda koʻrayapman.

76. Bediliy — shoirlar haqida maʼlumot beruvchi tazkiralarda, jumladan Mogai Rahmoniy xonimning «Pardanishinoni suxangoʻy» (Parda ostidagi soʻz sanʼatkorlari) nomli asarida Bediliy Hirotda anchayin maʼlum shoira boʻlganligi qayd qilinadi.

77. Tarj.: Ul sarvning goʻzal yurishini koʻrmoq uchun bogʻga boramanu nargis gulidan ikki koʻz qarz olaman.

78. Tarj.: Men bechora koʻchang boshida harchand tentirab yursamda, koʻngil ohi va

ko‘z yoshidan boshqa hech narsa ko‘rmadim.

79. Bobo Ali Xushmardon — Xondamirning «Habib us-siyar»da yozishicha, pokiza ro‘zgor va shirinsuxan darvesh bo‘lgan. Abulqosim Bobur Mirzo Mashhadda qishlagan yili uning xizmatiga yetishib, shohning, iltifot va inoyatiga muyassar bo‘lgan.

80. «darjiy bitib erdi»—darj — biror maqsad va masala yuzasidan risola, noma kabi asar yozmoqni anglatadi. Xoja Mahmud yaxshi xattot bo‘lgani tufayli olti asl qalam va ularda yoziladigan husni xat haqida shunday kitob tuzgan ko‘rinadi.

81. Bu ta’rix moddasi iborasi bo‘lib, abjad qoidasiga binoan 897 (1491—92) chiqadi.

82. Ustod Qulmuhammad — ud asbobini yaxshi chalgani uchun Ustoz Qulmuhammad Udiy nomi bilan dong taratgan. Samarqandda ham uzoq muddat yashagan, tahsil olgan va ijod qilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. «Ushshoq», «Navo», «Husayniy» kabi maqom yo‘llarida peshrav, qavl, kor, amal va naqshlar yaratgan. «Peshravi Udiy», «Savti Nuriy», «Amali Udiy», «Savti Udiy» nomli tasniflari Xuroson va Movarounnahrda mashhur bo‘lgan. Bu san’atkor Hirot madaniy markazining ham yirik arboblardan bo‘lgan. Vosifiyning yozishicha, Majdiddin Muhammad Navoiy sharafiga ziyofat uyushtirganda Ustod Qulmuhammad ham qatnashgan. Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin»da Ustod Qulmuhammadni kichikligida musiqiy bilimlarni puxta egallashi uchun Bu — Alishoh degan davr allomasiga tavsiya qilganligini qayd etadi.

83. Tarj.: Ul parizod yuzining mehri orqali junun odat bo‘ldi. Shu jihatdan men devona xalqning tilida doston bo‘ldim.

84. Tarj.: Bu shunday maqom-joyki, bunda gardga bulangan chehra yaxshi; dardmandligu muhtojligu ko‘p dardli dil yaxshi.

85. Tarj.: Bir musofirki, safarda birga bo‘lmaydi, men bexabarman, undan menga xabar kelmaydi.

86. Tarj.: Ey shayx meni tavba qildirib, o‘zingni iztirobga solma. Xudo roziligi uchun menga azob berma.

87. «alayhit-tahiyati vas-sano»—arabcha: unga ollohning duo va maqtovi bo‘lsin.

86. Tarj.: Biror aysh va farovonlik shunga barobar keladimiki, erta bilan uyqudan bosh ko‘tarsamu, sening yuzingni ko‘rsam.

88. «barot namenavisad» — forsha: pul olish hujjatini yozmayapti, demakdir.

90. «Rangining humrati bor uchun mutoyiblari ani «surx qalb» derlar — rangida qizillik bor uchun hazlkashlari uni “qizil qalb” derdilar.
91. Tarj.: Dilning qonxo‘ri [bo‘lgan] sening la‘l labingdan qayta jon topdim, bundan keyin ko‘chang boshida bizni va ko‘nglimiz zorini ko‘r!
92. Tarj.: Keksa boshimdan toza nihol o‘‘sib chiqdi. Ul niholning mevasi g‘am, g‘ussa va jigar qoni bo‘ldi.
93. Tarj.: Ko‘ngil ovlovchi sarv [qomating] shavqidan nolagar bir qumrimanki, [egma] qoshing tuzog‘idan bo‘ynimda sirtmog‘im bor.
94. Tarj.: G‘am o‘‘ti tezlansa, sabru toqatim qolmaydi; bu o‘‘t alangasida bir nafas o‘‘tirsam, yuz marta o‘‘rnimdan turaman.
95. Xoja Husayn Kirangiy — Xoja Kamoliddin Husayn ben Jaloliddin Qanbar Kirangiy shoir, davlat arbobi. Xondamir «Habib us-siyar»da Xoja Husayn sadr ekanida uni nelarnidir o‘‘zlashtirishda va aldashda ayblab, shohga yomon ko‘rsatadilar. Shundan so‘ng u iste‘foga chiqadi va qolgan umrini farog‘atda o‘tkazadi. Xondamir ham Navoiy kabi Xoja Husaynning pok va diyonatli odam bo‘lganini e‘tirof etadi. Xoja Husayn Hirotning Jome‘ masjidining qibla tarafida dafn qilingan ekan.
96. Tarj.: Sening yodingdan boshqa hech bir oh yurakdan chiqmaydi. Sening xayolingdan boshqa hech bir surat ko‘zga ko‘rinmaydi.
97. Tarj.: Ancha vaqt bo‘ldiki, ul pari paykar ko‘zga ko‘rinmayapti, dilimda jonlashib oldida, endi ko‘zga ko‘rinmayapti.
98. Tarj.: Zor dilim nomehribon [go‘zal]ning zulfidan joy oldi; agar [ishq] savdosidan parishonhol bo‘lsa, u ham o‘rinlidir.
99. Tarj.: Kechalari ul jingalak soch tolalari shunchalik chirmashadiki, bu hol balo zanjiri giriftorlariga kam yetishadi.
100. Tarj.: Ey sabo, mening otli [go‘zalim] yo‘li gardidan keltir; bu yosh to‘kuvchi ko‘zim uchun to‘tiyodir.
101. Tarj.: Bir muddat do‘stlardan judo bo‘lgan edim, mashaqqat va dardga muhtalo bo‘lgan edim. Agar yor men bilan oshnolik qilmasa, qarindosh va oshnolardan begona bo‘lardim.
102. Tarj.: Agarchi jannatda yoqimli shaboda va kavsar suvi bo‘lsada mayfurush uyinig

ob-havosi boshqachadir.

103. Hoja Abdulloh Sadr — Xoja Shihobiddin (vaf. 1516, Hirot) shoir, olim, munshi, musiqashunos, bastakor va sozanda. «Bayoniy» taxallusi bilan sheʼrlar yozgan. Husayn Bonqaro saltanatida muhrdor, vazir va parvonachi (qabulgoʻh masʼuli) lavozimlarida ishlagan. «Xusrav va Shirin» dostoni va «Munis ul-ahbob» (Doʻstlar munisi) nomli ruboiylar majmuasi, «Tarassul» nomli hukmronlarning farmonlar, fathnoma, davlat maktublari, shaxslarning xatlari (masalan, Xoja Ahror, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro) jamlangan toʻplami maʼlum va mashhur boʻlgan.

104. Xoja Muhammad Marvorid — Xoja Shamsiddin Muhammad Marvorid — Xondamir «Habib us-siyar»da yozishicha (vaf. 409/ 1498—99, Hirot), asli kirmonlik, davlat va din arbobi. Mirzo Jahonshoh Turkman saltanati zamonida Hirotga kelgan. Abu Said davrida vazirlikda muhrdor boʻlgan. Samarqandda ham biroz yashagan. Keyinchalik Xoja Abdulloh Ansoriy mozorini taʼmirlash va obodonlashtirish ishlarini boshqargan. Abdulloh Marvoridning otasi.

105. Tarj.: Koʻngil ul dilnavozning ogʻzi va goʻzal kokilini topib, tiriklik suvini ichdi-yu, uzun umrga erishdi.

106. Tarj.: Ey hamdam, ul [dilbar] bilan soʻzlashuving shukronasiga mening holimdan ham oz-moz aytib bersang nima qiladi?

BESHINCHI MAJLIS

1. Amir Davlatshoh — qarang: ushbu kitob, 213-bet, 11-izoh.

2. «Majma ush-shuaro»—Shoirlar yigʻini. 892. (1486—87) yida yaratilgan tazkira. Muhammad Ramazoniy tomonidan E.Braun muqaddimasi va oʻzining soʻz boshisi bilan Tehronda nashr etilgan.

3.Tarj.: Qanday yaxshi! Yuzing quyoshidan jahon koʻzi ravshan, ul ravshanlik koʻz orqali koʻngil uyini ravshan qildi.

4. Mir Husayn Ali Jaloyir — shoir, arbob. Zahiriddin Bobur yozishicha, otasi Ali Jaloyir Abulqosim Bobur beklaridan boʻlgan. Oʻzi esa Husayn Boyqaro saroyida qushbegi boʻlgan. Qasidani yaxshi yozar ekan. 917 (1511—1512) yillarda Bobur Samarqandni olganida 5—6 yil uning qoshida boʻlib, yaxshi qasidalar bagʻishlagan. Navoiyning inisi Darvesh Alining xotini Ofoq begim ana shu Husayn Ali Jaloyirning qizi boʻlib, sheʼriyat sohasida zukko qobiliyati bor ekan. Lekin Bobur Husayn Ali anchayin bevosh, qimor oʻynash ishqibozi boʻlganligini qayd qilib oʻtgan.

5. Tarj.: Xudoga shukrki, odil shohning mehribonchiligi bilan yana bir yoʻla gulim

tikandan, tikan oyog‘imdan, oyoq esa loydan chiqdi.

6. Tarj.: Go‘zalning bo‘ston sayrida guldan oyog‘i ozor topadi. Kipriklari tikani bor uchun men qanday qilib uni ko‘zim bilan qidiray.

7. Mir Haydar—Navoiyning jiyani, shoir. Xalq orasida «Haydar telba» nomi bilan mashhur. Navoiy Astrobod hokimi ekanligida Haydarni ba’zi rasmiy topshiriqlar bilan Hirotga yuboradi. Norasmiy bir ziyofatda Navoiyga suiqasd qilingani, unga oshpaz zahar qo‘shilgan taom bermoqchi bo‘lganini xabar qiladi. Husayn Boyqaro bundan voqif bo‘lgach, Navoiyga maktub yo‘llaydi. Navoiy esa Haydarning aytganlarini butunlay rad etadi. Shoir maktublaridan birida shoh nazdida Haydar gunohidan o‘tganligi uchun minnatdorlik izhor qiladi. Lekin 1498 yilda Haydar Sabuhiy qatl etiladi. Bu Navoiy uchun katta musibat bo‘ladi, chunki Haydarni shoir o‘zi tarbiyalagan bo‘lib, uni farzandi o‘rnida ko‘rar edi.

8. Tarj.: La’l labing maymi yoki toza asalmi? O‘zing aytgil, bu ikkidan qay biri? Yuzingdagi termi yoki gulobmi? O‘zing aytgil, bu ikkidan qay biri?

9. Alouddavla — Shohrux Mirzoning nabirasi, Boysung‘ur Mirzoning o‘g‘li. Hirot atroflaridagi yerlarni idora qilgan.

10. “Abdolnoma” — avliyolar haqidagi kitob.

11. Tarj.: Bemor ko‘zlaridan dilimda yuz xil alam bor edi, o‘z ko‘zi bilan ko‘rmaguncha, bu alamga ishonmadi.

12. Sulton Husayn — Navoiyning akasi Bahlulbekning o‘g‘li.

13. Tarj.: Jonondan ayrilish menga behad mushkul ko‘rinadi. Ey musulmonlar, shirin jon bilan xayrlashish qiyindir.

14. Muhammad Solih (tug‘. 1455, Xorazm — vaf. 1535, Buxoro) — shoir, tarixchi, davlat arbobi. Xorazm hokimi Nur Saidbek oilasida tug‘ilgan. Bobosi Amir Shoh Malik — temuriylar, jumladan Ulug‘bek Mirzo xizmatida bo‘lgan. Muhammad Solih dastlab Xorazmda, so‘ngra Hirotida taxsil olgan. Husayn Boyqaro saroyida, keninchalik Shayboniyxon xizmatida bo‘lgan. 1500 yillarda Buxoro dorug‘asi hokimi qilib tayinlangan. Muhammad Solih «Shayboniynoma» nomli tarixiy doston yaratgan. Uning yagona qo‘lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Bobur Muhammad Solih haqida «Sharir (yaramas) va zolim tab’ va berahm kishi erdi», deb yozadi.

15. Tarj.: Kokil yorqin oydek yuzini yopib turar ekan, parishon emasman. Oxiri tong bo‘lganidan keyin tun qorong‘iligidan nima g‘am?

16. Tarj.: Ey nosih, aqlu donish ko‘yida bizga rahnamo bo‘lma. Ixtiyorimiz o‘zimizda emas, junun qay tomonga yo‘llasa, o‘sha tomonga ketaveramiz.
17. Tarj.: Jononimning qissasi kelib chiqarmikan [deya] majlisda hamisha go‘zallar to‘g‘risida so‘z yuritaman.
18. Alaykabek — Husayn Boyqaro beklaridan.
19. Tarj.: Dilim dardining davosini qayerdan qidiray, qayerga boray, nima qilay, dilim ahvolini kimga aytay?
20. Mir Valibek — Husayn Boyqaro beklaridan. Bobur u haqda «Sulton Husayn Mirzo taxt olg‘ondan so‘ng xili, umr topmadi, bot-o‘q o‘ldi. Musulmon va namozguzor va turk va sodiq kishi erdi», deb yozadi.
21. Tarj.: Dilbarim firoqida masjidga borib, sajda qilish bahonasida boshimni yerga uraman.
22. Tarj.: Hech kim meni g‘amsiz ko‘rmagan, mendek g‘amdiydani g‘amning o‘zi ham ko‘rmagan.
23. Tarj.: Qamon qoshli go‘zalim, men dilxastani o‘ldirding; menga qarata bir o‘q uzgin, toki men qayta tirilayin.
24. Tarj.: Agar ohim yelidan quyosh bilan oying charog‘i o‘chmagan bo‘lsa, nima uchun g‘aming tunida butun olam ko‘zimga qop-qorong‘u ko‘rindi?
25. Tarj.: Ul kecha chehrang sham‘ini yal-yal yondirganingda menga rahm qilmay, xuddi parvonadek kuydirding.
26. Tarj.: Labing va tishing xayolidan ko‘zlarim jiqqa yoshdir; bu xuddi toshlari yoqut va dur bo‘lgan anhorga o‘xshaydi.
27. Abduqahhor — Navoiy bu shoirning muammo fanig‘a qobiliyati bor, deb ta’riflaydi. Xondamir «Habib us-siyar»da ikki joyda Mavlono Sharafiddin Abduqahhor degan shoir Abulqosim Bobur hamda qozi Qutbiddin Muhammadlar vafotiga tushirgan ikki ta’rixini keltiradi.
28. Tarj.: Yoqamning zihini uning itiga bo‘yinbog‘ qil, toki har damda etagimga qadar yirtilib tushmasin.

OLTINCHI MAJLIS

1. Ahmad Hojibek — qarang ushbu kitob, 242-bet, 137-izoh.
2. Tarj.: Tanimdan jonimni olib ko‘p zanjirli soching bilan bog‘lading; yuzingdan pardani ochib (u bilan) ko‘zimni bog‘lading.
3. Xoja Xurd avliyolik rutbasiga erishgan Bobo Xudoydod deganning vafotiga ta’rixini tushirgan. Abjad hisobiga ko‘ra 862 (1457—58) y. kelib chiqadi.
4. «Vaqfiya»—Navoiyning nasriy asari. 886 (1481—1482) yillarda yozilgan. Mohiyatan ikki qismdan iborat: birinchn qismda Navoiyning Husayn Boyqaro saroyiga maxsus farmon (manshur) bilan taklif etilgani, saroydagi nufuzi, davlat arbobi sifatidagi ko‘p qirrali faoliyati haqida, o‘z ixtiyoridagi daromaddan bir oddiy kishi ro‘zg‘ori uchun zarurini olib qolib, qolganini navkarlar, cherik, madrasa, masjid, xonaqohlarga va ularning ahllariga hamda har xil binolar, turli inshootlar qurish uchun sarf qilgani to‘g‘risida fikr yuritiladi; ikkinchisida esa Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari, vaqfiya joylardagi idora usullari, xizmat uchun belgilangan lavozimlar, maosh, tartib-qoidalar, marosimlar, binolar ta’miri bayon etiladi. Asar xalqparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Navoiy shaxsiyatidagi nurli chizgilarni namoyon qiladi.
5. —ta’rix moddasidan abjad hisobida «Vaqfiya» yozilgan 886 (1481-1482 y.) chiqadi.
6. Tarj.: Shaytonsifat dev Abulbarakaning joi yettinchi do‘zax bo‘lsin!
7. Tarj.: Ul juvonmarg Piri Sesadsola ustini bug‘aydi, agar shu odam pir bo‘lib qolgudek bo‘lsa, men hech bir pirga murid bo‘lmayman.
8. Amir Mahmud Barlos — Boburning yozishicha, Mahmud Barlos Abusaid Mirzoning uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzoning bekklaridan bo‘lgan. Harbiy salohiyati bor bo‘lib, she’riyat bilan shug‘ullangan. Devon tartib qilgan shoir.
9. Tarj.: Mening yuzim suvdan ham tiniq dema. Mening nazarimda u oftobdan ham ravshanroqdir.
10. Darvesh Shuhudiy — «Majolis»ning har ikkala tarjimoni bu shoir nomini Mavlono Foni deb beradilar.
11. Tarj.: Muhabbat ahli tanidagi bu dog‘lar, dard tog‘iga qo‘yilgan hasrat yomg‘irlaridir.
12. Tarj.: Og‘zingni ochgil, shirin labingdan shirin kulgingni ko‘rsatib shakarning qiymatini, qandning narxini tushirgil.

13. Tarj.: Nozik tili bilan takallum boshlasa, uning tili g'uncha og'zidan ko'ringan gul bargiga o'xshaydi. Bu baytning ikkinchi misrasi muammo bo'lib deydi Faxriy Hirotiy "Miram" — ismi chiqadi.
14. Tablboz, bahl — ovchilik ash'yolari — dovun va qo'lqop.
15. Tarj.: Agar ostimda egarlangan ot bo'lganda edi, jahon mulklari qo'l ostimda bo'lardi.
16. Tarj.: Dil ul qo'sh zulfning bandiga tushishini istamayman; nega endi men tufayli boshqa bir dardmand baloga uchrasin?!
17. Tarj.: Tashnalik kunida oqar suvni havas qilmaymiz; tig'ing damini tamog'imizda ko'rsak, shuning o'zi bizga kifoyadir.
18. Tarj.: Ul qosh o'qining zaxm yetkazishiga ko'ngilning gumoni yo'q, shu sababdan ikkinchi zaxm yetkarishi uchun og'zida hasrat suvini saqlaydi.
19. Tarj.: Yuzingga oshiqlikda ko'zlarim shu darajaga yetganki, rashkdan bir-birini ko'ra olmaydilar.
20. Rozalik san'ati — bo'yoqchilik, tosh yo'nish, tosh terish hunarini anglatadi. Ba'zi lug'atlarda suvoqchi ma'nosi ham berilgan.
21. Tarj.: Ey sham', agar kechasi men bilan hamnafas bo'lsang, ravshan bo'l, deyishdan bo'lak yaxshiroq duo bormi?!
22. Darvesh Dehakiy — «Majolis» tarjimoni Muhammad Qazviniiy o'zidan ilova qilib, yozadi: — Darvesh Dehakiy hamshaharim edi. Men u bilan ko'p suhbatlashganman. U g'oyat kamsuqum odam edi, tanparastlik unga begona edi. U to'quvchilik ham qilar edi.
- U karbos (dag'al ipli gazlama, bo'z) degan matoni yaxshi to'qir, xaridor topilsa, arzon-garov berib yuborardi. Shohlar dasturxoniga ko'z tikmas, taomini yemas edi. Sulton Ya'qubxon Darvesh Dehakiyni huzuriga chorlaganda u bir baytni o'qibdi. Uning birinchi misrai ma'nosi shunday ekan, «Agar uning o'qi oldimga yo'nalsa, orqamga qalqon tutaman». Buni eshitgan shoh taajjub qilib, o'qdan saqlanish uchun orqaga qalqon tutishi nimasi? — deganda, shoir: «Sabr qiling ikkinchi misra'in eshiting debdi: «Toki uning o'qi — novakining chiqib ketish yo'li bekilsin». Shoh shunda lol qolib, shoirga: «Nimaki tilaging bo'lsa aytgil, bosh ustiga bajaraman» — debdi. Shoir «Do'stga do'stdan yaxshi narsa yo'q» — deb javob beribdi. Shoh yana fikrini qaytarganda, shoir: «Bog'larimdan olinayotgan xirojdan ozod qilsangiz», — debdi. Shoh bajaribdi. Muhammad Qazviniiy

Darvesh Dehakiyning yana 8 baytini keltiradi.

23. Tarj.: Devordagi suvratga o‘xshab jonsiz bo‘lib qolganman; Orqamni devorga qilib, yuzimni senga o‘girib, hayronlikda qolganman.

24. Tarj.: Tikan yulqilab yuruvchi Laylining tuyasidan boshqa, Majnunning yo‘lovchiligidan kimning tashvishi bor.

25. Qozi Iso — Muhammad Qazviniy Navoiy so‘zlariga ilova qilib, «Qozi Iso Sulton Ya‘qubxonni hamisha adolatga undar edi. Adolat bilan ko‘pchilikning qalbida hurmat imoratini qurgan edi», deb yozadi va Sulton Ya‘qubning hamshirasini (sutdosh singlisini) yaxshi ko‘rib qolgani, Sulton ularning qovushishi yo‘lida uringani, lekin turklarga xos johilligi ustun kelib, bu ishdan qaytganini ham bayon etadi. Shoir she‘riyatidan yana 6 bayt keltiradi.

26. Tarj.: Har kim gulshan va gulzor gashti bilan mashg‘ul, biz va g‘unchadek dilimiz o‘z giriftorlig‘imiz bilan ovoramiz.

27. Shayx Najm — Muhammad Qazviniy Navoiy bilan bu shaxs orasida maktublar orqali munosabatlar bog‘lanib turganini qayd qiladi va shoir she‘riyatidan yana 8 bayt keltiradi.

28. Tarj.: Bir qonxo‘r ko‘z sho‘xlik bilan yuragim qonini ichadi, ul fitna qo‘zg‘atuvchi jon ofati va sitamkor ekan.

29. Xoja Afzal — Xondamirning «Dastur ul-vuzaro» (Vazirlar dasturi) asarida bu shoir va davlat arbobining nomi Xoja Afzaliddin Muhammad Kirmoniy tarzida, «Kirmon shoirlari tazkirasini» nomli kitobda (tuzuvchi Eron olimi Husayn Bexzodiy) esa Xoja Afzaliddin Mahmud ben Xoja Ziyoviddin Muhammad deb beriladi. Fazlu kamolotda, davlat devoni ishlarini tartibga solishda benazir bo‘lgan Xoja Afzal 878 (1473) yilda vazirlik lavozimini egallaydi. 1487 yilda Husayn Boyqaro Marvda qishlab qolgan paytida Majdiddin Muhammad Xoja Afzal payiga tushadi. U esa Astrobodga Navoiy huzuriga panoh istab keladi. Navoiy maslahati bilan Xoja Afzal Iroq va Ozarbayjonga Sulton Ya‘qubbek qoshiga jo‘naydi. 893 (1488) yilda Xoja Afzal haj safariga boradi. 903 (1497—98) yilda esa Hirotga qaytadi va Navoiy qo‘llab-quvvatlashi bilan yana vazir, keyinchalik devon boshi qilib tayinlanadi. Xondamir yozishicha, Xoja Afzal mansabdorlik vaqtida madrasa va xonaqoh qurdirgan zkan. U 906 (1501) yil rajab (fevral) oyida vafot etgan. Hirot Gozurgohida Xoja Abdulloh Ansoriy yoniga dafn qilingan.

30. Tarj.: Har bir alanga dunyo ekinzorida urug‘ bog‘laguncha ko‘ngil o‘ti jon xirmonini yelga sovuradi.

31. Tarj.: Hech vaqt ko‘nglim qora xol xayolisiz yashamadi; bu devona dil hech qachon bir qora xoldan xoli bo‘lmadi.

32. Tarj.: Ey jahonni barpo qilgan, yo‘qlik [dunyosida] vujud uchun javob beruvchi [ham] o‘zingsan.

33. Mavlono Shahidiy — «Majolis» tarjimoni Muhammad Qazviniy ilova qilib, Iroqdan Xurosonga kelganida Shahidiy Abdurahmon Jomiy suhbatiga musharraf bo‘lganini va o‘zi bilan ko‘p suhbatlarda bo‘lganini yozadi. Shahidiy 1 yilcha Qazvinda yashagan va Gilon Sultoni Mirzo Ali bu shahrga kelganda shoirga ancha tillo pul in‘om qilgan ekan. U esa tillolarni uyning burchagiga to‘kib qo‘ygan va yoronlaridan kimda zarurat bo‘lsa, olib sarf qilavergan ekan. Shoirda mol-dunyo hirsini bo‘lmagani sababli uni devona der ekanlar. Shahidiy bir necha muddat Ya‘qubbek musohibi bo‘lgan, keyin Hindustonga ketgan. Hozir, deydi Muhammad Qazviniy Gujarotdadir.

Bu shoirdan so‘ng tarjimon Gulxaniy degan Shahidiyning jiyani (xoharzodasi) haqida ma‘lumot va 5 ta baytini keltiradi. Nihoyatda abdol-devona va urushqoq bo‘lgan bu odamga Navoiy salbiy munosabatda bo‘lgan, hatto Hirotdan chiqarib yuborishga ham harakat qilgan ekan.

34. Tarj.: Ey ishq, kel, bizning qiynalib ketgan dilimizga o‘t qo‘y. O‘z nuring bilan bizning o‘chiq chirog‘imizni yorit.

35. Tarj.: Ey jonon, men firoqing dastidan bir o‘lik[dek]men. Ezib tashlagan anorga o‘xshab tanamda qon qolmagan. Muhammad Qazviniy bu matladan so‘ng shoirning yana uchta baytini keltiradi.

36. Mavlono Xolidiy — «Majolis» tarjimoni Faxriy Hirotiy bu shoir «Faqir odam erdi va qalandar suvratida kezib yurardi», deb qo‘shadi va yana bir baytini keltiradi.

37. Tarj.: Meni o‘ldirgan chog‘ingda chang [bosgan] tanamdan cho‘chima, agar xanjaringga gard yuqsa mening gardanimdir.

38. Mavlono Yoriy — Faxriy Hirotiyning qo‘shimcha ma‘lumotiga ko‘ra, Navoiy bu shoirga ko‘p shafqatlar ko‘rsatgan ekan. Lekin u podshoh va amirlarning muhrlariga taqlid qilib, muhrlar yasab, yaramas xayollar bilan nishon, farmonlar yozishdek g‘ayriqonuniy ishlarga qo‘l urgan ekan.

39. Tarj.: Ko‘z yoshlardan dil noyob durrlarga to‘ldi, kelgil, Qorun xazinasini sen uchun nisordir.

40. Tarj.: Ey jonon, hammaga ozor berish va adovat qilish payida bo‘lma, chunki bu

xarob [bo‘lgan] olam shularning hech biriga arzimaydi.

41. Mavlono Ahliy — Muhammad Ahliy Sheroziy (tug‘.1455 vaf. 1435—36, Sheroz) shoir. “Sham’ va parvona”, “Sehriyi halal” nomli dostonlar yaratgan. Yosh hind ayolining eri vafotidan keyin o‘zini gulxanga tashlagani hikoya qilingan har ikkala doston ham she’riy san’atlarni ishlatish jihatidan g‘oyat murakkabdir. Salmon Sovajiyning «Qasidai masnu’»si yo‘lida Navoiyga, Ya’qubekka, uning ukasi Yusufbekka hamda Ismoil Safaviyga bag‘ishlagan qasidalari ham nihoyatda murakkab uslubda bitilgan. Ye.E.Bertel’s Ahliy Sheroziyning ham chapdan o‘ngga, ham yuqoridan pastga qarab o‘qish mumkin bo‘lgan bir ruboiysini keltiradi. Mana shunday mazmundan ko‘ra san’atlar istifodasiga o‘ta berishlik o‘sha davr adabiy jarayoniga xos bo‘lgan.

42. Tarj.: Men va Majnun ikki asirmiz, g‘am va shodligimiz bizniki. Har kimki, bu odatni bilmasa, bizning vodiyan emas.

43. Tarj.: Saodating ortg‘ay, davlating ziyoda bo‘lg‘ay. Bu davlat va saodat bilan ming yillar yashagaysen.

44. Mavlono Mu’in — bu shoirdan so‘ng Muhammad Qazviniy yana 40 nafar Sulton Ya’qub davridagi adabiy muhitga aloqador shoirlarni kiritadi.

45. Tarj.:—Shayxlik kiyimlari mayga garov bo‘ldi, shodmiz, chunki oxirda mayxona ko‘chasi boshida to‘n yechdik.

46. Tarj.: Labiga til olib borib, jonimga alanga urdi; yashirin o‘timdan shu’la zohir qildi.

47. «Dor ush-shifo» (Shifo saroyi) Hirotda Navoiy qurdirgai muolaja markazi, tibbiyot madrasasi ham deydilar.

48. Tarj.: Ko‘kragimga xanjar urgilu tandin boshni uloqtir, bu qorong‘u uyning (ya’ni, siynaning) eshigini va tuynugini ham och.

49. Tarj.: Ul oyning o‘qlaridan pora-pora bo‘limguncha, jahon bog‘ida lola va g‘unchadek ko‘nglim ochilmadi.

YETTINCHI MAJLIS

1. Temur Ko‘ragon—Amir Temur, Temurlang (tug‘. 1336, Shahrisabz —vaf. 1405, O‘tror) yirik arbob, sarkarda. Otasi Tarag‘oy barlos qabilasi zodagonlaridan. Temur temuriylar sulolasiga asos solgan va 1370—1507 yillar mobaynida barpo bo‘lgan temuriylarning markazlashgan davlati Movarounnahr va Xurosondan tashqari Eron, Iroq, Ozarbayjon va Hindustoning shimoliy qismini o‘z ichiga olgan edi.

Navoiy Temur shaxsiyati, faoliyatiga yuksak baho bergan. Bu majlisni shoir Temur nomi bilan ochat ekan, soʻzni joyi kelganda nazm va nasrdan biror narsa oʻqib, adabiyot sohasidan boxabar ekanligini namoyish eta bilganligidan boshlaydi.

2. Mironshoh — Jaloliddin Amiranshoh (1368—1408). Amir Temurning uchinchi oʻgʻli. Eron, Eron Ozarboyjoni va Iroq hukmdori. Ozarboyjon hukmdori Qora Yusuf bilan toʻqnashuvda halok boʻlgan. Uning naʼshi Tabriz yaqiniga dafn qilingan joydan Shahrisabzga keltirilgan va keyin Goʻri Amirga koʻchirilgan.

3. Tarj.: Qalandar qoʻrquvdan Qurʻonga chang soldi.

4. Shohrux Mirzo — qarang: ushbu kitob, 218-bet, 24-izoh.

5. Tarj.: Sen yerning ishini yaxshi bajarib, [endi] osmon [ishiga] kirishding.

6. Halil Sulton — qarang: ushbu kitob, 220-bet, 41-izoh.

7. Ulugʻbek Mirzo — qarang: ushbu kitob, 224-bet, 63-izoh.

8. Tarj.: Goʻzallik mulki qanchalik qoʻl ostingda boʻlsada, shoʻxlik qilmagilki, yomonlarning koʻzi seni kuzatmoqdalar.

9. Boysungʻur Mirzo — qarang: ushbu kitob, 247-bet, 28-izoh.

10. Tarj.: Ul ikki goʻzal yuzni koʻrmaganimga ikki oy boʻldi, biroq mehri jonimizdadir.

11. Tarj.: Boysungʻur uning yuziga qul boʻldi. Goʻzal yuz(li)larning quli — podshohdir.

12. «Lamaʻot» — arabcha: shuʻlalar demakdir (birligi lamʻa —yolqin, shuʻla, ravshanlik), Faxriddin Iroqiy (vaf. 688 y.) asari.

13. «Gulshani roz»—Sir gulshani, demakdir. Mahmud Shabustariyning nazmda yozilgan tasavvufga oid asari. (vaf. 1320—216.).

14. Tarj.: May bilan qadahni birlashtirganing uchun, aniq bilgilkn, qoʻli baland rindsan. Qadah — shariatdir, may— haqiqatdir. Qadahni sindirganingdan ayonki, badmastdirsan.

15. Abdullatif Mirzo — qarang: ushbu kitob, 223-bet, 60-izoh.

16. Tarj.: Koʻz bir qarash bilan dil va jonga yuz balo keltirdi. Buning shukrini nechuk qilay? Yorab, ul koʻz dard koʻrmagay!

17. Jahonshoh Mirzo Tabriz podshohi Jahonshoh Boroniy qoraqo‘ylik bo‘lsa kerak. Bobur ma‘lumotlariga ko‘ra, Jahonshohning o‘g‘li Muhammad Mirzo Sulton Mahmud (Abusaid Mirzoning uchinchi o‘g‘li, Sulton Ahmad Mirzo bilan tug‘ishgan) Mirzoning qizi Poshabegimni olgan edi, demak Jahonshoh Mirzo va Sulton Mahmud Mirzolar quda bo‘lganlar.
18. Tarj.: Toatda behad tirishqoqlik va ishlarda minnatsiz do‘stning lutfi tufayli dil haqiqiy murod hosil qildi.
19. Ya‘qub Mirzo — Iroq va Ozarbayjon hukmroni: Navoiy bilan yaqin do‘stona munosabatda bo‘lgan. Jomiy ham bu hukmdorga darin husni rag‘bat bilai qaragan va “Salomon va Absol” dostonini unga bag‘ishlagan. Ya‘qub Sulton boshchilik qilgan adabiy-madaniy muhitda ko‘plab shoir va yozuvchilar faoliyatda bo‘lganlar. Birgina «Majolis un-nafois»ning forsiy tarjimasida Faxriy Hirotiy shu muhitga mansub 40 ta shoir haqida ma‘lumot beradi. Navoiy e‘tiroficha, Ya‘qub Mirzo yaxshigina shoir, she‘riyat bilimdoni va uni qadrllovchi shaxs bo‘lgan.
20. Tarj.: Olamki, unda sabotni kam ko‘raman. Har bir xursandchiligida ming g‘am ko‘raman, chunki u xuddi ko‘hna rabotga o‘xshaydi, uning har tarafidan yo‘qlik biyoboniga bir yo‘l ko‘raman.
21. Sulton Ahmad Mirzo (tug‘. 855/1451—vaf. 899/1493—94) —Abusaid Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li. Uning xotini Mehr Nigorxonim Bobur Mirzoning onasi Qutluq Nigorxonimning egachisi edi. Bobur yozadi: «Sulton Ahmad Mirzo kamsuxan va faqir va odmi kishi erdi. Har so‘z-un va ish-kuch beklarsiz qaror topmas erdi... baland bo‘yluq, qunqor (qo‘ng‘ir) soqolliq, qnzil yuzluq... hanafiy mazhablik, pokiza e‘tiqod kishi erdi, besh vaqt namozini betark o‘tar erdi... Hazrati Xoja Ubaydullo (Xoja Ahror)ga irodati bor edi».
22. Tarj.: Agar oy (yuzligim) bundan keyin (ham) pinhon qoladigan bo‘lsa, bedillarning omon qolishi ajablanarlidir.
23. Tarj.: Na go‘zalki, husnning jilosi jahonga yoyildi uning bu jilvasi tufayli bizning jonimiz shaydo bo‘ldi.
24. Kichik Mirzo — qarang: shu kitob, 286-bet, 67-izoh.
25. Tarj.: O‘zimni umr bo‘yi yaxshilik bilan maqtardim, o‘zimni taqvodorlik yo‘liga solardim; Ishq kelgach, na taqvodorlik qoldi va na yaxshilik. Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim;
26. «...bu ruboiy xazrat Maxdumiy Nuran bila Tavorud voqe‘ bo‘lubtur». Tavorud —

adabiyotda misra' yo baytni bir-biridan xabarsiz ikki shoir tomonidan yaratilib qolish hodisasini anglatadi. Kichik Mirzoning bu ruboiysi Jomiy she'ri bilan tavorud voqe' bo'lganini Navoiy ko'rsatib o'tadi.

27. Sulton Badiuzzamon Mirzo — qarang: shu kitob, 253-bet, 112 izoh.

28. Tarj.: Ey oy [yuzli go'zalim], gul yuzingsiz yuragim loladek qon bog'ladi. Jigar ham hajring g'amidin pora-pora bo'ldi,

29..Shoh G'arib Mirzo—Husayn Boyqaroning o'g'li. Bobur yozadi: «...bukri edi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. «G'aribiy» taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi». Husayn Boyqaro Hirotdan biror yoqqa otlansa, hukmronlikni Shoh G'arib Mirzoga qoldirar ekan. Navoiy «Farhod va Shirin» oxirida Shoh G'arib Mirzoga alohida bob ajratadi. Unda shahzodaning yaxshi fazilatlarini, ilm-fan, ma'rifatga tashnaligini ta'riflaydi va mamlakat hamda xalq taqdiriga aloqador shaxs sifatida diniy bilimlarni (fiqh, hadis va tafsirni), hikmatni, ayniqsa, tarixni o'rganishni nasihat qiladi.

Faxriy Hirotiy yozishicha, hirotlik bir shoir «G'aribiy» taxallusini olganda Husayn Boyqaro o'g'lining xotiri uchun uning taxallusini «Majlisiy»ga o'zgartirgan ekan.

Navoiy Shoh G'arib Mirzo vafotiga har bandi 6 baytdan iborat 5 bandli (60 misra') tarkibband marsiya yozgan. Unda marhumning kamtar va shirinso'z inson, adolatli va lutf marhamatli shahzoda, zakovatli shoir bo'lgani qayd etiladi. Bu marsiya birinchn marta 1971 yilda (Adabiy meros, 2) H.Sulaymonov tomonidan nashr etildi.

30. Tarj.: Do'stlar, goho mozorim tomon kelib turing; Menga fotixa o'qish o'rniga yorimning duoi jonini qiling.

31. Faridun Husayn Mirzo — Husayn Boyqaroning o'g'li. Bu shahzoda haqida Bobur yozadi: «Yoyni yaxshi tortib, o'qni yaxshn otar edi. Kamon guruhasin derlarkim, qirq botmon ekandur. O'zi xili mardona edi, vale feruzjang emas edi. Har yerdakim, urushti, mag'lub bo'ldi». Faridun Husayn Mirzo Shayboniyxong'a qarshi janglardan birida halok bo'lgan.

32. Tarj.: Garchi sening ko'zingda meni jafo ezib yuborgan esa-da azbaroi xudo vaf o'zidan bir qilcha chetga chiqqanim yo'q.

33. Muhammad Husayn Mirzo — Husayn Boyqaroning o'g'li. Faridun Husayn Mirzo bilan bir tug'ishgan. Onalari o'zbeklardan Minglibiy og'acha edi. Boburga qarshi fitnalarda, janglarda qatnashgan. Lekin Bobur qo'liga tushganda, qonidan kechib, ozod qilib yuboradi. Keyin u Shayboniyxondan panohtopib, Bobur haqida g'iybatlar qilib

yurganini Bobur taassuf bilan yozadi. Oz fursat o'tmay Shayboniyxon Muhammad Xusayn Mirzoni qatl qildiradi.

34. Tarj.: Ov ketidan yurib, changga botding; haroratli dil ketiga tushib, terga g'arq bo'lding.

35. Boysing'ur Mirzo (1477—1499)—Abusaid Mirzoning o'g'li Sulton Mahmudning ikkinchi o'g'ln, onasi Poshabegim. Otasi davrida Buxoroda hukmron bo'lgan va Samarqand taxtida o'tirgan. Og'a-inilari bilan chiqisha olmay Xusravshoh huzuriga kelgan va tez orada qatl etilgan.

36. Tarj.: Koshki edi sanamlar ishkida biror kim devona bo'lsa Olamni tark etib, vayronada bo'lsa biror kishi.

37. Sulton Mas'ud Mirzo — Abusaid Mirzoning nabirasi, Sulton Mahmud Mirzoning to'ng'ich o'g'li, onasi Xonzodabegim. Otasi davrida Hisorda hukmronlik qilgan. Feodal yurishlari o'zaro nizolar oqibatida Xusravshoh Sulton Mas'ud Mirzoning ko'zlariga mil tortib, ko'r qilgan, bu voqeadan so'ng Xusayn Boyqaro unga qizi Begim Sultonni bergan edi. Sulton Mas'ud Mirzoni Shayboniyxon qatl ettirgan.

38. Sulton Ali Mirzo — Sulton Mahmud Mirzoning kichik o'g'li, onasi Zuxrabegim. Og'asi Boysung'ur Mirzodan keyin 1499 yil o'rtalarida Samarqand taxtiga o'tirgan. Shayboniyxon 1500 yilda Samarqandni egallagach, Sulton Ali Mirzoni uning buyrug'iga binoan qatl etganlar.

39. Jamshid — Eronning afsonaviy shohi. U qurol-aslaha, ipak va ranglar ixtiro' qilgan, ulkan va hashamdor binolar qurdirgan ekan. Navoiy «Tarixi mulki Ajam»da yozishicha, Jamshid pichoq va qalqon yasagan, hammom qurdirgan. Nihoyatda ulug' «Chihil minor» deb atalgan bino solib, kun va tun teng kelgan kunda o'sha binoda taxtda o'tirib, barchaga adolat qilgani uchun shu kunning otini Navro'z qo'ygan ekanlar. Bu yerda Jamshid deganda Navoiy Husayn Boyqaroni va boshqa temuriy shoh, shahzodalarni nazarda tutmoqda.

40. Faridun— qadimgi Eron shohlaridan. Ba'zi manbalarda u Jamshidning nabirasi, ba'zilarida esa uning birodari Taxmuras avlodidan deb qayd qilinadi. Faridun zolim va odamxo'r, Jamshidning qotili Zakhokka qarshi temirchi Kova (Kovai ohangar) isyoniga qo'shilib, uni mahv etadi.

Navoiy «Tarixi mulki Ajam»da Faridunni «yaxshi axloqli olim va odil podshoh erdi» deb ta'riflaydi. Bu yerda ham Faridun fazilatlarini shu majlisda nomlari zikr etilgan temuriy hukmron va shahzodalarda bo'lgan va ularning ba'zilariga falak Jamshid va Faridun kabi taqdirning ajal jomini ichirdi, deydi Navoiy.

SAKKIZINCHI MAJLIS

1. Rustam — Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sidagi qahramon, Eron fol'kloridagi mashhur obraz. Oʻrta va yaqin Sharq xalqlarida ham shuhrat qozongan. Rustam xalqparvar, Vatanni sevuvchi, mardlik va shijoatda bemisl pahlavondir. Uning nomi keyinchalik qahramonlik ramziga aylanib ketgan.

Rustamning dunyoga kelishi va unga ism qoʻyilishi haqida Firdavsiy shunday hikoya qiladi: Zolning xotini Rudoba homilani gʻoyat ogʻir koʻtaradi. Oy-kuni yaqinlashganda dard boshlanishi bilan hushidan ketadi. Sarosimaga tushgai Zol afsonaviy qush Simurgʻ yordami bilan jarroh topib keladi. Jarroh onaning yonini kesib, bolani oladi. Hushiga kelgan Rudoba yonida gʻoyat boʻlalik bolani koʻrib, xursan holda «Rustam!» deydi. Forsiyda bu soʻz azobu darddak xalos boʻldim, degan maʼnoni anglatadi. Onaning ogʻzidan chiqqan ana shu birinchi soʻzni oʻgʻilga ism qilib qoʻyadilar.

Navoiy bu yerda Husayn Boyqaroning muruvvatligi va bahodirligini Rustamga qiyos qiladi.

2. Hotam — Abusafona Hotam ibni Abdulloh ibni Saʼdi Toyi. Taxminan VI asr oxirlari VII asr avvallarida yashagan arab shoiri. Xalq orasida Xotamtoy nomi bilan mashhur. Uning bizgacha yetib kelgan bir qancha sheʼrlarini toʻplab, arab adibi va xattot Rizqulloh Hassun 1872 yilda Londonda nashr etdirgan. Hotam haqida Sharqda juda koʻp afsonalar va rivoyatlar, qissa va dostonlar mavjud. Xotam nomi Saxovat ramziga aylanib ketgan. Bu yerda Navoiy Husayn Boyqaroni ham shoirlikda, ham saxovatda Hotamga oʻxshatadi.

3. «Nasabnoma» — Husayn Boyqaroning shajarasi, tarjimai holi haqidagi asar. Navoiy asar muallifining nomini keltirmaydi.

4. Iso — paygʻambarlardan biri. Laqabi Masih. Diniy afsonalarda Iso oʻz nafasi bilan oʻlganlarni tiriltirish, ularga jon bagʻishlash qobiliyatiga ega boʻlgan, deyiladi. Bu yerda shoir yor labi qarshisida obi hayot xijolatda ekanligi, nafasi Iso nafasidek jon bagʻishlovchi demoqchi boʻladi.

5. Masiho — qarang: Iso, yuqoridagi izoh.

6. Sheʼriy sanʼatda «tarjeh» bir narsani yoxud biror obrazni boshqa narsa yo obrazdan baland qoʻyib taʼriflashni anglatadi. Bu baytda shoir oʻz sevgilisi koʻzlarini nargis gulidan, ogʻzini gʻunchadan afzal deb taʼriflaydi.

7. Nuʼmon — arablardagi Toif shahri yaqinidagi daryoning nomi. Aftidan, shu yerlarda ungan lolaning rangi va undagi dogʻ taʼrifga loyiq boʻlsa kerak.

8. «Tajohil ul-orif» sheʼriy sanʼat boʻlib, lugʻaviy maʼnosi bilib bilmaslikka olishlikni anglatadi. Sheʼriyatda shoir iztirobli, hayajonli lahzalarda oʻzi oʻziga savol berib, javobda fikrlarini yanada teranlashtiradi, adoni taʼsirliroq qiladi. Bu baytda shoir yorning tabassumini gʻunchaning ochilishi emas, loladagi dogʻ emas uni mening koʻnglim qonatdi der ekan, ana shu sanʼatning bir koʻrinishini namoyon etadi.

9. Bu baytda Husayn Boyqaro sheʼr sanʼatidagi «talmeh» (lugʻ. maʼnosi: yashin chaqnashi, koʻz qirini bir narsaga dafʼatan qaratish demakdir)ni ishlatgan. Bu sanʼatda tarixiy shaxslar, voqia, qissa, afsonalarga va ulardagi personajlarga ishora qilmoqni anglatadi. Baytdagi Farhod va Majnunlar ana shunday qahramonlardandir.

10. Yaqiniy — qarang: ushbu kitob, 240-bet, 124-izoh.

11. Bu baytda ham «talmeh» sanʼati ishlatilgai. Vomiq — «Vomiq va Azro» nomida 20 dan ziyod dostonlar mavjud. Asli yunonga borib taqaluvchi bu turkum dostonlardan ilk namunalar VI asrlarda uchraydi XI asrda fors shoiri Unsuriy «Vomiq va Azro» nomli doston yaratgan. (Vomiqning maʼnosi doʻstlashuvchi, doʻsti borni anglatadi, Azro esa bokira maʼshuqa deganidir). Keyinchalik koʻp shoirlar shu nomda doston yaratganlar. Bu dostonlarning mazmunida farqlar oz boʻlib, faqat birida Vomiq Yaman shohining oʻgʻli, Azro Hijoz hokimining qizi, boshqasida esa turli mamlakatlar hukmronlarining farzandlari sifatida qalamga olinadi.

12. «Bu sheʼrning qofiyasidan soʻngra «atv vovin» kalimaning asl harfi oʻrnigʻa tutulib, gʻarib ixtiroʻ qilibdur» — «atv vovi» «va» bogʻlovchisini anglatadi. Baytda shoir «ey jafu tigʻi, kel va majruh koʻksumni yor» deyish oʻrniga «va»ni yor soʻzidagi asosiy harflarga tutash yozgan. Navoiy buni ajoyib ixtiroʻ deb baholaydi. Navoiyning «Favoyid ul-kibar» devonida xuddi shunday sanʼat ishlatilgan gʻazal bor boʻlib, matlai shunday:

Ey sabo, ovvora koʻnglum istayu har yon boru,

Vodiyu togʻu biyobonlarni bir-bir axtaru.

13. «Majolis» soʻngidagi bu «Xilvat» deb berilmish ikki lavha: Husayn Boyqaro huzurida oʻtadigan adabiy anjumanlar (Navoiy «Oliy majlis» deydi) haqida, ularda yangi sheʼrlar, badiiyat masalalari muhokama qilinishi haqida tasavvur yaratib beradi. Birinchi lavhada Navoiy Xusrav Dehlaviyning hindcha sheʼrlaridagi bir maʼno yomgʻir rishtasining nozik yorga madad boʻlganligi haqidagi Lutfiydan eshitgan hikoyat va unga eʼtiroz bildirgan Husayn Boyqaromana bu bayt esa eʼtiroz uygʻotmaydi, deb bir baytni keltiradi. Bu bayt Husayn Boyqaro devonidan topilmadi. Uning Navoiy ilk devonidagi bir gʻazal tarkibida mavjudligiga bizning eʼtiborimizni prof. H.Neʼmatov tortdi. Faqat «Majolis»da «devorgʻa» soʻzi devonda «devorda» tarzida yozilgan.

Ikkinchi lavhada esa hisorlik yosh shoir Qabuliy gʻazali bilan bogʻliq boʻlib, shoir

she'rida chiqmay qolgan bir baytni Navoiy yozib bergani va Husayn Boyqaro bu xolni darhol payqagani haqida so'z boradi. Bu lavha Husayn Boyqaro Navoiy she'riy uslubini naqadar puxta bilganligi, shuningdek, yosh iste'dodlarga marhamatli bo'lganligidan dalolat beradi.